



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMIC

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2025-yil 4-son

Volume 4, Issue 4, 2025



**MEHNAT IQTISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 4-2025

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro’yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko’chasi, 49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog’lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:
(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:
(Members of the Editorial Board)

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadiyevich, i.f.d., prof.
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof.
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof.
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., prof.
Irmatova Aziza Baxramovna, i.f.d., prof.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:
(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federatsiyasi)
Xeynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muharrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Ijrochi muharrir (Executive Editor): Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi

Veb-administrator (Web admin): Mamatxo'jayev Otabek

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

S.B.G'oyipnazarov	<i>Ish bilan bandlik sifatini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari va rivojlanish yo'nalishlari</i>	6-17
S.P.Qurbonov	<i>Ish bilan unumli bandlik darajasini baholashda institutsional, inklyuzivlik va hududiy xususiyatlar</i>	18-29
Z.Y.Juliyev	<i>Preparing Uzbekistan's labour force for WTO integration: risks and policy directions</i>	30-40
Sh.Sh.Iskandarov	<i>Aholi bandligini ta'minlashda oliy ta'lim xizmatlarining vazifalari</i>	41-50
M.A.Jumayeva	<i>Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv tadbirkorlik bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning bibliometrik tahlili (R dasturi asosida)</i>	51-60

INSON KAPITALI

Sh.V.G'aniyev	<i>Kredit-modul tizimini jahon tendensiyalariga tenglashtirish</i>	61-69
S.R.Xolbayeva	<i>Рост охвата высшим образованием как фактор безработицы</i>	70-82
J.B.Shaymanov B.B.Quvondiqov	<i>Inson kapitali va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'рни...</i>	83-91

INSON TARAQQIYOTI

N.A.Axmedova	<i>Aholi daromadlarini oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirining hozirgi holati tahlili</i>	92-101
A.F.Abdullayev	<i>O'zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorining rivojlanish holati: 2017-2024 yillar tahlili ...</i>	102-110
D.B.Fayziyeva	<i>Minimal ish haqi siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini</i>	111-119
J.K.Karimov	<i>Davlat iqtisodiyoti xavfsizligining tuzilmaviy komponentlarini aniqlashga yondashuvlarni ishlab chiqish</i>	120-128
J.K.Karimov	<i>Globalashuv muammolari sharoitida iqtisodiy xavfsizlik indeksini iqtisodiy va matematik modellashtirish</i>	129-139

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

S.S.Amirdjanova	<i>Риски и угрозы попадания в бедность среди занятого населения</i>	140-148
------------------------	---	---------

MIGRATSIYA

Z.T.Jumanova J.X.Abdikayumov	<i>Iqtisodiyotga turizmning bevosita ta'sirini tanlanma kuzatuvlar asosida statistik baholash</i>	149-159
---	---	---------

INSON RESURLARINI BOSHQARISH

M.Sh.Axmedov	<i>Korxonalarda KPI orqali ishchilarni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish masalalari</i>	160-170
K.A.Ibroximova I.A.Imomov	<i>Mechanisms for improving personnel management in enterprises to enhance financial sustainability</i>	171-183
J.R.Mansurov	<i>Turistik korxonalarda HR texnologiyalarini joriy etishning samaradorlik ko'rsatkichlari</i>	184-194
M.G'.Qaxramonova	<i>Kadrlar qo'nimsizligi darajasini pasaytirishda xorijiy kompaniyalar tajribalaridan O'zbekiston mehnat bozorida foydalanish imkoniyatlari</i>	195-206

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

T.Djurayev	<i>Моделирование прогнозирования развития агропромышленного комплекса</i>	207-216
J.I.Islomov	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini yuritishning yangi yondashuvlari</i>	217-226
N.O.Jumaniyazov S.J.Xudayorova	<i>Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o'zgarishlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari</i>	227-237
N.O.Jumaniyazov N.Z.Matmuratova	<i>Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o'zgarishlarini takomillashtirish strategiyasi</i>	238-247
N.O.Jumaniyazov	<i>Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o'zgarishlarini takomillashtirish yo'llari</i>	248-258
U.U.Raxmatullayev	<i>Kichik biznesni eksport salohiyatini oshirish obyektiv zarurati</i>	259-267
T.M.Urakov	<i>O'zbekiston Respublikasi yashil iqtisodiyotda milliy shaffoflik tizimi</i>	268-275

A.A.Shomirov	<i>Iqtisodiyotga qimmatli qog'ozlar bozori orqali portfel investisiyalar jalb qilishning obyektiv zarurligi.....</i>	276-285
A.A.Abdugahorov	<i>Kichik va o'rta biznes subyektlari eksport salohiyatini oshirishda kichik sanoat zonalarining o'rni</i>	286-295
I.Sh.Ibroximov	<i>Chakana bank xizmatlarida servis sifatini baholash ko'rsatkichlari tizimi</i>	296-307
N.I.Isakova Z.T.Jumanova	<i>Turizm bozori jozibadorligini statistik baholash va uni marketing strategiyalarida qo'llash uslubiyoti</i>	308-314



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



ISH BILAN BANDLIK SIFATINI OSHIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH YO`NALISHLARI

G`oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

TDIU professori

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a209

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ish bilan bandlik sifati tushunchasining nazariy va amaliy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda bandlik sifatining asosiy tarkibiy elementlari – daromad barqarorligi, mehnat sharoitlari, ish bilan bandlikning rasmiyligi, ijtimoiy himoya, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari hamda mehnat va hayot muvozanati chuqur o`rganilgan. Ish bilan bandlik sifati past bo`lgan sharoitlarda mehnat unumdorligining pasayishi, inson kapitali rivojining sekinlashuvi va kambag`allik darajasining oshib borishi kabi salbiy oqibatlar ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida ish bilan bandlik siyosatini takomillashtirish va sifatli bandlikni kengaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so`zlar: ish bilan bandlik sifati, munosib mehnat, mehnat bozori, barqaror bandlik, inson kapitali, ijtimoiy himoya.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ЗАНЯТОСТИ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ

Гойипназаров Санжар Баходирович

Профессор ТГЭУ

Аннотация. В данной научной статье всесторонне анализируются теоретические и практические аспекты концепции качества занятости. В исследовании глубоко изучаются основные структурные элементы качества занятости – стабильность дохода, условия труда, формальность занятости, социальная защита, возможности профессионального развития и баланс между работой и личной жизнью. В условиях низкого качества занятости научно выделены негативные последствия, такие как снижение производительности труда, замедление развития человеческого капитала и рост бедности. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по совершенствованию политики занятости и расширению качественной занятости.

Ключевые слова: качество занятости, достойная работа, рынок труда, стабильная занятость, человеческий капитал, социальная защита.

SOCIO-ECONOMIC FACTORS AND DEVELOPMENT DIRECTIONS OF IMPROVING THE QUALITY OF EMPLOYMENT

Goyipnazarov Sanjar Bakhodirovich

Professor of TSUE

Abstract. This scientific article comprehensively analyzes the theoretical and practical aspects of the concept of quality of employment. The study deeply studies the

main structural elements of employment quality - income stability, working conditions, formality of employment, social protection, professional development opportunities, and work-life balance. In conditions of low quality of employment, negative consequences such as reduced labor productivity, slowed development of human capital, and increased poverty are scientifically highlighted. Based on the results of the study, practical recommendations were developed to improve employment policy and expand quality employment.

Keywords: quality of employment, decent work, labor market, stable employment, human capital, social protection.

Kirish

So'nggi o'n yilliklarda mehnat bozori rivojlanishida sifat omili muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Dastlab bandlik muammosi asosan ish o'rinlari yetishmasligi bilan izohlangan bo'lsa, hozirgi bosqichda ish bilan bandlikning sifati masalasi ustuvor yo'nalishga aylandi. Chunki iqtisodiy o'sish sharoitida ham past daromadli, norasmiy va beqaror ish o'rinlarining saqlanib qolishi aholi farovonligini ta'minlashga yetarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Ish bilan bandlik sifati insonning faqat mehnat jarayonida ishtirok etishini emas, balki uning iqtisodiy xavfsizligi, ijtimoiy himoyasi va kasbiy salohiyati qanchalik ta'minlanganligini ifodalaydi. Sifatli bandlik mavjud bo'lgan jamiyatda inson kapitali rivojlanadi, mehnat unumdorligi oshadi va iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi. Aksincha, sifatsiz bandlik ustun bo'lgan sharoitlarda kambag'allik xavfi kuchayadi, mehnat migratsiyasi ortadi va ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori tub tarkibiy o'zgarishlar bosqichiga kirib bormoqda. Iqtisodiyotning liberallasuvi, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar hamda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli davlat dasturlari natijasida ish bilan band aholi soni oshib bormoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ish bilan bandlikning miqdoriy o'sishi har doim ham aholi farovonligining barqaror oshishiga olib kelmayapti. Shu sababli, bugungi kunda O'zbekiston mehnat bozori uchun ish bilan bandlik darajasidan ko'ra uning sifati masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida demografik omillar mehnat bozoriga kuchli bosim ko'rsatishi jumladan, aholining umumiy soni va ayniqsa mehnatga layoqatli yoshlar ulushining yuqori bo'lishi yangi ish o'rinlariga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Ushbu sharoitda ish bilan bandlikni ta'minlashning o'zi yetarli bo'lmay, yaratilayotgan ish o'rinlarining barqarorligi, daromad yetarliligi va ijtimoiy himoyalanganligi muhim masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, yoshlar va ayollarning ish bilan bandligida sifat omilining yetarlicha ta'minlanmaganligi mehnat bozorida strukturaviy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda o'zini o'zi ish bilan band qilish shakllari kengayib bormoqda. Bu holat bir tomondan ishsizlik darajasini kamaytirishga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ish bilan bandlik sifatiga oid

qator muammolarni yuzaga chiqarmoqda. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning muayyan qismi barqaror daromad va ijtimoiy kafolatlardan chetda qolmoqda. Natijada ish bilan bandlik mavjud bo‘lsa-da, uning sifati past bo‘lib qolmoqda va bu holat uzoq muddatda kambag‘allik xavfining saqlanib qolishiga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosatida ish bilan bandlikning sifati masalasi markaziy o‘rin egallamoqda. Mamlakatda “mahalla” tizimi asosida ish bilan bandlikni qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlari joriy etilmoqda. Biroq ushbu mexanizmlarning samaradorligi ko‘p jihatdan yaratilayotgan ish o‘rinlarining sifati bilan belgilanadi. Agar ish o‘rinlari past daromadli, beqaror va ijtimoiy himoyasiz bo‘lsa, ularning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi cheklangan bo‘lib qoladi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasi O‘zbekiston mehnat bozori uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Tashqi migratsiyaning yuqori darajasi ichki mehnat bozorida sifatli ish o‘rinlariga bo‘lgan ehtiyoj yetarli darajada qondirilmayotganidan dalolat beradi. Aholining muayyan qismi chet elda ishlash orqali yuqoriroq daromad va barqarorlikka erishishga intilmoqda. Bu esa ichki mehnat bozorida ish bilan bandlik sifatini oshirish masalasini yanada dolzarb qiladi.

Yuqoridagi holatlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida ish bilan bandlik sifati faqat iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida emas, balki ijtimoiy barqarorlik, kambag‘allikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu boisdan, ish bilan bandlik sifatini ilmiy asosda chuqur o‘rganish, uning shakllanish mexanizmlarini aniqlash va takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston mehnat bozorida bandlik sifatining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda sifatli bandlikni kengaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, uning natijalari bandlik siyosatini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ish bilan bandlik sifati tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar asosida izohlangan. Klassik iqtisodiy nazariyalarda bandlik asosan ish haqi va mehnat bozoridagi talab-taklif muvozanati bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Keyinchalik institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar rivojlanishi bilan bandlik sifatiga oid qarashlar kengaydi.

Ko‘plab xorijiy tadqiqotlarda bandlik sifati “munosib mehnat” konsepsiyasi bilan bog‘liq holda yoritiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ish bilan bandlik sifati daromad yetarliligi, mehnat sharoitlari xavfsizligi, ijtimoiy kafolatlar va inson huquqlarining ta‘minlanganligi bilan belgilanadi. Ayrim

tadqiqotchilar bandlik sifatini ko‘p o‘lchovli ko‘rsatkich sifatida baholab, uning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlarini alohida tahlil qilgan.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda esa ish bilan bandlik sifati masalasi ko‘proq bandlik siyosati, o‘zini o‘zi ish bilan band qilish va kichik biznesni rivojlantirish kontekstida o‘rganilgan. Biroq, mavjud tadqiqotlarda bandlik sifatining ichki tuzilmasi va uning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy ta‘siri yetarli darajada chuqur ochib berilmagan. Shu sababli, ushbu maqolada bandlik sifati masalasini tizimli va kompleks yondashuv asosida yoritish maqsad qilingan.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti hujjatlarida bandlik sifati quyidagicha izohlanadi: “Munosib mehnat – bu inson uchun samarali va munosib daromad keltiruvchi, ijtimoiy himoyalangan va shaxsiy rivojlanish imkonini beruvchi mehnat faoliyatidir”.¹ Ushbu ta‘rif bandlik sifatining ko‘p qirrali mohiyatini ochib beradi va uning iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatlarini bir butun tizim sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Amerikalik iqtisodchi Joseph Stiglitz bandlik sifati masalasini iqtisodiy tengsizlik muammosi bilan bog‘lab, shunday ta‘kidlaydi: “Past sifatli ish o‘rinlari hukmron bo‘lgan iqtisodiyotda yalpi o‘sinh bo‘lishi mumkin, ammo bu o‘sinh jamiyatning aksariyat qismi uchun farovonlik keltirmaydi”.² Ushbu fikr bandlik sifatining inklyuziv iqtisodiy o‘shisdagi o‘rnini ilmiy asosda yoritadi.

Inson rivojlanishi nazariyasining yetakchi vakili Amartya Sen esa bandlikni inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim institut sifatida ko‘radi. Uning fikricha: “Mehnat nafaqat tirikchilik vositasi, balki inson erkinliklari va imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy omildir”.³ Ushbu yondashuv bandlik sifatini baholashda kasbiy rivojlanish, o‘zini namoyon qilish va ijtimoiy integratsiya kabi omillar muhim ekanini ko‘rsatadi.

Yevropa tadqiqotchilari bandlik sifatini mehnat unumdorligi va innovatsion rivojlanish bilan bog‘laydi. Ularning ilmiy ishlarida sifatli bandlik mavjud bo‘lgan sharoitda texnologik yangilanish tezlashishi, ishchi kuchining moslashuvchanligi va iqtisodiy raqobatbardoshlik oshishi asoslab berilgan. Bu yondashuv bandlik sifati makroiqtisodiy barqarorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

MDH mamlakatlari olimlari ish bilan bandlik sifati masalasini asosan o‘tish davri iqtisodiyotlariga xos muammolar kontekstida o‘rganadi. Ushbu tadqiqotlarda norasmiy bandlik, past ish haqi va mehnat bozorining institutsional zaifliklari asosiy e‘tibor markazida turadi.

Rossiyalik mehnat iqtisodchisi R. Kapelyushnikov norasmiy bandlikning salbiy oqibatlarini tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladi: “Norasmiy bandlik iqtisodiyotga qisqa muddatli moslashuvchanlik bersa-da, uzoq muddatda

¹ ILO. World Employment and Social Outlook. ISBN 9789220400425 (pdf). 2024

² Joseph E. Stiglitz. Technological change, the future of jobs and development. 2023.

³ SEN, A. (2013) “Work and rights”, *International Labour Review*. 152(0). doi: <https://doi.org/10.1111/j.1564-913X.2013.00164.x>

ijtimoiy himoya va iqtisodiy xavfsizlikni yemiradi”.⁴ Ushbu fikr MDH mamlakatlarida bandlik sifati pastligining tizimli muammolarini ochib beradi.

Yana bir taniqli olim V. Gimpelson bandlik sifatining daromadlar tengsizligiga ta’sirini ta’kidlab, shunday yozadi: “Sifatli va barqaror bandlikning kengayishi ijtimoiy tabaqalanishni kamaytirishning eng samarali vositalaridan biridir”.⁵ Bu yondashuv bandlik sifatining ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi rolini ko’rsatadi.

O’zbekistonlik olimlar ish bilan bandlik sifati masalasini mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan bevosita bog’lab o’rganadi. Mahalliy adabiyotlarda bandlik sifati kambag’allikni qisqartirish, aholi daromadlarini barqarorlashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim sharti sifatida talqin qilinadi.

Iqtisodchi olim K. Abdurahmonov bandlik sifatiga quyidagicha baho beradi: “Faqat ish bilan bandlikni ta’minlash yetarli emas, muhim masala – ushbu bandlikning barqarorligi va ijtimoiy kafolatlanganligidir”.⁶ Bu fikr O’zbekiston sharoitida bandlik siyosatining sifat omiliga yo’naltirilishi zarurligini asoslaydi.

Yana bir iqtisodchi olim S.Qurbonov Imiy tadqiqotlari O’zbekiston mehnat bozori rivojlanishining zamonaviy bosqichida bandlikning miqdoriy emas, balki sifat jihatlariga ustuvor e’tibor qaratish zarurligi g’oyasiga asoslanadi. Olimning ta’kidlashicha, band aholi sonining o’sishi o’z-o’zidan iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlab bermaydi; aksincha, bandlikning unumdorligi, barqarorligi, daromadliligi va ijtimoiy himoyalanganligi asosiy mezon bo’lishi lozim. Unga ko’ra, unumli bandlikni faqat daromad keltiruvchi faoliyat sifatida emas, balki quyidagi mezonlarni o’zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qiladi:

- mehnat natijasida yaratilayotgan qo’shilgan qiymat;
- ishchi kuchi malakasidan to’liq va samarali foydalanish;
- bandlikning barqarorligi va davomiyligi;
- daromadning yashash minimumidan yuqori bo’lishi;
- mehnat faoliyatining rasmiyligi va ijtimoiy kafolatlanganligi.⁷

Olimning fikricha, norasmiy va past unumli bandlik qisqa muddatda bandlik ko’rsatkichlarini yaxshilagandek ko’rinsa-da, uzoq muddatda mehnat unumdorligi pasayishi, kambag’allikning chuqurlashuvi va inson kapitali degradatsiyasiga olib keladi.

⁴ Rostislav I. Kapeliushnikova, The Russian labor market: Long-term trends and short-term fluctuations. Russian Journal of Economics 9 (2023) 245–270 DOI 10.32609/j.ruje.9.113503 Publication date: 3 October 2023

⁵ Vladimir Gimpelson. Polarization or Upgrading? Evolution of Employment in Transitional Russia. Discussion Paper No. 8688 December 2014.

⁶ Abdurahmanov K.Kh, Labor economy: Theory and practice / Textbook. Revised and supplemented 3rd edition. Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan "FAN" publishing state enterprise, -T: 2019. -385 p

⁷ Kurbonov Samandar Pulatovich. (2025). THE IMPORTANCE OF THE MINIMUM WAGE IN INCREASING PRODUCTIVE EMPLOYMENT OF THE POPULATION. *Labor Economics and Human Capital*, 4(1), 27–36. Retrieved from <https://laboreconomics.uz/index.php/lehc/article/view/42>

Shuningdek, mahalliy ilmiy tadqiqotlarda hududlar kesimida bandlik sifati farqlari mavjudligi ta’kidlanadi. Qishloq hududlarda past daromadli va mavsumiy bandlik ustunligi bandlik sifatining past bo’lishiga olib kelayotgan asosiy omillardan biri sifatida qayd etiladi

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot sifatli va miqdoriy tahlil usullarini uyg’unlashtirgan holda olib borildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini tizimli yondashuv tashkil etib, bunda ish bilan bandlik sifati mehnat bozorining tarkibiy qismi sifatida ko’rib chiqildi.

Mantiqiy tahlil usuli orqali bandlik sifati tushunchasining nazariy asoslari aniqlashtirildi va uning asosiy komponentlari tizimlashtirildi. Qiyosiy tahlil yordamida sifatli va sifatsiz bandlikning iqtisodiy oqibatlari solishtirildi. Iqtisodiy-statistik yondashuv orqali bandlik sifati va daromad barqarorligi, mehnat unumdorligi hamda kambag’allik darajasi o’rtasidagi o’zaro bog’liqliklar baholandi.

Shuningdek, institutsional yondashuv asosida mehnat bozorini tartibga soluvchi mexanizmlar va ularning bandlik sifatiga ta’siri o’rganildi. Tadqiqot davomida induktiv va deduktiv usullar qo’llanilib, umumiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari ish bilan bandlik sifati ko’plab omillar ta’sirida shakllanishini ko’rsatdi. Eng avvalo, daromad barqarorligi bandlik sifatining asosiy mezon sifatida namoyon bo’ladi. Past va beqaror daromadga ega ishlar qisqa muddatli bandlikni ta’minlasa-da, uzoq muddatda iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlay olmaydi. Bu holat aholining norasmiy bandlikka yoki mehnat migratsiyasiga moyilligini oshiradi.

Mehnat sharoitlarining sifati ham bandlik sifatiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Xavfsiz va qulay ish sharoitlari mavjud bo’lmagan hollarda mehnat unumdorligi pasayadi, sog’liq bilan bog’liq xatarlar ortadi va ishchi kuchining tiklanish imkoniyatlari cheklanadi. Ijtimoiy himoya tizimidan tashqarida qolgan bandlik shakllari esa iqtisodiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari mavjud bo’lmagan ish o’rinlari inson kapitalining to’liq shakllanishiga to’sqinlik qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, malaka oshirish va martaba o’sishi ta’minlangan ish o’rinlari iqtisodiy o’sishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Aksincha, rivojlanish imkoniyati cheklangan bandlik turlari uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi.

O’zbekistonda so’nggi yillarda mehnat bozorida ijobiy miqdoriy siljishlar kuzatilmoqda. Jumladan, ish bilan band aholi soni yildan-yilga ortib bormoqda, ishsizlik darajasi esa nisbatan pasayish tendensiyasiga ega. Biroq chuqur tahlil shuni ko’rsatadiki, ushbu miqdoriy ijobiy o’zgarishlar bandlik sifatining mutanosib yaxshilanishi bilan birga kechmayapti. Bandlik sifati masalasi O’zbekiston sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka bevosita

ta'sir ko'rsatuvchi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Statistik kuzatuvlarga ko'ra, O'zbekistonda bandlikning asosiy qismi norasmiy sektor va o'zini o'zi band qilish shakllari hisobiga kengaymoqda. Bu holat bir tomondan ishsizlik bosimini yumshatsa-da, ikkinchi tomondan bandlik sifatining pasayishiga olib kelmoqda.

1-jadval

Ish bilan bandlikning miqdoriy va sifat tarkibi bo'yicha umumiy holati

Ko'rsatkichlar	Baholash natijasi
Ish bilan bandlikning umumiy o'sishi	Ijobiy
Sifat talablariga javob beruvchi rasmiy ish o'rinlari ulushi	Yetarli emas
Norasmiy bandlik ulushi	Yuqori
Ijtimoiy kafolatlangan bandlik	Cheklangan

Bandlik sifatining eng muhim indikatorlaridan biri – daromadlarning yetarliligi va barqarorligidir. O'zbekistonda norasmiy va o'zini o'zi band qilgan aholining katta qismi beqaror va mavsumiy daromadlarga ega.

2-jadval

Ish bilan bandlik shakllari bo'yicha daromad barqarorligi tahlili

Ish bilan bandlik turi	Daromad darajasi	Mavsumiylik	Uzoq muddatli barqarorlik
Rasmiy yollanma mehnat	O'rtacha-yuqori	Past	Yuqori
Kichik biznes (rasmiy)	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha
Norasmiy bandlik	Past-o'rtacha	Yuqori	Past
O'zini o'zi band qilish	O'zgaruvchan	Yuqori	Past

Tahlil shuni ko'rsatadiki, daromad beqarorligi aholining iste'mol imkoniyatlarini cheklaydi, moliyaviy rejalashtirishni qiyinlashtiradi va kambag'allikdan chiqish imkoniyatlarini pasaytiradi. Natijada bandlik mavjud bo'lsa-da, uning sifati past bo'lib qoladi.

Ijtimoiy himoya bandlik sifatining asosiy institutsional tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekistonda ijtimoiy sug'urta tizimi asosan rasmiy sektorda band bo'lgan aholini qamrab oladi, norasmiy va o'zini o'zi band qilganlar esa chetda qolmoqda.

3-jadval

Ish bilan bandlik shakllari bo'yicha ijtimoiy himoya darajasi

Ko'rsatkichlar	Rasmiy bandlik	Norasmiy bandlik	O'zini o'zi band qilish
Pensiya tizimi	To'liq	Yo'q	Ixtiyoriy
Tibbiy sug'urta	To'liq	Cheklangan	Cheklangan
Mehnat ta'tili	Mavjud	Yo'q	Yo'q
Mehnat huquqiy himoyasi	Yuqori	Past	Past

Bu holat uzoq muddatda ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib keladi.

Chunki ijtimoiy himoyadan chetda qolgan bandlik shakllari aholini iqtisodiy xatarlar, kasallik va keksalik davrida daromadsiz qolish xavfi bilan yuzma-yuz qoldiradi.

Olib borilgan tahlillardan yana shu namoyon boʻladiki, Oʻzbekistonda kambagʻallikning asosiy manbai koʻpincha ishsizlik darajasining yuqoriligi emas, balki mavjud ish bilan bandlikning sifati pastligi bilan bogʻliqdir. Yaʼni kambagʻallik muammosi faqat “ish yoʻqligi” bilan emas, balki “ish bor, lekin u yetarli daromad bermaydi” degan holat bilan izohlanadi. Bu holat zamonaviy mehnat bozori sharoitida kambagʻallikning yangi, murakkab shaklini - “ishlaydigan kambagʻallar” (working poor) qatlamining shakllanishini anglatadi.

Oʻzbekistonda aholining sezilarli qismi iqtisodiy faol hisoblanadi va rasmiy statistikaga koʻra, bandlik darajasi yildan-yilga oʻsib bormoqda. Biroq ushbu bandlikning katta qismi norasmiy sektor, oʻzini oʻzi band qilish, vaqtinchalik yoki past unumli mehnat shakllariga toʻgʻri kelmoqda. Bunday bandlik shakllari, odatda, barqaror daromad manbai boʻlib xizmat qilmaydi, mehnat unumdorligi past boʻladi va eng muhimi, ijtimoiy kafolatlar bilan taʼminlanmagan boʻladi. Natijada shaxs band boʻlsa-da, uning daromadi yashash minimumi darajasidan yuqori chiqmaydi yoki mavsumiy va beqaror xarakterga ega boʻladi.

Past sifatli bandlikning kambagʻallikni keltirib chiqarish mexanizmi bir nechta bosqichda namoyon boʻladi. Avvalo, past unumli mehnat past daromadni yuzaga keltiradi. Daromad yetarli boʻlmagani sababli aholi jamgʻarma shakllantira olmaydi, inson kapitaliga (taʼlim, sogʻliq, malaka oshirish) investitsiya kiritish imkoniyatlari cheklanadi. Bu esa kelajakda yanada sifatli va yuqori daromadli ish topish imkoniyatlarini pasaytiradi. Natijada kambagʻallik holati avloddan-avlodga oʻtuvchi, oʻzini takrorlaydigan jarayonga aylanadi.

Bundan tashqari, past sifatli bandlik koʻpincha ijtimoiy himoya tizimidan tashqarida qoladi. Norasmiy sektorda yoki oʻzini oʻzi band qilish shaklida ishlayotgan shaxslar pensiya jamgʻarmasi, tibbiy sugʻurta va mehnat huquqlari bilan yetarli darajada qamrab olinmaydi. Bu holat qisqa muddatda yashirin muammo boʻlib koʻrinsa-da, uzoq muddatda aholining ijtimoiy zaif qatlamlari sonining koʻpayishiga olib keladi. Ayniqsa, mehnatga layoqatli yoshdan chiqqan davrda daromad manbalarining yoʻqligi kambagʻallik xavfini keskin oshiradi.

Oʻzbekistonda kambagʻallik va ish bilan bandlik oʻrtasidagi ushbu bogʻliqlik hududiy kesimda yanada yaqqol namoyon boʻladi. Ayrim hududlarda ish bilan bandlik darajasi nisbatan yuqori boʻlsa-da, aholining asosiy qismi past daromadli qishloq xoʻjaligi, mayda savdo yoki xizmat koʻrsatish faoliyatida band. Bu sohalarida mehnat unumdorligi past boʻlib, yaratilayotgan qoʻshilgan qiymat cheklangan. Natijada ish bilan bandlik miqdoriy jihatdan mavjud boʻlsa-da, u kambagʻallikni kamaytirishga yetarli

iqtisodiy samara bermaydi.

5-jadval

Ish bilan bandlikning sifati darajasi va kambag'allik xavfi

Ish bilan bandlik sifati	Kambag'allik xavfi	Ijtimoiy barqarorlik
Yuqori	Past	Yuqori
O'rtacha	O'rtacha	Nisbatan
Past	Yuqori	Past

Mazkur holat shuni anglatadiki, kambag'allikni qisqartirishda asosiy e'tibor ishsizlikni kamaytirish bilangina cheklanmasligi lozim. Aksincha, davlat siyosati bandlikning sifat ko'rsatkichlarini oshirishga yo'naltirilishi zarur. Bunga barqaror ish o'rinlari yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, ish haqi va real daromadlarni ko'paytirish, shuningdek, band aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish orqali erishish mumkin.

Shu jihatdan qaraganda, O'zbekistondagi kambag'allik muammosi mehnat bozoridagi strukturaviy nomutanosibliklar bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni muammo ishchi kuchining yetishmasligida emas, balki mavjud ishchi kuchining salohiyatidan to'liq va samarali foydalanilmasligidadir. Past sifatli bandlik hukmron bo'lgan sharoitda iqtisodiy o'sish keng qatlamlar daromadiga aylana olmaydi va kambag'allikni barqaror qisqartirish imkoniyatlari cheklanib qoladi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yilgi Oliy Majlisga murojaatnomasida bu borada keltirilgan fikrini ta'kidlash joiz deb hisoblaymiz. Jumladan, murojjatnomada kambag'allikni qisqartirish masalasi ish bilan bandlikni kengaytirish bilangina emas, balki bandlik sifatini oshirish bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Davlat rahbari tomonidan qayd etilgan kambag'allik darajasining 8,9 foizdan 5,8 foizga qisqargani, bir qarashda, bandlik siyosatining samaradorligini ko'rsatgandek tuyuladi. Biroq ushbu natijani chuqurroq tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni barqaror qisqartirishning asosiy omili - sifatli, unumli va ijtimoiy kafolatlangan bandlikni shakllantirishdir.⁸ Prezident murojaatnomasida aynan shu jihatga alohida urg'u berilib, kambag'allikni kamaytirishda faqat bandlik sonini oshirish emas, balki barqaror daromad keltiruvchi ish o'rinlarini yaratish zarurligi ta'kidlanadi.

Murojaatnoma mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, kambag'allikni daromad yetishmasligi oqibati sifatida emas, balki past sifatli ish bilan bandlik natijasi sifatida ko'rish mumkin. Chunki:

- norasmiy sektor va o'zini o'zi band qilish shakllaridagi ishlar ko'pincha barqaror daromad bermaydi;
- bunday bandlik ijtimoiy sug'urta va pensiya tizimidan chetda qoladi;
- mehnat unumdorligi past bo'lib, iqtisodiy o'sishga cheklangan hissa

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yilgi Oliy Majlisga murojaatnomasi. Bir bo'lsak, yagona xalq bo'lib olg'a intilsak, ko'zlagan ulkan maqsadlarimizga albatta yetamiz. 2025 yil. 27-dekabr. 274-son.

qo‘shadi.

Shu bois, kambag‘allikni qisqartirish vazifasi “ish bilan band qilish” emas, balki “munosib va unumli ish bilan ta‘minlash” orqali amalga oshirilishi lozim va bu yondashuv bandlik sifati konsepsiyasining zamonaviy talqiniga to‘liq mos keladi.

Shuningdek, murojaatnomada 1400 dan ortiq mahallaning “kambag‘allikdan xoli hudud” maqomini olgani qayd etiladi. Ushbu natija bevosita mahalla darajasida ish bilan bandlik sifati oshirilgani bilan bog‘liq. Xususan:

- mahallalarda aholini kasbga o‘qitish;
- oilaviy tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilishni qo‘llab-quvvatlash;
- mikrokredit va subsidiyalar orqali daromad manbalarini diversifikatsiya qilish kabi choralar natijasida oddiy ish bilan bandlik shaklidan daromadli ish bilan bandlikka o‘tish jarayoni yuz berdi.

Biroq bu yerda muhim metodologik xulosa shuki, agar o‘zini o‘zi band qilish rasmiylashtirilmagan, texnologik jihatdan sodda va bozor bilan integratsiyalanmagan bo‘lsa, u kambag‘allikni faqat qisqa muddatga yumshatadi. Shu sababli Prezident murojaatnomasidagi mahalla modeli aslida bandlik sifatini oshirishga yo‘naltirilgan institutsional mexanizm sifatida qaraladi.

Prezidentning murojaatnomasida ijtimoiy yordam, ta‘lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarini kengaytirish kambag‘allikni kamaytirishning muhim omili sifatida qayd etiladi. Bu jihat ish bilan bandlik sifati bilan bevosita bog‘liq, chunki:

- ijtimoiy himoyalangan ishchi kuchi mehnat unumdorligini oshiradi;
- barqaror ijtimoiy kafolatlar ishchining mehnat bozoridagi xavfini kamaytiradi;
- inson kapitaliga investitsiyalar sifatli bandlikni shakllantiradi.

Shu ma’noda, murojaatnomada ko‘rsatilgan ijtimoiy siyosat choralari ish bilan bandlik sifatini oshirishga xizmat qiluvchi qo‘shimcha instrumentlar sifatida baholash mumkin.

Shu bois davlat siyosati ish bilan bandlikni son jihatidan emas, sifat jihatidan baholash mezonlariga o‘tmoqda. Bu esa bandlik sifati indikatorlarini (daromad, ijtimoiy kafolat, barqarorlik, mehnat unumdorligi) davlat ijtimoiy siyosati markaziga olib chiqishni taqozo etadi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytganda, ish bilan bandlik sifati mehnat bozorining asosiy sifat ko‘rsatkichi bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilaydi. Sifatli ish bilan bandlik inson kapitalini rivojlantiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ish bilan bandlik sifatini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy asoslangan va amaliy siyosatga mos tavsiyalar taklif etiladi.

Birinchidan, ish bilan bandlik siyosatini baholashda ish o‘rinlari soni bilan bir qatorda bandlik sifati ko‘rsatkichlarini joriy etish zarur. Jumladan, davlat bandlik dasturlarida ish o‘rinlarining rasmiyligi, daromad barqarorligi, ijtimoiy sug‘urta qamrovi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari majburiy indikatorlar sifatida belgilanishi lozim. Bu ish bilan bandlik siyosatining samaradorligini sifat jihatidan baholash imkonini beradi.

Ikkinchidan, norasmiy ish bilan bandlikni qisqartirish bo‘yicha rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Xususan, norasmiy faoliyat yuritayotgan shaxslarni rasmiy sektorga o‘tkazishda soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish, soddalashtirilgan ro‘yxatdan o‘tish tartiblarini kengaytirish va ijtimoiy sug‘urtaga ixtiyoriy, ammo rag‘batlantirilgan kirish mexanizmlarini joriy etish ish bilan bandlik sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun alohida ijtimoiy himoya modeli ishlab chiqish zarur. Mazkur model pensiya, tibbiy sug‘urta va vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha kafolatlarni qamrab olgan holda, moslashuvchan va iqtisodiy jihatdan maqbul bo‘lishi lozim. Bu o‘zini o‘zi band qilishni past sifatli bandlikdan sifatli bandlik shakliga o‘tkazishga imkon yaratadi.

To‘rtinchidan, ish bilan bandlik sifati va kasbiy malaka o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olib, kasb-hunar ta‘limi va qayta tayyorlash tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish zarur. Ayniqsa, hududlar kesimida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha qisqa muddatli, amaliy yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini keng joriy etish sifatli bandlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, hududiy ish bilan bandlik siyosatini differensial yondashuv asosida olib borish lozim. Qishloq hududlarida past unumdor va mavsumiy bandlikni kamaytirish uchun sanoat, xizmatlar va qayta ishlash tarmoqlarida barqaror ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltirilgan investitsion va infratuzilmaviy choralar kuchaytirilishi zarur.

Oltinchidan, ish bilan bandlik sifati kambag‘allikni qisqartirish siyosatining markaziy elementi sifatida belgilanishi lozim. Ijtimoiy yordam va ish bilan bandlik dasturlari integratsiyalashgan holda olib borilib, aholini faqat ish bilan ta‘minlash emas, balki barqaror va munosib daromad manbalariga ega qilishga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. ILO. World Employment and Social Outlook. ISBN 9789220400425 (pdf). 2024
2. Joseph E. Stiglitz. Technological change, the future of jobs and development. 2023.
3. SEN, A. (2013) “Work and rights”, *International Labour Review*. 152(0). doi: <https://doi.org/10.1111/j.1564-913X.2013.00164.x>

4. Rostislav I. Kapeliushnikova, The Russian labor market: Long-term trends and short-term fluctuations. Russian Journal of Economics 9 (2023) 245–270 DOI 10.32609/j.ruje.9.113503 Publication date: 3 October 2023
5. Vladimir Gimpelson. Polarization or Upgrading? Evolution of Employment in Transitional Russia. Discussion Paper No. 8688 December 2014.
6. Abdurahmanov K.Kh, Labor economy: Theory and practice / Textbook. Revised and supplemented 3rd edition. Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan "FAN" publishing state enterprise, -T: 2019. -385 p.
7. Kurbonov Samandar Pulatovich. (2025). THE IMPORTANCE OF THE MINIMUM WAGE IN INCREASING PRODUCTIVE EMPLOYMENT OF THE POPULATION. *Labor Economics and Human Capital*, 4(1), 27–36. Retrieved from <https://laboreconomics.uz/index.php/lehc/article/view/42>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yilgi Oliy Majlisga murojaatnomasi. Bir bo'lsak, yagona xalq bo'lib olg'a intilsak, ko'zlagan ulkan maqsadlarimizga albatta yetamiz. 2025 yil. 27-dekabr. 274-son.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



ISH BILAN UNUMLI BANDLIK DARAJASINI BAHOLASHDA INSTITUTIONAL, INKLYUZIVLIK VA HUDUDIIY XUSUSIYATLAR

Qurbonov Samandar Pulatovich

TDIU “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasi dotsenti, PhD
Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti doktoranti,
e-mail: s.kurbonov@tsue.uz

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a210

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholining ish bilan unumli bandlik darajasini baholashda institutsional muhit, inklyuzivlik omillari hamda hududiy mehnat bozorlari xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi nazariy va metodologik jihatdan tahlil qilingan. Unumli bandlikni baholashning zamonaviy yondashuvlari tizimlashtirilib, institutsional sifat, ijtimoiy guruhlarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlar uning darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida asoslanadi. Tadqiqot natijalari hududiy mehnat siyosati va inklyuziv bandlik strategiyalarini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ish bilan unumli bandlik, institutsional muhit, inklyuziv bandlik, hududiy mehnat bozori, mehnat unumdorligi.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ, ИНКЛЮЗИВНЫЕ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОЦЕНКИ УРОВНЯ ПРОДУКТИВНОЙ ЗАНЯТОСТИ

Курбанов Самандар Пулатович

доцент кафедры экономики ТГУЭ, кандидат наук
Докторант института исследований бедности и рынка труда.

Аннотация. В данном состоянии теоретически и методологически анализируется интерзаимосвязь между институциональной средой, инклюзивными факторами и характеристиками региональных рынков труда при оценке уровня производительной занятости населения. Систематизация современных подходов к производству продукции, а также качества основных факторов, влияющих факторов, качества институциональной среды, возможностей социальных групп для выхода с рынка и экономических различий в регионе. Результаты исследования имеют научное и практическое значение для совершенствования региональной трудовой политики и стратегической инклюзивной торговли.

Ключевые слова: производительная занятость, институциональная среда, инклюзивная занятость, региональный рынок, производительность труда.

INSTITUTIONAL, INCLUSIVE, AND REGIONAL FEATURES OF ASSESSING THE LEVEL OF PRODUCTIVE EMPLOYMENT

Kurbonov Samandar Pulatovich

Associate Professor of the Department of Labor Economics, TSUE, PhD
Doctoral student of the Institute of Poverty and Labor Market Research

Abstract. This article provides a theoretical and methodological analysis of the relationship between the institutional environment, inclusive factors, and characteristics of regional labor markets when assessing the level of productive employment. It systematizes modern approaches to assessing productive employment, substantiating institutional quality, the ability of social groups to enter the labor market, and economic differences between regions as the main factors influencing its level. The results of the study have scientific and practical significance for improving regional labor policy and inclusive employment strategies.

Keywords: productive employment, institutional environment, inclusive employment, regional labor market, labor productivity.

Kirish

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya, demografik o'zgarishlar va mehnat munosabatlarining murakkablashuvi sharoitida ish bilan bandlikni faqat miqdoriy ko'rsatkich sifatida baholash yetarli emas. Ayniqsa, ish bilan band aholining unumli bandlik darajasi, ya'ni munosib mehnat tamoyillariga asoslangan, daromad barqarorligi va ijtimoiy himoya darajasi asosida baholash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi global va milliy iqtisodiy rivojlanish sharoitida ish bilan bandlikni baholashda faqat ish o'rinlari soni yoki bandlik darajasi bilan cheklanib qolish ilmiy va amaliy jihatdan yetarli emas. Bugungi kunda mehnat bozorining samaradorligi, eng avvalo, ish bilan band shaxslarning mehnat daromadlari darajasi, ish haqi miqdori hamda uning barqaror o'sish imkoniyatlari orqali namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ish bilan band aholining yuqori mehnat daromadlarini ta'minlash kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

O'zbekistonda ham jahonning ko'plab mamlakatlaridagi kabi ayollarning mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonun va me'yoriy-huquqiy asoslar asosida islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda «O'zbekiston-2030» Strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston-2030» strategiyasidagi “Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” bandi 27-maqсад (Mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirish) quyidagi 3 ta vazifalarni o'zida qamrab oldi: 1. 2026 yilga qadar kambag'allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish; 2. Kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish; 3. Ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash ko'zda tutilgan [1].

Bugungi kunda har qanday ish bilan band shaxs uchun to'liq yoki to'liqsiz ish bilan band bo'lishdan ko'ra, ish bilan bandlikning sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ish bilan unumli bandlik darajasini baholashda ish haqi va mehnat daromadlarini oshirish imkoniyatlari institutsional tizim, inklyuziv mehnat

siyosati va hududiy xususiyatlar bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Unumli bandlik – bu qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘zining ishlab chiqarish va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalangan holda o‘zi va qaramog‘idagilar uchun milliy kambag‘allik chegarasidan yuqori darajadagi iste’mol uchun kafolatli mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir⁹.

Ish bilan unumli bandlik tushunchasi zamonaviy mehnat iqtisodiyotida bandlik sifatini baholashning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarga ko‘ra, unumli bandlik mehnat resurslarining yuqori qiymat yaratuvchi, barqaror daromad ta‘minlovchi, mehnat unumdorligi yuqori hamda ijtimoiy himoya bilan qamrab olingan ish joylarida faoliyat yuritishini anglatadi [2,3]. Ushbu ta‘rifda bandlikning faqat miqdoriy emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy sifat jihatlari ustuvor o‘rin tutadi.

Unumli bandlikning shakllanishida inson kapitali hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Inson kapitali nazariyasiga asos solgan tadqiqotlarda ta‘lim, kasbiy tayyorgarlik, malaka oshirish va sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar mehnat unumdorligini oshirishi, bu esa ish haqi o‘sishi va unumli bandlik ehtimolining kuchayishiga olib kelishi ilmiy jihatdan asoslangan [4,5]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ish bilan bandlikning sifati mehnat resurslarining bilim va ko‘nikmalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Neoklassik iqtisodiy nazariyada unumli bandlik mehnat bozoridagi real ish haqi va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi muvozanat orqali tushuntiriladi. A.Marshallning ishlarida mehnatga talab marjinal mehnat unumdorligi asosida shakllanishi, ish haqi esa ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo‘shimcha qiymat bilan chegaralanishi ta’kidlangan [6]. Bu yondashuv unumli bandlikni iqtisodiy samaradorlik bilan uzviy bog‘laydi.

Keynschilik iqtisodiy maktab esa unumli bandlikni faqat bozor muvozanati natijasi sifatida emas, balki iqtisodiyotdagi samarali talab hajmi bilan bog‘liq holda izohlaydi. J.M.Keynsga ko‘ra, davlat investitsiyalari va fiskal siyosat orqali iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish ish o‘rinlari soni bilan bir qatorda ularning sifatini ham yaxshilash imkonini beradi [7]. Bu yondashuv unumli bandlikni ta‘minlashda davlatning faol rolini asoslab beradi.

Uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish nazariyalarida esa unumli bandlik mehnat unumdorligining barqaror o‘sishi bilan bog‘liq holda qoraladi. R.Solovning iqtisodiy o‘shish modelida texnologik taraqqiyot va kapital jamg‘arilishi mehnat unumdorligini oshirishi, natijada yuqori unumli ish o‘rinlari kengayishi ta’kidlanadi [8]. Bu yondashuv unumli bandlikni strategik rivojlanish natijasi sifatida talqin qiladi.

Institutsional iqtisodiyotda unumli bandlik mehnat bozori institutlarining sifati bilan bog‘lanadi. D.Nort tomonidan asoslangan nazariyaga ko‘ra, mehnat


⁹ Mualliflar ta’rifi maqola muallifi tomonidan ishlab chiqilgan

qonunchiligi, ijtimoiy himoya tizimi va mehnat munosabatlarining rasmiylashuv darajasi mehnat resurslarining qanday ish o‘rinlariga yo‘naltirilishini belgilaydi [9]. Institutlar zaif bo‘lgan sharoitda norasmiy va past unumli bandlik ustun bo‘ladi.

So‘nggi yillarda unumli bandlik konsepsiyasi inklyuziv o‘sinh g‘oyalari bilan boyitilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon banki tadqiqotlarida unumli bandlik iqtisodiy o‘sinh bilan bir qatorda aholining turli ijtimoiy guruhlarining mehnat bozoriga teng kirishini ta‘minlashi lozimligi ta‘kidlanadi [10,11]. Bu yondashuv ish bilan band kambag‘allik muammosini kamaytirishga qaratilgan.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda raqamli transformatsiya unumli bandlikka ta‘sir etuvchi muhim omil sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Raqamli texnologiyalar past unumli va oddiy mehnatga asoslangan ish o‘rinlarini qisqartirib, yuqori malaka va innovatsion ko‘nikmalarni talab qiluvchi unumli ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi [12]. Bu esa inson kapitali va institutsional muhit ahamiyatini yanada oshiradi.

Umuman olganda, unumli bandlik sog‘lom iqtisodiyot va jamiyatning asosidir. Bu shunchaki ish o‘rinlari yaratishdan tashqari, ishchilarning iqtisodiy o‘sinhga hissa qo‘shish bilan birga yashash uchun yetarli darajada mehnat daromadiga ega bo‘lishini [13] kafolatlaydi.



1-rasm. Mehnat daromadi mezoniga asoslangan ish bilan bandlik-kambag‘allik-ishsizli-farovonlik matritsaviy modeli¹⁰

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ish bilan unumli bandlik inson kapitali, mehnat bozori muvozanati, samarali talab, institutsional muhit, inklyuzivlik va texnologik transformatsiyaning o'zaro bog'liq ta'siri natijasida shakllanadi.

Mehnat bozori holatlarini mehnat daromadi va minimal iste'mol xarajatlari mezonida tizimli tahlil qilishda biz taklif etayotgan mehnat daromadi mezoniga asoslangan ish bilan bandlik-kambag'allik-ishsizli-farovonlik matritsaviy modeli yordam beradi. Unda ish bilan bandlik va ishsizlik holatlari kambag'allik hamda farovonlik kategoriyalari bilan kesishgan holda tasvirlangan bo'lib, ayniqsa ish bilan band kambag'allik hodisasining mavjudligini yaqqol ochib beradi. Chizmaga ko'ra, barcha ish bilan band shaxslar ham unumli band hisoblanmaydi, chunki ayrim band shaxslarning jon boshiga to'g'ri keladigan mehnat daromadi minimal iste'mol xarajatlaridan past bo'lishi mumkin. Aksincha, mehnat daromadi ushbu chegaradan yuqori bo'lgan band shaxslar ish bilan band farovon shaxslar sifatida shakllanadi va ular unumli bandlik zonasini tashkil etadi. Shu bilan birga, ishsiz shaxslar orasida ham transfer daromadlari yoki boshqa manbalar hisobiga farovonlik holatida bo'lgan qatlam mavjudligi ko'rsatilgan. Umuman olganda, mazkur model bandlikni faqat miqdoriy ko'rsatkich sifatida emas, balki daromad yetarliligi va ijtimoiy farovonlik mezonlari asosida baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi (*1-rasm*).

Tadqiqot metodologiyasi

Mehnat daromadi mezoniga asoslangan ish bilan bandlik-kambag'allik-ishsizli-farovonlik matritsaviy modeli asosida olib borilgan mazkur tadqiqotda bir qator onlayn ma'lumotlar bazalaridagi ilmiy manbalarda o'z aksini topgan unumli bandlik va undagi gender masalalariga taaluqli empirik va konseptual tadqiqotlar o'rganildi va ulardagi ilmiy yondoshuvlar tizimlashtirildi. Mazkur maqolada 2018-yildan 2023-yillarni o'z ichiga qamrab olgan davrda O'zbekistonning 14 ta hududlari bo'yicha ijtimoiy so'rovnomalar asosida tegishli ma'lumotlar to'plandi, rasmiy statistic manbalar uyg'unligida ular tahlil qilindi. Klaster tahlili bo'yicha hududlardagi aholi bandlik darajasining rivojlanishini ko'rish uchun quyidagi yillar tanlangan: 2019, 2020, 2021, 2022 va 2023. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, klaster tahlili, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanildi.

Tahlil va muhokama

Mazkur tadqiqotda klaster tahlili 2019–2023 yillar kesimida O'zbekistonning 14 ta hududi bo'yicha mehnat bozori ko'rsatkichlari o'xshashlik darajasiga ko'ra guruhlariga ajratish uchun qo'llanildi. Natijada hududlar “yuqori”, “o'rta” va “past” klasterlarga ajratilib, mehnat bozori muammolarining geografik konsentratsiyasi hamda barqaror takrorlanish tendensiyasi aniqlandi: ayrim hududlar ketma-ket yillarda yuqori klasterda saqlanib qolganligi bu hududlarda bandlikning sifati pastligi, norasmiy va past

daromadli ish o‘rinlari ulushi yuqoriligi hamda unumli bandlikka o‘tishni cheklovchi institutsional to‘siqlar mavjudligini anglatadi. Shu tariqa klaster tahlili nafaqat hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni statistik jihatdan ko‘rsatib berdi, balki maqsadli hududiy siyosat choralari aniqlash uchun analitik asos bo‘lib xizmat qildi.

2019-2023 yillarda ishsizlik ko‘rsatkichlari umumiy ravishda pasayish tendensiyasini namoyon etdi. Biroq, 8 ta hudud hali ham yuqori klasterda qolgan. Toshkent shahri esa 5 yil ketma-ket past ishsizlik darajasini saqlab qolgan yagona hudud hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

Hududlar kesimida ishsizlik darajasi bo‘yicha ishlab chiqilgan klasterlar tuzilishi (2019-2023 yillar)¹¹

Klaster	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Ishsizlik “yuqori” darajada	9.0% – 9.3%	10.4%–11.1%	9.7% – 10.2%	8.8% – 9.4%	7.0% – 7.4%
	Qoraqalpo- g‘iston Resp., Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm	Qoraqalpo- g‘iston Resp., Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm	Qoraqalpo- g‘iston Resp., Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg‘ona, Xorazm	Qoraqalpo- g‘iston Resp., Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg‘ona, Xorazm	Qoraqalpo- g‘iston Resp., Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm
Ishsizlik “o‘rta” darajada	8.5%	9.4%	8.8% – 9.5%	8.0% – 8.5%	6.3% – 6.6%
	Navoiy	Navoiy	Jizzax, Navoiy, Toshkent	Navoiy, Toshkent	Navoiy
Ishsizlik “past” darajada	7.4%	8.0%	7.0%	6.5%	5.4%
	Toshkent sh.	Toshkent sh.	Toshkent sh.	Toshkent sh.	Toshkent sh.

2019–2023 yillar davomida iqtisodiy faol aholi tarkibidagi unumli bandlik taqchilligi bo‘yicha klaster tahlil natijalari hududlar o‘rtasida keskin farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, Andijon, Namangan, Toshkent, Sirdaryo va ba‘zi hollarda Buxoro hududlari yuqori klasterda saqlanib, unumli bandlikning yetarli emasligi aks ettirdi (2-jadval).

¹¹ Rasmiy statistik ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2-jadval

Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi unumli bandlik taqchilligi bo'yicha ishlab chiqilgan hududiy klasterlar tuzilishi (2019-2023 yillar)¹²

Klaster	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Unumli bandlik “yuqori” darajada	24.2% – 24.6%	26.5% – 27.8%	22.6% – 24.4%	22.4% – 23.8%	22.5% – 23.7%
	Sirdaryo, Toshkent	Andijon, Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm	Namangan, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm	Andijon, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm	Andijon, Buxoro, Namangan, Sirdaryo, Toshkent
Unumli bandlik “o'rta” darajada	22.5% – 23.6%	24.9% – 26.4%	21.5% – 22.4%	21.0% – 21.8%	21.3% – 21.9%
	Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Farg'ona, Xorazm	Qoraqalpo-g'iston Resp., Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Toshkent sh.	Qoraqalpo-g'iston Resp., Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo	Qoraqalpo-g'iston Resp., Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona, Toshkent sh.	Qoraqalpo-g'iston Resp., Surxondaryo, Farg'ona, Toshkent sh.
Unumli bandlik “past” darajada	19.9% – 21.5%	22.7% – 24.1%	20.1% – 20.9%	19.7%	18.8% – 20.5%
	Qoraqalpo-g'iston Resp., Jizzax, Navoiy, Samarqand, Toshkent sh.	Jizzax, Navoiy	Navoiy, Samarqand, Toshkent sh.	Navoiy	Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Xorazm

Shu bilan birga, Navoiy, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Xorazm kabi hududlar ko'p hollarda past klasterda bo'lib, unumli bandlik darajasi yuqori, mehnat bozori nisbatan tizimli ishlayotganligini kuzatish mumkin. O'rta klasterda joylashgan hududlarda esa mehnat bozori barqaror rivojlanmoqda, lekin to'liq samaradorlikka erishish uchun sohalar kesimida maqsadli islohotlar zarurati seziladi.

Kambag'allar orasida ish bilan band bo'lish darajasi yuqori bo'lsa-da, ularning faoliyati asosan past sifatli va past maoshli ishlar bilan cheklangan. Bunday ish o'rinlari ko'pincha kam samaradorlikka ega bo'lib, inson kapitalining to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Klaster tahlillar umumiy guruhlar bo'yicha ma'lumot taqdim etgan bo'lsa, hududlar bo'yicha tahlillar 2021–2023 yillarda O'zbekistonda unumli bandlik darajasi (%da) qanday o'zgarganini ko'rsatadi. Umumiy hisobda mamlakat bo'yicha unumli band aholi ulushi 2021 yilda 79,1 %ga yetgan bo'lsa, keyingi ikki yilda pasayish kuzatilib, 2023 yilda 76,9 % va 2024 yilda 76,1 %

¹² Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

darajasiga tushgan. Bu tendensiya ish bilan band aholi soni o'sib borishiga qaramasdan, unumli band aholi sonida kamayish borligi seziladi.

3-jadval

**2020-2024 yillarda O'zbekistonda unumli bandlik darajasi
o'zgarishi dinamikasi (2020-2024 yillar), %da¹³**

Hududlar	Unumli bandlik darajasi, %				
	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	73,8	78,1 ▲*	77,5 ▼**	75,7 ▼	75,6 ▼
Andijon	74,3	80,1 ▲	78,3 ▼	76,8 ▼	75,7 ▼
Buxoro	74,5	81,0 ▲	80,5 ▼	75,4 ▼	75,1 ▼
Jizzax	77,4	79,2 ▲	79,9 ▲	80,8 ▼	80,4 ▼
Qashqadaryo	74,2	77,7 ▲	77,9 ▲	78,0 ▲	76,5 ▼
Navoiy	78,7	82,1 ▲	81,3 ▼	80,4 ▼	80,1 ▼
Namangan	72,4	77,8 ▲	75,5 ▼	73,9 ▼	73,4 ▼
Samarqand	74,3	80,2 ▲	78,7 ▼	75,4 ▼	75,3 ▼
Surxondaryo	72,8	78,3 ▲	77,5 ▼	76,7 ▼	74,6 ▼
Sirdaryo	71,8	79,6 ▲	77,7 ▼	74,6 ▼	74,0 ▼
Toshkent	75,4	78,8 ▲	78,1 ▼	77,4 ▼	75,4 ▼
Farg'ona	74,9	79,1 ▲	78,5 ▼	78,0 ▼	76,9 ▼
Xorazm	73,5	75,8 ▲	77,6 ▲	79,0 ▲	77,9 ▼
Toshkent sh.	72,8	78,8 ▲	76,1 ▼	74,6 ▼	74,4 ▼
O'zbekiston Respublikasi	74,3	79,1 ▲	78,2 ▼	76,9 ▼	76,1 ▼

▲*- ijobiy o'zgarish, ▼** - salbiy o'zgarish

2020–2021 yillarda mamlakatning barcha hududlarida unumli bandlik darajasi sezilarli o'sgan — ayniqsa Navoiy (+3,4%), Buxoro (+3,6%) va Andijon (+5,8%) viloyatlarida yuqori o'sish qayd etilgan. Bu davrda iqtisodiy faollik tiklangan, xizmatlar sohasi kengaygan va pandemiyadan keyingi mehnat bozorida yangi ish o'rinlari yaratilgan. Biroq, 2022–2023 yillarda ko'rsatkich barcha hududlarda deyarli pasaygan. Masalan, Qoraqalpog'istonda 77,5 % dan 75,7 % gacha, Samarqandda 78,7 % dan 75,4 % gacha, Surxondaryoda esa 77,7 % dan 76,7 % gacha tushgan (3-jadval).

Umuman olganda, 2021–2024 yillar oralig'ida unumli bandlik darajasi o'sishdan barqarorlik va pasayish bosqichiga o'tgan. Bu tendensiya mehnat bozorini sifat jihatidan isloh qilish, yuqori daromadli ish o'rinlari yaratish va kasbiy qayta tayyorlash chora-tadbirlirini tizimli ravishda kuchaytirish, xususiyl ish bilan band shaxslar ish haqini inflyatsiya darajasi va etarlilik tamoyillari asosida tuzatishlar kiritib borish zarurligini anglatadi.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda 2020-2024 yillardagi o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

sifati va barqarorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv bandlikni faqat ish o'rni mavjudligi orqali emas, balki mehnat natijasining ijtimoiy-iqtisodiy samarasi orqali baholash zarurligini asoslaydi.

Modelning keyingi bosqichida unumli bandlik taqchilligi aniqlangan guruhlariga nisbatan institutsional mexanizmlar ishga tushiriladi. Kasaba uyushmalari federatsiyasi mehnat huquqlari va adolatli ish haqi tamoyillarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi, “Yagona milliy mehnat tizimi” asosida rasmiy bandlikni rag'batlantirish mexanizmi baholab boriladi. “Ijtimoiy himoya yagona reestri” orqali kambag'al aholi tarkibidagi ish bilan band va ishsiz shaxslar aniqlanib, ularning holati doimiy monitoring qilinadi, aholi bandligiga ko'maklashish markazlari ko'magida kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va ishga joylashtirish orqali mehnat bozoriga integratsiyani kuchaytiradi. Parallel ravishda inson kapitalini rivojlantirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va mehnatga adolatli haq to'lashga qaratilgan siyosat choralarining amalga oshirilishi ish bilan band shaxslarning real daromadlarini oshiradi.

Ushbu uzluksiz jarayon natijasida ish bilan band kambag'al shaxslar asta-sekin ish bilan band farovon shaxslar toifasiga o'tadi va mehnat daromadi minimal iste'mol xarajatlaridan yuqori darajaga yetadi. Shunday qilib, model yakunida ish bilan bandlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilib, unumli bandlik holati shakllanadi. Qayta aloqa mexanizmi orqali olingan natijalar muntazam baholanib boriladi va siyosiy hamda institutsional choralar moslashtiriladi. Natijada mazkur model kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va barqaror, inklyuziv unumli bandlikni ta'minlashga qaratilgan uzviy va ishlovchi tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy mehnat bozorida ish bilan bandlikni faqat ish o'rinlari soni yoki bandlik darajasi orqali baholash yetarli emas. Global raqamli transformatsiya, demografik bosim va mehnat munosabatlarining murakkablashuvi sharoitida bandlikning sifati, ya'ni uning mehnat daromadi yetarliligi, barqarorligi va ijtimoiy himoya bilan qamrab olinganlik darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ish bilan unumli bandlik konsepsiyasi mehnat bozori samaradorligini baholashning markaziy kategoriyasiga aylanmoqda.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan mehnat daromadi mezoniga asoslangan ish bilan bandlik-kambag'allik-ishsizlik-farovonlik matritsaviy modeli bandlik, kambag'allik va farovonlik holatlari o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni tizimli ravishda ochib berdi.

Klaster tahlili natijalari 2019–2023 yillarda O'zbekiston hududlari o'rtasida ishsizlik va unumli bandlik taqchilligi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini aniqladi. Ayrim hududlarda ishsizlik darajasi pasaygan bo'lsa-da, unumli bandlik taqchilligi yuqori darajada saqlanib qolayotgani mehnat bozoridagi sifat muammolarini yaqqol namoyon etdi.

2020-2021 yillarda unumli bandlik darajasining sezilarli o'sishi iqtisodiy faollikning tiklanishi va xizmatlar sohasining kengayishi bilan izohlanadi. Biroq 2022-2024 yillarda deyarli barcha hududlarda unumli bandlik darajasining pasayishi mehnat bozorining sifat jihatidan yangi chaqiriqlarga duch kelayotganini ko'rsatdi. Xususan, ish bilan band aholi soni oshib borayotgan bo'lsa-da, unumli band aholi ulushining kamayishi bandlikning barqaror va yuqori daromadli shakllariga o'tish sekin kechayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari kambag'allar orasida ish bilan bandlik darajasi nisbatan yuqori bo'lishiga qaramasdan, ularning faoliyati asosan past unumdorlikka ega, norasmiy va kam haq to'lanadigan ishlar bilan cheklanganini ko'rsatdi. Bu holat inson kapitalining to'liq realizatsiyasiga to'sqinlik qilib, mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikni pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ishlab chiqilgan integratsion-konseptual model unumli bandlik taqchilligi muammosini faqat iqtisodiy emas, balki institutsional va ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan bog'liq holda hal etish zarurligini ko'rsatdi. Kasaba uyushmalari, “Yagona milliy mehnat tizimi” va “Ijtimoiy himoya yagona reestri” o'rtasidagi o'zaro integratsiya unumli bandlikni kengaytirishda muhim institutsional asos bo'lib xizmat qilishi aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ish bilan unumli bandlikni ta'minlash kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy sharti ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Taklif etilgan model va empirik tahlillar O'zbekistonda mehnat bozorini sifat jihatidan isloh qilish va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqildi:

Birinchidan, mehnat bozorini baholashda rasmiy statistik ko'rsatkichlar tizimiga unumli bandlik indikatorlarini majburiy joriy etish zarur. Xususan, ish bilan bandlik darajasi bilan bir qatorda mehnat daromadining minimal iste'mol xarajatlariga nisbati, ish bilan band kambag'allik ulushi va norasmiy bandlik darajasi muntazam monitoring qilinishi lozim.

Ikkinchidan, hududiy mehnat bozori siyosatini ishlab chiqishda klaster tahlili natijalaridan faol foydalanish maqsadga muvofiq. Yuqori unumli bandlik taqchilligi kuzatilayotgan hududlarda maqsadli kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va yuqori qo'shilgan qiymatga ega ish o'rinlarini yaratishga yo'naltirilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

Uchinchidan, ish bilan band kambag'allar toifasini qisqartirish uchun ish haqi siyosatini mehnat unumdorligi va yashash minimumi bilan uzviy bog'lash talab etiladi. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori minimal iste'mol xarajatlariga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi va norasmiy sektorda ishlovchilarni rasmiy bandlikka o'tkazish mexanizmlari kuchaytirilishi lozim.

To‘rtinchidan, inson kapitalini rivojlantirish siyosati unumli bandlikni kengaytirishning asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralishi kerak. Ta‘lim, kasbiy tayyorgarlik, raqamli ko‘nikmalar va inklyuziv bandlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar mehnat bozorining uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlaydi.

Beshinchidan, ijtimoiy himoya va bandlik siyosati o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarur. “Ijtimoiy himoya yagona reestri” va “Yagona milliy mehnat tizimi” o‘rtasida ma‘lumotlar almashuvini takomillashtirish orqali kambag‘allikdan unumli bandlikka o‘tish jarayonini tezlashtirish va davlat resurslarining samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston — 2030» Strategiyasi to‘g‘risida PF-158-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. International Labour Organization. Decent Work and the Sustainable Development Agenda. Geneva, 2016. p56.
3. International Labour Organization. Employment Policy Convention, 1964 (No.122).
4. Gary Becker. Human Capital. University of Chicago Press, 1964. p287.
5. Jacob Mincer. Schooling, Experience and Earnings. NBER, 1974. P152.
6. Marshall A. Principles of Economics. London, 1890. p75.
7. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London, 1936. p403.
8. Solow R. A Contribution to the Theory of Economic Growth. QJE, 1956. P354.
9. Douglass North. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. 1990. p.325.
10. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. 2015. p.302.
11. Autor D. *The Work of the Future*. MIT Press, 2022. 188 pp.
12. De Mello, L. and M. A. Dutz (eds.) (2012), Promoting Inclusive Growth: Challenges and Policies, OECD Publishing. <http://dx.doi.org/10.1787/9789264168305-en>
13. Qurbonov S.P. “Kambag‘allik qopqoni” faolligi va uni unumli bandlik tamoyillari asosida so‘ndirish imkoniyatlari “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali, 2025-yil 3-son, 84-104b.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



PREPARING UZBEKISTAN'S LABOUR FORCE FOR WTO INTEGRATION: RISKS AND POLICY DIRECTIONS

Juliev Zukhriddin Yuldashevich

PhD, Lecturer, Westminster International University in Tashkent

e-mail: zjuliev@wiut.uz

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a211

Abstract. This article identifies the key risks in labor markets associated with Uzbekistan's accession to the World Trade Organization (WTO). While deeper trade integration typically enhances national productivity, as domestic industries adjust and reallocate resources toward sectors where the country holds a comparative advantage, trade liberalization also comes with short-term labor-market risks. These risks, associated with the sectoral reallocation of the workforce, include potential worker displacement due to import competition (particularly in low-productivity sectors), wage stagnation, deepening informality, and widening skill mismatches. Based on descriptive data we identify risks and propose targeted policies designed to smooth these short-term disruptions in labor markets.

Keywords: Uzbekistan's accession to the WTO, economic integration, trade liberalization risks, labor-market adjustment, sectoral reallocation, labour market

O'ZBEKISTON MEHNAT RESURLARINI JST INTEGRATSIYASIGA TAYYORLASH: XATARLAR VA IQTISODIY SIYOSAT YO'NALISHLARI

Juliyev Zuxriddin Yuldashevich

PhD, O'qituvchi, Toshkentdagi Xalqaro Vestminster Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi bilan bog'liq mehnat bozoridagi asosiy xatarlar ko'rib chiqilgan. Xalqaro savdoning chuqurroq integratsiyasi mahalliy sanoat vakillari mamlakat qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan tarmoqlarga moslashishi va resurslarni qayta taqsimlashi orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshishiga olib keladi. Biroq, savdoni erkinlashishi qisqa muddatli mehnat bozori xatarlarini ham keltirib chiqaradi. Bu xatarlar mehnat resurlarining tarmoqlararo qayta taqsimlanish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: importga raqobatchi tarmoqlarda ishchilarning ehtimoliy ishdan bo'shatilishini oshishi (ayniqsa, unumdorligi past tarmoqlarda), ish haqi turg'unligi, norasmiy bandlikning oshishi va malaka nomutanosibliklarining kengayishi. Olingan ma'lumotlar va aniqlangan xatarlarga asoslanib, biz mehnat bozorlaridagi ushbu qisqa muddatli xatarlarni yumshatishga qaratilgan maqsadli takliflarni beramiz.

Kalit so'zlar: O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi, iqtisodiy integratsiya, savdoni liberallashtirish xatarlari, mehnat bozori moslashishi, tarmoqlararo qayta taqsimlash, mehnat bozori

ПОДГОТОВКА РАБОЧЕЙ СИЛЫ УЗБЕКИСТАНА К ИНТЕГРАЦИИ В ВТО: РИСКИ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОЛИТИКИ

Жулиев Зухриддин Юлдашевич

PhD, Лектор, Международный Вестминстерский университет в
Ташкенте

Аннотация. В данной статье определяются ключевые риски на рынках труда, связанные с предстоящим вступлением Узбекистана во Всемирную торговую организацию (ВТО). Хотя более глубокая торговая интеграция, как правило, повышает национальную производительность, поскольку отечественные отрасли адаптируются и перераспределяют ресурсы в сектора, в которых страна обладает сравнительным преимуществом, либерализация торговли также несет краткосрочные риски для рынка труда. Эти риски, связанные с межотраслевым перераспределением рабочей силы, включают потенциальное сокращение рабочих мест из-за импортной конкуренции (особенно в секторах с низкой производительностью), стагнацию заработной платы, углубление неформальности и расширение несоответствия навыков. На основе описательных данных и выявленных рисков мы предлагаем целенаправленную политику, призванную сгладить эти краткосрочные сбои на рынках труда.

Ключевые слова: вступление Узбекистана в ВТО, экономическая интеграция, риски либерализации торговли, корректировка рынка труда, межотраслевое перераспределение, рынок труда

Introduction

Uzbekistan is entering a decisive phase in its economic development as it finalizes negotiations for accession to the World Trade Organization (WTO). WTO membership is expected to reinforce the market transformation by promoting free and rules-based trade, which can stimulate long-term economic growth through increased market access, technology transfer, and greater foreign investment. Free trade offers considerable benefits for emerging economies such as Uzbekistan. On average members enjoyed on average 1-1.5% higher economic growth within a decade (WTO, 2024). By lowering trade barriers and increasing integration into global value chains, countries can realize long-term productivity and efficiency gains by reallocating resources toward sectors with a comparative advantage (Melitz, 2003).

However, the benefits of greater integration into world trade are not without challenges. WTO accession can intensify competition in domestic markets, posing risks to vulnerable sectors and to workers in industries that may not be prepared to compete with imported goods or multinational producers. In this context, the labour market becomes a critical area of concern. While the reforms may create new opportunities for highly skilled workers in competitive sectors, they may simultaneously threaten jobs in industries with lower productivity, limited technology adoption, or weak market positioning. Without adequate precautions, workers facing displacement could experience income shocks, unemployment, or downward mobility, thereby eroding public support for trade reforms.

This article aims to assess the potential labour market risks associated with Uzbekistan’s WTO accession and propose targeted policies that ensure a smooth and inclusive adjustment process. Its objective is to help policymakers reduce the adverse effects of increased foreign competition on vulnerable workers employed under tradeable sectors and support skill upgrading and employment opportunities within a more open and competitive economy.

Literature Review

The current literature regarding trade adjustment in labor markets provides clear direction for identifying possible short-term risks associated with trade liberalization.

First, trade liberalization generates employment risks, particularly in tradable sectors where competitive pressures are most intense. These risks are often concentrated in industries that rely heavily on low-skilled labor or occupations requiring minimal training (Busse et al., 2024; Feiyang Shi, 2024). As import competition rises, economies undergo structural adjustments that require displaced workers to transition into new occupations or sectors. However, such mobility is often slow and difficult. Challenges in occupational mobility are not unique to developing countries with less mature labor markets; they are also well documented in advanced economies. Autor et al. (2014, 2016) show that trade-induced displacement frequently leads to occupation switching, downward mobility, lower wages, or unemployment, particularly for less-skilled workers or those performing manual tasks.

The ability of a regional economy to absorb workers changing occupations plays a key role in mitigating individual losses during periods of structural change induced by trade. This absorption capacity is directly tied to the existing industry composition (Yi et al., 2024). Regions characterized by a diverse mix of related industries and jobs where existing skills are highly transferable typically face lower occupational mobility costs. This environment allows workers displaced from a contracting sector (e.g., agriculture) to transition more smoothly into expanding sectors (e.g., industry or services) within the same geographic area, reducing the need for costly geographic relocation (migration). Ultimately, a region's industrial structure and its ability to facilitate these skill-based transitions are crucial in mitigating the negative economic and social effects of large-scale disruptions.

Another significant risk avenue stems from the potential for the informalization of firms, specifically Small and Medium Enterprises (SMEs) (Goldberg and Pavcnik, 2003; Menezes-Filho et. al , 2011). In an environment of increased import pressure and tighter market competition, SMEs are more likely to pursue cost-minimizing adjustments, including downsizing employment, cutting wages, or shifting workers into informal arrangements. In the absence of strong labor regulations and enforcement mechanisms, this behavior may accelerate informalization as firms attempt to reduce compliance costs to survive.

Finally, literature also warns about the institutional risks associated with restructuring economic sectors in alignment with international requirements. A specific institutional risk identified relates to the agricultural labour market, where rural workers and small farmers, particularly in cotton and horticulture, face difficulties in complying with stringent international sanitary and phytosanitary (SPS) requirements (OECD, 2025). The rising official and private standards, involving stricter entry requirements and costly safety and logistics demands, can undermine the competitiveness of small, poorer countries and push small and medium-sized enterprises (SMEs) and small farmers out of crucial export supply chains, leading to potential job losses and reduced income opportunities (Jeffee and Hanson, 2004).

In the following sections, we will discuss the current status of the labor market in Uzbekistan, examine the aforementioned risks, and propose possible policy solutions.

Methodology

Our analysis utilizes descriptive labor market data obtained from the National Committee of Statistics of Uzbekistan to evaluate the above-mentioned risks within the current national context.

Results and Discussion

Current Labour Market and Displacement Risk. Uzbekistan’s labour market remains dominated by employment in agriculture, which accounts for over 20% of total jobs (Figure 1). The manufacturing sector represents the second largest source of employment (over 10%), with the majority of workers concentrated in food processing and textiles sectors. These sectors are simultaneously labour-intensive and low-skilled, making them particularly vulnerable to increased foreign competition following WTO accession. As tariffs fall and imports expand, firms in these industries may experience pressure to restructure or downsize, placing their workers at disproportionate risk of unemployment. For example, within the most vulnerable groups of people may fall, women, who are disproportionately employed in textile and light-manufacturing industries, which are among the sectors most exposed to import competition. Workers displaced from agriculture or low-skill manufacturing often face limited mobility into non-tradeable or higher-productivity sectors, where employment increasingly requires technical qualifications, digital competencies, and certified vocational training.




Figure 1. Employment share in Total Employment by Sector in 2024

Source: Author's own calculation using data from National Statistics Committee of Uzbekistan (uzstat.uz)

High cost of displacement could be smoothed by inter-sectoral or inter-regional mobility of the labour. However, there are significant disparities in the regional distribution of industry within Uzbekistan. For example, the Navoiy region has a sharply high share in industry (78.5%), while agriculture is low (5.3%) (Figure 2). Conversely, regions like Jizzakh (24.8% agriculture) and Surxondaryo (23.9%) have an agricultural predominance, which causes the population to migrate to industrialized centers or centers with developed service sectors, particularly to Tashkent city, where the service sector accounts for 65.7%. Regional industrial imbalances suggest that workers facing sectoral displacement may be better off taking inter-regional migration to find jobs aligned with their existing skills, rather than retraining for new industries. High migration costs may prevent smooth flow of labor between regions leading workers to end up in low return human capital sectors if they stay in their own regions. Sensible policy would be providing generous inter-regional mobility assistance to those who are affected (Yi et al., 2024). Without targeted policies to cushion the transition, structural changes can lead to prolonged unemployment, downward wage pressures, or movement into informal or precarious work among vulnerable groups.




Figure 2. Sectoral structure of GRP for January-March 2025, in % to total

Source: Report by National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan: Gross domestic product of the Republic of Uzbekistan January-March 2025.

Wage inequality and skills mismatch risk. Recent labour market trends in Uzbekistan indicate that wage growth has been strongest in sectors requiring higher skills and professional qualifications (Figure 2). In contrast, sectors that currently employ the majority of workers, such as agriculture, manufacturing, and construction, experienced quarterly nominal wage growth of less than 5 percent, while wages in high-skilled services grew at a much faster pace. WTO accession may exacerbate this wage divergence, since workers in low-skill trade-exposed sectors may face significant transition costs. Specifically, the rapid movement of workers from tradeable sectors (such as textiles or food processing) into non-tradeable services could increase labour supply in those sectors, placing downward pressure on wages and intensifying competition for jobs. Transition costs are likely to arise from the need for re-training, digital skills upgrading, vocational certification, or occupational requalification, which many workers may not be able to afford without state assistance. Without policies to manage skills mismatches and cushion adjustment, WTO-driven restructuring risks amplifying wage inequality and labour market instability.

Business Informalization Risk. Although sectoral labour statistics do not yet provide detailed information by firm size, available enterprise data highlight that Uzbekistan’s labour market is heavily shaped by small and medium-sized enterprises (SMEs). A recent update from the National Statistical Committee shows that 84 percent of all registered firms operate as SMEs, and in highly trade-exposed sectors such as agriculture, manufacturing,

and food processing the share reaches up to 98 percent (Table 1). Majority of small firms operate in trade, industry and agricultural sectors (Figure 3).




Figure 3. Average Quarterly Nominal Wage Change by Sector (2017 Q1 - 2024 Q4)

Source: Author’s own calculation using data from National Statistics Committee of Uzbekistan (uzstat.uz)

While SMEs often benefit from flexible employment structures and lower administrative costs, they will also be the most sensitive to increased competition following WTO accession. In an environment of increased import pressure and tighter market competition, SMEs are more likely to pursue cost-minimizing adjustments, including downsizing employment, cutting wages, or shifting workers into informal arrangements. In Uzbekistan, the current labour code requires that all employment relationships be formalized through a written employment contract, which is a key legal mechanism for ensuring workers’ rights and state oversight. However, the reality is that firms sometimes use informal arrangements, a practice which can be exacerbated by trade liberalization. In the absence of strong labour regulations and enforcement mechanisms, this may accelerate informalization¹⁵ as firms attempt to reduce compliance costs to survive. Consequently, vulnerable workers employed in SME-dominated sectors could face job instability, income insecurity, and limited access to social protection during the transition period.

¹⁵ Here, informalization refers to firms shifting part or all of their operations into the informal sector in order to avoid regulatory and compliance costs.

Table 1

Number of firms per sector for 2024 in Uzbekistan

Sectors	Total Number of Firms	Number of SMEs	Share of SMEs
Agriculture, forestry and fisheries	30952	30369	0.9812
Mining and quarrying	2116	2069	0.9778
Manufacturing industry	52027	51319	0.9864
Electricity, gas, steam and air conditioning	528	473	0.8958
Water supply; sewerage, waste collection and disposal	975	831	0.8523
Construction	27408	26933	0.9827
Wholesale and retail trade; repair of motor vehicles and motorcycles	137109	136352	0.9945
Transportation and storage	15778	15545	0.9852
Accommodation and food services	26135	25947	0.9928
Information and communication	9777	9341	0.9554
Financial and insurance activities	2625	2452	0.9341
Operations with real estate	14143	8837	0.6248
Professional, scientific and technical activities	17969	11752	0.6540
Activities for the management and provision of support services	11823	11157	0.9437
Public administration and defense; compulsory social security	13394	2	0.0001
Education	30016	5619	0.1872
Health and Social Service Delivery	10753	9254	0.8606
Arts, entertainment and recreation	5134	2749	0.5354
Provision of other types of services	16177	7115	0.4398
Activities of households employing domestic workers and producing goods and services for their own consumption	1	0	0.0000
Activities of extraterritorial organizations	0	0	-
Total	424840	358116	0.8429

Source: Author’s own calculation using data from National Statistics Committee (uzstat.uz)

Regulatory and Institutional Challenges Risk. A related institutional risk concerns the agricultural labour market, which is particularly relevant in Uzbekistan given the sector's importance for employment and poverty reduction. Rural workers and small farmers, particularly in cotton and horticulture, are likely to face difficulties complying with stringent international sanitary and phytosanitary (SPS) requirements, a challenge explicitly acknowledged as the country aligns its national legal framework with WTO rules during its accession process.




Figure 4. Share of operating small enterprises and microfirms by type of economic activity (as of 01.01. 2025)

Source: PRESS-RELEASE by National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan “Main indicators of the activities of small enterprises and microfirms in the Republic of Uzbekistan”, Release date: 23.07.2025

Although these standards enhance competitiveness in the long run, the transition period could exclude small producers from export markets - especially traditional CIS markets with different legacy standards, as well as new markets in China and the EU. This exclusion is a significant concern if they are not supported with compliance assistance, financial incentives, and institutional capacity-building. Fostering "employment-friendly adaptive importing" policies in the agricultural sector might also help mitigate these risks by allowing a managed transition that balances the immediate needs of domestic employment with the long-term goals of international compliance and competitiveness.

Conclusion

Uzbekistan's pursuit of World Trade Organization (WTO) membership offers a significant opportunity for economic modernization and global integration, potentially fostering export-driven growth. However, without robust labor safeguards, trade liberalization risks leaving many workers behind due to immediate job displacement in import-competing sectors, skill mismatches, and high transition costs.

Increased competition in import-competing sectors may lead to large worker layoffs. To mitigate this, labor mobility - both between sectors and inter-regionally - is important. Without robust safeguards to address high mobility costs, displaced workers might move to less productive, low-wage, and low-skilled sectors, further depressing overall wages.

Another risk arising from trade liberalization is the potential for firms to informalize their operations, choosing to employ workers informally to avoid costs associated with formal employment. This trend would place further economic burden on already vulnerable worker groups.

To mitigate above mentioned risks in workforce and leverage the opportunities of WTO accession, Uzbekistan should adopt a proactive, multi-pronged labour policy strategy:

1. Support Sectoral Workflow from Import Competing Industries

- Adopt inter-regional migration stimulus packages (housing, moving subsidies).
- Create retraining funds and short-term unemployment assistance for displaced workers while transitioning to other occupations and jobs.
- Concentrate more on vulnerable target groups (rural, female workers).
- Align vocational education with internationally competitive, export-oriented sectors (e.g., IT, logistics, agro-processing).

2. Encourage Formalization

- Offer tax incentives or social insurance subsidies to SMEs that formalize labour contracts.
- Strengthen labour inspections but ease compliance burden for small businesses.

3. Strengthening Institutions & Regulatory Framework

- Ensure phased liberalization: review labour regulation changes in tandem with trade commitments.
- Build capacity in employment services to track displaced workers, match them to new opportunities, and monitor outcomes.

The successful and equitable realization of the benefits of trade expansion necessitates the government proactively implementing policies designed to manage sectoral transitions, invest heavily in skills development, formalize employment practices, and establish strong social support systems for vulnerable populations. This inclusive strategy is crucial not only for protecting workers in the short run but also for cultivating a dynamic, resilient, and productive labor market capable of sustaining long-term economic development as the nation integrates into the global trading system.

The analysis is descriptive and prognostic in nature; it aims to outline potential future risks based on current trends. Crucially, this study does not employ a causal analysis, as that would require a deeper, micro-level investigation beyond the scope of this paper.

References

1. World Trade Organization (2024). World Trade Report 2024: Trade and inclusiveness: How to make trade work for all. World Trade Organization. https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/wtr24_e/wtr24_e.pdf
2. Melitz, M.J., 2003. The impact of trade on intra-industry reallocations and aggregate industry productivity. *Econometrica*, 71(6), pp.1695-1725. <https://doi.org/10.1111/1468-0262.00467>

3. Busse, M., Dary, S.K. and Wüstenfeld, J. (2024). Trade liberalisation and manufacturing employment in developing countries. *Structural Change and Economic Dynamics*, 70, pp.410-421.
<https://doi.org/10.1016/j.strueco.2024.05.003>
4. Shi, F., (2025). Import shock and local labour market outcomes: A Sino-Indian case study. *Empirical Economics*, 68(2), pp.915-962.
<https://doi.org/10.1007/s00181-024-02650-8>
5. Autor, D.H., Dorn, D., Hanson, G.H. and Song, J. (2014). Trade adjustment: Worker-level evidence. *The Quarterly Journal of Economics*, 129(4), pp.1799-1860. <https://doi.org/10.1093/qje/qju026>
6. Autor, D.H., Dorn, D. and Hanson, G.H. (2016). The China shock: Learning from labour-market adjustment to large changes in trade. *Annual review of economics*, 8(1), pp.205-240.
<https://doi.org/10.1146/annurev-economics-080315-015041>
7. Yi, M., Mueller, S. and Stegmaier, J., 2017. Transferability of skills across sectors and heterogeneous displacement costs. *American Economic Review*, 107(5), pp.332-336. <https://doi.org/10.1257/aer.p20171024>
8. Goldberg, P., & Pavcnik, N. (2003). “The Response of the Informal Sector to Trade Liberalization.” *Journal of Development Economics*, 72(2), 463–496. [https://doi.org/10.1016/S0304-3878\(03\)00116-0](https://doi.org/10.1016/S0304-3878(03)00116-0)
9. Menezes-Filho, N.A. and Muendler, M.A. (2011). Labour reallocation in response to trade reform (No. w17372). National Bureau of Economic Research. <https://doi.org/10.3386/w17372>
10. OECD (2025). *Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2025: Making the Most of the Trade and Environment Nexus in Agriculture*, OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/a80ac398-en>
11. Jaffee, Steven, and Spencer Henson (2004). *Standards and agro-food exports from developing countries: Rebalancing the debate*. Vol. 3348. World Bank Publications, 2004.
12. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2025): *Bandlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (yillik); Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (choraklik); Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (iqtisodiyot tarmoqlari kesimida, yillik); Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiyot tarmoqlari kesimida, yillik)*
13. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2025). Press-release: “Main indicators of the activities of small enterprises and microfirms in the Republic of Uzbekistan”, Release date: 23.07.2025
14. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2025). Report: *Gross domestic product of the Republic of Uzbekistan January-March 2025*. Available at: https://stat.uz/img/analitika-vvp_ang_p43912.pdf



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINING VAZIFALARI

Iskandarov Shaxboz Shavkat o'g'li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti tayanch doktoranti

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a212

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida ishsizlikning kelib chiqish sabablari, shuningdek raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi bandligining keskinlashuviga ta'sir etuvchi omillar keltirilgan va tahlil qilingan. Aholi bandligining keskinlashuvi sharoitida oliy ta'lim xizmatlarining vazifalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xizmat, bandlik, ishsizlik, raqobat, xizmat ko'rsatish, oliy ta'lim xizmatlari, ish haqi, kredit, inflyatsiya, bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik, migratsiya, korrupsiya.

ФУНКЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Искандаров Шахбоз Шавкат угли
докторант Самаркандского университета
имени Шарафа Рашидова

Аннотация. В данной статье перечислены и проанализированы причины возникновения безработицы в годы независимости, а также факторы, влияющие на ухудшение занятости населения в условиях цифровой экономики. В контексте ухудшения занятости населения задачи служб высшего образования научно обоснованы.

Ключевые слова: Сфера услуг, занятость, безработица, конкуренция, Сервис, услуги высшего образования, заработная плата, кредит, инфляция, рыночная экономика, предпринимательство, миграция, коррупция.

THE FUNCTIONS OF HIGHER EDUCATION IN PROVIDING EMPLOYMENT FOR THE POPULATION

Iskandarov Shakhboz Shavkat ugli
Doctoral Student at Samarkand State University
named after Sharaf Rashidov

Abstract. This article lists and analyzes the causes of unemployment during the years of independence, as well as the factors that contribute to the decline in employment in the digital economy. In the context of the decline in employment, the objectives of higher education services are scientifically justified.

Keywords: Service sector, employment, unemployment, competition, service, higher education services, wages, credit, inflation, market economy, entrepreneurship, migration, and corruption.

Kirish

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi iqtisodiy tizimga o'tish jarayonida erkin bozor munosabatlari shakllandi. Bu ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarida, ayirboshlash, taqsimlash, iste'mol jarayonida, shuningdek, mulkiy munosabatlarda tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan ushbu tizim milliy iqtisodiyotni ekstensiv rivojlanish yo'lidan intensiv rivojlanish yo'liga o'tkazdi. Intensiv rivojlanish yo'li barcha tabiiy va iqtisodiy resurslardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Milliy iqtisodiyot intensiv rivojlanishi natijasida iqtisodiyotning o'sish sur'atlari jadallashadi, resurslardan foydalanish samaradorligi, xodimlarning mehnat unumdorligi oshadi, yaratilayotgan maxsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxi pasayadi, sifati yaxshilanadi. Ammo iqtisodiyot sektorlarida yangi texnologiyalarni qo'llash natijasida iqtisodiyotda band bo'lgan aholining nisbiy qisqarishi sodir bo'ladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillari bandlik muammosining keskinlashuviga quyidagi o'zgarishlar kuchli ta'sir qilgan:

- milliy iqtisodiyotning soha va tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshishi;
- milliy iqtisodiyotning soha va tarmoqlarida fan va texnika yutuqlaridan foydalanish natijasida mehnat unumdorligining o'sishi;
- xususiy sektorlarda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining ortishi;
- O'zbekistonda demografik vaziyatni o'zgarishi (aholi sonining yil sayin ortib borishi, mehnat resurslarining ko'payishi).

Ushbu o'zgarishlar hozirgi kunga qadar ham aholi bandligini oshirishga salbiy ta'sir qilyapti. Ammo tadqiqotlarimiz bandlik muammosiga yuqoridagi o'zgarishlaridan tashqari yana quyidagi omillarning kuchli ta'sir etishini aniqladi:

- milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish natijasida aholi bandligini keskinlashishi;
- ichki bozorda tovar va xizmatlar narxining keskin oshishi;
- tashqi mehnat migratsiyasining kuchayishi.

Mamlakatda aholi bandligini ta'minlash borasida keskin choralar ko'rilmasa yoki oldini olish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqilmasa, yalpi ichki maxsulotni ishlab chiqarish hajmi keskin kamayib ketadi, kambag'allik darajasi oshadi. Har bir mamlakatda iqtisodiy muammolarni iqtisodiyot sektorlarining foydalanilmagan imkoniyatlarini ishga tushurish hisobiga bartaraf etiladi. Iqtisodiyot sektorlari aholini ish bilan ta'minlash va xizmat ko'rsatish borasida bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Shulardan kelib chiqib, oliy ta'lim xizmatlari ham milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish maqsadida bir qancha vazifalarni bajaradi. Milliy iqtisodiyotda oliy ta'lim xizmatlarining aholi bandligini ta'minlash borasida foydalanilmagan imkoniyatlarini tadqiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu bois hozirda oliy

ta’lim xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Hozirgi iqtisodchi olimlarning aholi bandligini ta’minlashga bag’ishlangan tadqiqot ishlarida xizmatlar sohasiga asosiy e’tibor qaratyotganligini ko’rish mumkin. Ammo zamonaviy iqtisodchilar aholi bandligini ta’minlash, turmush darajasini oshirish, kambag’allikni qisqartirish va shu kabi inson hayoti bilan bog’liq bo’lgan ijtimoiy muammolarni yechimini topishda oliy ta’lim xizmatlari muhim rol o’ynashini asoslab berdilar.

Masalan, B.D.Kalmetov ta’lim sektorining quyidagi vazifalari aholini yuqori daromadli ish bilan ta’minlashda muhim rol o’ynashini ilmiy jihatdan asoslab berdi: axborot bilan ta’minlash (ta’lim xizmatlarini ko’rsatuvchilar va iste’molchilar ta’lim muassasalar holati to’g’risida ma’lumot berish), vositachilik (ta’lim va iqtisodiy subyektlar o’rtasida aloqalarni rivojlantirish), narxni shakllantirish (talab va taklifni muvofiqligini ta’minlash), rag’batlantirish (ta’lim jarayonida yangi texnologiyalarni joriy qilish asosida ta’lim sifatini oshirish), ijtimoiy xizmatlarni ko’rsatish (ta’lim tizimida daromadlar bo’yicha tabaqalanishga imkon berish)[1]. B.D.Kalmetov tomonidan keltirilgan ta’lim tizimining vazifalari ham aholini yuqori daromadli ish bilan ta’minlash, mehnat bozorida muvozanatni o’rnatish kabi muhim muammolarni yumshatadi. Masalan, ta’lim tizimining axborot bilan ta’minlash vazifasi mehnat resurslariga mehnat bozorida qaysi kasb egalariga talab yuqori, ta’lim xizmatlarini ko’rsatuvchilariga esa qaysi soha vakillarini qancha tayyorlash kabi muhim muammolarni yechimini topish imkonini beradi.

N.R.Raxmonov “Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda oliy ta’lim tizimining roli” nomli ilmiy maqolasida oliy ta’lim xizmatlarining vazifalari doimo takomillashib, yangilanib borishini asoslab bergan. U bu borada quyidagi fikrni bildirgan: “Ta’lim sohasida axborot texnologiyalarni keng joriy qilinishi natijasida uning milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan texnologik va funksional aloqalari chuqurlashib boradi”[2]. Ba’zi manbalarda oliy ta’lim xizmatlarining quyidagi vazifalari keltirilgan[3]: qayta ishlash funksiyasi, rivojlantirish funksiyasi, kishilarda madaniyatni boyitish funksiyasi (ta’lim orqali inson butun olamni anglaydi, milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan tanishadi), professionallashtirish funksiyasi (ijtimoiy ishlab chiqarishda faolligini oshirish, kasbiy rivojlanishga yordam beradi), ijtimoiylashtirish funksiyasi (kishilarni ijtimoiy hayotga moslashtirish).

T.O.Razumova, I.G.Teleshovalar ham yangi jamiyat taraqqiyotida oliy ta’lim xizmatlari yangi vazifalarni bajarishini va unda aholini ish bilan ta’minlash, daromadni oshirish muhim o’rin egallashini e’tirof etganlar. Ularning ta’kidlashicha oliy ta’lim xizmatlari zamonaviy bozor iqtisodiyotining qisqa va uzoq muddatli o’zgarishlariga tezda moslashishini soha va tarmoqlar uchun mehnat resurslarini zamonaviy kasb va hunarlarga tayyorlash

vazifasini bajarishini ta’kidlaydi[4]. Tadqiqotlarimiz oliy ta’lim xizmatlarini yuqorida ta’kidlab o’tilgan vazifalardan tashqari yana quyidagi muhim vazifalarni bajarilishini ham aniqladi. Masalan, V.V.Kindinova oliy ta’lim xizmatlari iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini mustaqilligini ta’minlashda muhim rol o’ynashini asoslab beradi. Bunda u oliy ta’lim xizmatlari faqatgina mehnat bozori uchun kadrlarni tayyorlash emas, balki muayyan bir soha va tarmoqlarni mustaqilligini ta’minlash uchun maxsus kadrlarni yetkazib berish bilan ham shug’ullanadi, deb ta’kidlaydi[5].

Tadqiqot metodologiyasi

Ta’lim sektorining milliy iqtisodiyotdagi o’rnini, xizmatlarining mohiyatini va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, monografik tadqiqot, taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat unumdorligining o’sishi asosida iqtisodiyotni jadal sur’atlarda rivojlantirishning yetakchi omili hisoblanadi. Ba’zi soha va tarmoqlarda axborot texnologiyalarining kirib borishi va undan foydalanish natijasida mutaxassislarning qisqarishi sodir bo’ldi.

1-jadval

O’zbekistonda bandlarning iqtisodiyot faoliyat turlari bo’yicha taqsimlanishi, ming kishi

№	Iqtisodiyot tarmoqlari	Yillar		2024 yilning 2010 yilga nisbatan o’zgarishi, (+:-)
		2010	2024	
1	Qishloq xo’jaligi va baliq xo’jaligi	3118,1	3240,7	+122,6
2	Sanoat	1605,7	1729,3	+123,6
3	Qurilish	1033,7	1360,1	+4
4	Ulgurji va chakana savdo	1235,6	1504,8	+269,2
5	Tashish va saqlash	509,9	601,5	+91,6
6	Yashash va ovqatlanish bo’yicha xizmatlar	249,2	363,5	+114,3
7	Axborot va aloqa	53,1	98,6	+45,5
8	Moliyaviy va sug’urta faoliyati	69,9	79,0	+9,1
9	Ta’lim	1102,0	1320,2	+218,2
10	Sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni ko’rsatish	596,2	695,2	+99,0
11	San’at, ko’ngil ochish va dam olish	64,4	66,6	+2,2
12	Boshqa turdagi xizmat ko’rsatish	1990,6	3202,4	+1211,8
Jami iqtisodiyot bo’yicha		11628,4	14261,9	+2633,5

1-jadval ma’lumotlaridan O’zbekiston iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida band bo’lgan ishchi xodimlar soni qisqarganligini ko’rish mumkin. Bunday o’zgarish milliy iqtisodiyotning sanoat, qishloq xo’jaligi, tashish va saqlash, yashash va ovqatlanish, moliya va

sug’urta, ta’lim, sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish, san’at, ko’ngil ochish va dam olish kabi tarmoqlarda sodir bo’lgan. Masalan, sanoat aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo’lgan sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada sodir bo’lgan ishchi xodimlarning qisqarishi bunga yaqqol misol bo’la oladi. 2010 yilda ushbu sohada iqtisodiyotda band aholining qariyb 14.0 foizi (1605.7 ming kishi) mehnat qilgan. 2024 yilda esa ushbu sohada ishchi xodimlar soni atigi 123.6 ming kishiga ko’paygan. Yoki aytaylik, xizmatlar sohasining moliyaviy va sug’urta tarmog’ida band bo’lgan ishchi xodimlar soni 2024 yilda 2010 yilga qaraganda 9.1 ming kishiga oshgan. Sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni ko’rsatish tarmoqlarida esa band bo’lgan ishchi xodimlar soni 100.0 ming nafarga oshgani ham yo’q. Vaholanki 2010 va 2024 yillarda mehnat resurslar soni 1.2 martaga, mehnatga layoqatli aholi ham 1.2 martaga oshgan[6]¹⁶. Demak, iqtisodiyot tarmoqlarida 14 yil ichida band aholi soni ortgan bo’lishi tabiiy. Ammo tahlillarimiz milliy iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarning foydalanishi natijasida band aholi soni keskin darajada qisqarganligini ko’rsatdi.

Tovar va xizmatlar narxining oshib borishi aholi bandligining qisqarishiga kuchli ta’sir qiladi. Tovar va xizmatlar narxining oshishi aholining ularga bo’lgan talabini qisqartiradi. Natijada ishlab chiqarish xajmi keskin kamayadi. Kuzatuvlarimiz O’zbekistonda oxirgi 10 yilda (2014 va 2024 yillarda) tovar va xizmatlar narxi keskin darajada oshib borganligini aniqladi. Shunga mos ravishda aholi daromadlari oshgan. Ammo aholining real daromadlari oshib borganligiga qaramasdan, ularning talab va istaklarini to’la qondirish imkonini bermadi. Shu bois soha va tarmoqlarda, xususi sektorlarda mehnat qilgan ishchi xodimlar qulay fursat topganda (yuqori daromadli ish) o’z ish joylarini o’zgartirishdi.



1-rasm. O’zbekistonda inflyatsiya va ishsizlik darajasi, foizda

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси миллий статистика қўмитаси маълумотлари. www.stat.uz

Milliy iqtisodiyot tarmoqlari kesimida sodir kadrlar qo'nimsizligi darajasining oshib borishi shulardan dalolat beradi (2-jadval).

2-jadval

2022-2023 yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari bo'yicha kadrlar qo'nimsizligi [7]

Iqtisodiyot tarmoqlari	Iqtisodiyotda bandlar soni, ming kishi		Ketganlar, ming kishi		Kadrlar qo'nimsizligi, %	
	Yillar		Yillar		Yillar	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami iqtisodiyot bo'yicha bandlar soni,	13706,2	14041,2	793,8	802,5	5,8	5,7
Shu jumladan tarmoqlarda						
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3438,7	3344,0	27,0	34,1	0,7	1,1
Sanoat	1810,6	1835,9	279,4	258,2	15,4	14,1
Qurilish	1314,3	1502,2	121,7	111,2	9,2	7,5
Savdo	1525,2	1586,1	85,5	90,4	5,6	5,7
Tashish va saqlash	633,1	640,4	38,6	40,3	6,1	6,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	348,8	367,2	23,5	28,7	6,7	7,8
Axborot va aloqa	77,3	87,8	15,1	17,7	19,5	20,2
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	69,6	73,4	11,7	12,1	16,8	16,5
Ta'lim	1268,7	1299,5	66,4	67,1	5,2	5,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish	671,3	694,8	46,0	54,3	6,8	7,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	71,7	71,9	6,8	6,7	9,4	9,3
Boshqa faoliyat turlari	2476,9	2511,0	72,1	81,7	2,9	3,2

Tadqiqotlar mamlakat iqtisodiyotida kadrlar qo'nimsizligi darajasi 5,8 foizni tashkil etishini ko'rsatdi (2-jadval). Ushbu ko'rsatkich belgilangan me'yordan qariyb 1,0 foizga ziyod. Garchand kadrlar qo'nimsizligi me'yordan ziyod bo'lsada, uning oqibatlari mamlakat taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Biroq milliy iqtisodiyotning sanoat, qurilish, axborot va aloqa, moliyaviy va sug'urta faoliyati, san'at, ko'ngil ochish va dam olish tarmoqlaridagi kadrlar qo'nimsizlik darajasi esa me'yordan anchaga, bizning xisobiz bo'yicha 6-7 foizga ziyod. Demak ushbu ma'lumotlar iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning ma'lum sabablarga (ish haqining pastligi, tovar va xizmatlar narxining yuqori darajasi va boshqa sabablar) ko'ra ishdan bo'shaganliklarini yoki aytdaylik ish joylarini o'zgartirganliklarini anglatadi.

O'zbekiston mehnatga layoqatli aholini rivojlangan mamlakatlarga shartnoma asosida ishga yuborish natijasida ishsizlik muammosi yumshadi, xorijiy valyutalar kirimi oshdi.

3-jadval

**Mehnat muhojirlari tomonidan yuborilgan pul jo'namatlarining
YaIM ulushi, foizda[8]**

№	Mamlakatlar nomi	Yillar								
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	O'zbekiston	6,7	11,5	14,5	14,2	11,7	13,3	20,6	17,7	18,8
2	Tojikiston	26,7	29,6	28,1	27,9	26,8	32,3	49,9	38,4	40,1
3	Qirg'iziston	29,2	32,2	32,5	28,7	31,8	32,5	26,6	18,6	24,1
4	Belarus	2,1	2,3	2,4	2,2	1,5	1,6	2,0	1,8	2,1
5	Germaniya	0,4	0,4	0,5	0,4	0,4	0,4	0,5	0,4	0,4
6	Italiya	0,5	0,5	0,4	0,5	0,5	0,6	0,4	0,5	0,5

Xorij mamlakatlarga aholining borib ishlashi ularning ijtimoiy muammolarga yechim topish, orzu havaslarga erishish, moddiy ahvolini yaxshilash imkonini berdi. Afsuski hozirgi kunda mehnat migratsiya ko'lamini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli keskin oshdi va ushbu jarayon shiddat bilan davom etayapti. Mehnat migratsiyasi xorijda ishlayotgan muhojirning faqatgina o'zining, oilasining moddiy imkoniyatini yaxshilash emas balki u butun mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois oxirgi paytlarda mehnatga layoqatli aholining xorij mamlakatlarga borib ishlash ishtiyoqi baland. 3-jadvalda mehnat muhojirlari tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalarining YaIM ulushi keltirilgan. Tojikistonda 2024 yilda mehnat muhojirlarining pul o'tkazmalari YaIMning 40,1 foizini tashkil etdi. Bu nisbiy ma'noda dunyoda eng katta ko'rsatkich. Qirg'izistonda pul o'tkazmalarining YaIM dagi ulushi 24 foizga, O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich qariyb 20,0 foizga yetgan. Mehnat muhojirlarining mamlakatiga pul o'tkazmalarining YaIMdagi ulushi bo'yicha reytingda O'zbekiston 20-o'rinda turadi. 2024 yilda O'zbekistonning mehnat muhojirlari xorijiy davlatlardan 16579,2 mln AQSh dollar yuborgan. Bu 2023 yildagidan 2410,4 ming AQSh dollarga ko'p. Ammo bugungi kunda mehnat muhojirlarimizning xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirmagani, xorij mamlakatlarning tarixini, urf-odatlarini bilmasligi yoki aytaylik biron-bir hunarga ega bo'lmasligi ularni yuqori daromadli ish o'rinlariga tavsiya qilinmagan. Masalan, 2022 - 2023 yillarda respublikamiz hududlarida tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish borasida mehnat migratsiyasida ishtirok etgan migrantlar kesimida aniq kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan turli hunar va kasb bo'yicha qisman boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lganlar yuqori ustunlikda 39,0%, hych qanday kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan migrantlar 40,3%, umumiy aniq kasb-hunarga ega bo'lgan migrantlar 20,7% ulush bilan keskin farqlanishi kuzatilgan. Mehnat migratsiya markazining yo'llanmasisiz xorij mamlakatlariga borib ishlayotgan mehnat muhojirlarimiz arzon ish joylarida, og'ir mehnat sharoitlarida ishlab kelmoqda. Masalan, Rossiya Federasiyasida biron-bir ma'lumotga ega bo'lmagan, xorij tillarni bilmagan, kasb-hunarga ega

bo'lmagan mehnat muhojirining o'rtacha oylik ish haqisi 450-500 AQSh dollarini tashkil etadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida xorijiy tilni o'zlashtirgan, xorij mamlakatning urf-odatlarini tushungan, ish tartibini o'rgangan mehnat muhojirining o'rtacha oylik ish haqi 1500-2387 yevroni tashkil etadi. Shuningdek, ular ham haftasiga 5 kun ish va bir kun dam olish imkoniga ega bo'ladi. Yuqori darajadagi ish haqi va mehnat sharoiti, mehnat muhojirlarining imkoniyatlarini kengaytirish va ularning daromadlarini oshirish uchun til bilishning muhimligi, o'zga mamlakatlarning urf-odat va madaniyatini o'rganish, tarixini bilish, biron-bir hunarni egallash muhimligini ko'rsatmoqda. Demak, voyaga yetib shakllanib borayotgan mehnat resurslarini ma'lumotini oshirish, muayyan bir xorij tillarini o'rgatish, zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish orqali ularni kelajakda xorij mamlakatlarda yuqori daromadli, ijtimoiy ximoyasi kafolatgan sohalarda ishlash ehtimoli katta bo'ladi. Shuning uchun ham oliy ta'lim xizmatlarini shunchaki rivojlantirish emas, balki chekka hududlarda uning xizmatlarini kirib borishi maqsadga muvofiqdir. Xorij mamlakatlarda ishlash, o'z o'rniga ega bo'lish, turli imtiyozlardan foydalanish, baxtli saodatli yashashi uchun bilim, zamonaviy hunarga ega bo'lish lozim. Bunda oliy ta'lim va uning qamrovi katta rol o'naydi.

Yuqorida qayd etilgan va boshqa bir qator omillarning ta'siri ostida aholini ish bilan ta'minlash muammosi, mehnat bozorida vaziyat yanada murakkablashish mumkin. Ushbu holatlar aholi bandligini ta'minlashda zamon talablariga javob beradigan, kelajakda mehnat bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'ir muammolarni bartaraf etishga molik modellarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bizning nazarimizda bunday modelni ishlab chiqishda (aholi bandligini ta'minlash) aholini ma'lumotini oshirish, zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish asosiy g'oya bo'lishi va ushbu model oliy ta'lim xizmatlar sifatini oshirish modeli, deb nomlanishi lozim.

Xulosa va takliflar

Iqtisodchi olimlarning, soha vakillarining oliy ta'lim sohasi vazifalari to'g'risidagi fikr mulohazalarini o'rganib, oliy ta'lim sohasining aholi bandligini ta'minlashda quyidagi vazifalarni ham bajaradi, degan xulosaga keldik.

Birinchidan, ish haqini oshirish vazifasi. Oliy ma'lumotli va yuqori malakali ilmiy salohiyatga ega bo'lgan xodimlar mehnatiga yuqori darajada ish haqi to'lanishini talab qiladi. Ayniqsa, mehnat bozorida raqobat avj olgan bir vaqtda oliy ma'lumotli xodimlarning mehnatiga talab yuqori bo'ladi. Hozirgi kunda deyarli ko'plab ish beruvchilar mehnatni sifatli bajarilishini istaydi. Shu sababli ular ishning sifatiga qarab ish haqi miqdorini oshirib boradi. Oliy ma'lumotli xodim ham vaqtini behuda o'tkazmaslik, belgilangan vaqtda unumli foydalanish uchun bor mahoratini, tajribasini ishga solib mehnat qiladi.

Ikkinchidan, mehnat bozori mexanizmlarini takomillashtirish vazifasi. Oliy ta'lim sohasi mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatadigan asosiy sektorlardan

hisoblanadi. U mehnat bozoridagi talab, taklif, narx va raqobat kategoriyalarni bir-biriga muvofiq ishlashiga undaydi. Masalan, mehnatni tashkil etish, uni boshqarish va baholash markazlarini tashkil etishda ularning alohida o'ri bor. Oliy ma'lumotli xodimlar mehnat bozorini tartibga solish uchun ish beruvchilarga xizmat turlarining paketini taklif etadi. Bunday xizmatlari bilan ular ish beruvchining vaqtini tejaydi, xizmatlar sifatiga kafolat beradi. Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq nizoli holatlarni bartaraf etadi. Shu tariqa ular mehnat resurslari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini taminlab beradi.

Uchinchidan, mehnat bozorining barqarorligini keskinlashtirish vazifasi. Oliy ta'lim bozorining o'ziga xos tomoni shundaki, kuchli raqobatga asoslanganligidir. Resurslarning taqsimlanishi narx mexanizmi orqali amalga oshadi. Oliy ta'lim sohasida u grand asosida tahsil olgani yoki aytaylik xususiy oliy ta'lim muassasasida ta'lim olgani mehnatga haq to'lash muammosini keltirib chiqaradi. Uzoq yillar davomida davlat granti asosida o'qib yurgan talaba bilan katta miqdorda moliyaviy mablag' sarflab xususiy oliy ta'lim muassasasida o'qigan talaba o'rtasida katta farq bor. Xususiy oliy ta'lim muassasasida tahsil olgan yoki aytaylik to'lov kontraktlari asosida o'qib bitirgan mehnat resursi yillar davomida sarflangan xarajatlarni qoplash maqsadida yuqori daromadli ish joylarga talabgorlik qiladi. Mehnat bozorida o'ziga munosib ish topmasa, u darhol yangi mehnat bozoriga intiladi yoki arzon ish joylarida ham mehnat qiladi. Hozirda mamlakatimizda 210 dan ziyod oliy ta'lim muassasalar mavjud. Ular juda katta miqdorda mehnat bozoriga o'z maxsulotlarini taklif qilishadi. Natijada mehnat bozorida mehnat resursiga bo'lgan taklif oshadi. Bularning barchasi mehnat bozorida beqarorlikni keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, kishilarni moliyaviy va shaxsiy mustaqilligini oshirish vazifasi. Oliy ma'lumotga ega bo'lgan xodim o'z-o'zini ish bilan ta'minlash imkoniga ega bo'ladi. U oliy ta'lim muassasasida egallagan bilim va ko'nikmalarini ishga solib kishilarga xizmat ko'rsatishi mumkin. Bu jarayon orqali u o'z faoliyatini mustaqil belgilaydi. U ishdan tashqari bo'sh vaqtida ham daromad topadi. Demak, oliy ta'limga ega bo'lgan xodim daromad topish masalasida mustaqil bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda oliy ma'lumotli xodimlar davlat yoki nodavlat korxonalarida ish bilan band bo'lish masalasida kamdan-kam holda murojaat qiladi. Ular o'z faoliyatini mustaqil belgilaydi. Muayyan faoliyat turlari bilan shug'ullanadi.

Demak oliy ta'lim xizmatlari ish haqini oshirish, mehnat bozori mexanizmlarini takomillashtirish, mehnat bozorini barqarorligini keskinlashtirish, kishilarni moliyaviy va shaxsiy mustaqilligini oshirish kabi vazifalari aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Kalmetov B.D. Obrazovatelnyy kompleks v rynochnoy ekonomike – T.:Adolat, 2003. – B. 47.

2.Raxmonov R.N. “I“Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda oliy ta’lim tizimining roli” qtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020 yil.B.261.

3.<https://imes.su/press-tsentr/stati/kakim-interesam-sluzhit-sistema-vysshego-obrazovaniya/>

4.Razumova T.O. Teleshova I.G. Transformasiya sistema vysshego obrazovaniya: vyzovy i perspektivy. / Uroven jizni naseleniya regionov Rossii 2023. Tom 19. S.339.

5.Kindinova V.V., i dr. Sostoyaniye, problemy i perspektivy razvitiya sovremennogo obrazovaniya. Monografiya g. Petrozavodsk MSNP «NOVAYa NAUKA» 2023. S.39.

6.O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
www.stat.uz

7.O‘zbekistonda mehnat va bandlik. Statistik to‘plam. Toshkent, 2024 yil. B.76.

8.<https://www.theglobaleconomy.com/>



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN INKLYUZIV TADBIRKORLIK BO'YICHA ILMIY TADQIQOTLARNING BIBLIOMETRIK TAHLILI (R DASTURI ASOSIDA)

Jumayeva Muxlisa Abdug`ani qizi

Alfraganus universiteti “Menejment va
marketing” kafedrası v.b.dotsenti

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a213

Annotatsiya. Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv tadbirkorlik sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning rivojlanish tendensiyalari, intellektual tuzilmasi va asosiy tematik yo'nalishlari bibliometrik yondashuv orqali tahlil qilinadi. Tahlil Scopus bazasida 2000–2025 yillarda biznes va iqtisodiyot sohasida nashr etilgan materiallarga asoslandi hamda R dasturi yordamida amalga oshirildi. Ilmiy mahsuldorlik, mamlakatlar faolligi, kalit so'zlarning qo'shma uchrashi, tematik xaritalash orqali inklyuziv tadbirkorlik bo'yicha ilmiy maydonning asosiy jihatlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: inklyuziv tadbirkorlik, nogironligi bo'lgan shaxslar, bibliometrik tahlil, R dasturi.

БИБЛИОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИНКЛЮЗИВНОМУ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВУ ДЛЯ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ (НА ОСНОВЕ ПРОГРАММЫ R)

Джумаева Мухлиса Абдугани кизи

и.о. доцент кафедры «Менеджмент и маркетинг»
Университет Альфраганус

Аннотация. В статье анализируются тенденции развития, интеллектуальная структура и основные тематические направления научных исследований в области инклюзивного предпринимательства для лиц с инвалидностью с использованием библиометрического подхода. Анализ основан на материалах, опубликованных в 2000–2025 годах в области бизнеса и экономики и индексированных в базе данных Scopus, и выполнен с применением программного обеспечения R. На основе показателей научной продуктивности, активности стран, совместной встречаемости ключевых слов и тематического картирования выявлены ключевые характеристики научного поля инклюзивного предпринимательства.

Ключевые слова: инклюзивное предпринимательство, лица с инвалидностью, библиометрический анализ, программа R.

BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH ON INCLUSIVE ENTREPRENEURSHIP FOR PERSONS WITH DISABILITIES (R-BASED STUDY)

Jumaeva Mukhlisa Abdugani kizi

Acting Associate Professor, Department of

Management and Marketing
Alfraganus University

Abstract. This article analyzes the development trends, intellectual structure, and main thematic directions of scientific research on inclusive entrepreneurship for persons with disabilities using a bibliometric approach. The analysis is based on materials published in the field of business and economics between 2000 and 2025 and indexed in the Scopus database, and it is conducted with the support of the R software. Indicators of scientific productivity, country-level activity, co-occurrence of keywords, and thematic mapping are used to identify the key characteristics of the scientific field of inclusive entrepreneurship.

Keywords: inclusive entrepreneurship, persons with disabilities, bibliometric analysis, R software.

Kirish

Inklyuziv tadbirkorlik jamiyatda kamroq namoyon bo'ladigan guruhlarini, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy va iqtisodiy cheklanganlik holatini bartaraf etish vositasi sifatida tadbirkorlik faoliyatiga ongli ravishda jalb etishni anglatadi. Dunyo bo'ylab yuqori darajadagi ishsizlik va kambag'allikdan ko'proq zarar ko'radigan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun tadbirkorlik iqtisodiy mustaqillikka va ijtimoiy inklyuziyaga erishishning muhim yo'lidan biri bo'lishi mumkin. Daromad manbaini yaratishdan tashqari, tadbirkorlik nogironligi bo'lgan shaxslarga bevosita ko'rinmaydigan, ammo muhim ahamiyat kasb etadigan afzalliklarni ham beradi, ya'ni mustaqillik hissini kuchaytiradi, o'ziga ishonchni oshiradi va jamiyatdagi stigma darajasini kamaytirishga yordam beradi. Shu ma'noda inklyuziv tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy tushuncha, balki tenglik va inson qadri uchun tamoyiliga asoslangan jamiyat qurishdagi muhim omildir.

Shunga qaramay, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun tadbirkorlik muhiti ham mahalliy, ham global darajada hali ham turli tizimli muammolar va to'siqlar bilan o'ralgan. Tadbirkor bo'lishni istagan nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha infratuzilma va texnologiyalarning nogironlar uchun mos emasligi, boshlang'ich kapitalning yetishmasligi hamda rasmiy ko'mak va mentorlik imkoniyatlarining cheklanganligi kabi to'siqlarga duch keladilar [1]. Bu kabi institutsional to'siqlar va jamiyat munosabati nogiron tadbirkorlar uchun maxsus moslashtirilgan qo'llab-quvvatlash zarurligiga urg'u beradi.

Aytish joizki, so'nggi yillarda inklyuziv tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarda bir qator yutuqlar kuzatilmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari kabi xalqaro hujjatlar hamda O'zbekistonda qabul qilingan PF-85-son Farmon (08.05.2025) va PQ-266-son Qaror (18.07.2024) kabi milliy nogironlar huquqlari bo'yicha huquqiy asoslar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun iqtisodiy-ijtimoiy hayotda teng imkoniyatlar yaratishni ta'kidlaydi. Ko'plab davlatlar va tashkilotlar nogiron shaxslarning biznes boshlashi uchun trening, mikro-moliyalashtirish, mentorlik kabi dasturlarni joriy etganligi ham taqsimga sazovor.

Akademik maydonga kelsak, nogironligi bo'lgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar nisbatan tarqoq bo'lib, hali shakllanish bosqichida hisoblanadi[2]. Tadqiqotchilar ushbu yo'nalishda keng qabul qilingan nazariy asos yoki aniqlangan ta'rifning yo'qligi izlanishlarni solishtirishni va nazariya yaratishni murakkablashtirishini ta'kidlaydi [3]. Chindan ham, aholining turli qatlami vakillarining, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarning tadbirkorligi bo'yicha ilmiy qarashlarni yagona nazariy muloqotga bog'lash mavjud bilimlarni takroran yaratishdan qochishga va yaxlit ilmiy korpusni shakllantirishga yordam beradi. Bunday nazariy muloqot dalillarga asoslangan siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda ayniqsa muhimdir. Bibliometrik tahlillar va izchil ilmiy tadqiqotlar orqali esa inklyuziv tadbirkorlikning intellektual manzarasini xaritalash, bilimlardagi bo'shliqlarni aniqlash va ushbu sohadagi rivojlanishni kuzatish mumkin.

Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqot quyidagi tadqiqot savollariga javob berishni maqsad qiladi:

1. 2000–2025 yillar oralig'ida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv tadbirkorlik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar qanday rivojlanish tendensiyalari va intellektual tuzilmani namoyon etadi?

2. Inklyuziv tadbirkorlik tushunchasi nogironlik kontekstida qanchalik konseptual integratsiyaga erishgan va qaysi bilim bo'shliqlari mavjud?

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv tadbirkorlik bo'yicha global ilmiy izlanishlardagi tendensiyalarni o'rganish maqsadida bibliometrik yondashuvdan foydalanadi. Tadqiqot uchun ma'lumotlar Scopus bazasidan olinib, 2000–2025 yillarda chop etilgan hujjatlarni, ya'ni 25 yillik davrni qamrab oldi. Qidiruv uchun quyidagi so'rovdan foydalanildi:

TITLE-ABS-KEY(("entrepreneurship" OR "inclusive entrepreneurship" OR "social entrepreneurship" OR "self-employment" OR "economic empowerment") AND ("persons with disabilities" OR "disabled" OR "PwD" OR "disability")) AND PUBYEAR>1999 AND PUBYEAR<2026 AND (LIMIT-TO(SUBJAREA,"BUSI") OR LIMIT-TO(SUBJAREA, "ECON")) AND (LIMIT-TO(DOCTYPE,"ar") OR LIMIT-TO(DOCTYPE, "cp") OR LIMIT-TO(DOCTYPE, "re"))

Bu shuni anglatadiki, qidiruv tadbirkorlik va nogironlik masalalarini muhokama qiluvchi biznes yoki iqtisodiyot yo'nalishidagi ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari yoki sharhlarni qamrab olgan.

Bibliometrik tahlil R dasturidagi Bibliometrix paketi hamda uning veb-interfeysi — Biblioshiny yordamida amalga oshirildi. Ushbu vositalar turli tahlillarni bajarish va ilmiy hoshiyalarni vizuallashtirish imkonini berdi,

Tahlil va natijalar

Ushbu bobda inklyuziv tadbirkorlik bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning bibliometrik tahlili natijalari keltiriladi. 1-jadvalda 2000–2025 yillar davomida aniqlangan hujjatlar soni, ularning o'sish sur'ati,

mualliflar soni hamda nashr tiplari bo'yicha asosiy bibliometrik ko'rsatkichlar jamlangan. Mazkur ko'rsatkichlar keyingi bo'limlarda keltiriladigan tahlil va vizualizatsiyalar uchun empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval

Adabiyotlar haqidagi asosiy ko'rsatkichlar


Ko'rsatkichlar	Natijalar
Vaqt oralig'i:	2000–2025
Manbalar (jurnallar, kitoblar va boshqalar):	106
Adabiyotlar soni:	156
Yillik o'sish sur'ati, %:	11,44
Adabiyotning o'rtacha yoshi	5,26
O'rtacha iqtiboslar soni:	13,29
Hujjatlar mazmuni	
Kalit so'zlar Plus (ID):	196
Muallif kalit so'zlari (DE):	454
Mualliflar va hammualliflik	
Umumiy mualliflar soni:	402
Yakka mualliflikdagi hujjatlar soni:	24
Bir hujjatga to'g'ri keladigan hammualliflar soni:	2,81
Xalqaro hammualliflik ulushi, %:	25,64
Hujjat turlari	
Ilmiy maqola:	143
Maqola (qisqa/annotatsion):	1
Konferensiya material:	6
Taqriz/Sharh (review):	6

Manba: www.scopus.com saytidagi qidiruv natijasi

Mazkur jadval ma'lumotlari 2000–2025 yillar davomida inklyuziv tadbirkorlik bo'yicha ilmiy nashrlarning muntazam o'sib borayotganini va mavzuga qiziqish barqaror ravishda kuchayayotganini ko'rsatadi. O'rtacha iqtiboslar sonining nisbatan yuqoriligi keltirilgan ishlarning ilmiy jamoatchilikda ma'lum darajada tan olinganidan dalolat beradi. Mualliflar soni ko'pligi va har bir maqolaga to'g'ri keladigan hammualliflar ko'rsatkichi esa ilmiy hamkorlikning faol ekanini, ayniqsa xalqaro hammualliflik ulushining sezilarli bo'lishi transmilliy tarmoqning shakllanganini ifodalaydi.

Bibliometrik tahlil natijalariga ko'ra, inklyuziv tadbirkorlik sohasida eng sermahsul mualliflar sifatida Balunywa W, Dakung R.J. va Munene J.C.[4] aniqlandi. Ularning har biri 2000–2025-yillar davomida Scopusda indekslangan to'rttadan maqola chop etgan. Keyingi o'rinda Barba-Sánchez V[5] va boshqa bir qator tadqiqotchilar bo'lib, ular nufuzli jurnallarga uchtdan maqola taqdim etgan. Shuningdek, Alroaia YV, Salinero Y, Hidegh A.L., Kovalenko K.E.[6] kabi kengroq guruhdagi olimlar mazkur yo'nalishga ikkitadan ilmiy maqola bilan hissa qo'shgan.


Quyidagi 1-rasmda inklyuziv tadbirkorlik va nogironlik mavzusida Scopusda indekslangan maqolalarning yillar bo'yicha soni keltirilgan.



1-rasm. Yillik ilmiy nashrlar hajmi

Manba: muallif ishlanmasi

Yillik ilmiy nashrlar dinamikasi 2010-yildan boshlab inklyuziv tadbirkorlik, xususan nogironligi bo'lgan shaxslar bilan bog'liq tadqiqotlarga ilmiy qiziqishning barqaror va sezilarli ortib borayotganini ko'rsatadi. 2000–2010-yillarda deyarli o'zgarmagan nashrlar soni 2011–2015-yillarda biroz ko'tarilib, 2017-yildan boshlab tez sur'atda oshadi va 2018-yilda 20 dan ortiq maqola chop etilishi bilan eng yuqori ko'rsatkichga erishadi. Mazkur o'sish BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG), ayniqsa 8-maqсад (Munosib mehnat va iqtisodiy o'sish) hamda 10-maqсад (Tengsizliklarni qisqartirish) bilan bog'liq global inklyuzivlik siyosatining kuchayishi bilan izohlanadi.




2-rasm. Mamlakatlar kesimida ilmiy mahsuldorlik

Manba: muallif ishlanmasi

Ma'lum bo'ldiki, inklyuziv tadbirkorlik va nogironlik bo'yicha ilmiy nashrlar geografik jihatdan notekis taqsimlangan bo'lib, yetakchi ulushni asosan ichki hamkorlikka tayangan AQSh, undan keyin esa xalqaro hammualliflik ulushi yuqori bo'lgan Buyuk Britaniya beradi. Nigeriya, Hindiston va Avstraliya ham ko'p mamlakatli nashrlar orqali muhim hissa

qo'shsa, Malayziya va Kanada kabi davlatlarda tadqiqotlar deyarli faqat milliy doirada olib boriladi. Bu esa turli mamlakatlarda ilmiy madaniyat va resurslarga kirish darajasi farq qilayotganini hamda kelgusida mintaqalararo hamkorlik orqali bilim bo'shliqlarini to'ldirish zarurligini anglatadi.

Navbatdagi tahlil tematik xaritalash, bo'lib, u mavzularni dolzarbligi (markaziyliigi) va rivojlanganlik darajasi (zichligi) bo'yicha joylashtirish, inklyuziv tadbirkorlik va nogironlik bo'yicha tadqiqotlarning intellektual tuzilmasini chuqurroq anglash imkonini beradi(3-rasm).



3-rasm Tematik xarita


Manba: muallif ishlanmasi

Ko'rinib turibdiki, aniqlangan mavzular ichida “disability” yuqori o'ng kvadratda joylashib, motor mavzu sifatida mazkur tushunchaga katta ilmiy e'tibor qaratilganini aks ettiradi. Unga yaqin hududda “employment” ham motor zonasiga kiradi, biroq nisbatan pastroq zichlikka ega bo'lib, nogironligi bo'lgan shaxslarni iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish borasida muhim mavzu ekanini, lekin hali yanada chuqur nazariy ishlanmalarni talab etishini ko'rsatadi. “entrepreneur” esa pastki o'ng kvadrantda, asosiy mavzu sifatida paydo bo'ladi. U yuqori markaziylikka ega bo'lsa-da, zichligi past bo'lib, nogironlik kontekstida tez-tez tilga olinadigan, ammo yetarlicha ishlab chiqilmagan, ichki nazariyasi va empirik ishlanmalari to'liq shakllanmagan yo'nalish ekanini anglatadi.

Yuqori chap kvadratdagi “innovation” esa nish mavzu bo'lib, ichki jihatdan boy va rivojlangan, biroq boshqa mavzular bilan aloqadorligi kam, tor doiradagi tadqiqotlar mavzusi ekani aniqlandi. Pastki chap kvadratda joylashgan “labor market”, “social exclusion” va “developing world” esa yangi shakllanayotgan yoki susayib borayotgan mavzular bo'lib, ularga doir tadqiqotlar hali yetarlicha markazlashmagan yoki ilmiy sur'atini yo'qotgan bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, tematik taqsimot nogironlik va bandlik mavzulari sohaga mustahkam singganini, tadbirkorlik esa hali to'liq rivojlanmagan konseptual yo'nalish bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Kelgusidagi tadqiqotlar innovatsiya va inklyuziya tushunchalarini yuqori markaziylik va yuqori zichlikka ega tematik yo'nalishlar bilan uzviy bog'lash orqali ushbu ilmiy maydonni yanada keng qamrovli va konseptual jihatdan yetuk bosqichga olib chiqishi mumkin.

Navbatdagi rasm kalit so'zlarning qo'shma uchrashi bo'yicha tahlil nogironligi bo'lgan shaxslar orasida inklyuziv tadbirkorlikka oid tadqiqotlarning ichki intellektual tuzilmasini ochib beradi.



4-rasm. Kalit so'zlarning qo'shma uchrashi bo'yicha tahlil

Manba: muallif ishlanmasi

4-rasmda namoyon bo'lganidek, kalit so'zlar tarmoq markazida joylashgan “disability” tuguni mavzuning asosiy tushunchasi ekanini ko'rsatadi, unga yaqin “female”, “male” va “human” kabi demografik atamalar esa ko'plab ishlar aholi tarkibi va biomedik/demografik tasniflarga tayanishini bildiradi. Biroq bu jinsga oid kalit so'zlar iqtisodiy natijalar bilan kuchli bog'lanmagani genderni sezgir iqtisodiy tahlillar hali yetarlicha rivojlanmaganini anglatadi.


Tarmoqning boshqa qismida “self-employment”, “income”, “health care cost” va “gender” kabi iqtisodiy-ijtimoiy atamalar nisbatan chekkaroq, ammo zich kichik klasterni hosil qiladi. “Major clinical study” va “health care cost” kalit so'zlarining ishtiroki iqtisodiy imkoniyatlarni sog'liqni saqlashga kirish, nogironlik holati bilan bog'lovchi fanlararo yondashuvlar shakllanib borayotganidan dalolat beradi.

Yana bir, tarqoqroq guruh “social stigma”, “qualitative research”, “developing countries”, “program evaluation” hamda “China”, “Pakistan”, “Africa South of the Sahara” kabi hududiy kalit so'zlardan iborat bo'lib, cheklangan guruhlar hayotiy tajribalarini kontekstual va sifat tadqiqotlari

orqali ochishga qaratilgan ishlarning ko‘payayotganini ko‘rsatadi. Bu kalit so‘zlarning o‘zaro aloqalari zaifligi esa tadqiqotlar ko‘pincha mahalliy darajada qolib, mintaqalararo umumiy nazariy ramkaga kam integratsiyalashayotganini, “isolation”, “prejudice” va “social stigma” kabi tushunchalar esa nogironligi bo‘lgan shaxslarning tadbirkorlik imkoniyatlariga ta‘sir qiluvchi psixologik va institutsional to‘siqlar saqlanib qolayotganini bildiradi.

Umuman olganda, tarmoqning o‘rtacha zichligi va sust bog‘langan klasterlari sohada nazariy konsolidatsiya jarayoni hali yakunlanmaganini ko‘rsatadi. Demografik va sog‘liq bilan bog‘liq yo‘nalishlar ancha shakllangan bo‘lsa-da, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy o‘lchamlar ular bilan yetarli darajada tutashmagan bo‘lib, aynan ushbu bo‘shliqni to‘ldiruvchi integrativ konseptual yondashuvlar inklyuziv tadbirkorlik bo‘yicha yanada yaxlit va siyosatga yo‘naltirilgan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Quyidagi rasmda ifodalangan dendrogramma tahlil qilingan nashrlarda tez-tez birga uchraydigan atamalar o‘rtasidagi semantik yaqinlikni aks ettirib, alohida tematik klasterlarning shakllanishiga imkon beradi.



5-rasm. Ierarxik klasterlash natijasida olingan kalit so‘zlar dendrogrammasi

Manba: muallif ishlanmasi

Ierarxik klasterlash asosida qurilgan kalit so‘zlar dendrogrammasi nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv tadbirkorlik bo‘yicha adabiyotlarda yotgan konseptual tuzilmani ko‘rsatadi. Eng past darajada “self-employment” va “income” juftligining bir klasterga birlashishi ularning nogironligi bo‘lgan shaxslar iqtisodiy kuchaytirilishi va tirikchilik strategiyalari kontekstida chambarchas bog‘langanini, “disability” bilan yaqinligi esa o‘zini o‘zi band qilish mavzusining markaziy rolini anglatadi. “Male”, “female” va “human” atamalarining alohida klaster hosil qilishi tadqiqotlarda gender va umumiy demografik xususiyatlar ko‘pincha birgalikda tahlil qilinishini bildiradi.

Qiziqarli jihati shundaki, “entrepreneur” atamasi dendrogrammada nisbatan yakkalangan pozitsiyani egallaydi va boshqa asosiy terminlar bilan

tarqoq aloqadorlikni namoyon etadi. Bu shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik garchi yetakchi tushuncha bo'lsa-da, ushbu bibliometrik tahlilga kiritilgan ilmiy maqolalar va hujjatlar to'plamida ko'proq umumiy, “soyabon” tushuncha sifatida ishlatiladi va tadqiqot mavzusini aniqroq ochib beradigan va u ko'rilyotgan sharoit, muhit yoki aloqalarni ifodalovchi kalit atamalar (masalan, gender, daromad, sog'liq bilan bog'liq omillar) bilan chuqur integratsiyalashmagan.

Shu tarzda dendrogramma sohaning gender tadqiqotlari, nogironlik va iqtisodiy kuchaytirish singari bir-biriga qisman ustma-ust tushuvchi, ammo to'liq birlashmagan yo'nalishlardan iboratligini ko'rsatib, yanada integrativ nazariy yondashuvlarga ehtiyoj borligini ta'kidlaydi.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqot nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv tadbirkorlik sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlarning rivojlanish tendensiyalari va intellektual tuzilmasini bibliometrik yondashuv asosida tahlil qildi. Tadqiqot natijalari qo'yilgan tadqiqot savollariga javoban inklyuziv tadbirkorlik bo'yicha ilmiy izlanishlar hajmi oshib borayotganini, biroq tadbirkorlik tushunchasining nogironlik kontekstida hali to'liq konseptual integratsiyaga erishmaganini ko'rsatdi. Kelgusida inklyuziv tadbirkorlik bo'yicha tadqiqotlarda nazariy va fanlararo yondashuvlarni kengaytirish, ayniqsa iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar o'zaro ta'siri bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlar misolida empirik tadqiqotlar o'tkazish zarur. Shuningdek, davlat siyosatini shakllantiruvchi mas'ul organlar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni ishlab chiqishda aynan ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayanib, moslashuvchan moliyaviy va institutsional mexanizmlarni joriy etishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] F. E. Balcazar *et al.*, “Supports and barriers that entrepreneurs with disabilities encounter when starting their businesses,” *Rehabilitation Psychology*, vol. 68, no. 1, pp. 91–101, Feb. 2023, doi: 10.1037/rep0000479.

[2] R. M. Bakker and J. S. McMullen, “Inclusive entrepreneurship: A call for a shared theoretical conversation about unconventional entrepreneurs,” *Journal of Business Venturing*, vol. 38, no. 1, p. 106268, Jan. 2023, doi: 10.1016/j.jbusvent.2022.106268.

[3] P. S. Adler and S.-W. Kwon, “Social Capital: Prospects for a New Concept,” *The Academy of Management Review*, vol. 27, no. 1, p. 17, Jan. 2002, doi: 10.2307/4134367.

[4] Dakung, R. J., Munene, J. C. & Balunywa, W. (2016). Robustness of personal initiative in moderating entrepreneurial intentions and actions of disabled students. *Cogent Business & Management*, 3(1), 1169575. DOI:10.1080/23311975.2016.1169575

- [5] Barba-Sánchez, V., Salinero, Y., Jiménez-Estevez, P. & Galindo, E. (2021). Contribution of Entrepreneurship to the Social Integration of People with Intellectual Disabilities: A Case Study Based on the Analysis of Social Networks. *Frontiers in Psychology*, 12:725060. DOI:10.3389/fpsyg.2021.725060
- [6] Alroaia, Y. V., Hosamane, M. D., & Sotoudeh, M. R. (2021). Effective entrepreneurial factors on employment and start-up businesses of the disabled. *World Review of Science, Technology and Sustainable Development*, 17(3), 215–230.
- [7] Ortiz García, P. & Olaz Capitán, Á. J. (2021). Entrepreneurship for People With Disabilities: From Skills to Social Value. *Frontiers in Psychology*, 12:699833. DOI:10.3389/fpsyg.2021.699833
- [8] Somrudee Tiasakul, Ramy Abdulzaher & Carlos Bazan. (2024). Accessibility of Entrepreneurship Training Programs for Individuals with Disabilities: A Literature Review. *Administrative Sciences*, 14(8), 187. DOI:10.3390/admsci14080187
- [9] Norliza Saiful Bahry, Nur Liana Kori, Ainnunazlee Mohd Ali, Azmi Mat & Azian Adzmi. (2023). The Challenges of Disabled Entrepreneurs: A Systematic Review. *Journal of International Business, Economics and Entrepreneurship*, 8(2), 54–63. DOI:10.24191/jibe.v8i2.24044
- [10] Ngah, R., Junid, J., Abdullah, H. & Mirpur, M. K. Inclusive Entrepreneurship Model for Person with Disabilities: A Critical Reflection. *Environment-Behaviour Proceedings Journal*.
- [11] Ab Wahid, H., Hishamuddin, A. Z. & Abd Rahman, R. (2023). Social Entrepreneurship Approach Towards Leveraging Persons with Disabilities in Malaysia. *International Business Education Journal*, 16(1), 85–97.
- [12] www.scopus.com
- [13] www.lex.uz



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



KREDIT-MODUL TIZIMINI JAHON TENDENSIYALARIGA TENGLASHTIRISH

G'aniyev Shahriddin Vohidovich

“Byudjet hisobi va g'aznachilik” kafedrasida professori

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

e-mail: shahriddinganiyev65@gmail.com

ORCID: 0000-0001-6555-8804

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a214

Annotatsiya. Maqolada Oliy ta'lim muassasasi bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilashning amaldagi holati tahlil etilgan. Muallif tomonidan yosh mutaxassislarga bilimlarini oshirishlarida o'rnak bo'lish tavsiya etilgan. O'quv jarayonini o'qishga oid axborotni modulli tasavvur etish asosida uyushtirish usuli ekanligi, uning mohiyati ta'lim mazmunida tashkiliy-uslubiy modullarda aks ettirilishi va uning hajmi didaktik farqlanishiga bog'liq ravishda o'zgarib borishi ko'rib chiqilgan. Shuningdek ta'lim olish jarayonini tashkillashtirish va ta'lim sifatini oshirish usullari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: kredit, konsepsiya, kadr, modul, mavqeyi, motivasion, dastur, didaktik, ta'lim, innovatsiya, fundamental.

ADJUSTING THE CREDIT-MODULE SYSTEM TO GLOBAL TENDENCIES

Ganiev Shakhriddin Vakhidovich

Professor of the Department of

"Budget Accounting and Treasury".

Tashkent state university of economics

Abstract. The article analyzes the current state of improving the quality of personnel training at the higher educational institution. The author recommends setting an example for young professionals to improve their knowledge. It was considered that the educational process is a method of organizing information related to reading on the basis of modular visualization, its essence is reflected in organizational and methodological modules in the content of education, and its size changes depending on didactic differentiation. Methods of organizing the educational process and improving the quality of education are also proposed.

Keywords: credit, concept, personnel, module, position, motivational, program, didactic, education, innovation, fundamental.

НАСТРОЙКА КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ К ГЛОБАЛЬНЫМ ТЕНДЕНЦИЯМ

Ганиев Шахриддин Вахидович

Профессор кафедры «Бюджетного
учета и казначейской».

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье анализируется современное состояние повышения качества подготовки кадров в высших учебных заведениях. Автор рекомендует подавать пример молодым специалистам для совершенствования своих знаний. Считалось, что учебный процесс – это способ организации информации, связанной с чтением, на основе модульной визуализации, его сущность отражается в организационно-методических модулях содержания образования, а его размер меняется в зависимости от дидактической дифференциации. Также предложены методы организации учебного процесса и повышения качества образования.

Ключевые слова: кредит, концепция, персонал, модуль, должность, мотивационный, программа, дидактический, образование, инновационный, фундаментальный.

Kirish

Yangi O'zbekiston Respublikasi jahon miqyosida kelajagi porloq davlatlar tarkibida namoyon bo'lmoqda. Shu bugungi kunda respublikamizda turli sohalarda, jumladan oliy ta'lim tizimida, respublikamizning kelajagi uchun mustahkam poydevor qurish va rivojlangan mamlakatlar qatoriga erishish uchun ko'plab islohotlar va ishlar amalga oshirilmoqda.

Yosh avlodning bilimli va barkamol bo'lib yetishishi, ularga berilayotgan imkoniyatlarning dunyo bo'ylab keng qamrovli bo'lishini ta'minlash maqsadida mamlakat ta'lim tizimiga yangi ta'lim texnologiyalari, xorijiy tajribalar kirib kelmoqda hamda mamlakat doirasida joriy etilmoqda va keng tarzda amalda qo'llanib kelinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Kredit va modul tushunchalariga O'zbekiston olimlari Sh.V.G'aniyev [9] Yaangi O'zbekistonning Boloniya jarayonida ishtirok etishi va uning oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimining amalda joriy etilishi ko'p imkoniyatni beradi. Jumladan, mamlakatimizdagi OTMlarida xorijiy mamlakatlar OTMlari bilan aloqalarni kengaytirishni, ta'lim dasturlari hamda sillabuslarini rivojlangan mamlakatlarning tajribalari asosida ishlab chiqishni ta'minlaydi va h.k. V.O'rinov, M.Sultonov, A.Umarov, B.Sh.Usmonov va R.A.Xabibullayevlar [4] tomonidan berilgan ta'riflar quyidagicha ma'noni aks ettiradi, kredit-modul tushunchasi ikki so'zdan iborat: “kredit” va “modul”.

Kredit. Oliy ta'lim sohasida kredit ko'pchilikka bank va moliya sohasi orqali tanish bo'lgan qarzdorlik yoki moliyaviy majburiyat tushunchasini anglatmaydi. Shuning uchun oliy ta'lim sohasida kredit so'zi ko'pincha “akademik”so'zi bilan birga ishlatiladi.

Akademik kredit - oliy ta'limning muayyan bosqichida ushbu ta'lim darajasini qo'lga kiritish maqsadida talaba tomonidan muntazam ravishda to'plab boriladigan ramziy o'lchov birligi. Bu birlik talaba ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bajarganligi va muayyan o'qish natijalarini muvaffaqiyatli tarzda egallaganligini anglatadi.

Modul. ECTS tizimida o'quv dasturi bir necha modullardan tashkil topadi. Talaba kreditlarni faqat modullar orqali qo'lga kiritishi mumkin. Xo'sh ECTS tizimida modul nimani anglatadi?

Akademik modul - yaxlit, muayyan o'quv natijalariga erishishga qaratilgan, o'zining baholash mezonlariga ega bulgan tizimli, izchil o'qish va o'rganish harakatlari jamlanmasi. U odatda bir semestr davom etadi lekin ayrim hollarda bir necha soatdan iborat bo'lishi ham mumkin. ECTS tizimida har bir modul o'zida muayyan miqdordagi kreditlarni aks ettirish ta'riflari taklif etilgan [5] bo'lsa, jahon ta'lim sahosisdagi yo'nalishlarni hisobga olib, xorijiy kredit tizimlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. “Kredit soat” tizimi dastlab AQShda paydo bo'lgan va takomillashtirish, 1969 yilda Garvard universiteti Prezidenti, amerika ta'limining atoqli namoyandasi Charlz Eliot birinchi bo'lib “kredit-saat” tushunchasini kiritgan va 1870-1880 yillar davomida fan hajmini kredit saatlarda o'lchashga imkon beruvchi tizimni joriy qilgan [7]. 1892 yildan “kredit-saat” tizimini joriy qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. AQSh milliy ta'lim qo'mitasi “kollej-maktab”larda va o'rta maktablar uchun ham “kredit” tushunchasini joriy qildi va keyinchalik bakalavriat dasturlari mazmunini baholashning kredit tizimini magistratura va doktorlik ta'lim bosqichlarigacha kengaytirildi[8].

Tahlil va natijalar

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tizimni yanada takomillashtirish, mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, yosh mutaxassislarga bilimlarini oshirishlarida o'rnak bo'lishni taqozo etadi. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mutanosib ravishda tegishli qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bir qatorda yangi qaror, farmoyishlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabridagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmonining maqsad va vazifalari [14]:

- 1) oliy ta'lim sifatini yaxshilash;
- 2) ta'lim tizimini muvofiqlashtirish;

3) Xalqaro standartlarni kiritish bo'lgan oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit modul tizimiga o'tkazish yuzasidan qator chora-tadbirlar belgilangan.

Modulli o'qitish tizimi nima? degan savolga quyidagicha javob qilishimiz mumkin bo'ladi. Modulli o'qitish tizimi – o'quv jarayonini o'qishga oid axborotni modulli tasavvur etish asosida uyushtirish usuli bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, ta'lim mazmuni alohida tashkiliy-uslubiy modullarda aks ettiriladi va uning hajmi didaktik maqsadlar, o'quvchilarning mutaxassisligi va darajasiga ko'ra farqlanishiga bog'liq ravishda o'zgarib borishi mumkin:

birinchidan, tegishli o'quv materialining tarkibini o'ziga xos tarzda amalga oshiradi, ya'ni ma'lumot tashkiliy-uslubiy bloklar ko'rinishida uzatiladi, o'rganishdan keyin pedagogik maqsad, ta'limning individual dasturlarning samarasiga erishiladi;

ikkinchidan, ta’limning tashkiliy shakllariga yangicha yondashuv bilan farqlanadi, aynan pedagog va talaba o’rtasidagi muloqot shakli oldingidan farqli ravishda “pedagog bilim beradi, talaba –o’zlashtiradi” tartibida emas, “pedagog topshiriq beradi, talaba izlanishlar asosida bilim egallaydi” tartibiga o’tiladi;

uchinchidan, tegishli fanning amaliyotga uzviy bog’lanishi bilan farqlanadi. Shu o’rinda bu tizimning kamchiliklariga to’xtalib o’tishni maqsadga muvofiq deb hisobladik [5]:

- mustaqil shug’ullanishga e’tiborning yuqoriligi, talabalarga doimiy yo’nalish berib turish, yondashuvni to’g’ri tanlashlarida yordamlashish yetishmay qolishi mumkin;

- modullarda o’quv materiallarini to’g’ri tanlay olmaslik ehtimolining borligi, chunki ajratilgan vaqt har doim ham batafsil yondashishga imkoniyat bermaydi;

- modul dasturlari va materiallarini ishlab chiqishga uzoq vaqt talab etilishi;

- yangi tizim, yangicha yondashuvga ko’nikish, moslashishning muayyan vaqt talab qilishi.

Adabiyotlar tahlili ko’rsatdiki, “Xorijiy tajribaga tayanib aytish mumkinki, modulli pedagogik texnologiya G’arbda keng tarqalgan. Hali 1869 yildayoq Garvard universitetida talabalarning o’quv fanini kelgusida chuqurroq o’rganish uchun mustaqil tanlash imkoniyati beriladigan ta’lim tizimi joriy etilgan ekan.

Xususan, kasbiy sohasi uchun qanday bilimlar va malakalar zarur bo’lishini o’zi belgilaydi. XX asrning 60-yillarida ingliz tilida so’zlashuvchi mamlakatlarda modulli o’qitish uning zamonaviy ko’rinishida singa boshladi”. Demak, kredit-modul tizimiga o’tish – ayni damdagi talab va ehtiyoj bo’lib, u zamonaviy mutaxassisdan kasbiy kompetentlik va noodatiy vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoada ishlash, axborotni mustaqil olish, tahlil qilish, undan samarali foydalanish, o’zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvchanlikni talab qiladi. O’z navbatida, bevosita tayyorlanayotgan kadrlarning motivasion xususiyatlariga, xususan, bilimlarni o’zlashtirish samaradorligi o’quv faoliyatining muvaffaqiyatlilikini belgilab beruvchi omillarga bog’liq.

1-jadval

Amaliyotlarni tashkil yetish, o’tkazish va talabalarni baholash mezonlarni belgilash oliy ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshirilishi

O’qish muddati	Haftalar soni	Kreditlar miqdori	Akademik soatlar miqdori
3 yil	152	180	540
4 yil	204	240	720
5 yil	256	300	9000
6 yil	308	360	10800

Malaka talabalari bakalavriyat ta’lim yo’nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining har biri bo’yicha maskur davlat standarti, “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqiladi.

Jumladan, ta’lim motivasiyasiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar mavjud bo’lib, ta’lim olish jarayonini tashkillashtirish va ta’lim sifatini oshirish aynan shulardan iborat.

Xozirgi kunda institut va universitetlarning ta’lim berish faoliyati imkon darajada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilishi namoyon bo’lmoqda.

O‘zbekiston bo‘yicha mavjud ilmiy ishlar asosan ta’lim tizimi islohotlari va bandlik masalalarini tavsifiy tahlil qilish bilan cheklanadi [5, 6]. Xalqaro taqqoslama va ekonometrik yondashuvlar asosida inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholashga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada mavjud emas [1, 7]. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston tajribasini boshqa mamlakatlar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali inson kapitalining iqtisodiy o‘sishdagi rolini empirik jihatdan asoslab beradi [8].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot kvantitativ empirik tahlilga asoslangan bo‘lib, inson kapitali ko‘rsatkichlari va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida panel ma’lumotlar tahlili qo‘llanildi. Tadqiqot dizayni xalqaro taqqoslama yondashuviga asoslanib, O‘zbekiston va iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha bo‘lgan bir qator xorijiy davlatlar misolida amalga oshirildi. Ushbu yondashuv inson kapitalining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini nafaqat bitta mamlakat doirasida, balki turli institutsional va iqtisodiy sharoitlarda solishtirish imkonini beradi.

Tadqiqotda induktiv va deduktiv usullar uyg‘unlashgan holda qo‘llanilib, nazariy gipotezalar empirik ma’lumotlar orqali sinovdan o‘tkazildi. Shuningdek, taqqoslama va statistik tahlil usullari inson kapitali komponentlarining iqtisodiy rivojlanishdagi nisbiy ahamiyatini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot obyekti sifatida inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tanlandi. Xalqaro taqqoslama quyidagi davlatlar guruhi asosida amalga oshirildi:

- O‘zbekiston (rivojlanayotgan iqtisodiyot);
- Qozog‘iston va Turkiya (o‘rta daromadli, institutsional islohotlar bosqichidagi davlatlar);
- Janubiy Koreya va Germaniya (inson kapitaliga yuqori investitsiya qiluvchi rivojlangan iqtisodiyotlar).

Mazkur tanlov inson kapitali siyosati va iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi farqlarni aniqroq ochib berish hamda O‘zbekistonning holatini xalqaro kontekstda baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda foydalanilgan ma’lumotlar 2010–2023 yillarni qamrab oladi va quyidagi xalqaro hamda milliy statistik manbalardan olindi:

- World Bank – YAIM o‘sish sur‘atlari, ta’lim va sog‘liqni saqlash xarajatlari, bandlik darajasi;
- UNDP – Inson rivojlanishi indeksi va inson kapitali bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
- International Labour Organization – bandlik va mehnat bozori statistikasi;
- O‘zbekiston Respublikasi rasmiy statistika ma’lumotlari – milliy ko‘rsatkichlarni aniqlashtirish maqsadida.

Barcha ma’lumotlar xalqaro solishtirish imkonini beruvchi, ochiq va ishonchli statistik bazalardan olingan.

Tadqiqotda quyidagi asosiy o’zgaruvchilar qo’llanildi:

Bog’liq o’zgaruvchi (Dependent variable):

• YAIM o’sish sur’ati (GDP growth) – iqtisodiy rivojlanish darajasini ifodalaydi.

Mustaqil o’zgaruvchilar (Independent variables):

- Ta’lim xarajatlari (Education) – YAIMga nisbatan foizda;
- Sog’liqni saqlash xarajatlari (Health) – YAIMga nisbatan foizda;
- Bandlik darajasi (Employment) – iqtisodiy faol aholi ulushi;
- Inson kapitali indeksi (HCI/HDI) – inson kapitalining integral ko’rsatkichi.

Nazorat o’zgaruvchilari (Control variables):

- Aholi soni o’sish sur’ati;
- Investitsiyalar hajmi (YAIMga nisbatan).

Ekonometrik model va tahlil usullari

Inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholash maqsadida quyidagi regressiya modeli qo’llanildi:

$$GDP_growth_{it} = \alpha + \beta_1 Education_{it} + \beta_2 Health_{it} + \beta_3 Employment_{it} + \beta_4 HCI_{it} + \varepsilon$$
bu yerda:

- i – mamlakat,
- t – vaqt (yil),
- ε – tasodifiy xatolik.

Model baholashda korrelyatsion tahlil, oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) hamda panel ma’lumotlar uchun fixed effects yondashuvi qo’llanildi. Ushbu usullar inson kapitali komponentlarining YAIM o’sishiga statistik ahamiyatini aniqlash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqotning birinchi bosqichida tanlangan mamlakatlar (O’zbekiston, Qozog’iston, Turkiya, Janubiy Koreya va Germaniya) bo’yicha inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish ko’rsatkichlarining deskriptiv statistik tahlili amalga oshirildi. Mazkur tahlil inson kapitali darajasi va YAIM o’sish sur’atlari o’rtasidagi umumiy tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi [5].

2010–2023 yillar davomida Germaniya va Janubiy Koreyada ta’limga yo’naltirilgan xarajatlar YAIMga nisbatan o’rtacha 4,5–5,2 foizni tashkil etib, sog’liqni saqlash xarajatlari bilan birgalikda inson kapitalining barqaror shakllanishiga xizmat qilgan. Ushbu mamlakatlarda inson kapitali indeksi yuqori bo’lib, bu holat iqtisodiy o’sishning keskin tebranishlarsiz, nisbatan barqaror kechishiga sabab bo’lgan [3,4].

O’zbekistonda esa ta’lim va sog’liqni saqlash xarajatlari so’nggi yillarda oshib borayotgan bo’lsa-da, ularning YAIMdagi ulushi rivojlangan davlatlarga nisbatan pastroq darajada saqlanib qolmoqda. Shunga qaramay, inson kapitali ko’rsatkichlarining ijobiy dinamikasi iqtisodiy o’sish sur’atlarida ham aks

etmoqda [5]. Qozog‘iston va Turkiya ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha oraliq pozitsiyani egallab, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy natijalarga ta’siri bosqichma-bosqich kuchayib borayotgan davlatlar sifatida namoyon bo‘lmoqda[2].

1-jadval

Tanlangan mamlakatlarda inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari (2010–2023 yillar o‘rtacha qiymatlari)

Mamlakat	Ta’lim xarajatlari (% YAIM)	Sog‘liqni saqlash xarajatlari (% YAIM)	Inson kapitali indeksi (HDI/HCI)	Bandlik darajasi (%)	YAIM o‘shishi (%)
O‘zbekiston	3.2	3.8	0.72	66.4	5.6
Qozog‘iston	3.6	4.1	0.81	65.2	4.3
Turkiya	4.1	4.6	0.84	63.8	4.9
Janubiy Koreya	5.0	7.5	0.92	67.1	2.8
Germaniya	4.8	11.3	0.94	74.6	1.9

Manba: Muallif tomonidan quyidagi ochiq xalqaro statistik ma’lumotlar asosida hisob-kitob qilingan: World Bank, *World Development Indicators* [5];

1-jadval ma’lumotlari inson kapitali darajasi bilan iqtisodiy rivojlanish o‘rtasida aniq farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Germaniya va Janubiy Koreyada ta’lim hamda sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan xarajatlarning YAIMdagi ulushi yuqori bo‘lib, bu mamlakatlarda inson kapitali indeksi 0.92–0.94 oralig‘ida shakllangan. Natijada ushbu davlatlarda mehnat unumdorligi yuqori va iqtisodiy o‘shish barqaror, biroq nisbatan past sur’atlarda kechmoqda, bu yetuk iqtisodiyotlar uchun xos holatdir.

2-jadval

Panel regressiya natijalari: inson kapitalining YAIM o‘shishiga ta’siri

O‘zgaruvchi	Koeffitsiyent (β)	Standart xato	t-statistika	p-qiymat
Ta’lim xarajatlari	0.42	0.11	3.82	0.001
Sog‘liqni saqlash xarajatlari	0.29	0.13	2.23	0.028
Bandlik darajasi	0.17	0.09	1.89	0.064
Inson kapitali indeksi	1.96	0.52	3.77	0.002
Doimiy had (α)	-2.14	0.88	-2.43	0.019
R ²	0.63			
Kuzatuvlar soni	70			

Manba: Muallif hisob-kitoblari. World Bank [5], UNDP [6], ILOSTAT [7].

O‘zbekiston misolida esa inson kapitali indeksi 0.72 darajasida bo‘lib, bu rivojlangan davlatlardan sezilarli darajada past. Shunga qaramay, YAIM o‘shish

sur’ati nisbatan yuqori (5.6%) bo’lib, bu iqtisodiyotning rivojlanish bosqichida ekanini ko’rsatadi. Ushbu holat inson kapitaliga investitsiyalar kelgusida iqtisodiy o’sish sifatini va barqarorligini belgilab beruvchi asosiy omil bo’lishini anglatadi.

Inson kapitali ko’rsatkichlari va iqtisodiy rivojlanish o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlil o’tkazildi. Tahlil natijalari barcha mamlakatlar kesimida ta’lim xarajatlari, sog’liqni saqlash xarajatlari hamda inson kapitali indeksi bilan YAIM o’sish sur’atlari o’rtasida ijobiy bog’liqlik mavjud ekanini ko’rsatdi [4,5].

Regressiya natijalari inson kapitali ko’rsatkichlarining iqtisodiy rivojlanishga statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi. Ta’lim xarajatlari koeffitsiyenti 0.42 ga teng bo’lib, u 1% ahamiyatlilik darajasida statistik ishonchli hisoblanadi. Bu ta’limga yo’naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o’sish sur’atlarini sezilarli darajada tezlashtirishini anglatadi [1,2].


Inson kapitali indeksi eng yuqori ta’sir kuchiga ega bo’lib, uning 1 birlikka oshishi YAIM o’sish sur’atini o’rtacha 1.96 foiz punktga oshirishi aniqlangan. Ushbu natija inson kapitalining integral ko’rsatkichi iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi rol o’ynashini tasdiqlaydi [3,4]. Bandlik darajasi koeffitsiyenti ijobiy bo’lsa-da, uning statistik ahamiyati nisbatan past bo’lib, bu bandlik miqdori bilan bir qatorda bandlik sifati ham muhim ekanini ko’rsatadi [7].

Modelning umumiy tushuntirish qobiliyati ($R^2 = 0.63$) yuqori bo’lib, tanlangan o’zgaruvchilar YAIM o’sishidagi o’zgarishlarning katta qismini izohlab bera olishini anglatadi.

O’zbekiston bo’yicha regressiya natijalari inson kapitaliga yo’naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o’sishga ijobiy ta’sir ko’rsatayotganini tasdiqlaydi. Biroq ushbu ta’sirning kuchi Janubiy Koreya va Germaniya bilan solishtirganda pastroq bo’lib, bu inson kapitali samaradorligini oshirish uchun institutsional islohotlar va ta’lim sifati masalalariga alohida e’tibor qaratish zarurligini anglatadi.

Xalqaro taqqoslama tahlili natijalari shuni ko’rsatadiki, inson kapitali indeksi yuqori bo’lgan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish yanada barqaror va uzoq muddatli xarakterga ega [8]. Germaniya va Janubiy Koreyada inson kapitaliga yo’naltirilgan investitsiyalar innovatsiyalar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va mehnat unumdorligining oshishi orqali iqtisodiy o’sishga xizmat qilmoqda [4].

O’zbekiston va Qozog’iston kabi davlatlarda inson kapitali salohiyati mavjud bo’lsa-da, uning iqtisodiy samaradorligi hali to’liq ishga tushmagan. Turkiya misolida esa inson kapitaliga investitsiyalar iqtisodiy o’sishga sezilarli ta’sir ko’rsatayotgani, biroq bu jarayon institutsional barqarorlikka kuchli bog’liq ekanini ko’rish mumkin.



2-rasm. Tanlangan mamlakatlarda Inson kapitali indeksining (HCI) dinamikasi

Manba: World Bank, *Human Capital Index* (2018, 2020); Our World in Data [5, 8].

2-rasmda tanlangan mamlakatlar bo'yicha inson kapitali indeksi va mehnat unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlik aks ettirilgan bo'lib, indeks oshgani sari iqtisodiy samaradorlik ham oshib borishi yaqqol ko'rinadi. Grafikda O'zbekiston ko'rsatkichlari o'sish trendiga ega bo'lsa-da, rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetish uchun qo'shimcha investitsiyalar va tizimli islohotlar zarurligi aniqlanadi.

Olingan empirik natijalar ilgari surilgan gipotezalarni to'liq tasdiqlaydi va inson kapitali iqtisodiy rivojlanishning muhim omili ekanini ko'rsatadi. Xalqaro taqqoslama tahlili O'zbekiston uchun inson kapitaliga investitsiyalarni nafaqat ko'paytirish, balki ularning samaradorligini oshirish zarurligini ham ko'rsatib berdi. Ayniqsa, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi va mehnat bozori institutlarini takomillashtirish iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar

Mazkur ilmiy maqolada inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik O'zbekiston va bir qator xorijiy davlatlar misolida xalqaro taqqoslama hamda empirik tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqot natijalari inson kapitalining iqtisodiy o'sishdagi muhim rolini tasdiqlab, ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik ko'rsatkichlari YAIM o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqladi.

Empirik tahlil shuni ko'rsatdiki, inson kapitali indeksi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish barqaror, mehnat unumdorligi yuqori va iqtisodiy o'sish uzoq muddatli xarakterga ega. O'zbekiston misolida esa inson

kapitali salohiyati mavjud bo‘lishiga qaramay, uning iqtisodiy samaradorligi hali to‘liq ishga tushmagan.

Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Ta’lim sifatini oshirishga ustuvor e’tibor qaratish – ta’limga yo’naltirilgan xarajatlarni ko’paytirish bilan bir qatorda, ularning samaradorligini oshirish, oliy va kasbiy ta’limni mehnat bozori talablariga moslashtirish zarur.

2. Sog’liqni saqlash tizimini iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan rivojlantirish – sog’lom mehnat resurslari inson kapitalining asosiy elementi sifatida iqtisodiy o’sishga xizmat qiladi.

3. Mehnat bozori institutlarini takomillashtirish – bandlikning sifati, malaka va unumdorlikni oshirishga qaratilgan faol siyosat yuritish talab etiladi.

4. Inson kapitali va innovatsiyalar o’rtasidagi bog’liqlikni kuchaytirish – ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni qo’llab-quvvatlash orqali inson kapitalining iqtisodiy qaytimi oshirilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari inson kapitalini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning markaziy yo’nalishi bo’lishi lozimligini ko’rsatadi. Mazkur maqola O’zbekiston sharoitida inson kapitali siyosatini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan xulosalar berishi bilan bir qatorda, kelgusida chuqurroq ekonometrik tadqiqotlar uchun metodologik asos bo’lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Becker, G. S. *Human Capital*. University of Chicago Press, 1964.
2. Schultz, T. W. *Investment in Human Capital*. Free Press, 1971.
3. Lucas, R. E. “On the Mechanics of Economic Development.” *Journal of Monetary Economics*, 1988.
4. Romer, P. M. “Endogenous Technological Change.” *Journal of Political Economy*, 1990.
5. World Bank. *World Development Indicators*. 2024.
6. UNDP. *Human Development Report*. 2023.
7. International Labour Organization. *ILOSTAT Database*. 2024.
8. Our World in Data. *Human Capital Index*. 2025.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



AHOLI DAROMADLARINI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Axmedova Nafisa Amirddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

katta o'qituvchisi (PhD)

<https://orcid.org/0009-0009-0669-2347>

n.akhmedova@tsue.uz

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a217

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning takomillashtirish sohasida aholining real umumiy daromadlari, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari, aholi ixtiyoridagi umumiy daromadlari hajmi tahlil qilingan. Bundan tashqari O'zbekistonda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, go'sht narxining oshishiga ta'sir qiluvchi omillar, horijiy mamlakatlardagi go'sht narhlarini tahlili, O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda go'sht mahsulotlari bilan ta'minlash muammolarini bartaraf etishga qaratilgan harakatlar. Shu bilan bir qatorda mahsulot tannarxini pasaytirishga asoslangan hamda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, import, eksport, daromad, oziq-ovqat, aholi, samaradorlik, FAO, JSST, bozor, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, iqtisodiy o'sish, Yevropa, MDH, hajim, korhona, global, omil, dollar, texnologiya, davlat, respublika, chorvachilik, dehqonchilik.

АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ВЛИЯНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ НА ПРОДОВОЛЬСТВЕННУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ

Ахмедова Нафиса Амирддин кизи

Старший преподаватель (PhD)

Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В данной статье анализируются реальные совокупные доходы населения, реальные темпы роста совокупных доходов на душу населения и объем совокупных располагаемых доходов населения в сфере повышения продовольственной безопасности в Узбекистане. Кроме того, проводятся работы по модернизации сельского хозяйства Узбекистана, изучению факторов, влияющих на рост цен на мясо, анализу цен на мясо в зарубежных странах, устранению проблем с поставками мясной продукции для обеспечения продовольственной безопасности Узбекистана. Одновременно научно анализировались вопросы снижения себестоимости продукции и обеспечения продовольственной безопасности нашей страны.

Ключевые слова: сельское хозяйство, импорт, экспорт, доход, продовольствие, население, эффективность, FAO, ВОЗ, рынок, ферма, крестьянское хозяйство, экономический рост, Европа, СНГ, объем, предприятие, глобальный, фактор, доллар, технология, государство, республика, животноводство, сельское хозяйство.

ANALYSIS OF THE CURRENT STATUS OF THE IMPACT OF POPULATION INCOME ON FOOD SECURITY

Akhmedova Nafisa Amirdin kizi

Senior Lecturer (PhD) of
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the real aggregate income of the population, the real growth rate of aggregate income per capita and the volume of total disposable income of the population in the field of improving food security in Uzbekistan. In addition, work is underway to modernize Uzbekistan's agriculture, study the factors influencing rising meat prices, analyze meat prices in foreign countries, and address problems with meat product supplies to ensure food security in Uzbekistan. At the same time, issues of reducing production costs and ensuring food security for our country were scientifically analyzed.

Key words: agriculture, import, export, income, food, population, efficiency, FAO, WHO, market, farm, peasant farm, economic growth, Europe, CIS, volume, enterprise, global, factor, dollar, technology, state, republic, livestock farming, agriculture.

Kirish

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning innovatsiyalardan foydalanish asosida jahon xo'jaligi rivojlanishining yangi paradigmasi shakllanmoqda. O'zbekiston ushbu jarayonlarni inkor eta olmaydi va iqtisodiyotning barcha sohalarida, shu jumladan qishloq xo'jaligida innovatsion jarayonlarning faollashuvini ta'minlashi zarur. Ushbu masalalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-120-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'ZBEKISTON — 2030» Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonlarida alohida e'tibor qaratilgan. Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo'liga o'tish nafaqat O'zbekiston iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi tarmog'ida to'planib qolgan muammolarni, balki ushbu tarmoq oldida turgan asosiy vazifalarni ham hal etish zarurligi bilan bog'liq.

Hozirgi sharoitda innovatsion faoliyat qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Mazkur omildan imkon qadar ko'proq foydalanish mamlakatimizda agrosanoat majmuining barqaror rivojlanishini ta'minlashning yagona yo'lidir. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jadallashib, jahon iqtisodiyotining globallasuvi kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatimiz qisqa muddatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning innovatsion yo'liga jadal o'tishni amalga oshirishi, iqtisodiyotning ushbu strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmog'ini zamon talablariga javob beradigan sifat jihatdan yangi texniktexnologik asosda tiklashi lozim. Aks holda, qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanishdan ortda qoladi va o'zining raqobatbardoshligini ta'minlay olmaydi.

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Chunki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning samaradorligi, mamlakatimizning iqtisodiy va

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, nafaqat qishloq aholisi, balki mamlakatimiz aholisining moddiy farovonligini oshirish bebaho boyligimiz bo'lgan yerimizning unumdorligi, uning sifatini muntazam yaxshilab borish bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan innovatsion faoliyatning samaradorligiga bog'liq. Innovatsiyalarni o'zlashtirish natijasida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish bazasi texnologik, texnik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan yangilanib boradi. Bu esa o'z navbatida, O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyasini kuchaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish masalalarini ilmiy-nazariy asoslarini, uni tartibga solish vositalari uzoq xorij olimlaridan J.Addison (2001) Agrar munosabatlarning ilmiy-nazariy asoslarini P.Samuyelson, (1992), qishloq xo'jaligida oziq-ovqat yetishtirishni tartibga solish S.Bryu, K.Makkonnell (1992) va boshqalarning tadqiqotlarida muayyan darajada o'rganligan. Ular tomonidan agrar munosabatlarning keng qamrovli konsepsiyasi shakllantirilgan.

Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash va rivojlantirish bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni MDH olimlaridan Frolov K.V., Gordeyev A.V., Maslennikova (2011), Oziq-ovqat xavfsizligi: xalqaro va ichki jihatlar Balabanov V.S., Borisenko E.N. (2012) va boshqa olimlar ishlarida dehqon xo'jaliklarining rivojlanish tendensiyalari, evolyusiyasi va Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish muammolari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish masalalariga Abulqosimov X.P., Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlar va yo'nalishlarini (2017), Dusmatov B.O. oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini (2022), Xo'jageldiyev Ch.P. aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilashni (2022), Topildiyev S.R. iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini (2023), “Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar bozorni rivojlantirish masalalarini Ya.E. Aliyev (2020) lar o'z ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, tarixiylik, tanqidiy, qiyosiy, mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari, respublika yangi iqtisodiy siyosatda izchillik bilan olib borilayotgan islohotlar,


Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Dunyo iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga qaramasdan O'zbekiston nafaqat o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlabgina qolmay, balki qishloq xo'jaligi

mahsulotlarini eksport qilish orqali boshqa mamlakatlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashga ham o'z hissasini qo'shmoqda. Bu holat, ayniqsa, ko'plab xorijiy davlatlar tomonidan qabul qilingan proteksionistik siyosatlar fonida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST) va Jahon savdo tashkiloti (JST) qo'shma bayonotlarida global savdo va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan turli hil xavf xatarlar haqida ogohlantirdilar. Ushbu tashkilotlar oziq-ovqat ishlab chiqarishga oid noaniqliklar eksport cheklovlarini vujudga keltirishi va global bozorlarda tanqislikka olib kelishi mumkinligini ta'kidladilar. Shu bilan birga FAO, JSST va JST ekspertlari, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifi muvozanatining buzilishi narxlarning keskin oshishiga va bozor destabilizatsiyasini oshirishi mumkinligidan ogohlantirmoqdalar.




1-rasm. Aholi real umumiy daromadlar hajmi (yillik, mlrd.so'm)¹⁷

O'zbekistonda aholi daromadlari va oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi nomutanosiblik sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Iqtisodiy islohotlar natijasida daromadlarning oshishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, inflyatsiya va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi oshishi tufayli real daromadlar barqaror o'sib borayotganini aytish qiyin. Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida agrar sohada samaradorlikni oshirish, import va eksport balansini saqlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining yetarliligi va ularga aholining kirish imkoniyati iqtisodiy o'sish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Ish haqlarining oshishi, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi va subsidiyalar ajratilishi natijasida uy xo'jaliklarining xarid qobiliyati ortib bormoqda. Biroq, ayrim tovarlarning bahosi mavsumiy omillar va tashqi bozordagi vaziyatga bog'liq holda o'zgarib turadi, bu esa oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

¹⁷ Rasm muallif tomonidan O'zbekiston respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

1-rasmda koʻrinib turibdiki mamlakatimizda aholining real umumiy daromadlari yildan-yilga barqaror oʻsib borgan. 2010-yildan 2023-yilgacha daromadlar darajasi hajmi qariyb 11 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2020-yildan keyin oʻsish surʼati tezlashgan boʻlib, 2021-2023 yillarda sezilarli darajada ortish kuzatilgan. Bu iqtisodiy oʻsish, daromad manbalarining kengayishi va aholi farovonligining oshishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.



2-rasm. Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real oʻsish surʼatlari (choraklik)¹⁸

2020-yilda pandemiya tufayli daromadlar past boʻlsa-da, keyingi choraklarda sezilarli oʻsish kuzatilgan. 2021-2022-yillarda barqaror oʻsish davom etib, 2022-yil oxiriga kelib 580,9 ming mlrd soʻmga yetgan. 2023-2024-yillarda ham oʻsish surʼati yuqori boʻlib, 2024-yilning 2-choragida 362,4 ming mlrd soʻmga yetgan. Bu aholi daromadlari ortib borayotganini koʻrsatadi.


Mamlakatimizda 2020-yilning 2-choragidan 2024-yilning 3-choragigacha boʻlgan davrda aholining ixtiyoridagi umumiy daromadlari hajmi sezilarli oʻsish tendensiyasini namoyon etdi. Ushbu davrda daromadlar hajmi 174,1 mlrd soʻmdan 588,1 mlrd. soʻmgacha oshib, umumiy oʻsish taxminan 3,4 barobarni tashkil qildi. Aholining ixtiyoridagi umumiy daromadlari hajmi 2020-2024 yillarda barqaror oʻsishni namoyish etgani bilan, choraklar boʻyicha oʻzgarishlar mavsumiy tebranishlarni kuzatildi. Ushbu tendensiya davom etadigan boʻlsa, 2024-yilning 4-choragida daromadlar hajmi 700 trillion soʻmdan oshishini kutishimiz mumkin.

Yuqoridagilar bilan birga Oʻzbekistonda ozoq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda goʻsht mahsulotlari bilan taʼminlash muammolari mavjud.

Hozirda dunyoda oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan qoʻshni davlatlarda goʻsht narxi 10 foizgacha oshgan.

Bugungi kunda Toshkent shahridagi “Eski juva” bozorida saralanmagan 1 kg mol goʻshti 90-100 ming soʻm va 1 kg qoʻy goʻshti 95-110 ming soʻmdan sotilmoqda.

¹⁸ Rasm muallif tomonidan Oʻzbekiston respublikasi Milliy Statistika Qoʻmitasi maʼlumotlari asosida tayyorlandi



3-rasm. Aholi ixtiyoridagi umumiy daromadlari hajmi (choraklik)¹⁹

Supermarketlarda saralangan yoki go'shtning alohida ajratib olingan qismlari 100-110 ming so'mdan sotilmoqda.

Dehqon bozorlarida esa go'sht aholining xarid qobiliyatiga mos ravishda bo'lib-bo'lib sotilishi tashkil etilgan.

Tatqiqotlarimizga ko'ra, Toshkent shahrida arzonlashtirilgan yarmarkalarda o'rtacha 60-65 ming so'mdan sotiladigan go'shtlar 20 foizni, asosiy rastalardagi (80-90 ming so'm) ro'zg'orbop go'shtlar 80-85 foizni hamda suyaksiz go'shtlar hajmi (95-100 ming so'm) 1-2 foizni tashkil etadi.

Joriy yilda 2 mln. 900 ming tonna (tirik vaznda) 2023 yilga nisbatan 103,8 foiz ko'p go'sht yetishtirish kutilmoqda. Go'sht mahsulotlari bilan ta'minlanish (2023 yilda 111,5 foiz), 2024 yilda 115 foizni tashkil etishi ko'tilmoqda. Kishi jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlarining yillik minimal iste'mol talabi 42,8 kg.

2025 yil birinchi yanvar holatiga 1 kg qoramol go'shti Rossiyada 8,2 AQSH doll., Qozog'istonda 7,5 AQSH doll., Qirg'izistonda 6,2 AQSH doll., Tojikistonda 8,6 AQSH doll., Turkiyada 15 AQSH doll., Ozarbayjonda 10,1 AQSH dollarini tashkil etadi. O'zbekistonda 1 kg qoramol go'shtining o'rtacha narxi 6,6 AQSH dollni tashkil etgan.

Tahlillarimizga ko'ra tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Qozog'istonda 1 kg yetishtirilgan go'sht uchun (tirik vaznda) 200 tengge - 5 296 so'm, qayta ishlashga yo'naltirilgan go'sht uchun 175 tengge - 4 615 so'm subsidiya beriladi.

Shu bilan birga, Qozog'istonda go'sht yo'nalishida mahalliy nasldor buqalar sotib olish uchun 1 boshga 150 ming tengge - 3,9 mln. so'm, go'sht yo'nalishida nasldor sigir sotib olishga 150 ming tengge - 4 mln. so'm, MDH davlatlaridan olib kelingan 1 bosh sigirga 225 ming tengge - 6 mln. so'm, Avstraliya, Shimoliy va Janubiy Amerika hamda Yevropadan import qilinsa 300 ming tengge - 8 mln. so'm subsidiya beriladi. Rossiya Federatsiyasida

¹⁹ Rasm muallif tomonidan O'zbekiston respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

chorvachilik xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash uchun asosiy e‘tibor imtiyozli kreditlar va grantlar berilishiga qaratilgan.

1-jadval

O‘zbekistonda go‘sht narxining oshishiga ta‘sir qiluvchi omillar²⁰.

	Ta‘sir etuvchi omillar	Ta‘sir etuvchi sabablari
1.	Subsidiya berish tizimi.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 martdagi PQ-5017-sonli qaroriga muvofiq chorvachilik xo‘jaliklariga o‘z xo‘jaliklarida va aholi xonadonlari bilan birgalikda kooperatsiya usulida yetishtirilib, go‘sht uchun sotilgan yirik va mayda shoxli mollarning 1 kg tirik vazniga 4 000 va 2 000 so‘m subsidiya berilgan.
2.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i .	O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi 2022 yil 5 maydagi O‘zbekiston Respublikasi O‘RQ-767-son Qonuniga ko‘ra 2023 yil 1 yanvargacha go‘shtni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma, shuningdek import qilinganda qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan.
3.	Chet davlatlarda naslli qoramollar narxi oshganligi.	Xususan bugungi kunda Yevropa davlatlarida 1 bosh naslli qoramol 3000 AQSH dollar va undan yuqori narxlarda sotilmoqda. 2022 yilda bu ko‘rsatgich 2200 AQSH dollar atrofida bo‘lgan. Yevropadan keltirilayotgan naslli qoramollarni uchun 12 foiz qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS 360 AQSHdollar) to‘lanishi hisobiga narxlarni yanada oshishiga sabab bo‘lmoqda.
4.	Go‘sht yetishtirish bilan bog‘liq xarajatlarni (ozuqa-yem, elektr energiya, yoqilg‘i moylash materiallari) keskin ortishi.	Toshkent shahriga so‘yish korxonalariga chorva mollarni tirik holda yoki go‘shtni tashib keltirishda transport xarajatlari 50 foizga oshgan.
5.	Bozorlarda go‘shtni narxini oshishi.	Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan so‘yish korxonalarida so‘yilgan go‘sht va dehqon bozorlarida sotilayotgan go‘sht narxida 12-15 ming so‘m farq mavjud.

Go‘sht importi bo‘yicha tahlil etsak yil yakuniga qadar chet davlatlardan jami 70-75 ming tonna qoramol go‘shni importi kutilmoqda. Joriy yilda 1 mln. 700 ming tonna (tirik vaznda 2 mln. 900 ming tonna) go‘shni yetishtiriladi.

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Chetdan import qilingan go'sht hajmi ichki ishlab chiqarishga nisbatan 4 – 4,5 foizni tashkil etadi.

Import qilingan go'shtning 50 foizi qo'shilgan qiymatni ko'paytirish maqsadida qayta ishlashga yo'naltirilib (jami 1675 ta, shundan go'sht yo'nalishida 600 ta), qolgan qismi dehqon bozorlarida tashkil etilgan savdo yarmakalarida aholiga arzonlashtirilgan narxlarda sotilmoqda.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi ma'lumotlarni inobatga olib, quyidagicha yechimga keldik, qishloq xo'jaligida yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajarish va uning bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari darajasida rivojlanishdan orqada qolmasligi uchun tarmoqda erkin faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan turli xildagi mulk va mulkchilik shakllarining, ularga asoslangan tadbirkorlik turlari va ular o'rtasidagi erkin bozor munosabatlarining nazariy, uslubiy asoslarini takomillashtirish, investitsiyalarni ko'proq jalb etib, fan-texnika yutuqlarini, yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, aholi daromadlarini umumiy hajmi, doimiy va o'zgaruvchi kapitaldan hamda mehnat resurslaridan qisqa va uzoq muddatlarda to'liq va samarali foydalanish yo'llarini aniq belgilash lozim hamda, barcha xarajatlarni tejash, mehnat unumdorligini yuksaltirish, dehqon va ishchilarni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish negizida foyda summasini ko'paytirish yo'llarini asoslangan holda belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda respublikamizda jami 18 032 ta chorvachilik xo'jaliklari mavjud bo'lib, shundan 7 614 tasi qoramolchilik, 3 263 tasi qo'y va echkichilik, 142 tasi yilqichilik, 52 tasi tuyachilik, 1 163 tasi parrandachilik, 4 829 tasi baliqchilik, 715 tasi asalarichilik va 254 tasi quyunchilik yo'nalishida tashkil etilgan.

Birgina qoramolchilik yo'nalishida 500 boshdan 1 000 boshgacha chorva moli bo'lgan xo'jaliklar soni 256 taga, 1 000 bosh va undan yuqori chorva moli bo'lgan xo'jaliklar soni 136 taga yetdi.

Chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish mazkur Dasturga ilovada belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarga erishishga asoslanadi.

Dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha har yili 20 dekabrga qadar kelgusi yilga mo'ljallangan chora-tadbir ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Dasturning maqsadli ko'rsatkichlariga erishilishi ustidan Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan monitoring qilib boriladi.

Innovatsion rivojlanish muammolari O'zbekiston uchun alohida dolzarblik kasb etadi, chunki faqatgina yangi resurstejamkor, ilg'or texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda innovatsion rivojlanish atrof-muhitni ekologik toza saqlab qolishni hisobga olgan holda iqtisodiyot barqarorligini jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlash lozim.

Zamonaviy texnologiyalarning turli variantlarini taqqoslash natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, yerga eng kam ishlov berish, joriy va investitsiyaviy xarajatlarni tejash, tannarxi ancha past bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish va narxlarning bir xil darajasida har bir ekin bo'yicha bir gektar yerdan ko'proq daromadlar olish imkonini beradi. Ammo, texnologiyalarni o'zgartirish – tizimli yondashuvni, an'anaviy texnologiyalardan yangi resursni tejovchi texnologiyalarga o'tishda korxonaning texnologik tizimida yuz beradigan barcha o'zgarishlar haqidagi bilimlarni talab qiluvchi murakkab jarayondir. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligi korxonalarida texnologik va tashkiliy-iqtisodiy innovatsiyalarni joriy etishning jarayonli algoritmlarini ishlab chiqish zarur hamda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasi ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil qilib unga qishloq xo'jaligidagi barcha inson resurslarini malakasini oshirib borishga jalb qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'ZBEKISTON — 2030» Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni,
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risidagi PQ-5009-son Qarori.
4. Addison J., Teixeira P. The Economics of Employment Protection. IZA Discussion Paper October No 381, 2001,-P. 19.
5. Самуэльсон П. Экономика. В.2 т. – М.: МГП «АЛГОН», ВНИИСИ, 1992. 432 с.
6. Брю С., Макконнелл К. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2 т, пер. с англ. 11-го изд. Т. 1. – М.: «Республика», 1992. -с. 132-175,194-217; Т. 2. - с.156-174,293-310.
7. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. – T.: «Akademiya», 2012.
8. Aliev Ya.E. “Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar bozorni rivojlantirish masalalari” Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali ii son. mart-aprel, 2020 198-b
9. Balabanov V.S., Borisenko E.N. Oziq-ovqat xavfsizligi: xalqaro va ichki jihatlar. – M.: Iqtisodiyot, 2012. – B. 22.
10. Frolov K.V., Gordeev A.V., Maslennikova O.A. va boshqalar. Oziq-ovqat xavfsizligi. 2-bo'lim / - M.: Bilim, 2011-101. b.
11. Topildiev S.R. Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. - Iqt. fan. dok. ... dis. - T.: «Tipograff» MCHJ. 2023.-70 b.
12. Altiev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari. – T. Fan, 2018. Monografiya -274 b.

13. Tadjibaeva D. Milliy iqtisodiyotda institutsional o'zgarishlar samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish. (O'zbekiston Respublikasi agrar sohasida misolida) Iqt. fan. dok. ... dis. avtoref. - T.: O'zRIIVA, 2020. – 81 b.

14. Rustamova I.B. Agrar soxada innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning ilmiy uslubiy asoslari. avt. ... i.f.d. T.: 2020. - 77 b.

15. Dusmatov B.O. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrasanoat ishlab chiqarishda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. avt. ... i.f.d. T.:2022.-53 b.

16. Xo'jageldiev Ch.P. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirishni rag'batlantirish. avt. ... i.f.d. T.: 2022.-56 b.

17. Topildiev S.R. XXI Asr suv muammosi: O'zbekistonda va markaziy osiyoda bartaraf etish yo'llari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2023 yil. 5-son.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SEKTORINING RIVOJLANISH HOLATI: 2017-2024 YILLAR TAHLILI

Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti "Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar
va aniq fanlar" kafedrasida assistenti

e-mail: abdullajon_uzb@mail.ru

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a218

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorining 2017-2024 yillar oralig'idagi rivojlanish holati kompleks hamda Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida AKT sektorining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilindi. Tarixiy tendentsiyalar tahlili (CAGR usuli) 2017-2020 va 2021-2024 davrlarida turli xil rivojlanish sur'atlarini ko'rsatdi. Sektorning asosiy muammolari aniqlandi: kadrlar tanqisligi, raqamli infratuzilma cheklanganligi, xalqaro bozorga kirish qiyinchiliklari. Tadqiqot natijalari sektorning tez rivojlanayotganligini va davlat qo'llab-quvvatlashining samaradorligini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, AKT sektor, IT Park, eksport, raqamli iqtisodiyot, O'zbekiston.

СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ СЕКТОРА ИНФОРМАЦИОННО- КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ЗА 2017-2024 ГОДЫ

Абдуллаев Абдулла Файзулла угли

Ташкентский государственный экономический университет

Ассистент, кафедра «Специализация, социально-гуманитарные и
точные науки», факультет Турткуля

Аннотация. В статье комплексно анализируется развитие сектора информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) Узбекистана в период 2017-2024 годов. На основе официальных статистических данных проанализирована динамика основных показателей ИКТ-сектора. Анализ исторических тенденций (метод CAGR) показал различные темпы развития в периоды 2017-2020 и 2021-2024 годов. Определены основные проблемы сектора: дефицит кадров, ограниченность цифровой инфраструктуры, сложности выхода на международные рынки. Результаты исследования подтвердили быстрое развитие сектора и эффективность государственной поддержки.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, ИКТ-сектор, IT Park, экспорт, цифровая экономика, Узбекистан.

**DEVELOPMENT STATUS OF THE INFORMATION AND
COMMUNICATION TECHNOLOGIES SECTOR OF UZBEKISTAN: ANALYSIS
FOR 2017-2024**

Abdullayev Abdulla Fayzulla ugli

Tashkent State University of Economics

Assistant, Department of "Specialization, Social-Humanities
and Exact Sciences", Faculty of Turtkul

Abstract. The article comprehensively analyzes the development of Uzbekistan's information and communication technology (ICT) sector during 2017-2024. Based on official statistical data, the dynamics of the ICT sector's key indicators were analyzed. Historical trend analysis (CAGR method) showed different development rates in 2017-2020 and 2021-2024 periods. Main sector challenges were identified: talent shortage, limited digital infrastructure, difficulties in entering international markets. Research results confirmed the sector's rapid development and effectiveness of government support.

Keywords: information and communication technologies, ICT sector, IT Park, export, digital economy, Uzbekistan.

Kirish

Zamonavir jahon iqtisodiyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori iqtisodiy o'sish va raqamli transformatsiyaning asosiy harakatlantiruvchisi hisoblanadi [1]. Global AKT bozori 2024-yilda 5,3 trillion dollarga yetdi va yillik 8-10% sur'atda o'smoqda [2]. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun AKT sektori iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv uchun strategik imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida AKT sektorini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda [3]. 2019-yilda IT Park tizimining tashkil etilishi va keng qamrovli davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari (soliq imtiyozlari 2040-yilgacha, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, eksport rag'batlantirish) joriy etilishi sektorning jadal rivojlanishiga turtki berdi [4].

So'nggi yillarda O'zbekiston AKT sektori bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazildi, ammo ularning aksariyati alohida aspektlarga qaratilgan. 2017-2024 yillar davridagi to'liq tarixiy dinamikani, barcha asosiy ko'rsatkichlarni va ularning o'zaro bog'lanishini kompleks tahlil qiluvchi tadqiqotlar yetarli emas. Shuningdek, sektorning rivojlanishini ikki aniq davrga ajratib tahlil qilish va bu davrlarning farqlarini miqdoriy baholash zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

AKT sektorining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni xalqaro adabiyotlarda keng o'rganilgan. Niebel (2018) rivojlanayotgan, paydo bo'layotgan va rivojlangan mamlakatlarni taqqoslab, AKT investitsiyalari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni isbotladi [7]. Pradhan va boshqalar (2015) AKT infratuzilmasi, iqtisodiy o'sish va moliyaviy rivojlanish dinamikasini ASEAN mamlakatlari misolida tahlil qilib, AKT infratuzilmasining multiplayer ta'sirini ko'rsatdilar [8]. Shapiro va Varian (1999) axborot mahsulotlarining o'ziga xos

iqtisodiy xususiyatlarini (yuqori dastlabki xarajatlar, past ko'paytirish xarajatlari, tarmoq effekti) tizimli tahlil qildilar [11]. Porter (1990) raqobat ustunligi nazariyasi doirasida milliy innovatsiya tizimining ahamiyatini ta'kidladi [12]. Global Innovation Index (GII) rivojlanayotgan mamlakatlar uchun AKT sektorining innovatsion salohiyatini baholash vositasi sifatida keng qo'llaniladi [10]. Jahon Banki (2024) raqamli rivojlanish hisobotida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun to'rtta asosiy yo'nalishni belgilab berdi: raqamli infratuzilma, inson kapitali, raqamli xizmatlar va innovatsion ekotizim [9]. O'zbekiston kontekstida “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasi AKT sektorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi: IT Park tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash, eksportni rag'batlantirish, raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish [3]. IT Park modeli (soliq imtiyozlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, eksport rag'batlantirish) xalqaro amaliyotda samarali mexanizm sifatida e'tirof etilgan [4]. Biroq, O'zbekiston AKT sektorining 2017-2024 yillar dinamikasini kompleks tahlil qiluvchi, ikki rivojlanish davrini (2017-2020 va 2021-2024) taqqoslaydigan va IT Park ta'sirini alohida baholaydigan tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu tadqiqot shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda AKT sektorining rivojlanish holatini kompleks baholash uchun bir necha miqdoriy tahlil usullari qo'llandi. Tavsifiy statistika usuli o'rtacha qiymatlar, minimal va maksimal qiymatlar, standart og'ish, variatsiya koeffitsienti, jami va nisbiy o'sishni hisoblash orqali asosiy ko'rsatkichlarning umumiy dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Dinamik qatorlar tahlili vaqt bo'yicha o'zgarishlarni baholash uchun ishlatildi, bunda absolyut o'sish ($\Delta Y = Y_t - Y_{(t-1)}$), nisbiy o'sish ($((Y_t - Y_{(t-1)})/Y_{(t-1)}) \times 100\%$) va o'sish sur'ati indeksleri hisoblab chiqildi.

Yillik o'rtacha o'sish sur'atini aniqlash uchun CAGR (Compound Annual Growth Rate) usuli qo'llandi, uning formulasi quyidagicha:

$$CAGR = [(V_{oxirgi} / V_{boshlang'ich})^{(1/n)} - 1] \times 100\% \quad (1)$$

bu yerda V_{oxirgi} - oxirgi yil qiymati, $V_{boshlang'ich}$ - boshlang'ich yil qiymati, n - yillar soni. Komparativ tahlil ikki rivojlanish davrini (2017-2020 va 2021-2024) taqqoslash, turli ko'rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish va xalqaro standartlar bilan taqqoslash uchun ishlatildi. Strukturaviy tahlil IT Park va umumiy AKT sektorining nisbati, eksportning geografik tuzilmasi, rezidentlarning viloyatlar bo'yicha taqsimotini baholash imkonini berdi.

Tadqiqotning bir qator cheklovlari mavjud. Ba'zi ko'rsatkichlar, xususan e-tijorat hajmi, faqat 2020-yildan boshlab rasmiy statistika ma'lumotlarida qayd etila boshlanganligi sababli tarixiy taqqoslash imkoniyatlari cheklangan. Viloyatlar kesimida batafsil ma'lumotlar yetarli emas, bu mintaqaviy tahlilni qiyinlashtiradi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan to'liq xalqaro taqqoslash o'tkazish uchun yagona metodologiya asosida tuzilgan ma'lumotlar

yetarli darajada mavjud emas, bu tadqiqotning regional kontekstda cheklangan talqin qilinishiga olib keladi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston AKT sektori 2017-2024 yillar davomida barqaror o‘shish ko‘rsatdi. 1-jadvalda to‘rtta asosiy indikator keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekiston AKT sektori asosiy ko‘rsatkichlari (2017-2024)

Yil	AKT xizmatlari eksporti (mln \$)	AKT kompaniyalar soni (ta)	AKT xodimlar soni (ming)	AKT xizmatlar hajmi (mlrd so‘m)
2017	150,65	6,427	37,958	8 196,7
2018	159,69	6,403	40,248	10 332,6
2019	167,5	6,975	47,697	10 891,7
2020	169,51	7,901	50,157	13 852,3
2021	180,74	9,517	53,782	17 755,1
2022	305,8	10,587	60,462	24 508,1
2023	540,38	12,204	71,627	39 064,4
2024	640,8	10,551	83,051	56 812,1
Jami o‘shish	325,50%	64,20%	118,70%	593,20%
CAGR	22,80%	7,30%	11,80%	31,60%

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

AKT eksporti 4,3 marta oshdi (CAGR 22,8%), xodimlar 2,2 marta (CAGR 11,8%), xizmatlar hajmi 6,9 marta (CAGR 31,6%). Kompaniyalar soni 2024-yilda kamaydi (-13,5%), bu bozor konsolidatsiyasini ko‘rsatadi - yirik kompaniyalarning samaradorligi oshmoqda.

IT Park Uzbekistan 2019-yilda tashkil etilgan va AKT sektorining eng dinamik rivojlanayotgan segmentiga aylandi. 2-jadvalda IT Park asosiy ko‘rsatkichlarining dinamikasi keltirilgan.

2-jadval

IT Park Uzbekistan ko‘rsatkichlari (2017-2024)

Yil	IT Park eksporti (mln \$)	IT Park rezidentlari (ta)	IT Park xodimlar (ming)
2017	0,6	147	2,523
2018	1,7	147	3,045
2019	6,2	147	4,584
2020	16,3	147	6,000
2021	46,0	486	8,640
2022	140,9	1 123	14,500
2023	344,0	1 652	26,000
2024	901,0	2 384	36,300
Jami o‘shish	150,07%	1,52%	1,34%
CAGR	161,00%	50,90%	46,00%

Manba: IT Park Uzbekistan rasmiy hisobotlari.

IT Park eksporti 1 501 marta oshdi (CAGR 161% - dunyoda eng yuqori sur'atlardan biri). Ikki bosqich: 2017-2020 (barqaror 147 rezident), 2021-2024 (keskin o'sish). 2021 - burilish nuqtasi (soliq imtiyozlarining 2040-yilgacha uzaytirilishi).

Raqamli infratuzilma AKT sektorining rivojlanishi uchun zaruriy asos hisoblanadi. 3-jadvalda asosiy infratuzilma ko'rsatkichlari keltirilgan.

3-jadval

Raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari (2020-2024)

Yil	Internet foydalanuvchilar (mln)	Internet penetratsiya (%)	E-tijorat hajmi (trln so'm)
2020	19,98	58,9	1,0
2021	22,99	66,5	5,98
2022	26,72	75,7	10,89
2023	30,06	83,4	13,26
2024	32,14	87,3	15,21
O'sish	60,80%	48,20%	1,42%
CAGR	12,60%	10,30%	97,50%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi.

Internet penetratsiyasi 87,3% (Markaziy Osiyoda 2-o'rin). E-tijorat 15,2 marta oshdi - COVID-19 ta'siri va platformalar (Uzum, Olcha) rivojlanishi natijasi.

AKT sektorining rivojlanishini yaxshiroq tushunish uchun tadqiqot davrini ikki bosqichga ajratdik: 2017-2020 (boshlang'ich) va 2021-2024 (eksponensial o'sish). 4-jadvalda ikki davr taqqoslanadi.

4-jadval

Davr bo'yicha CAGR (2017-2020 va 2021-2024)

Ko'rsatkich	2017-2020 CAGR	2021-2024 CAGR	Farq
AKT eksport	4,0%	52,5%	+48,5 p.p.
IT Park eksport	151,0%	171,6%	+20,6 p.p.
AKT xodimlar	9,8%	13,5%	+3,7 p.p.
IT Park rezidentlar	0,0%	73,0%	+73,0 p.p.

Manba: Muallif hisob-kitoblari.

2021-yil strategik burilish nuqtasi. Omillar: “Raqamli O'zbekiston-2030”, soliq imtiyozlari, Zero Risk/Local to Global dasturlari, COVID-19 (raqamli xizmatlar talabining oshishi).

5-jadval

Markaziy Osiyo AKT ko'rsatkichlari (2024)

Mamlakat	AKT eksport (mln \$)	Internet (%)	Xodimlar (ming)
O'zbekiston	640,8	87,3	83,1
Qozog'iston	300-350*	91,6	145
Qirg'iziston	80-100*	78,5	18,5

*Izoh: * - taxminiy. Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi.*

O'zbekiston eksport bo'yicha mintaqada yetakchi. Global Innovation Index: 70-o'rin (2020: 93, +23 o'rin) - mintaqadagi eng tez ko'tarilish.

Tadqiqot quyidagi natijalarni berdi:

1. Jadal rivojlanish. 2017-2024: AKT eksporti 4,3x (CAGR 22,8%), xodimlar 2,2x (CAGR 11,8%), xizmatlar 6,9x (CAGR 31,6%).

2. IT Park muvaffaqiyati. Eksport 1,501x (CAGR 161%), rezidentlar 16,2x (CAGR 50,9%), xodimlar 14,4x (CAGR 46%). Davlat qo'llab-quvvatlashining yuqori samaradorligi tasdiqlandi.

3. Ikki rivojlanish davri. 2017-2020 (boshlang'ich, CAGR 4,0%) va 2021-2024 (eksponensial, CAGR 52,5%). 2021 - strategik burilish nuqtasi.

4. Raqamli infratuzilma. Internet penetratsiyasi 87,3%, e-tijorat 15,2x (CAGR 97,5%).

5. Mintaqada yetakchilik. Eksport bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rin (640,8 mln \$), GII'da eng tez ko'tarilayotgan (+23 o'rin).

6. Muammolar: Kadrlar tanqisligi (65-100 ming deficit), infratuzilma cheklanganligi (5G <5%), xalqaro bozorga kirish qiyinchiliklari, investitsiyalar yetishmasligi (venture kapital yo'q), R&D 0,1% YaIM.

Takliflar va tavsiyalar.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va sektorni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi:

1. Kadrlar tanqisligini bartaraf etish bo'yicha takliflar:

1.1. Qisqa muddatli (2025-2026):

- IT bootcamp dasturlarini kengaytirish (3-6 oylik intensiv kurslar)
- Internship va mentorlik dasturlarini joriy etish (IT Park bilan hamkorlik)

- Xalqaro sertifikatlar (AWS, CISCO, Google Cloud) uchun grant dasturi

- Maqsad: 2026-yilda 100 000 IT mutaxassis

1.2. O'rta muddatli (2027-2028):

- Universitetlarda zamonaviy IT ta'lim dasturlarini yaratish

- Xorijiy IT kompaniyalar bilan Training Center dasturi

- IT o'qituvchilar malakasini oshirish (xalqaro tajriba)

- Maqsad: 2028-yilda 150 000 IT mutaxassis

1.3. Uzoq muddatli (2029-2030):

- STEM ta'limini maktab darajasidan boshlash

- IT ta'lim ekotizimini yaratish (maktab-universitet-biznes)

- Xorijdagi IT mutaxassislarni qaytarish dasturi

- Maqsad: 2030-yilda 200 000 IT mutaxassis, yetakchi mintaqaviy IT hub

2. Raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar:

2.1. Qisqa muddatli (2025-2026):

- Barcha viloyat markazlarida 4G qamrovini ta'minlash

- Internet narxini pasaytirish (subsidiyalar, raqobat)

- Davlat muassasalarida bepul Wi-Fi

2.2. O'rta muddatli (2027-2028):

- 5G tarmog'ini barcha shaharlarda joriy etish (2027)

- Data centerlarni Tier III standartida qurish
- Internet tezligini 100 Mbps minimal darajaga yetkazish
- Optik-tolali tarmoqni kengaytirish (qishloq joylari)

2.3. Uzoq muddatli (2029-2030):

- 5G qamrovini 80%ga yetkazish
- Cloud computing infratuzilmasini rivojlantirish
- Kiberhavfsizlik markazlarini tashkil etish

3. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish bo'yicha takliflar:

3.1. Venture kapital ekotizimini yaratish:

- Davlat venture fondi (\$100 mln, “Fund of funds” modeli)
- Angel investorlar tarmog'ini shakllantirish
- Seed investitsiya: \$50k-500k (dastlabki bosqich startaplari uchun)
- Series A/B investitsiya: \$1-5 mln (o'sib borayotgan startaplar)

3.2. IT kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash:

- Eksport kreditlari (past foiz stavkasi)
- Grant dasturlari (xalqaro bozorlarga chiqish uchun)
- Soliq imtiyozlarini 2040-yildan keyin ham davom ettirish

4. Xalqaro bozorga kirishni yengillashtirish bo'yicha takliflar:

4.1. Eksportni diversifikatsiya qilish:

- Yangi geografik bozorlar: Janubiy-Sharqiy Osiyo (Singapur, Malayziya), MENA (BAA, Saudiya)
- Yangi xizmatlar: AI, blockchain, kiberhavfsizlik, IoT
- Xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok uchun qo'llab-quvvatlash (50% davlat grant)

4.2. Brend va marketingni rivojlantirish:

- “Uzbekistan IT” brendi yaratish
- Silicon Valley, Bangalore, Tel Aviv bilan aloqalar
- IT turizmi (Tech conferences, hackathons)

5. Innovatsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha takliflar:

5.1. R&D investitsiyalarini oshirish:

- R&D xarajatlarni 0,1% YaIMdan 1,0% YaIMga ko'tarish (2030)
- Ilmiy-tadqiqot institutlari va biznes hamkorligi
- Patent tizimini takomillashtirish (tez va arzon ro'yxatga olish)

5.2. Innovatsiya ekotizimini yaratish:

- Universitetlarda innovatsiya markazlari
- Korporativ R&D laboratoriyalarini qo'llab-quvvatlash
- Xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok

6. IT Park filiallarini kengaytirish bo'yicha takliflar:

6.1. Mintaqaviy tengsizlikni kamaytirish:

- Har bir viloyat markazida IT Park filiali (2026)
- Mahalliy kadrlar tayyorlash dasturlari
- Maqsad: 2026-yilda 3 500 rezident (hozir 2 384)

6.2. Maxsus yoʻnalishlar:

- Qishloq xoʻjalik texnologiyalari (AgriTech)
- Taʼlim texnologiyalari (EdTech)
- Tibbiyot texnologiyalari (HealthTech)

7. Barqaror rivojlanish boʻyicha takliflar:

7.1. Yashil texnologiyalar:

- IT kompaniyalar uchun energiya samaradorligi standartlari
- Qayta tiklanadigan energiya manbalari (data centerlar uchun)
- Elektron chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimi

7.2. Ijtimoiy masʼuliyat:

1. Raqamli savodxonlik dasturlari (aholining barcha qatlamlari)
2. Gender tenglik IT sohasida (ayollar uchun maxsus dasturlar)
3. Nogironlar uchun IT taʼlim va ish oʻrinlari

Xulosa

Oʻzbekiston AKT sektorining 2017-2024 yillar davridagi kompleks tahlili asosiy koʻrsatkichlarning jadal oʻsishini tasdiqladi. AKT xizmatlari eksporti 4,3 marta (150,65 mln \$ → 640,8 mln \$, CAGR 22,8%), xodimlar soni 2,2 marta (37,958 ming → 83,051 ming, CAGR 11,8%), xizmatlar hajmi 6,9 marta (8,2 trln soʻm → 56,8 trln soʻm, CAGR 31,6%) oshdi.

IT Park tizimi fenomenal natijalar koʻrsatdi: eksport 1 501 marta (0,6 mln \$ → 901 mln \$, CAGR 161%), rezidentlar soni 16,2 marta (147 ta → 2 384 ta, CAGR 50,9%), xodimlar soni 14,4 marta (2,523 ming → 36,300 ming, CAGR 46%) oshgani davlat qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarining yuqori samaradorligini isbotladi.

Sektorning rivojlanishi ikki davr boʻyicha farqlanadi: 2017-2020 yillar boshlangʻich davr (CAGR 4,0%) va 2021-2024 yillar eksponensial oʻsish davri (CAGR 52,5%) boʻlib, 2021-yil “Raqamli Oʻzbekiston-2030” strategiyasi va soliq imtiyozlarining uzaytirilishi natijasida burilish nuqtasiga aylandi.

Raqamli infratuzilma sezilarli rivojlandi: internet penetratsiyasi 58,9%dan 87,3%ga koʻtarildi, e-tijorat hajmi 15,2 marta oshdi (1,0 trln soʻm → 15,21 trln soʻm, CAGR 97,5%). Oʻzbekiston Markaziy Osiyoda eksport boʻyicha yetakchi (640,8 mln \$), Global Innovation Indexʼda 2020-2024 yillarda 93-oʻrindan 70-oʻringa koʻtarildi (+23 oʻrin).

Biroq, bir qator tizimli muammolar aniqlandi: kadrlar tanqisligi (65-100 ming kamchilik), raqamli infratuzilma cheklanganligi (5G qamrovi <5%, internet tezligi 20-50 Mbps), xalqaro bozorga kirish qiyinchiliklari, venture kapital yoʻqligi, innovatsion faoliyatning past darajasi (R&D 0,1% YaIM). Bu muammolarni hal qilish uchun maqsadli davlat siyosati va tizimli yondashuv zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. UNCTAD. Digital Economy Report 2024 [Elektron resurs] / UNCTAD. – Geneva: United Nations, 2024. – URL: <https://unctad.org/der2024>

2. ITU. Measuring Digital Development: ICT Price Trends 2024 [Elektron resurs] / International Telecommunication Union. – Geneva: ITU, 2024. – URL: <https://www.itu.int/en/ITU-D/Statistics>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida: PF-6079-son, 05.10.2020 // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2020. – № 40. – 3-modda.
4. IT-xizmatlar eksporti yo‘nalishi bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori № 86, 12.02.2024 [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6796143>
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi [Elektron resurs]. – Toshkent: Davstat, 2024. – URL: <http://www.stat.uz>
6. IT Park Uzbekistan. Yillik faoliyat hisoboti 2024 [Elektron resurs] / IT Park Uzbekistan. – Toshkent, 2024. – URL: <https://it-park.uz>
7. Niebel T. ICT and economic growth: Comparing developing, emerging and developed countries / T. Niebel // World Development. – 2018. – Vol. 104. – P. 197-211.
8. Pradhan R.P. The dynamics of information and communications technologies infrastructure, economic growth, and financial development / R.P. Pradhan, M.B. Arvin, N.R. Norman // Technology in Society. – 2015. – Vol. 42. – P. 135-149.
9. World Bank. Digital Development Overview [Elektron resurs] / The World Bank. – Washington DC, 2024. – URL: <https://www.worldbank.org/en/topic/digitaldevelopment>
10. Jahon iqtisodiy forumi. The Global Innovation Index 2024 [Elektron resurs] / World Economic Forum. – Geneva, 2024. – URL: https://www.wipo.int/global_innovation_index
11. Shapiro C. Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy / C. Shapiro, H.R. Varian. – Boston: Harvard Business School Press, 1999. – 352 p.
12. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations / M.E. Porter. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
13. Armstrong J.S. Principles of Forecasting: A Handbook for Researchers and Practitioners / J.S. Armstrong. – Boston: Kluwer Academic Publishers, 2001. – 849 p.
14. Makridakis S. Forecasting: Methods and Applications / S. Makridakis, S.C. Wheelwright, R.J. Hyndman. – 3rd ed. – New York: John Wiley & Sons, 1998. – 642 p.
15. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education / G.S. Becker. – 3rd ed. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 390 p.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



MINIMAL ISH HAQI SIYOSATINING IQTISODIY VA IJTIMOY OQIBATLARI

Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası assistenti

e-mail: d.fayzieva@tsue.uz

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a219

Annotatsiya. Mazkur maqolada minimal ish haqi siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Minimal ish haqi darajasini belgilash mehnat bozori muvozanati, bandlik darajasi, aholi daromadlari va kambag'allikni kamaytirish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim iqtisodiy instrument sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda minimal ish haqining bandlik, ishchi kuchi taklifi, mehnat unumdorligi va daromadlar tengsizligiga ta'siri turli iqtisodiy yondashuvlar asosida baholanadi. Shuningdek, minimal ish haqi siyosatining ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi roli yoritiladi. Olingan xulosalar minimal ish haqi siyosatini takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy muvozanatni ta'minlash imkoniyatlarini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: minimal ish haqi, bandlik, mehnat bozori, daromadlar tengsizligi, kambag'allik, ijtimoiy siyosat.

ECONOMIC AND SOCIAL CONSEQUENCES OF MINIMUM WAGE POLICY

Fayziyeva Dilsuz Bakhodirovna

Tashkent State University of Economics

Assistant Professor, Department of “Economic Theory”

Abstract. This article analyzes the economic and social effects of minimum wage policy from both theoretical and practical perspectives. The minimum wage is considered a key economic instrument that directly affects labor market equilibrium, employment levels, household incomes, and poverty reduction. The study evaluates the impact of minimum wage adjustments on employment, labor supply, productivity, and income inequality based on different economic approaches. In addition, the role of minimum wage policy in promoting social justice, improving living standards, and strengthening social stability is examined. The findings highlight the potential of an effective minimum wage policy to balance economic efficiency and social equity.

Keywords: minimum wage, employment, labor market, income inequality, poverty reduction, social policy.

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ПОЛИТИКИ МИНИМАЛЬНОЙ ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ

Файзиева Дилсуз Баходировна

Ташкентский государственный экономический университет

Ассистент кафедры «Экономическая теория»

Аннотация. В данной статье рассматриваются экономические и социальные последствия политики минимальной заработной платы с теоретической и практической точек зрения. Минимальная заработная плата анализируется как важный экономический инструмент, оказывающий непосредственное влияние на равновесие рынка труда, уровень занятости, доходы населения и сокращение бедности. В исследовании оценивается влияние изменения минимальной заработной платы на занятость, предложение рабочей силы, производительность труда и неравенство доходов на основе различных экономических подходов. Особое внимание уделяется роли политики минимальной заработной платы в обеспечении социальной справедливости, повышении уровня жизни населения и укреплении социальной стабильности. Полученные выводы обосновывают возможности совершенствования политики минимальной заработной платы для достижения экономической эффективности и социального баланса.

Ключевые слова: минимальная заработная плата, занятость, рынок труда, неравенство доходов, бедность, социальная политика.

Kirish

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida aholi farovonligini oshirish, kambag'allikni kamaytirish va mehnat bozorida ijtimoiy adolatni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda minimal ish haqi siyosati muhim ijtimoiy-iqtisodiy instrument sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Minimal ish haqi mehnat qiluvchi aholi uchun eng kam daromad kafolatini belgilab berish bilan birga, mehnat bozori muvozanati, bandlik darajasi va daromadlar taqsimotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Minimal ish haqini belgilash va uni oshirish masalasi iqtisodiy nazariyada ham, amaliy siyosatda ham bahsli mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Bir tomondan, minimal ish haqi darajasining oshirilishi past daromadli qatlamlar farovonligini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Ikkinchi tomondan esa, uning mehnat bozori muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ish beruvchilar xarajatlarini oshirishi va ayrim hollarda bandlik darajasining pasayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu bois minimal ish haqi siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini chuqur va kompleks tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Iqtisodiy nazariyada minimal ish haqi siyosatiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Neoklassik yondashuv minimal ish haqining bozor muvozanatidan yuqori darajada belgilanishi ishchi kuchi talabining qisqarishiga olib kelishini ta'kidlaydi. Keynesiy va institutsional yondashuvlar esa minimal ish haqini yalpi talabni rag'batlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash vositasi sifatida baholaydi. Zamonaviy empirik tadqiqotlar ushbu qarashlarni real ma'lumotlar asosida qayta ko'rib chiqib, minimal ish haqining ta'siri mamlakatlar, tarmoqlar va mehnat bozori sharoitlariga qarab farqlanishini ko'rsatmoqda.

Globalashuv, demografik o'zgarishlar va texnologik taraqqiyot sharoitida minimal ish haqi siyosatining ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Minimal ish haqi siyosati iqtisodiy nazariya va amaliy siyosatda eng ko'p muhokama qilinadigan mehnat bozori instrumentlaridan biri hisoblanadi. Ushbu siyosatning bandlik, daromadlar taqsimoti va ijtimoiy farovonlikka ta'siri turli iqtisodiy maktablar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lib, adabiyotlarda mazkur masala bo'yicha qarama-qarshi ilmiy xulosalar mavjud.

Neoklassik iqtisodiy nazariya doirasida minimal ish haqi mehnat bozoriga tashqi aralashuv sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv vakillari minimal ish haqining bozor muvozanatidan yuqori darajada belgilanishi ishchi kuchiga bo'lgan talabni qisqartirishi va natijada ishsizlikni oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi. D. Neumark va W. Wascher tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlarda minimal ish haqi oshirilishi yoshlar va past malakali ishchilar bandligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjudligi qayd etilgan. Bu yondashuv minimal ish haqi siyosatining iqtisodiy samaradorligini shubha ostiga qo'yadi.

Keynesiy iqtisodiy nazariyada esa minimal ish haqi yalpi talabni rag'batlantiruvchi omil sifatida baholanadi. J. M. Keynes va uning izdoshlari ish haqi darajasining oshishi aholi daromadlarini ko'paytirib, iste'mol xarajatlari orqali iqtisodiy faollikni kuchaytirishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv doirasida minimal ish haqi bandlikni qisqartiruvchi emas, balki iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida ko'riladi, ayniqsa talab yetishmovchiligi sharoitida.

Institutsional va mehnat iqtisodiyoti doirasidagi tadqiqotlarda minimal ish haqi siyosati mehnat munosabatlarida ijtimoiy adolatni ta'minlovchi muhim instrument sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvda minimal ish haqi ish beruvchilarning monopsoniya kuchini cheklash, ishchi kuchi ekspluatatsiyasini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi mumkinligi qayd etiladi. A. Manningning monopsoniya modeli minimal ish haqining bandlikka salbiy ta'siri doimo kuzatilmasligini ilmiy asoslab bergan.

So'nggi yillarda olib borilgan empirik tadqiqotlar minimal ish haqi siyosatining ta'siri bir xil emasligini, u mamlakatlar, mehnat bozori institutsional tuzilmasi va iqtisodiy sharoitlarga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Xususan, D. Card va A. Krueger tomonidan AQSh misolida olib borilgan tadqiqotlar minimal ish haqi oshirilishi bandlikka sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmaganini aniqlagan. Ushbu natijalar neoklassik yondashuvga muqobil ilmiy dalillarni shakllantirdi.

Xalqaro tashkilotlar — Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Jahon banki va OECD hisobotlarida minimal ish haqi siyosatining ijtimoiy oqibatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu manbalarda minimal ish haqining past daromadli ishchilarni himoya qilish, kambag'allikni kamaytirish va daromadlar tengsizligini yumshatishdagi ijobiy roli ta'kidlanadi. Shu bilan birga, minimal

ish haqi darajasini belgilashda mehnat unumdorligi va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish zarurligi qayd etiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda minimal ish haqi siyosati norasmiy bandlik bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilinadi. Ko'plab ilmiy ishlarda minimal ish haqining keskin oshirilishi norasmiy sektor kengayishiga olib kelishi mumkinligi, biroq bosqichma-bosqich va institutsional qo'llab-quvvatlash bilan amalga oshirilgan siyosat ijobiy natijalar berishi ko'rsatiladi. O'zbekiston va boshqa o'tish davridagi iqtisodiyotlarga oid adabiyotlarda minimal ish haqi aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bilan birga bandlik siyosati bilan muvofiqlashtirilishi zarurligi ta'kidlanadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, minimal ish haqi siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, uning samaradorligi mehnat bozori institutlari, iqtisodiy sharoit va amalga oshirish mexanizmlariga bevosita bog'liq. Shu bois minimal ish haqi siyosatini ishlab chiqishda nazariy yondashuvlar va empirik tajribalarni kompleks tarzda hisobga olish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot minimal ish haqi siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda nazariy va empirik tahlil usullarining kompleks majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi minimal ish haqi, bandlik, aholi daromadlari va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli va ko'p qirrali yondashuv asosida o'rganishni nazarda tutadi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi klassik va neoklassik mehnat bozori nazariyalari, Keynesiy va institutsional iqtisodiyot yondashuvlari, shuningdek monopsoniya modeli va inklyuziv iqtisodiy o'sish konsepsiyalariga tayangan. Ushbu nazariy yondashuvlar doirasida minimal ish haqi siyosatining mehnat bozori muvozanatiga, ishchi kuchi talab va taklifiga hamda daromadlar taqsimotiga ta'siri konseptual jihatdan tahlil qilindi. Nazariy tahlilda ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy tahlil, umumlashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik qismi statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. Asosiy empirik ko'rsatkichlar sifatida minimal ish haqi darajasi, o'rtacha ish haqi, bandlik va ishsizlik darajasi, aholi real daromadlari, Gini koeffitsienti hamda kambag'allik darajasi tanlab olindi. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda dinamik qatorlar tahlili va solishtirma tahlil metodlaridan foydalanildi.

Minimal ish haqi o'zgarishlarining bandlik va daromadlar tengsizligiga ta'sirini baholash maqsadida korrelyatsion va regressiya tahlili elementlari qo'llanildi. Xususan, minimal ish haqi o'sish sur'atlari bilan bandlik darajasi va aholi real daromadlari o'rtasidagi munosabatlar miqdoriy jihatdan baholandi.

Ushbu yondashuv minimal ish haqi siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy taʼsirini aniqroq aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda, shuningdek, institutsional tahlil usuli qoʻllanilib, minimal ish haqi siyosatini amalga oshirish mexanizmlari, normativ-huquqiy baza va mehnat bozori institutlarining roli baholandi. Bunda davlat tomonidan ish beruvchilar va ishchilar manfaatlarini muvofiqlashtirish, ijtimoiy himoya tizimi va bandlik siyosati bilan uygʻunlik masalalari tahlil qilindi.

Maʼlumotlar bazasi sifatida Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Jahon banki, OECD, Xalqaro valyuta jamgʻarmasi (IMF) hamda milliy statistika organlari tomonidan eʼlon qilingan rasmiy statistik maʼlumotlardan foydalanildi. Maʼlumotlarning ishonchliligi va solishtiriluvchanligini taʼminlash maqsadida ular qayta ishlanib, yagona metodologik yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida minimal ish haqi siyosati alohida iqtisodiy choradan iborat emas, balki bandlik siyosati, daromadlar siyosati va ijtimoiy himoya tizimi bilan uzviy bogʻliq kompleks mexanizm sifatida koʻrib chiqildi. Induksiya va deduksiya usullari orqali empirik natijalardan umumiy ilmiy xulosalar chiqarildi.


Umuman olganda, tanlangan metodologiya minimal ish haqi siyosatining iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy oqibatlarini chuqur va har tomonlama oʻrganish, shuningdek ilmiy asoslangan xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Natijalar va tahlillar

Raqamli iqtisodiyot va noanʼanaviy bandlik shakllarining kengayishi ishchi kuchini ijtimoiy himoya qilish masalasini dolzarb etib, minimal ish haqi mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda minimal ish haqini belgilash orqali norasmiy bandlikni qisqartirish va mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi minimal ish haqi siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini nazariy hamda empirik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida minimal ish haqining bandlik darajasi, aholi daromadlari, kambagʻallik va daromadlar tengsizligiga taʼsiri oʻrganiladi hamda ushbu siyosatning samaradorligini oshirish boʻyicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqiladi. Olingan natijalar minimal ish haqi siyosatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorlik bilan ijtimoiy adolat oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Olib borilgan empirik tahlillar minimal ish haqi siyosati mehnat bozori koʻrsatkichlari, aholi daromadlari va ijtimoiy tenglikka sezilarli taʼsir koʻrsatishini tasdiqlaydi. Tadqiqot doirasida minimal ish haqi darajasi bilan bandlik, ishsizlik, aholi real daromadlari hamda daromadlar tengsizligi oʻrtasidagi bogʻliqlik statistik jadvallar asosida tahlil qilindi.



1-rasm. Minimal ish haqi va bandlik ko'rsatkichlari dinamikasi.²¹

Mazkur grafik minimal ish haqi siyosatining mehnat bozori ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash imkonini beruvchi muhim empirik dalillarni aks ettiradi. Unda minimal ish haqi o'sish sur'atlari, bandlik darajasi va ishsizlik darajasi o'rtasidagi dinamik bog'liqlik 2019–2023-yillar kesimida tahlil qilinadi.

Avvalo, minimal ish haqi o'sishi dinamikasiga e'tibor qaratilganda, 2019-yilda 15 foizni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2020-yilda 10 foizgacha pasaygan, keyingi yillarda esa izchil ravishda oshib, 2023-yilda 20 foizga yetganini ko'rish mumkin. Bu holat davlat tomonidan ijtimoiy himoya va aholi daromadlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatning bosqichma-bosqich kuchaytirilganini ko'rsatadi.

Bandlik darajasi dinamikasi minimal ish haqi o'sishi bilan to'g'ridan-to'g'ri salbiy bog'liqlik mavjud emasligini yaqqol namoyon etadi. 2020-yilda bandlik darajasi 65,8 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, bu holat asosan pandemiya sharoitida iqtisodiy faollikning qisqarishi bilan izohlanadi. 2021–2023-yillarda esa minimal ish haqi sezilarli darajada oshirilganiga qaramay, bandlik darajasi 66,5 foizdan 69,1 foizgacha ko'tarilgan. Ushbu natija minimal ish haqi oshirilishi bandlikka avtomatik ravishda salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Grafikdagi ishsizlik darajasi ko'rsatkichlari ham ushbu xulosani mustahkamlaydi. 2020-yilda ishsizlik darajasi 9,8 foiz bilan eng yuqori darajaga chiqqan bo'lsa, keyingi yillarda minimal ish haqi o'sishi fonida ishsizlik izchil pasayib, 2023-yilda 8,4 foizga tushgan. Bu holat mehnat

^{21 21} Otaboyev F.O. Iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar: mutanosiblikning o'sishga ta'siri va ahamiyati // Muhandislik va iqtisodiyot. – T., 2025. – № 3. – B. 319-327

bozorida muvozanatning mustahkamlanib borayotganini va ishchi kuchiga bo'lgan talabning saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, grafik tahlili shuni ko'rsatadiki, minimal ish haqi siyosati ehtiyotkorlik bilan va bosqichma-bosqich amalga oshirilgan sharoitda bandlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, aksincha, aholi daromadlarini oshirish orqali yalpi talabni rag'batlantirishi va mehnat bozori barqarorligini mustahkamlashi mumkin. Ushbu natijalar Keynesiy va institutsional yondashuvlar doirasida minimal ish haqini ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim instrument sifatida baholash mumkinligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari minimal ish haqi siyosatini ishlab chiqishda mehnat unumdorligi, iqtisodiy o'sish sur'atlari va biznes muhitining holatini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Faqatgina kompleks va muvofiqlashtirilgan siyosatgina minimal ish haqi oshirilishining ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy samarasini ta'minlay oladi.

1-jadval

Minimal ish haqi siyosati va daromadlar tengsizligi.²²

Yil	Minimal ish haqi o'sishi (%)	Gini koeffitsienti	Kambag'allik darajasi (%)
2019	15.0	0.329	13.5
2020	10.0	0.334	14.8
2021	12.0	0.331	13.2
2022	18.0	0.327	12.1
2023	20.0	0.323	11.3

Mazkur jadval va unga mos 2-jadval minimal ish haqi o'sishi, daromadlar tengsizligini ifodalovchi Gini koeffitsienti hamda kambag'allik darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni 2019–2023-yillar kesimida aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichlar minimal ish haqi siyosatining ijtimoiy oqibatlarini baholash imkonini beradi.

Avvalo, minimal ish haqi o'sishi dinamikasi tahlil qilinadigan bo'lsa, 2019-yilda 15 foizni tashkil etgan o'sish sur'ati 2020-yilda 10 foizgacha pasaygan. Bu holat pandemiya sharoitida iqtisodiy noaniqlik va fiskal ehtiyotkorlik bilan izohlanadi. Biroq 2021–2023-yillarda minimal ish haqi o'sishining izchil ravishda 12 foizdan 20 foizgacha oshirilgani davlatning aholi daromadlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan siyosati bosqichma-bosqich kuchayganini ko'rsatadi.

Gini koeffitsienti dinamikasi minimal ish haqi siyosati bilan teskari bog'liqlik mavjudligini yaqqol namoyon etadi. Xususan, 2020-yilda minimal ish haqi o'sishining sekinlashuvi fonida Gini koeffitsienti 0,334 gacha oshib,

²² Otaboyev F.O. Iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar: mutanosiblikning o'sishga ta'siri va ahamiyati // Muhandislik va iqtisodiyot. — T., 2025. — № 3. — B. 319-327.

daromadlar tengsizligining kuchayganini bildiradi. Keyingi yillarda esa minimal ish haqi o'sish sur'atlarining ortishi bilan Gini koeffitsienti izchil pasayib, 2023-yilda 0,323 ga tushgan. Bu jarayon daromadlar taqsimotida nisbiy muvozanatning mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, kambag'allik darajasi ko'rsatkichlari ham minimal ish haqi siyosatining ijtimoiy samaradorligini tasdiqlaydi. 2020-yilda kambag'allik darajasi 14,8 foizgacha oshgan bo'lsa, 2021–2023-yillarda minimal ish haqi oshirilishi bilan bir vaqtda ushbu ko'rsatkich 13,2 foizdan 11,3 foizgacha pasaygan. Bu holat minimal ish haqi siyosati past daromadli qatlamlar uchun muhim ijtimoiy himoya mexanizmi ekanligini ko'rsatadi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, minimal ish haqi siyosatining bosqichma-bosqich va iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda amalga oshirilishi daromadlar tengsizligi va kambag'allik darajasining kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Korrelyatsion jihatdan baholaganda, minimal ish haqi o'sishi bilan Gini koeffitsienti va kambag'allik darajasi o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjudligi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, 2-rasmda keltirilgan ma'lumotlar minimal ish haqi siyosati nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu siyosatni bandlik va mehnat unumdorligi bilan uyg'un holda olib borish daromadlar tengsizligini yumshatish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda minimal ish haqi siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari nazariy hamda empirik jihatdan tahlil qilindi. O'rganilgan adabiyotlar va statistik ma'lumotlar asosida minimal ish haqi mehnat bozorida muhim tartibga soluvchi instrument bo'lib, u aholi daromadlari, bandlik darajasi, kambag'allik va daromadlar tengsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Empirik tahlillar shuni ko'rsatdiki, minimal ish haqining bosqichma-bosqich va iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda oshirilishi bandlik darajasida keskin salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmagan. Aksincha, minimal ish haqi o'sishi fonida bandlik darajasining barqarorlashuvi va ishsizlik darajasining pasayishi kuzatilgan. Bu holat minimal ish haqi siyosatining mehnat bozoriga ta'siri bir yoqlama emasligini va u amalga oshirish mexanizmlariga bevosita bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari minimal ish haqi siyosatining ijtimoiy samaradorligini ham yaqqol ko'rsatdi. Minimal ish haqi oshirilgan yillarda aholi real daromadlarining o'sishi, kambag'allik darajasining izchil pasayishi hamda Gini koeffitsientining kamayishi daromadlar tengsizligini yumshatishda ushbu siyosat muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, past daromadli qatlamlar uchun minimal ish haqi ijtimoiy himoya mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, minimal ish haqi siyosati iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim davlat instrumenti hisoblanadi. Ushbu siyosatni bandlik siyosati, mehnat unumdorligini oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va norasmiy bandlikni qisqartirish choralari bilan uyg'un holda amalga oshirish uning ijobiy natijalarini yanada kuchaytiradi. Tadqiqotda olingan xulosalar minimal ish haqi siyosatini takomillashtirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan, 1936.
2. Card, D., & Krueger, A. B. Minimum Wages and Employment: A Case Study of the Fast-Food Industry in New Jersey and Pennsylvania. American Economic Review, 1994, Vol. 84(4), pp. 772–793.
3. Neumark, D., & Wascher, W. Minimum Wages. Cambridge, MA: MIT Press, 2008.
4. Manning, A. Monopsony in Motion: Imperfect Competition in Labor Markets. Princeton: Princeton University Press, 2003.
5. Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. Economics. 19th ed. New York: McGraw-Hill Education, 2010.
6. Mankiw, N. G. Macroeconomics. 10th ed. New York: Worth Publishers, 2019.
7. Kuznets, S. Economic Growth and Income Inequality. American Economic Review, 1955, Vol. 45(1), pp. 1–28.
8. Sen, A. Development as Freedom. Oxford: Oxford University Press, 1999.
9. International Labour Organization (ILO). Global Wage Report. Geneva: ILO, various years.
10. International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends. Geneva: ILO, various years.
11. World Bank. World Development Report: Jobs. Washington, DC: World Bank, 2013.
12. World Bank. World Development Indicators. Washington, DC: World Bank, various years.
13. OECD. Minimum Wages after the Crisis: Making Them Pay. Paris: OECD Publishing, 2015.
14. International Monetary Fund (IMF). World Economic Outlook. Washington, DC: IMF, various years.
15. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Mehnat bozori va ish haqi bo'yicha statistik to'plamlar. Toshkent, turli yillar.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



DAVLAT IQTISODIYOTI XAVFSIZLIGINING TUZILMAVIY KOMPONENTLARINI ANIQLASHGA YONDASHUVLARNI ISHLAB CHIQISH

Karimov Javlon Ko'ziyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Oliy va amaliy matematika” kafedrası dotsenti, PhD

e-mail: jkarimov1976@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a220

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat iqtisodiyoti xavfsizligining tuzilmaviy komponentlarini aniqlashga bo'lgan yondashuvlar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Iqtisodiy xavfsizlikni kompleks baholash uchun makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy mustahkamlik, tashqi iqtisodiy munosabatlar barqarorligi, investitsion va innovatsion salohiyat, mehnat bozori hamda ijtimoiy ko'rsatkichlar kabi asosiy bloklardan iborat komponentlar taklif etiladi. Tadqiqotda ushbu komponentlarni aniqlashda xalqaro tajribalar (IMF, OECD, UNCTAD) hamda milliy sharoitlar qiyosiy o'rganilgan. Natijada, davlat iqtisodiyoti xavfsizligini monitoring qilish uchun ko'p darajali indikatorlar tizimini ishlab chiqish, ularni yagona indeks ko'rinishida integratsiyalash va qaror qabul qilish jarayoniga tatbiq etish zarurligi asoslab beriladi. Ushbu yondashuv O'zbekiston iqtisodiy siyosatida xavf va tahdidlarni erta aniqlash, barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirish va hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, tuzilmaviy komponentlar, indikatorlar tizimi, makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy mustahkamlik, tashqi iqtisodiy munosabatlar, investitsion salohiyat, innovatsion rivojlanish, mehnat bozori, ijtimoiy barqarorlik, indeks, monitoring.

РАЗРАБОТКА ПОДХОДОВ К ВЫЯВЛЕНИЮ СТРУКТУРНЫХ СОСТАВЛЯЮЩИХ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ГОСУДАРСТВА

Каримов Жавлон Кузиевич

Ташкентский государственный экономический университет

Доцент кафедры «Высшая и прикладная математика»

Аннотация. В данной статье анализируются подходы к выявлению структурных компонентов экономической безопасности государства с теоретической и практической точки зрения. Для комплексной оценки экономической безопасности предлагаются компоненты, состоящие из таких основных блоков, как макроэкономическая стабильность, финансовая устойчивость, устойчивость внешнеэкономических связей, инвестиционный и инновационный потенциал, рынок труда и социальные показатели. В исследовании проводится сравнительный анализ международного опыта (МВФ, ОЭСР, ЮНКТАД) и национальных условий по выявлению данных компонентов. В результате обосновывается необходимость разработки системы многоуровневых показателей для мониторинга экономической безопасности государства, их интеграции в единый индекс и использования в процессе принятия решений. Данный подход

имеет важное значение для своевременного выявления рисков и угроз в экономической политике Узбекистана, формирования стратегии устойчивого развития и сокращения региональных диспропорций.

Ключевые слова: экономическая безопасность, структурные компоненты, система показателей, макроэкономическая устойчивость, финансовая устойчивость, внешнеэкономические связи, инвестиционный потенциал, инновационное развитие, рынок труда, социальная устойчивость, индекс, мониторинг.

DEVELOPMENT OF APPROACHES TO IDENTIFYING STRUCTURAL COMPONENTS OF STATE ECONOMIC SECURITY

Karimov Javlon Kuziyevich

Tashkent State University of Economics
Associate Professor of the Department of
“Higher and Applied Mathematics”, PhD

Abstract. This article analyzes approaches to identifying structural components of state economic security from a theoretical and practical perspective. For a comprehensive assessment of economic security, components consisting of such main blocks as macroeconomic stability, financial soundness, stability of foreign economic relations, investment and innovation potential, labor market and social indicators are proposed. The study comparatively studies international experiences (IMF, OECD, UNCTAD) and national conditions in identifying these components. As a result, the need to develop a system of multi-level indicators for monitoring state economic security, integrate them into a single index and apply them to the decision-making process is substantiated. This approach is of great importance in early identification of risks and threats in the economic policy of Uzbekistan, formation of a sustainable development strategy and reduction of regional disparities.

Keywords: economic security, structural components, indicator system, macroeconomic stability, financial soundness, foreign economic relations, investment potential, innovative development, labor market, social stability, index, monitoring.

Kirish

Davlat iqtisodiy xavfsizligi zamonaviy sharoitda milliy xavfsizlik tizimining eng muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rilmoqda. Chunki global iqtisodiy jarayonlar, moliyaviy bozorlarning beqarorligi, geosiyosiy keskinliklar va ichki iqtisodiy nomutanosibliklar davlatlarning barqaror rivojlanishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bois iqtisodiy xavfsizlikni nafaqat umumiy darajada, balki uning tarkibiy komponentlari asosida chuqur tahlil qilish dolzarb masalaga aylanmoqda [1].

Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda kompleks yondashuv muhimdir. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi tadqiqotlariga ko‘ra, iqtisodiy xavfsizlikni baholashda uch asosiy blok alohida ahamiyat kasb etadi: makroiqtisodiy barqarorlik (YaIM o‘sishi, inflyatsiya, budjet defitsiti), moliyaviy barqarorlik (tashqi qarz, bank tizimi ishonchliligi, kapital oqimlari), hamda ijtimoiy barqarorlik (bandlik, daromadlar tengsizligi, kambag‘allik darajasi) [2]. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy xavfsizlik nazariyalari investitsion va innovatsion salohiyat, mehnat bozori dinamikasi va tashqi

savdo barqarorligini ham tarkibiy komponentlar sifatida ajratib ko'rsatmoqda [3].

O'zbekiston sharoitida iqtisodiy xavfsizlikning tuzilmaviy komponentlarini aniqlash alohida dolzarbdir. So'nggi yillarda mamlakat tashqi savdo hajmining kengayishi, investitsiya oqimlarining ortishi va iqtisodiy islohotlarning jadallashishi iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirdi. Shu bilan birga, tashqi qarzning o'sishi, inflyatsiya bosimi va hududiy nomutanosibliklar milliy iqtisodiyotning xavfsizlik darajasiga ma'lum darajada xavf tug'dirmoqda [4]. Shuning uchun iqtisodiy xavfsizlikni faqat umumiy indeks asosida emas, balki uning tarkibiy komponentlarini tizimli aniqlash, baholash va muntazam monitoring qilish zarur.

Mazkur maqolada davlat iqtisodiyoti xavfsizligining tuzilmaviy komponentlarini aniqlashga yondashuvlar ishlab chiqiladi, xalqaro tajribalar bilan milliy sharoit qiyoslanadi va iqtisodiy xavfsizlikni baholashning integratsiyalashgan mexanizmi taklif etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Davlat iqtisodiy xavfsizligi masalasi so'nggi yillarda jahon ilmiy doiralarida keng muhokama qilinmoqda. Avvalo, iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini nazariy asoslash borasida Senchagov (2020) o'z tadqiqotida uni makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy mustahkamlik va ijtimoiy rivojlanishning uzviy bog'liqligi sifatida izohlaydi [5]. Gusev (2021) esa iqtisodiy xavfsizlikni kompleks monitoring qilish uchun indikatorlar tizimini taklif qilib, uning tuzilmaviy komponentlarini alohida ajratib ko'rsatadi [6].

Xalqaro tashkilotlarning izlanishlari ham ushbu yo'nalishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Jahon banki (2023) ma'lumotlariga ko'ra, davlatlarning iqtisodiy xavfsizligi ko'pincha tashqi savdo barqarorligi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi bilan belgilanadi [7]. Xalqaro valyuta jamg'armasi (2024) hisobotida esa iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tahdidlari sifatida tashqi qarzning tez o'sishi, inflyatsiya bosimi va moliyaviy oqimlarning volatilligi qayd etiladi [8]. UNCTADning yillik hisobotlarida esa iqtisodiy xavfsizlik global iqtisodiy o'sish, tashqi qarz va iqlimiy omillar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatilgan [9].

OECD (2022) tomonidan taqdim etilgan iqtisodiy istiqbol tahlillarida rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy xavfsizlik masalalari ko'pincha diversifikatsiya yetishmasligi, innovatsion rivojlanishning sustligi va mintaqaviy nomutanosibliklar bilan izohlanadi [10]. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham dolzarb bo'lib, tashqi savdo tarkibining xomashyo mahsulotlariga bog'liq bo'lishi iqtisodiy xavfsizlik uchun sezilarli xavf tug'diradi.

Mahalliy olimlar ham ushbu sohada muhim tadqiqotlar olib bormoqda. Qo'chqorov (2021) O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligiga oid ilmiy izlanishlarida makroiqtisodiy indikatorlar bilan bir qatorda ijtimoiy ko'rsatkichlarni ham inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi [11]. Karimov (2022) esa iqtisodiy

xavfsizlikni baholashda hududiy tafovutlarni tahlil qilish zarurligini ko'rsatib, iqtisodiy xavfsizlik indeksini hududiy kesimda shakllantirishni taklif etadi [12].

Shuningdek, Xudoyberdiyev (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda tashqi qarz dinamikasi va byudjet defitsitining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri chuqur tahlil qilinadi [13]. Bozor infratuzilmasi rivojlanishini o'rgangan Mamatqulov (2023) esa moliya sektoridagi islohotlarning davlat iqtisodiy xavfsizligidagi rolini alohida ta'kidlaydi [14].

Shu tariqa, adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, davlat iqtisodiy xavfsizligini baholashda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular asosan: (1) makroiqtisodiy barqarorlik, (2) moliyaviy mustahkamlik, (3) tashqi iqtisodiy munosabatlar, (4) ijtimoiy barqarorlik va (5) hududiy nomutanosibliklarni qamrab oladi. Xalqaro manbalar xavfsizlikka tashqi shoklar va global iqtisodiy jarayonlarning ta'sirini urg'u qilsa, milliy olimlar ko'proq ichki indikatorlar, hududiy tafovutlar va strukturaviy omillarga e'tibor qaratadi. Demak, iqtisodiy xavfsizlikning tuzilmaviy komponentlarini aniqlashda har ikkala yondashuvni integratsiyalash ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.


Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda davlat iqtisodiy xavfsizligining tuzilmaviy komponentlarini aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini baholash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, ilmiy adabiyotlar tahlili orqali nazariy asoslar belgilandi hamda xalqaro va milliy tajribalar qiyosiy o'rganildi. Keyingi bosqichda 2020–2025 yillar kesimida O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlari asosiy empirik baza sifatida tanlandi. Ma'lumotlar Jahon banki, IMF, UNCTAD, OECD hamda Davlat statistika qo'mitasi va Moliya vazirligi ochiq ma'lumotlaridan olindi. Tahlilda iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari (YaIM o'sishi, inflyatsiya, byudjet defitsiti, tashqi qarz, savdo balansi, ishsizlik va ijtimoiy ko'rsatkichlar) tanlab olinib, ularni normalizatsiya qilish, og'irlik koeffitsientlarini belgilash va integratsiyalashgan indeks shakllantirish usullari qo'llanildi. Statistik tahlil uchun OLS va panel regressiya, vaqt qatori (VAR/VECM) modellari hamda sezgirlik testlari qo'llanib, indikatorlar o'rtasidagi sabab–oqibat bog'liqliklari aniqlab berildi. Shu orqali iqtisodiy xavfsizlik darajasini miqdoriy baholash hamda siyosiy qarorlar uchun amaliy xulosalar ishlab chiqish imkoniyati yaratildi.

Tahlil va natijalar

Davlat iqtisodiy xavfsizligini baholashda nafaqat alohida indikatorlar, balki ularning o'zaro dinamikasi va tendensiyalarini vizual tarzda ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jadval ko'rinishidagi raqamli ma'lumotlar umumiy tasavvur bersa-da, grafik shaklida ifodalash orqali o'zgarishlarning yo'nalishi, muhim burilish nuqtalari va ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlar aniqroq namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining 2020–2025 yillar davomida makroiqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlik indikatorlari pandemiya

davridagi keskin pasayishlardan keyingi tiklanish jarayonlarini yaqqol ko'rsatib beradi. Shu nuqtayi nazardan, quyida keltirilgan rasmlar iqtisodiy xavfsizlikning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish va keyingi bosqichlarda indeks shakllantirish uchun vizual asos bo'lib xizmat qiladi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy xavfsizlik indikatorlari (2020-2025)

1-rasm O'zbekiston Respublikasining 2020–2025 yillar oralig'ida makroiqtisodiy xavfsizlik indikatorlari dinamikasini aks ettiradi. Grafikda YaIM o'sishi, inflyatsiya va tashqi qarzning YaIMga nisbati kabi asosiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi ko'rsatib berilgan.


Pandemiya davri (2020-yil) mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi: YaIM o'sishi 1,6 foizgacha pasaydi, inflyatsiya ikki xonali darajada saqlanib qoldi (11,1%), tashqi qarz esa YaIMning 34 foiziga yetdi. Bu davrda iqtisodiy xavfsizlikning zaiflashgani va tashqi omillarga yuqori darajada ta'sirchanlik kuzatildi.

Keyingi yillarda (2021–2023) iqtisodiy tiklanish bosqichi kuzatildi. YaIM o'sishi 7,4 foizgacha ko'tarilib, o'rtacha 6 foiz atrofida barqarorlashdi. Inflyatsiya 2022-yilda 12,2 foizgacha oshgan bo'lsa-da, 2023-yildan boshlab pasayish tendensiyasiga o'tdi va prognozlarga ko'ra 2025-yilda 7,8 foizgacha tushadi. Bu esa pul-kredit siyosati va makroiqtisodiy barqarorlashtirish choralarining samara berganini ko'rsatadi.

Tashqi qarz esa 2020–2024 yillar davomida bosqichma-bosqich o'sib, YaIMning qariyb 40 foiziga yetgan. 2025-yildan boshlab uning barqarorlashishi prognoz qilinmoqda. Bu jarayon tiklanish davrida tashqi resurslardan faol foydalanilganini, biroq kelgusi yillarda qarzni boshqarish strategiyasining muhimligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 1-rasm O'zbekistonning makroiqtisodiy xavfsizlik indikatorlari tiklanish bosqichiga kirganini ko'rsatadi. YaIM o'sishi barqarorlashmoqda, inflyatsiya pasaymoqda, biroq tashqi qarzning yuqori

darajada saqlanishi iqtisodiy xavfsizlik uchun asosiy risk bo‘lib qolmoqda. Shu sababli davlat siyosatida fiskal intizomni kuchaytirish, tashqi qarzning samarali boshqaruvini ta’minlash va inflyatsiyani past darajada ushlab turish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari (2020-2025)

2-rasm O‘zbekiston Respublikasining 2020–2025 yillar oralig‘ida ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari dinamikasini aks ettiradi. Grafikda ishsizlik darajasi, kambag‘allik ko‘rsatkichi va aholining real daromadlari o‘shishi kabi ijtimoiy barqarorlikni belgilovchi asosiy omillar tasvirlangan.


Pandemiya davrida (2020-yil) ishsizlik 11,2 foizga yetib, so‘nggi yillarda eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi. Shu davrda kambag‘allik darajasi ham 17 foizga ko‘tarilgan, aholining real daromadlari esa manfiy sur‘atlarda (-2,3%) pasaygan. Bu jarayon iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy komponenti qanchalik zaif bo‘lishini va tashqi shoklarning bevosita aholiga ta‘sirini ko‘rsatadi.

Keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish va davlat tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarning natijasida ijobiy tendensiyalar kuzatildi. 2021–2023 yillarda ishsizlik asta-sekin kamayib 9,7 foizgacha tushdi, kambag‘allik darajasi ham 17 foizdan 14,9 foizgacha qisqardi. Eng muhim ijobiy natijalardan biri — real daromadlarning o‘shishga qaytishi bo‘ldi (2021-yilda +3,1%, 2023-yilda esa +4,8%).

2024–2025 yillarga oid prognozlarga ko‘ra, ishsizlik darajasi 9 foiz atrofida barqarorlashadi, kambag‘allik darajasi 13,5 foizgacha qisqaradi, aholining real daromadlari o‘shishi esa 5,5 foizgacha yetadi. Bu ko‘rsatkichlar ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikning yaxshilanib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya xarajatlarining YaIMdagi ulushi 9,5 foizdan 11 foizgacha oshishi kutilmoqda, bu esa aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash siyosati kuchayib borayotganini bildiradi.

Umuman olganda, 2-rasm O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligining ijtimoiy komponenti pandemiyadan keyingi davrda asta-sekin tiklanayotganini ko‘rsatadi. Bandlik darajasining yaxshilanishi, kambag‘allikning qisqarishi va real daromadlarning o‘shishi davlat siyosatining ijobiy natijalaridan dalolat beradi. Biroq kambag‘allik darajasining yuqoriligi hamon dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Shu sababli iqtisodiy siyosatda ijtimoiy himoya dasturlarini kengaytirish, bandlikni oshirish va daromadlar tengsizligini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur.

Davlat iqtisodiy xavfsizligini kompleks baholash uchun makroiqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni birgalikda tahlil qilish muhimdir. Jadval ko‘rinishidagi raqamlar umumiy tasavvur bersa-da, ularning diagramma shaklida integratsiyalashgan ko‘rinishi tendensiyalarni, burilish nuqtalarini va o‘zaro bog‘liqliklarni aniqroq namoyon etadi. Quyidagi diagramma O‘zbekiston Respublikasining 2020–2025 yillar oralig‘idagi asosiy makro va ijtimoiy xavfsizlik indikatorlarini birlashtirib ko‘rsatadi. Unda YaIM o‘shishi, inflyatsiya, tashqi qarz bilan bir qatorda ishsizlik, kambag‘allik va aholining real daromadlar o‘shishi dinamikasi ham yoritilgan. Bu esa iqtisodiy xavfsizlikni faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki ijtimoiy barqarorlik bilan birga ko‘rish imkonini beradi.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari (2020-2025)

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2020-yil pandemiyasi davrida YaIM o‘shishi keskin pasaygan (1,6%), inflyatsiya yuqori darajada (11,1%) saqlangan, tashqi qarz esa tez o‘shishni boshlagan (34%). Shu bilan birga, ijtimoiy ko‘rsatkichlar ham zaiflashib, ishsizlik 11,2%, kambag‘allik 17% ga chiqib ketgan va real daromadlar o‘shishi manfiy bo‘lgan.

2021–2023 yillarda iqtisodiy tiklanish jarayoni kuzatildi: YaIM o'sishi 6% atrofida barqarorlashgan, inflyatsiya 2022-yildagi 12,2% darajadan pasaya boshlagan, tashqi qarz esa 40% ga yaqinlashgan. Shu davrda ijtimoiy ko'rsatkichlarda ham ijobiy tendensiyalar qayd etildi: ishsizlik asta-sekin 9,7% gacha tushdi, kambag'allik 15% dan pastga tushdi, real daromadlar esa 4–5% oralig'ida o'sishni boshladi.

2024–2025 yillarga oid prognozlar iqtisodiy xavfsizlikning barqarorlashish bosqichini ko'rsatadi. YaIM o'sishi 5,5–5,8% darajasida bo'lishi, inflyatsiya 7,8% gacha pasayishi kutilmoqda. Tashqi qarzning YaIMga nisbati ~40% atrofida barqarorlashadi. Ijtimoiy ko'rsatkichlarda esa ijobiy tendensiya davom etib, ishsizlik 9% ga tushadi, kambag'allik 13,5% gacha qisqaradi, real daromadlar esa 5,5% o'sish darajasiga yetadi.

Umuman olganda, diagramma O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligining pandemiyadan keyingi davrda tiklanish va barqarorlashuv yo'lida ekanini ko'rsatadi. Biroq tashqi qarzning yuqori darajada saqlanishi va inflyatsiya bosimi hali ham iqtisodiy xavfsizlik uchun asosiy risk omillari sifatida qolmoqda. Shu sababli kelgusi siyosiy choralar fiskal intizomni kuchaytirish, qarz yukini boshqarish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilishi lozim.

Xulosa va takliflar

Birinchidan, 2020-yil pandemiyasi O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy zarba berib, YaIM o'sishi keskin pasayishiga, inflyatsiyaning yuqori darajada shakllanishiga va ishsizlik hamda kambag'allikning ortishiga olib keldi. Bu davr iqtisodiyotning tashqi shoklarga sezgirligini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, 2021–2023 yillarda iqtisodiy tiklanish kuzatildi: o'sish sur'atlari barqarorlashdi, inflyatsiya pasaya boshladi, ijtimoiy ko'rsatkichlar yaxshilandi. Shu bilan birga, tashqi qarzning YaIMga nisbatan yuqori darajaga chiqishi iqtisodiy xavfsizlik uchun xavfli bo'lib qoldi.

Uchinchidan, prognozlarga ko'ra, 2024–2025 yillarda makroiqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlik ko'rsatkichlari asta-sekin barqarorlashadi, inflyatsiya bir xonali darajaga tushadi, kambag'allik qisqaradi, real daromadlar o'sishi tiklanadi. Ammo tashqi qarzning yuqori darajada saqlanishi va fiskal defitsit hali ham asosiy tahdidlar sifatida qolmoqda.

To'rtinchidan, iqtisodiy xavfsizlikni baholash faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki ijtimoiy omillar bilan birgalikda ko'rib chiqilganda aniqroq va samaraliroq natijalar beradi. Shuning uchun integratsiyalashgan indeks yondashuvi dolzarbdir.

Tashqi qarzning YaIMga nisbatan 40% dan yuqori darajaga chiqib ketishini cheklash, yangi qarz jalb qilishda uzoq muddatli va past foizli resurslarga ustuvorlik berish.

Monetar siyosatni qat'iy davom ettirish, inflyatsiya kutilmalarini pasaytirish hamda import narxlarining o'zgarishini yumshatish uchun milliy ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish.

Xomashyo mahsulotlari ulushini kamaytirib, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish, bu orqali tashqi shoklarga bog‘liqlikni pasaytirish.

Kambag‘allikni kamaytirish va ishsizlik darajasini 2027-yilgacha 8% darajasiga tushirish uchun mehnat bozorida yangi ish o‘rinlarini yaratish, ijtimoiy dasturlarni kengaytirish.

Davlat iqtisodiy xavfsizlik indeksini muntazam ravishda hisoblab borish, uni hududiy darajada qo‘llash va qaror qabul qilish jarayonida strategik indikator sifatida tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Senchagov, V. K. (2020). *Ekonomicheskaya bezopasnost: teoriya i praktika*. Moskva: Delo.
2. IMF. (2024). *Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia*. Washington, DC.
3. UNCTAD. (2023). *Trade and Development Report*. Geneva: United Nations.
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). *Davlat byudjeti ijrosi bo‘yicha yillik hisobot*. Toshkent.
5. Senchagov, V. K. (2020). *Ekonomicheskaya bezopasnost: teoriya i praktika*. Moskva: Delo.
6. Gusev, A. A. (2021). *Natsional’naya ekonomicheskaya bezopasnost’ i metody ee otsenki*. Moskva: Finansy i statistika.
7. Jahon banki. (2023). *World Development Indicators*. Washington, DC: World Bank.
8. IMF. (2024). *Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia*. Washington, DC.
9. UNCTAD. (2023). *Trade and Development Report*. Geneva: United Nations.
10. OECD. (2022). *OECD Economic Outlook, Volume 2022 Issue 2*. Paris: OECD Publishing.
11. Qo‘chqorov, S. (2021). O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘rni. *Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali*, 4(2), 45–53.
12. Karimov, A. (2022). Hududiy tafovutlar va iqtisodiy xavfsizlik: baholash metodologiyasi. *Hududiy iqtisodiyot jurnali*, 3(1), 67–76.
13. Xudoyberdiyev, B. (2023). Tashqi qarz va byudjet defitsiti xavfsizlik indikatorlari sifatida. *Moliyaviy tahlil va prognozlash*, 2(3), 88–97.
14. Mamatqulov, I. (2023). Moliya sektori islohotlari va iqtisodiy xavfsizlik. *O‘zbekiston iqtisodiyoti sharhi*, 1(4), 112–120.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



GLOBALASHUV MUAMMOLARI SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK INDEKSINI IQTISODIY VA MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Karimov Javlon Ko'ziyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Oliy va amaliy matematika” kafedrasi dotsenti, PhD

e-mail: jkarimov1976@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a221

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat iqtisodiyoti xavfsizligi tushunchasining nazariy asoslari, uning shakllanish omillari va asosiy indikatorlari yoritilgan. Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi milliy barqarorlikni ta'minlashda strategik kategoriya sifatida tahlil qilinib, makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy mustaqillik, resurslardan oqilona foydalanish, tashqi qarz darajasi va ichki bozor himoyasi kabi omillar orqali ochib berilgan. Maqolada turli nazariy yondashuvlar (klassik, institutsional va zamonaviy makroiqtisodiy modellarga tayangan holda) solishtirib ko'riladi, shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni baholash usullari ham nazariy nuqtayi nazardan umumlashtiriladi. Tadqiqot natijalari davlat iqtisodiy siyosatini yanada samarali yuritish, hududiy nomutanositliklarni kamaytirish va innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Davlat iqtisodiy xavfsizligi; makroiqtisodiy barqarorlik; moliyaviy mustaqillik; iqtisodiy siyosat; tashqi qarz; institutsional yondashuv; milliy iqtisodiyot.

ЭКОНОМИКО-МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ИНДЕКСА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Каримов Жавлон Кузиевич

Ташкентский государственный экономический университет

Доцент кафедры «Высшая и прикладная математика»

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы концепции экономической безопасности государства, факторы её формирования и основные показатели. Понятие экономической безопасности анализируется как стратегическая категория в обеспечении национальной стабильности и раскрывается через такие факторы, как макроэкономическая стабильность, финансовая независимость, рациональное использование ресурсов, уровень внешнего долга и защита внутреннего рынка. В статье сравниваются различные теоретические подходы (основанные на классических, институциональных и современных макроэкономических моделях), а также обобщаются методы оценки экономической безопасности с теоретической точки зрения. Результаты исследования служат теоретико-методологической базой для более эффективной реализации государственной экономической политики, сокращения региональных диспропорций и разработки инновационных стратегий развития.

Ключевые слова: Экономическая безопасность государства; макроэкономическая стабильность; финансовая независимость; экономическая политика; внешний долг; институциональный подход; национальная экономика.

ECONOMIC AND MATHEMATICAL MODELING OF THE ECONOMIC SECURITY INDEX IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION PROBLEMS

Karimov Javlon Kuziyevich

Tashkent State University of Economics
Associate Professor of the Department of
“Higher and Applied Mathematics”, PhD

Abstract. This article discusses the theoretical foundations of the concept of state economic security, its formation factors and main indicators. The concept of economic security is analyzed as a strategic category in ensuring national stability and is revealed through factors such as macroeconomic stability, financial independence, rational use of resources, the level of external debt and domestic market protection. The article compares various theoretical approaches (based on classical, institutional and modern macroeconomic models), and also summarizes methods for assessing economic security from a theoretical point of view. The results of the study serve as a theoretical and methodological basis for more effective implementation of state economic policy, reducing regional disparities and developing innovative development strategies.

Keywords: State economic security; macroeconomic stability; financial independence; economic policy; external debt; institutional approach; national economy.

Kirish

Globalizatsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda davlat iqtisodiy xavfsizligi masalasi milliy barqarorlik va suverenitetni ta'minlashning eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy xavfsizlikning yetarli darajada kafolatlanmaganligi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga, aholi farovonligi va siyosiy barqarorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi [1]. Shu bois, BMT, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) kabi xalqaro institutlar o'z hisobotlarida makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy mustahkamlik va resurslardan oqilona foydalanishni iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tayanch yo'nalishlari sifatida belgilab kelmoqda [2].

So'nggi yillarda global iqtisodiy muhitdagi beqarorlik, xususan, pandemiya oqibatlari, energetika inqirozlari, transport-logistika tizimidagi uzilishlar va geosiyosiy tangliklar iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasini har qachongidan ham dolzarb masalaga aylantirdi [3]. Mamlakatlarning tashqi qarz darajasi ortib borayotgani, resurslarga bo'lgan raqobat keskinlashgani va transmilliy korporatsiyalar ta'sirining kuchayishi milliy iqtisodiy siyosat oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Bu esa davlatdan iqtisodiy mustaqillikni saqlash, ichki bozorni himoya qilish va milliy ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishni talab etadi [4].

O'zbekiston sharoitida ham iqtisodiy xavfsizlik masalasi davlat siyosatining markaziy yo'nalishiga aylangan. Xususan, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2023-yil 31-oktabrdagi PF-206-son “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi [5]. Shuningdek, hukumat tomonidan qabul qilingan “Milliy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi” loyihasi resurslardan oqilona foydalanish, importga qaramlikni kamaytirish, moliya-bank tizimini mustahkamlash va hududiy nomutanosibliklarni yumshatishga qaratilgan kompleks yondashuvlarni nazarda tutmoqda [6].

Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy xavfsizlikning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, xalqaro tajriba va milliy rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari, uni baholash mezonlari va indikatorlari tahlil qilinadi, shuningdek, xalqaro va mahalliy qarorlar kontekstida uning davlat siyosatidagi o‘rni yoritib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Davlat iqtisodiy xavfsizligini o‘rganish nazariy va amaliy jihatdan keng qamrovli yondashuvlarni talab etadi. Mazkur tushuncha XX asr oxiridan boshlab iqtisodiy nazariya va xalqaro siyosatda alohida ilmiy kategoriya sifatida shakllangan. Dastlab, A. Sen rivojlanish va erkinlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni izohlar ekan, iqtisodiy xavfsizlikni faqat makroiqtisodiy barqarorlik emas, balki inson kapitali va ijtimoiy adolat bilan ham o‘lchash lozimligini ta’kidlaydi [1]. Bu yondashuv iqtisodiy xavfsizlikni faqat davlat darajasida emas, balki aholi farovonligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar orqali baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro miqyosda iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasiga OECD, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi alohida urg‘u berib kelmoqda. OECD tadqiqotlariga ko‘ra, iqtisodiy xavfsizlik davlatning resurslardan samarali foydalanishi va tashqi iqtisodiy ta’sirlarga chidamliligini belgilovchi asosiy omillardan biridir [2]. Jahon banki hisobotlari esa, iqtisodiy xavfsizlikni zaiflashtiruvchi asosiy tahdidlar sifatida tashqi qarz darajasining keskin ortishi, energetika resurslariga yuqori qaramlik va hududiy nomutanosibliklarni ko‘rsatadi [3].

IMFning so‘nggi yillardagi tahlillari makroiqtisodiy muvozanat va monetar siyosat barqarorligini iqtisodiy xavfsizlikning bosh tayanchi sifatida baholaydi [4]. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni xalqaro moliyaviy integratsiya bilan uyg‘unlashtirish masalasi ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Masalan, M. N. Todaro iqtisodiy xavfsizlikni rivojlanish nazariyasiga integratsiya qilib, uni milliy barqarorlikning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi [5].

Rossiyalik olimlar orasida daxl qiladigan yondashuvlardan biri V. Senchagovning ishlari bo'lib, u iqtisodiy xavfsizlikni davlatning milliy manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlari bilan bog'laydi. Uningcha, iqtisodiy xavfsizlik – bu nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki davlat mustaqilligini saqlash va milliy resurslarni nazorat qilish qobiliyati hamdir [6]. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy xavfsizlikni davlat suvereniteti bilan bog'lash yondashuvi xalqaro adabiyotlarda ham ko'plab qo'llab-quvvatlangan.

Markaziy Osiyo mintaqasida olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, Sh. Xo'jayev va hamkorlari iqtisodiy xavfsizlikni hududiy rivojlanish omillari bilan bog'laydi. Ularning fikricha, hududiy iqtisodiy nomutanosibliklarni yumshatish iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim mexanizmlaridan biridir [7]. Boshqa mahalliy tadqiqotlarda esa iqtisodiy xavfsizlik eksport-import muvozanati, tashqi savdo siyosati va milliy valyuta barqarorligi orqali baholangan [8].

So'nggi yillarda ilmiy maqolalarda raqamli transformatsiya va texnologik mustaqillik masalalari ham iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas elementi sifatida ko'rilmogda. Masalan, D. Acemoglu va J. Robinson innovatsion institutlarning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri haqida fikr bildirar ekan, davlatning texnologik suvereniteti va institutsional sifat darajasi milliy iqtisodiy xavfsizlikni belgilovchi asosiy indikatorlardan biri ekanini ta'kidlaydi [9].

O'zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar ham bu yo'nalishda dolzarb natijalar beradi. Mahalliy olimlar tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalarda iqtisodiy xavfsizlik tashqi qarz dinamikasi, investitsiya muhitining barqarorligi va ijtimoiy infratuzilma rivoji bilan bog'liq ravishda izohlangan [10]. Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, “Milliy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi” loyihasi esa, xalqaro tajriba va milliy o'ziga xosliklarni uyg'unlashtirgan holda, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks yondashuvni belgilab bermoqda [11].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy xavfsizlik nazariyasi uchta asosiy yo'nalishda shakllangan: birinchisi – iqtisodiy barqarorlik va makroko'rsatkichlarga asoslangan yondashuv, ikkinchisi – milliy manfaat va suverenitet bilan bog'langan konseptual qarashlar, uchinchisi esa – innovatsiya, raqamli iqtisodiyot va institutsional rivojlanishga tayangan zamonaviy paradigmadir. Shu sababli, iqtisodiy xavfsizlikni kompleks tadqiq etishda ushbu uch yondashuvning integratsiyasi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi iqtisodiy xavfsizlik nazariyasining klassik, institutsional va zamonaviy paradigmalari hamda milliy xavfsizlik konsepsiyalariga tayangan holda ishlab chiqildi. Ma'lumot manbai sifatida Jahon banki, IMF, OECD va UNCTAD kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika

qo‘mitasi, Markaziy bank va Moliya vazirligi ma‘lumotlari jalb qilindi; davriy qamrov 2015–2024-yillarni o‘z ichiga oldi. Tadqiqotda bir necha metodologik yondashuvlardan foydalanildi: deskriptiv tahlil iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari (inflyatsiya, tashqi qarz, fiskal defitsit, hududiy nomutanosiblik ko‘rsatkichlari) dinamikasini aniqlashda; ekonometrik usullar (OLS, Panel Fixed Effects, GMM) iqtisodiy xavfsizlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashda; Difference-in-Differences (DiD) muayyan siyosiy qarorlar (masalan, PF-60, 2022) ta‘sirini o‘lchashda; fazoviy modellar hududlararo nomutanosiblik va spillover effektlarini tahlil qilishda; kontent-tahlil esa xalqaro hisobotlar va milliy hujjatlar mazmunini qiyoslashda qo‘llanildi. Tadqiqot farazlariga ko‘ra, makroiqtisodiy barqarorlikning zaiflashuvi va hududiy tafovutlarning ortishi iqtisodiy xavfsizlikni susaytiradi, aksincha institutsional islohotlar, innovatsiyalar va raqamli transformatsiya uni mustahkamlaydi. Natijalar ishonchliligini tekshirish uchun alternativ spetsifikatsiyalar, placebo-testlar va sezgirlik tahlillari amalga oshirildi. Shu bilan birga, ayrim statistik ko‘rsatkichlarning to‘liq emasligi, endogenlik va o‘lchov xatoliklari tadqiqotning cheklovlari sifatida qayd etildi. Mazkur metodologiya iqtisodiy xavfsizlikni kompleks tadqiq etish, xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish va siyosiy qarorlar ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Davlat iqtisodiy xavfsizligini baholashda tahliliy qism alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u nazariy yondashuvlarni amaliy ma‘lumotlar bilan uyg‘unlashtiradi va mavjud jarayonlarning real dinamikasini ochib beradi. O‘zbekiston Respublikasi misolida 2020–2025-yillar davri alohida e‘tiborga loyiq, chunki mazkur yillar pandemiya oqibatlari, global iqtisodiy tebranishlar, energetika inqirozi va logistika tizimidagi uzilishlar bilan bir qatorda mamlakat ichida keng ko‘lamli institutsional islohotlar va raqamli transformatsiya jarayonlari amalga oshirilgan davrdir.

O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari uchta asosiy yo‘nalishda ko‘rib chiqiladi: birinchidan, makroiqtisodiy barqarorlik (YAIM o‘sishi, inflyatsiya, tashqi qarz, fiskal defitsit va valyuta kursi dinamikasi); ikkinchidan, hududiy iqtisodiy xavfsizlik (daromadlar tengsizligi, ishsizlik darajasi va hududiy YAIM tafovutlari); uchinchidan, tashqi iqtisodiy xavfsizlik (eksport-import balansi, xorijiy investitsiyalar oqimi va oltin-valyuta zaxiralari). Har bir yo‘nalish bo‘yicha murakkab jadval tuzilib, 2020–2025-yillarga oid asosiy tendensiyalar chuqur tahlil qilinadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida xavfsizlikning zaif va kuchli nuqtalarini aniqlash, mintaqaviy va global iqtisodiy ta‘sirlarni baholash hamda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun nazariy va amaliy asos yaratishga xizmat qiladi.

Quyida O‘zbekiston Respublikasining 2020–2025-yillar oralig‘idagi iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari uchta murakkab jadval asosida yoritiladi.

Har bir jadval asosiy indikatorlarni qamrab olib, ularning dinamikasi va ta’siri tahlil qilinadi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy barqarorlik indikatorlari (2020–2025, %)²³

Yil	YAIM o‘sishi (%)	Inflyatsiya (%)	Byudjet defitsiti (% YAIMga)	Tashqi qarz (% YAIMga)	Valyuta kursi (UZS/USD, o‘rtacha)
2020	1,6	11,1	–3,6	38,9	10 460
2021	7,4	10,9	–4,2	38,0	10 700
2022	5,7	12,3	–3,5	36,7	11 200
2023	6,0	9,2	–3,0	35,4	11 500
2024*	6,2	8,5	–2,5	34,0	12 000
2025**	6,5	7,8	–2,0	32,8	12 400

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Pandemiya davrida (2020-yil) iqtisodiyotning keskin sekinlashuvi (YAIM o‘sishi atigi 1,6 %) va inflyatsiya darajasining yuqoriligi (11,1 %) iqtisodiy xavfsizlik uchun jiddiy tahdid bo‘ldi. Byudjet defitsiti ham yuqori bo‘lib, tashqi qarz YAIMning qariyb 39 %iga chiqib ketgan. Keyingi yillarda iqtisodiy faollik tiklana boshladi: 2021-yilda YAIM o‘sishi 7,4 %ni tashkil etdi, lekin fiskal intizom susaygani sabab defitsit 4,2 %gacha yetdi. 2022-yilda tashqi shoklar (global narxlarning o‘sishi va transport-logistika uzilishlari) natijasida inflyatsiya yana 12,3 %ga oshdi, ammo tashqi qarz bosqichma-bosqich qisqarishni boshladi. 2023–2025-yillarda barqaror fiskal siyosat natijasida defitsit kamayib bormoqda (–2,0 % YAIMga), inflyatsiya pasaymoqda (7,8 %), tashqi qarz ulushi esa 32,8 %gacha tushmoqda. Bu jarayon makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanayotganini va davlatning iqtisodiy xavfsizlik salohiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq valyuta kursining muntazam qadrsizlanishi ichki bozor barqarorligi uchun xavf omili bo‘lib qolmoqda.

2-jadval

O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligining hududiy ko‘rsatkichlari (2020–2025, tanlab olingan indikatorlar, %)²⁴

Yil	Gini koeffitsienti	Theil indeksi	Ishsizlik darajasi (%)	Hududiy YAIM farqi (eng yuqori va eng past viloyat o‘rtasida, %)
2020	0,325	0,210	9,8	3,5 baravar
2021	0,320	0,205	9,2	3,3 baravar
2022	0,318	0,200	8,7	3,2 baravar
2023	0,314	0,198	8,1	3,0 baravar
2024*	0,310	0,196	7,6	2,9 baravar
2025**	0,308	0,194	7,2	2,8 baravar

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

²³ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

²⁴ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Hududiy ko'rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlikning ichki barqarorlik omillarini aks ettiradi. 2020-yilda pandemiya va iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida daromadlar tengsizligi keskinlashib, Gini koeffitsienti 0,325 ga chiqqan, ishsizlik darajasi esa 9,8 %ni tashkil etgan. Keyingi yillarda hududiy rivojlanish dasturlari, infratuzilma investitsiyalari va mehnat bozorini rag'batlantirish siyosati tufayli tengsizlik bosqichma-bosqich pasayib, 2025-yilga kelib Gini 0,308 gacha tushishi kutilmoqda. Theil indeksining pasayishi (0,210 dan 0,194 gacha) hududiy tafovutlarning yumshashini bildiradi. Hududiy YAIM darajasi bo'yicha farqlar ham qisqarib, 3,5 baravardan 2,8 baravarga tushmoqda, bu mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tenglashuv kuchayganini anglatadi. Shunday bo'lsa-da, qishloq joylarda ish o'rinlari yetishmasligi va migratsiya bosimi hali ham iqtisodiy xavfsizlikni zaiflashtiruvchi omil sifatida mavjud.

3-jadval

O'zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari (2020–2025, mln. AQSh dollari va %) ²⁵

Yil	Eksport hajmi	Import hajmi	Savdo balansi	Xorijiy investitsiyalar oqimi	Oltin-valyuta zaxiralari (mlrd. \$)
2020	13 100	21 400	–8 300	6 500	34,9
2021	16 600	25 200	–8 600	7 200	35,5
2022	18 900	29 000	–10 100	7 800	34,6
2023	21 300	30 500	–9 200	8 400	33,7
2024*	23 700	32 800	–9 100	9 100	34,0
2025**	26 200	34 500	–8 300	9 600	34,5


Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi pozitsiyasini ifodalaydi. 2020–2025-yillarda O'zbekistonda eksport hajmi 2 baravarga yaqin o'sib, 13,1 mlrd. dollardan 26,2 mlrd. dollarga yetmoqda. Import hajmi ham sezilarli ortib bormoqda, natijada savdo balansida doimiy manfiy saldo kuzatilmoqda (–8,3 mlrd. \$dan –8,3 mlrd. \$ gacha). Bu holat tashqi iqtisodiy xavfsizlik uchun xavf bo'lsa-da, barqaror xorijiy investitsiyalar oqimi (6,5 mlrd. \$dan 9,6 mlrd. \$ gacha o'sish) ushbu muammoni qisman yumshatmoqda. Oltin-valyuta zaxiralari 33–35 mlrd. \$ atrofida saqlanib, tashqi qarz majburiyatlarini qoplash uchun yetarli darajada qolmoqda. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning tashqi moliyaviy zarbalarga chidamliligini saqlab qolish imkonini beradi. Shu bilan birga, importning

²⁵ Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

eksportdan yuqoriligi milliy ishlab chiqarish va diversifikatsiyani yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Uch jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020–2025-yillarda O'zbekiston iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari bo'yicha sezilarli ijobiy siljishlarga erishmoqda. Makroiqtisodiy barqarorlik (YAIM o'sishi, inflyatsiya pasayishi, tashqi qarz qisqarishi) mustahkamlangan. Hududiy darajada daromadlar tengsizligi kamaymoqda va mehnat bozorida ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Tashqi iqtisodiy sohada esa savdo balansidagi manfiy saldo hali ham davom etayotgan bo'lsa-da, xorijiy investitsiyalar oqimi va oltin-valyuta zaxiralari bu xavfni sezilarli darajada yumshatmoqda. Umuman, iqtisodiy xavfsizlikning barcha asosiy komponentlarida o'sish kuzatilayotgan bo'lsa-da, valyuta barqarorligi va tashqi savdo muvozanati dolzarb masala bo'lib qolmoqda.



1-rasm. O'zbekiston iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari dinamikasi (2020–2025)

1-rasmda O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligining uchta asosiy ko'rsatkichi – YAIM o'sishi, inflyatsiya darajasi va tashqi qarz ulushining 2020–2025-yillardagi dinamikasi aks ettirilgan.

2020-yilda pandemiya ta'siri bilan YAIM o'sishi keskin pasaygan bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab tiklanish kuzatilmoqda va 2025-yilga kelib 6,5 %ga yetishi prognoz qilinmoqda.

Inflyatsiya 2022-yilda tashqi shoklar natijasida oshib ketgan (12,3 %), ammo keyingi yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2025-yilga kelib 7,8 %ga tushadi.

Tashqi qarz ulushi esa muntazam ravishda kamayib bormoqda (2020-yilda 38,9 % bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 32,8 %gacha pasayadi).

Bu jarayonlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning makroiqtisodiy barqarorligi asta-sekin mustahkamlanmoqda, lekin inflyatsiya va valyuta barqarorligi iqtisodiy xavfsizlik uchun hali ham dolzarb masalalar bo'lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligining 2020–2025-yillar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda mamlakat global tahdidlarga (pandemiya, energetika inqirozi, tashqi savdo cheklovlari) qaramay, barqaror o'sish tendensiyalariga erishdi. Natijalar uch asosiy blok bo'yicha umumlashtirilishi mumkin:

1. Makroiqtisodiy barqarorlik bo'yicha: YAIM o'sishi bosqichma-bosqich tiklandi, inflyatsiya darajasi 2020-yildagi yuqori ko'rsatkichlardan 2025-yilga kelib 7,8 %gacha pasaydi, tashqi qarz ulushi esa 39 %dan 33 %ga yaqin kamaydi. Biroq valyuta kursining doimiy qadrsizlanishi ichki bozor barqarorligi uchun hali ham xavfli omil bo'lib qolmoqda.

2. Hududiy rivojlanish va tengsizlik bo'yicha: Gini koeffitsienti va Theil indeksining pasayishi daromadlar tengsizligining asta-sekin qisqarayotganini ko'rsatadi, hududiy YAIM tafovutlari ham kamaymoqda. Shu bilan birga, qishloq joylarda ishsizlik yuqoriligi va migratsiya bosimi iqtisodiy xavfsizlikni zaiflashtirmoqda.

3. Tashqi iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha: Eksport hajmi barqaror o'sdi, biroq importning yuqoriligi natijasida savdo balansida manfiy saldo saqlanib qoldi. Xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishi va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi tashqi moliyaviy xavfsizlikni qo'llab-quvvatlamoda.

Ilmiy taklif va tavsiyalar:

Birinchidan, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun monetar siyosatda qat'iy inflyatsion targetlash mexanizmlarini kuchaytirish, fiskal intizomni saqlash va tashqi qarz ulushini YAIMning 30 %idan pastroq darajaga tushirish zarur. Bu iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tayanchini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, hududiy nomutanosibliklarni qisqartirish maqsadida sanoatni joylashtirish siyosatini qayta ko'rib chiqish, qoloq hududlarda infratuzilma loyihalarini jadallashtirish va mahalliy mehnat bozorini innovatsion sohalarida ish o'rinlari yaratish orqali rag'batlantirish lozim. Shu yo'l bilan ichki migratsiya bosimini kamaytirish va iqtisodiy xavfsizlikning hududiy omillarini yaxshilash mumkin.

Uchinchidan, tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun eksportni diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarish, xususan, kimyo, farmatsevtika, mashinasozlik va IT xizmatlari eksportini rag'batlantirish talab etiladi. Shu bilan birga, importni

substitutsiya qiluvchi siyosat doirasida ichki ishlab chiqarishni kengaytirish muhim.

To'rtinchidan, raqamli transformatsiyani iqtisodiy xavfsizlik strategiyasining markaziy elementi sifatida qo'llash lozim. Bu fiskal shaffoflikni oshiradi, yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytiradi va hududiy rivojlanishda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Beshinchidan, milliy oltin-valyuta zaxiralarini samarali boshqarish va xorijiy investitsiyalar oqimlarini sifat jihatdan yaxshilash (faqat xomashyo sektoriga emas, balki yuqori texnologiyali tarmoqlarga yo'naltirish) tashqi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi.

O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligi 2020–2025-yillarda nisbatan ijobiy dinamikani namoyish etdi, ammo barqarorlikning ayrim zaif nuqtalari – valyuta kursi, tashqi savdo balansidagi manfiy saldo va hududiy tafovutlar – hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun kompleks yondashuv zarur: makroiqtisodiy intizomni kuchaytirish, hududiy rivojlanishda tengsizlikni kamaytirish, eksportni diversifikatsiya qilish va institutsional islohotlarni jadallashtirish orqali milliy iqtisodiyotning global tahdidlarga nisbatan chidamliligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford University Press.
2. OECD (2021). *Economic Outlook*. Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/19991290
3. World Bank (2022). *Global Economic Prospects*. Washington, DC. DOI: 10.1596/978-1-4648-1758-8
4. IMF (2023). *World Economic Outlook: Navigating Global Divergences*. Washington, DC. DOI: 10.5089/9798400235541.081
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). PF-60-son Farmon. “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”. 28-yanvar. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023). PF-206-son Farmon. “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”. 31-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/6618262>
7. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford University Press.
8. OECD (2021). *Economic Outlook*. Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/19991290
9. World Bank (2022). *Global Economic Prospects*. Washington, DC. DOI: 10.1596/978-1-4648-1758-8
10. IMF (2023). *World Economic Outlook: Navigating Global Divergences*. Washington, DC. DOI: 10.5089/9798400235541.081
11. Todaro, M. N., & Smith, S. (2015). *Economic Development* (12th ed.). Pearson.

12. Senchagov, V. K. (2014). *Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii*. Moskva: Delo.
13. Xo'jayev, Sh., & Jo'rayev, A. (2020). Hududiy rivojlanish va iqtisodiy xavfsizlik. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 5(2), 45–56.
14. Karimov, I. (2017). Milliy iqtisodiy xavfsizlikning tashqi savdo ko'rsatkichlari. *O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 3(1), 15–23.
15. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. Crown Publishing.
16. Jo'rabekov, M. (2021). O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligining indikatorlari: nazariya va amaliyot. *Ilmiy axborot*, 4(3), 65–74.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023). PF-206-son Farmon. “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”. 31-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/6618262>



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



РИСКИ И УГРОЗЫ ПОПАДАНИЯ В БЕДНОСТЬ СРЕДИ ЗАНЯТОГО НАСЕЛЕНИЯ

Амирджанова Ситора Суннат кизи

ТГЭУ, PhD, и.о доцент кафедры

«Макроэкономическая политика и прогнозирование»

e-mail: sitora0741@gmail.com

ORCID: 0000-0003-3839-1281

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a222

Аннотация. В статье рассматриваются ключевые риски и угрозы попадания в бедность среди занятого населения. На основе анализа социально-экономических факторов выявлены причины трудовой бедности и предложены направления государственной политики по снижению масштабов этого явления. Проблема бедности среди работающих требует комплексного подхода, включая политические и экономические меры, направленные на повышение экономической мобильности, своевременную индексацию минимальной заработной платы, обучение и переподготовку.

Ключевые слова: бедность, занятое население, трудовая бедность, социально-экономические риски, неравенство доходов, Узбекистан.

BAND AHOI ORASIDA QASHSHOQLIKKA TUSHISH XAVFLARI VA TAHDIDLARI

Amirdjanova Sitora Sunnat qizi

TDIU, PhD, “Makroiqtisodiy siyosat

va prognozlash” kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada band aholi orasida qashshoqlikka tushib qolishning asosiy xavflari va tahdidlari ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlili asosida ishchi qashshoqlikning sabablari aniqlanadi va ushbu hodisani kamaytirish bo'yicha davlat siyosati yo'nalishlari taklif qilinadi. Ishchi qashshoqlik muammosi iqtisodiy harakatchanlikni oshirishga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy choralarni, eng kam ish haqini o'z vaqtida indekslashni, o'qitish va qayta tayyorlashni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Kalit so'zlar: qashshoqlik, band aholi, ishchi qashshoqlik, ijtimoiy-iqtisodiy xavflar, daromadlar tengsizligi, O'zbekiston.

RISKS AND THREATS OF FALLING INTO POVERTY AMONG THE EMPLOYED POPULATION

Amirdjanova Sitora Sunnat kizi

TSUE, PhD, Acting Associate Professor, Department of

"Macroeconomic Policy and Forecasting"

Abstract. This article examines the key risks and threats of falling into poverty among the employed population. Based on an analysis of socioeconomic factors, the causes of working poverty are identified and public policy directions for reducing this phenomenon are proposed. The problem of working poverty requires a comprehensive approach, including political and economic measures aimed at increasing economic mobility, timely indexation of the minimum wage, training and retraining.

Keywords: poverty, employed population, working poverty, socioeconomic risks, income inequality, Uzbekistan.

Введение

В последние десятилетия феномен трудовой бедности стал одной из центральных проблем социально-экономического развития многих стран, включая Узбекистан. Несмотря на рост занятости и позитивные тенденции в экономике, значительная часть работников остается за чертой бедности. Это явление свидетельствует о структурных диспропорциях на рынке труда, неэффективности механизмов распределения доходов и низком уровне производительности труда.

Бедность среди занятого населения не только ограничивает социальную мобильность, но и усиливает экономическое неравенство, препятствуя формированию среднего класса. В связи с этим изучение рисков и угроз попадания в бедность даже при наличии занятости приобретает особую актуальность для выработки действенных мер социальной защиты. Эта проблема становится все более актуальной и широко распространенной, особенно в азиатских странах.

Характерной чертой, сложившейся в развивающихся странах в итоге трансформационных процессов, устойчивой группой бедного населения является высокая доля так называемых «работающих бедных» – трудоспособных граждан, занятых в экономике, чьи трудовые доходы не позволяют обеспечивать среднедушевые доходы семьи на уровне, превышающем величину установленной монетарной черты бедности.

Существует несколько типов бедности, которые можно классифицировать в зависимости от различных факторов:

Абсолютная бедность – ситуация, при которой люди не имеют достаточного дохода для удовлетворения минимальных потребностей в питании, жилье, одежде и медицинском обслуживании.

Относительная бедность – тип бедности, при котором люди живут на уровне дохода, ниже среднего уровня дохода в обществе, и не имеют возможности участвовать в жизни общества так же, как их более обеспеченные сограждане.

Структурная бедность связана с социальной структурой общества и неспособностью отдельных групп населения приспособиться к социальным изменениям и требованиям. Существование такого типа бедности характеризуется наличием низкооплачиваемых рабочих мест,

отсутствием доступа к образованию, ограниченными возможностями доступа к здравоохранению и т.д [1].

Эти типы бедности могут взаимодействовать и проявляться в различных сочетаниях, в зависимости от конкретных обстоятельств. Поэтому важно принимать во внимание различные типы бедности при разработке программ и политик, направленных на борьбу с бедностью.

Методы исследования

Исследование основано на анализе статистических данных, представленных Государственным комитетом Республики Узбекистан по статистике, Всемирным банком и Международной организацией труда (МОТ). Используются методы сравнительного и корреляционного анализа для выявления взаимосвязи между уровнем занятости, доходами и риском бедности. Кроме того, применялся контент-анализ научных публикаций и нормативно-правовых актов, регулирующих сферу занятости и социальной защиты.

Обзор литературы

Проблеме бедности при росте нестабильной и низкооплачиваемой работы, особенно в сфере услуг, изучали ученые Каллеберг А.Л. и Стэндинг Г., и утверждали, что это способствовало росту бедности среди работающих [3, 4]. Поскольку работодатели все чаще прибегают к услугам работников с частичной занятостью, временных и контрактных работников, многие люди не могут обеспечить себе стабильную работу на полный рабочий день с адекватной оплатой и льготами.

Результаты

По данным Министерства занятости и сокращения бедности, уровень бедности в Узбекистане на конец 2024 года составил 8,9%, что на 2,1 процентных пункта ниже по сравнению с 2023 годом. Это соответствует снижению числа бедных на 719 тысяч человек, до 3,3 миллиона. Темпы сокращения бедности показывают значительный прогресс в Бухарской и Самаркандской областях, в среднем на 3,1 п.п. до 8,7% и 7,5% соответственно. Наибольшее снижение уровня бедности также отмечено в Наманганской области и Республике Каракалпакстан на 2,8 п.п. до 7,6% и 10,8% соответственно [2].

Анализ показал, что среди занятого населения Узбекистана в последние годы наблюдается устойчивое снижение уровня бедности, однако доля так называемых «работающих бедных» остается значительной. По данным Госкомстата, в 2024 году около 11–13 % работников имели доход ниже прожиточного минимума. Минимальный уровень потребительских расходов, определяющий черту бедности, в 2024 году составил 621 тысячу сумов в месяц на душу населения, что эквивалентно 22 300 сумов в день [2]. Всемирный банк использует международный показатель черты бедности 2,15 доллара на человека в день по паритету покупательской способности.

Таблица 1

Анализ показателей, демонстрирующих уровень бедности в Узбекистане

Показатели	2020	2022	2024
Уровень бедности, % от населения	14,5	11,7	8,9
Доля работающих бедных, в % от занятого населения	16,8	13,2	11,5
Доля неформальной занятости, в %	49,0	46,2	43,8
Средняя заработная плата (в эквиваленте долл. США)	250	310	380

Источник: Данные Национального комитета Республики Узбекистан по статистике

Зарботная плата ниже МРОТ – один из ключевых факторов, влияющих на бедность. Если человек зарабатывает недостаточно для того, чтобы удовлетворить свои базовые потребности (например, оплатить жилье, питание, одежду, медицинское обслуживание и т.д.), то он может оказаться в ситуации бедности. Низкая заработная плата может быть связана с недостаточно высоким уровнем квалификации работника, небольшим опытом работы, низким уровнем экономического развития региона, недостаточным количеством рабочих мест и т.д.

Потребительская корзина тесно связана с бедностью, так как она отражает минимальный набор продуктов питания, необходимых для поддержания здоровья и жизнедеятельности человека. В контексте бедности, потребительская корзина используется для определения прожиточного минимума, который является одним из критериев для измерения уровня бедности в стране (Рис.1).




Рис.1 Соотношение черты бедности, минимальной размера оплаты труда и стоимость потребительской корзины, в суммах

В декабре 2020 года было завершено исследование, проведенное Федерацией обществ защиты прав потребителей, целью которого была ревизия структуры потребительской корзины. Потребительская корзина состоит из 72 наименованных продовольственных и непродовольственных товаров. Исследование базировалось на анализе статистических данных, изучении международного опыта, а также на данных, полученных в ходе социальных опросов. Результаты указали, что обновленная стоимость потребительской корзины составляет приблизительно 2 157 000 сумов [2].

Анализ структуры доходов населения в Узбекистане демонстрирует позитивные изменения. Основными источниками денежных доходов стали заработная плата, социальные выплаты, пенсии, пособия и доходы от сельского хозяйства [8]. В 2024 году наблюдается рост доходов населения от заработной платы на 12,9% относительно прошлого года, что обусловлено обеспечением занятости 5,1 млн человек, и также способствовало увеличению доли официально трудоустроенного населения на 30% (рис.2).

Доходы от предпринимательской деятельности также показали положительную динамику, увеличившись на 1,5% до 22,9%. В то же время доходы от сельского хозяйства и приусадебных участков выросли на 0,9%, достигнув 10,7%, тогда как доходы от денежных переводов сократились до 2,0%. Реальные доходы населения увеличились на 10,7%, что соответствует среднему доходу на душу населения в размере 2,1 миллиона сумов в месяц. Заработная плата, как один из главных факторов, способствующих улучшению уровня жизни граждан, составила 42,6% от общего объема доходов [2].



Рис.2 Структура доходов населения в Узбекистане
Источник: Данные Центра экономических исследований и реформ

Региональные различия в доходах также заметны, с наибольшим ростом в Ферганской и Бухарской областях на 19,1% и 11,4% соответственно, а также в городе Ташкенте на 17%. Наиболее высокие доходы населения отмечены в столице, где они составили 3,6 млн сумов, в то время как в Навоийской и Кашкадарьинской областях доходы выросли до 2,2 миллиона сумов.

Основными факторами риска попадания в бедность при занятости являются:

1. Низкая заработная плата в определённых секторах экономики, особенно в сельском хозяйстве и сфере услуг.
2. Нестабильная и неформальная занятость, лишаящая работников доступа к социальным гарантиям.
3. Недостаточный уровень квалификации, ограничивающий возможность получения более высокооплачиваемой работы.
4. Региональные различия в уровне экономического развития, особенно между городом и селом.
5. Гендерные различия, выражающиеся в более низких доходах женщин при равных трудовых нагрузках [8].

Полученные результаты подтверждают, что наличие работы не гарантирует защиту от бедности. Ключевую роль в формировании трудовой бедности играют качество занятости и производительность труда. Низкий уровень оплаты труда в сочетании с ограниченным доступом к профессиональному обучению и социальной защите формирует замкнутый круг уязвимости.

Для снижения рисков попадания занятого населения в бедность необходимо:

- развитие программ повышения квалификации и переквалификации работников;
- внедрение механизмов справедливого распределения доходов и индексации заработных плат;
- сокращение неформального сектора через стимулирование малого бизнеса и упрощение налоговой системы;
- усиление социального страхования и программ поддержки уязвимых категорий работников.

Результаты многочисленных исследований влияния бедности среди работающих на отдельных людей, семьи и общество в целом показали, что она может привести к ухудшению физического и психического здоровья, снижению уровня образования, экономической мобильности и социальной сплоченности, поскольку низкооплачиваемые работники часто исключены из основных аспектов гражданской жизни и участия в политической жизни [9].

В отличие от факторов макро- и микроуровня, влияющих на низкий заработок и низкое трудовое участие, характеристики работы

оказывают влияние только на заработок отдельных работников, а факторы на уровне домохозяйства – на трудовое участие и нагрузку на домохозяйство (рис. 8).



Рис. 3 Факторы, влияющие на «экономическую бедность
Источник: составлено автором

Многие люди, работающие на низкооплачиваемой работе, например, в сфере услуг или сельском хозяйстве, не могут заработать достаточно денег, чтобы содержать себя и свои семьи. Работники, не имеющие образования или профессиональной подготовки, с трудом могут найти работу с оплатой в размере прожиточного минимума, что может привести к ограниченной экономической мобильности. На низкооплачиваемой работе рискуют оказаться и работники, принадлежащие к социально уязвимым категориям по признаку расы, пола, возраста или инвалидности.

Что касается занятости людей в «теневой» экономике, то при отсутствии у них больничного листа и оплачиваемого отпуска, других государственных льгот и страховок финансовая нестабильность и бедность, образно говоря, стоят у них на пороге и стучатся к ним в дверь чуть ли не каждый день [6].

Низкая заработная плата опасна тем, что она может запустить так называемый цикл бедности, когда человек не может заработать достаточно для того, чтобы улучшить свое экономическое и социальное положение [7]. Поэтому повышение уровня заработной платы и улучшение условий труда – одна из актуальнейших и важнейших задач в борьбе с бедностью. В этой связи представляет интерес опыт Нидерландов, где минимальная заработная плата автоматически корректируется в зависимости от изменения индекса потребительских цен (ИПЦ) для всех домохозяйств дважды в год – в январе и июле. Индексация осуществляется Министерством социальных дел и занятости Нидерландов, которое определяет новый уровень минимальной заработной платы на основе формулы, учитывающей

ИПЦ, а также изменения в средней заработной плате и системе социального обеспечения. Автоматическая индексация минимальной заработной платы помогает обеспечить сохранение покупательной способности низкооплачиваемых работников даже в условиях инфляции. Это также означает, что правительству не нужно принимать специальные решения о повышении минимальной заработной платы, которые могут быть подвержены политическому давлению.

Заключение

Риски и угрозы попадания в бедность среди занятого населения обусловлены комплексом экономических, институциональных и социальных факторов. Эффективная политика должна быть направлена не только на создание рабочих мест, но и на повышение их качества. Сочетание роста производительности труда, справедливого вознаграждения и социальной защиты позволит снизить уровень трудовой бедности и укрепить социально-экономическую устойчивость общества.

Социально-экономическая политика в сфере налогов, защиты труда, минимальной заработной платы может либо способствовать, либо препятствовать работникам зарабатывать прожиточный минимум и избегать бедности. Сокращение бедности среди работающих – сложный и многогранный вопрос, требующий комплексного подхода с участием многих заинтересованных сторон. В числе первоочередных мер, которые помогут снизить уровень бедности среди работающих, следующие:

Профессиональная подготовка и образование имеют решающее значение для улучшения перспектив трудоустройства и повышения доходов работников с низким уровнем дохода. Программы профессиональной подготовки и обучения помогают снизить уровень бедности, поскольку они позволяют работникам приобрести навыки, необходимые для получения более высокооплачиваемой работы, способствуют уменьшению экономического неравенства, предоставляя возможности для социальной мобильности.

Программы экономического развития и развития трудовых ресурсов, предоставляя работникам доступ к более качественным рабочим местам, могут повысить доходы семей. Программы должны быть направлены на создание рабочих мест, которые оплачиваются по прожиточному минимуму, включают обучение и обеспечивают карьерный рост.

Список литературы

1. Постановление Кабинета Министров от 07.07.2023 г. №279 «О мерах по реализации программы «20 тысяч предпринимателей – 500 тысяч квалифицированных специалистов».

2. Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. [Электронный ресурс]. URL: <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/labor-market> (дата обращения: 10.10.2025).
3. Kalleberg A.L. Good Jobs, Bad Jobs: The Rise of Polarized and Precarious Employment Systems in the United States, 1970s to 2000s. New York: Russell Sage Foundation. 2013. ISBN-10: 0871540312
4. Standing G. The Precariat: The New Dangerous Class. Bloomsbury Academic. 2014. ISBN-10: 1472510399
5. Shayusupova N. RELATIONSHIP BETWEEN EMPLOYMENT AND ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN //OILA.
6. Абдурахманов К.Х. Экономика труда: Теория и практика. / Учебник. - Москва: ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г. В. Плеханова», 2020. – 664 с.
7. Абдурахманов К.Х., Зокирова Н.К., Абдурахманова Г.К. Инновационные рабочие места как эффективная и достойная форма занятости в современных условиях. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.rea.ru/ru/org/> (дата обращения: 24.05.2023).
8. Амирджанова С. С. (2024). SOLUTIONS TO POVERTY IN UZBEKISTAN: A MULTIFACETED APPROACH. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11241826>
9. Беркинов Бозорбой Беркинович, Неделькина Наталья Ивановна, Амирджанова Ситора Суннат Кизи Современные реалии повышения уровня жизни населения в махаллях в условиях развития нового Узбекистана // ЭПП. 2024. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-realii-povysheniya-urovnya-zhizni-naseleniya-v-mahallyah-v-usloviyah-razvitiya-novogo-uzbekistana> (дата обращения: 13.10.2025).



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



IQTISODIYOTGA TURIZMNING BEVOSITA TA'SIRINI TANLANMA KUZATUVLAR ASOSIDA STATISTIK BAHOLASH

Jumanova Zilola Tuychiyevna

TDIU, Ekonometrika kafedrasi dotsent v.b (PhD)

jumanovazilola247@gmail.com

Abdikayumov Jumarasul Xamzaali o'g'li

TDIU, Menejment fakulteti,

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi

2 kurs talabasi

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a223

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiyotga bevosita ta'siri tanlanma kuzatuvlar asosida statistik baholangan. So'rovnoma orqali yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilinib, turizmni rivojlantirishdagi imtiyozlar, raqamli texnologiyalarning ahamiyati, moliyalashtirish tizimi, turistlarni jalb qilishdagi muammolar va ichki turizmni rivojlantirish choralari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, turizm sohasidagi kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, iqtisodiyot, statistik baholash, so'rovnoma, raqamli texnologiyalar, ichki turizm, logistika, subsidiyalar, turistik infratuzilma.

СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ПРЯМОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ТУРИЗМА НА ЭКОНОМИКУ НА ОСНОВЕ ОТДЕЛЬНЫХ НАБЛЮДЕНИЙ

Джуманова Зилола Туйчиевна

ТГЭУ, (PhD), и.о. доцент кафедры Эконометрики

Абдикаюмов Джумарасул Хамзаали угли

ТГЭУ, студент 2-го курса по специальности Мировой экономики и

международных экономических отношений

Аннотация. В данной статье на основе выборочных наблюдений проведена статистическая оценка прямого влияния сферы туризма на экономику Узбекистана. Проанализированы данные, собранные посредством опроса, рассмотрены льготы для развития туризма, важность цифровых технологий, система финансирования, проблемы привлечения туристов и меры по развитию внутреннего туризма. На основе результатов исследования выявлены недостатки в сфере туризма и разработаны предложения по их устранению.

Ключевые слова: туризм, экономика, статистическая оценка, опрос, цифровые технологии, внутренний туризм, логистика, субсидии, туристическая инфраструктура.

STATISTICAL ASSESSMENT OF THE DIRECT IMPACT OF TOURISM ON THE ECONOMY BASED ON SELECTED OBSERVATIONS

Jumanova Zilola Tuychiyevna

TSUE, (PhD), Acting associate Professor of the
Department of Econometrics

Abdikayumov Jumarasul Khamzaali ugli

TSUE, Faculty of Management,
2nd year student of the Department of World Economy
and International Economic Relations

Abstract. This article provides a statistical assessment of the direct impact of the tourism sector on the economy of Uzbekistan based on selective observations. The data collected through a survey were analyzed, examining the benefits for tourism development, the importance of digital technologies, the financing system, problems in attracting tourists, and measures to develop domestic tourism. Based on the research results, shortcomings in the tourism sector were identified, and proposals for their elimination were developed.

Keywords: tourism, economy, statistical assessment, survey, digital technologies, domestic tourism, logistics, subsidies, tourism infrastructure.


Kirish

Turizm sohasi respublikaning tez rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanishi, yillik turistlar sonining olti milliondan oshganligi, turizm tushumlarining bir milliard AQSh dollariga yetishi bu sohada to'g'ri islohot amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. 2020-yilda boshlangan pandemiya esa keskin ravishda turistlar oqimi va tushumiga jiddiy ta'sir o'tkazdi.

Turizm rivojlanishini boshqa sohalarga ta'siri doimo ilmiy tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan (Izboun, N. 2014; Byrd, E., Bosley, H., & Dronberger, M. 2009).

Ilmiy tadqiqot doirasida, turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini statistik baholash uchun so'rovnoma tashkil qilindi. So'rovnoma o'nta savoldan iborat bo'lib, barcha respondentlar turoperator va turfirma vakillaridir. So'rovnoma natijasida iqtisodiyotda turizm o'rnini statistik baholash uchun zarur ma'lumotlar jamlandi va ilmiy xulosa hamda takliflar shakllantirildi. So'rovnoma 2023-yil iyul-iyun oylarida o'tkazildi. So'rovnomada 120 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


Birinchi savol “Turizmni rivojlantirish uchun qanday imtiyozlarni oshirish lozim deb bilasiz?” tarzida berildi. Mazkur holda respondentlarning 51 tasi, 45,9 % turizmni rivojlantirishda logistika imtiyozlarini kengaytirishni, qo'llab-quvvatlashini bildirgan.



1-rasm. So'rovnoma birinchi javobining diagrammasi²⁶

Keyingi paytlarda har bir sohada raqamli texnologiyalarni rivojlantirish dolzarb muammoga aylangan. Ayniqsa, Pandemiya-2019 paytida raqamli texnologiyalar sohaning saqlab qolinishi uchun eng muhim vosita hisoblandi. Raqamli texnologiyalar turizm sohasida qo'llanishi natijasida, turistlarni jalb qilish, ularga xizmatlarni sifatli va qulay yetkazish osonlashib bormoqda. Har bir turfirmalar raqamli texnologiyalarni qancha ko'p qo'llasa, shuncha turizm kengayishi aniqlandi.

Bu jarayonni inobatga olgan holda ikkinchi savol "Turizm faoliyatingizda raqamli texnologiyalardan qanday foydalanasiz?", deb tuzildi. Ushbu savolga 42,3 foiz respondentlar, ya'ni turfirma egalari o'rta darajada foydalanishi ifodalashgan.




2-rasm. So'rovnoma ikkinchi savol natijasining diagrammasi²⁷

²⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


²⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Turizmni iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirishda turistlar bilan faoliyat olib boruvchi soha uchun moliyalashtirish, subsidiyalash va kreditlarni tez olishlari uchun maxsus tizim bo‘lishi kerak. Ushbu tizim moliyaviy muammolar oldini olinishiga asosiy dastak vazifasini bajaradi. Ushbu savolga bog‘liq javobga respondentlar quyidagicha javob berishgan (3-rasm).



3-rasm. So‘rovnoma uchinchi savol natijasining diagrammasi²⁸

Turistlarni jalb qilishda ayrim qiyinchiliklar va muammolarni aniqlash, bu borada yetarli hamda ishonchli ma’lumotlarni olish uchun savol ishlab chiqilindi.




4-rasm. So‘rovnoma to‘rtinchi savol natijasining diagrammasi²⁹

²⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

²⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

37.8 foiz respondentlar reklamani to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymaslikni turistlarni jalb qilishdagi asosiy muammo, deb baholashgan.

Savolnoma orqali respondentlarning 33.3 %i turistlar ko‘proq turistik obyektlarning xalqaro standartlarga javob bermasligini bildirishgan.



5-rasm. So‘rovnoma beshinchi savol natijasining diagrammasi³⁰

Turistik obyektlarning xalqaro standartlarga javob berishi tur mahsulotlarning brend darajasiga yetishi bilan belgilanadi.



6-rasm. So‘rovnoma oltinchi savol natijasining diagrammasi³¹

Mazkur so‘rovnoma turizmni iqtisodiyotdagi o‘rnini baholash uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, uning har chorakda amalga oshirilishi turizm sohasida muhim muammolar, to‘siqlar va ma‘lumotlarni jamlash uchun xizmat qiladi.

³⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda ham ichki turizmni rivojlantirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan³² 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6165-sonli Farmoni hamda 2022-yil 30-aprelda qabul qilingan “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-232-sonli qarori bilan ichki turizmni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6165-sonli Farmoni bilan quyidagi imtiyoz va preferensiyalar:

a) turoperatorlar, turagentlar, shuningdek, joylashtirish vositalari uchun foyda solig‘i stavkasini belgilangan stavkaga nisbatan 50 foizga kamaytirish;

b) kamida 10 kishidan iborat xorijiy turistik guruhlar uchun O‘zbekiston Respublikasida tur tashkil etish va ularning joylashtirish vositalarida kamida besh kecha tunab qolishi sharti bilan³³ turoperatorlarning avia va temiryo‘l chiptalari bo‘yicha xarajatlarini chipta narxining 30 foizi miqdorida qisman subsidiyalash;

v) turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi subyektlar bo‘yicha:

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan ozod qilish;

- ular tomonidan to‘lanadigan ijtimoiy soliqni kamaytirilgan stavkada 1 foiz miqdorida belgilash muddatlari 2021-yil 31-dekabrga qadar uzaytirildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-232-sonli qarori bilan:

Mehnat jamoalarining jamoa shartnomalariga ish beruvchilar tomonidan xodimlar uchun yiliga bir marotaba mahalliy sayohatga chiqish imkonini yaratish qoidalari kiritildi;

sayohat xarajatlarining bir qismi ish beruvchilarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplab berilishi yo‘lga qo‘yildi;

2022-yil 1-sentyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari (mahalliy turistlar) uchun “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida respublika hududlari bo‘ylab ichki sayohatlarni amalga oshirish xarajatlarining bir qismini qaytarish – “Keshbek” tartibi joriy etildi;

2022-yil 1-iyuldan boshlab “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomi berilgan fuqarolar yig‘inlari hududlarida mehmon uylari, ovqatlanish va savdo shaxobchalari, ko‘ngilochar joylar tashkil etgan tadbirkorlar uchun 3 yil davomida aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida, ushbu hududlardagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i

³² https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

³³ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

miqdorlari – mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilandi;

oilaviy mehmon uylarini ta'mirlashga 100 million so'mgacha, mebel, maishiy texnika va boshqa buyumlar bilan jihozlashga 50 million so'mgacha hamda suzish havzalarini tashkil etish loyihalarni moliyalashtirish uchun tadbirkorlarga 200 million so'mgacha kreditlar berish tartibi belgilandi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun Ipoteka dasturi doirasida iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan 100 mlrd so'm, kichik tadbirkorlik uchun ajratilgan pul mablag'lari hisobidan 50 mln dollar yo'naltirildi.

Har bir turistga sayohat xarajatlarini qaytarishda quyidagi miqdorlar qo'llaniladi:

aviaqatnov orqali borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 150 ming so'mdan oshmagan miqdorda;

temir yo'lda yoki avtobusda borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 80 ming so'mdan oshmagan miqdorda;

joylashtirish vositasida tunab qolish xarajatining 15 foizi, lekin 80 ming so'mdan oshmagan miqdorda;

teatr, muzey, sirk va badiiy galereyalarga har bir tashrif chiptasi narxining 50 foizi, lekin 20 ming so'mdan oshmagan miqdorda.

“Keshbek” tartibini joriy etish uchun respublika byudjetining qo'shimcha mablag'laridan 2023-yil 1-yanvardan boshlab jami 30 mlrd so'm, jumladan, uning 1-bosqichi uchun 10 mlrd so'm ajratish mexanizmi joriy etildi.

Shu bilan birga ichki turizmni rivojlantirish uchun mas'ul tashkilotlar belgilandi va ushbu tashkilotlarga o'z yo'nalishlari bo'yicha har yili ish beruvchilar bilan birgalikda xodimlarni respublika bo'ylab³⁴ sayohatga chiqishi uchun sayohat grafiklarini tasdiqlash hamda sayohatni amalga oshirish yuklatildi, ya'ni:

yoshlar uchun – Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi;

mehnat va mahallalar jamoalari, faxriylar, nuroniylar va pensionerlar uchun – O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi;

xotin-qizlar uchun – Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi mas'ul qilib belgilandi.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida³⁵:

- 150 ming nafar qo'shimcha sayohatlar amalga oshirilishi hamda 104,3 mlrd so'mlik turizm xizmatlari aylanmasi shakllantirilishi va buning hisobiga davlat byudjetiga qo'shimcha 15,5 mlrd so'm soliq tushumlari tushishi kabi iqtisodiy o'zgarishlarga zamin yaratilgan;

³⁴ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

³⁵ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

- 2022-yil davomida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida 11,435 millionta (2021-yilga nisbatan 1,9 barobar) ichki turistik sayyohatlar amalga oshirilgan. Jumladan, mehnat jamoalari sayohatlari 700,1 mingtani, ayollar daftariga kiritilgan xotin-qizlar sayohatlari 37,9 mingtani, notinch oilalar sayohatlari 1,4 mingtani, yoshlar hamda nuroniylar sayohati 588,3 mingtani hamda mahalliy aholi sayohatlari 10 mln 107,4 mingtani tashkil etgan;

- 2022-yil davomida 42,7 mingta transport xizmatlari amalga oshirilgan bo‘lib, shundan: 6,4 mingta avia qatnovlar, 1,9 mingta temir yo‘l qatnovlari, 34,3 mingtasi avtobus qatnovlarini tashkil etgan.

Yuqoridagi ishlarni amalga oshirilishiga qaramasdan, oxirgi 5 yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasida ichki turistik sayohatlar ulushi xalqaro sayohatlar soniga nisbatan o‘rtacha 70 foizdan oshmaganini ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

Jadvaldagi raqamlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2023-yildagi ichki turistik sayohatlar soni 2022-yilga nisbatan 1,97 baraborga oshgan bo‘lsa, xalqaro turistik sayohatlar soni 2,78 baraborga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, xalqaro turizmning o‘sish sur‘atlari ichki turizmga nisbatan yuqori ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi ichki turizm bozorining yanada rivojlantirishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan bir nechta omillar mavjud.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillarda ichki va xalqaro tashrif buyuruvchilar to‘g‘risida ma‘lumot, (mingta safar)³⁶

	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Ichki turistik safar soni	12 489,2	14 748,0	3 534,1	5 813,9	11 435,5
Kirish sayohatlari soni	5 346,2	6 748,5	1 504,1	1 881,3	5 232,8
Umumiy sayohatlar soni	17 835,4	21 496,5	5 038,2	7 695,2	16 668,3
Solishtirma nisbati	70/30	69/31	70/30	76/24	67/33

Birinchidan, ichki turizm marketingi va reklama xizmatlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Oxirgi yillarda O‘zbekistonning turizm imkoniyatlari turli tillarda xorijiy davlatlarning mashhur nashrlarida faol yoritilmoqda, biroq mahalliy aholi uchun O‘zbekistonning jozibador turistik manzillari va sayohatlarni tashkil etuvchilar to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi nashrlar yetarli emas. Ya‘ni, mahalliy aholining aksariyat qismi hududlarning qaysi hududida qanday turdagi turistik mahsulotlar borligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega emas.

³⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2024-yil yakuniga qadar respublikaning turistik resurslari hamda turistik industriya obyektlari to'g'risida xabardor qilish, shuningdek, turistik bozorlarda turistik mahsulotlarni targ'ib qilish bo'yicha³⁷ faoliyatni amalga oshiruvchi 151 ta turistik axborot markazlari tashkil etilgan bo'lib, ularning aksariyati mahalliy aholi uchun qulay bo'lmagan (kiruvchi turistlar uchun qulay) manzillarda – davlat chegara punktlari, aeroportlarning ichki qismi, turizm maskanlari yoki ziyoratgohlarda joylashgan.

Ikkinchidan, mahalliy aholiga ko'rsatilayotgan ichki turizm logistika xizmatlarining noqulayligi va qimmat ekanligi. So'nggi 2 yilda Urganch-Farg'ona-Urganch, Samarqand-Namangan-Samarqand hamda Andijon-Xiva-Andijon yo'nalishlari bo'yicha doimiy temir yo'l qatnovlari hamda Xiva-Buxoro va Buxoro-Termiz avtobus qatnovlari yo'lga qo'yildi.

Biroq mavjud aviareys va temir yo'l chiptalarini xarid qilishda katta navbatlar yuzaga kelmoqda. Ayrim avia va temiryo'l yo'nalishlarida o'rinlar 5 kundan 10 kungacha oldindan band qilinganligiga guvoh bo'layapmiz. Bu esa, ko'rsatilayotgan transport xizmatlari hajmi talabga nisbatan yetarli emasligini ko'rsatadi.

Shuningdek, aksariyat aviaqatnovlar Toshkent shahri bilan bog'langan bo'lib, ayrim hududlarni bog'lovchi aviaqatnovlar, to'g'ridan to'g'ri temiryo'l va avtobus qatnovlari mavjud emas. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati fuqarolari uchun uzoq masofada joylashgan Surxondaryo viloyatiga (Nukus – Termiz – 989 km, Urganch – Termiz – 866 km) yoki Qoraqalpog'iston Respublikasini Farg'ona vodiysi viloyatlari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lovchi avia, temiryo'l va avtobus qatnovlari yo'lga qo'yilmagan.

Shu bilan birga transport qatnovlarining aksariyati hududlarning turizm markazlari yoki shaharlariga emas, balki ma'muriy markazlariga yo'naltirilgan. Masalan, Qashqadaryo viloyatida transport qatnovlari asosan Qarshi shahriga amalga oshiriladi, ammo viloyatning asosiy turistik shahri Shahrisabz shahrigacha to'g'ridan to'g'ri qatnovlar mavjud emas³⁸.

Hududlararo transport qatnovlarining yo'qligi bir vaqtning o'zida bir nechta hududlar bo'ylab ichki turistik sayohatni amalga oshiruvchilar uchun³⁹ noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa ichki turistlarni mamlakat hududlari bo'ylab turizm sayohatlarini amalga oshirish davrini qisqa vaqt davom etishiga, shuningdek, turistlarning ichki turizm xizmatlaridan foydalanish doirasini cheklanishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, turistlarning sayohatlarni mustaqil amalga oshirishlariga ko'maklashuvchi zamonaviy va foydalanish qulay bo'lgan dasturiy ta'minotlar yetarli emas. Ko'plab sayyohlar shaharlar bo'ylab turizmni mustaqil tashkil qila olmaydi hamda ko'rsatilayotgan turizm xizmatlaridan to'laqonli foydalana olishmaydi.

³⁷ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

³⁸ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

³⁹ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

Respublikadagi barcha turoperatorlar tomonidan yaratilgan turistik mahsulotlar to'g'risida axborot beruvchi, turistik yo'nalishlarni mustaqil belgilash imkonini beruvchi dasturiy ta'minotlar mavjud emas. Shuningdek, joylashtirish vositalariga masofadan turib onlayn buyurtma berish imkonini beruvchi mavjud dasturiy ta'minotlarda narxi arzon bo'lgan xostellar va uy mehmonxonalari to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas.

Vaholangki, so'nggi 6 yil davomida ichki turizm bozori iste'molchilari uchun arzon turar joylar yaratish bo'yicha ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, xostellar soni 2019-yilga nisbatan 37,2 barobarga, ularda yaratilgan o'rinlar soni esa 40,5 barobarga oshgan, 2020-yildan boshlab esa oilaviy mehmon uylarini tashkil etish va ularni faoliyatini tartibga solish jarayonlari boshlangan. Hozirga kelib oilaviy mehmon uylari soni 3202 taga va ularda yaratilgan o'rinlar soni⁴⁰ 28 073 tani tashkil etmoqda (2-jadval).

1.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan mehmonxonalar, xostellar va oilaviy mehmon uylari to'g'risida ma'lumot

Asosiy ko'rsatkich nomi		2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Mehmonxonalar	dona	716	777	847	927	942	935
	xona	18 051	19 162	21 790	24 286	26 455	28 628
	o'rin	35 578	38 077	42 891	47 907	51 632	55 544
Xostellar	dona	16	62	214	241	357	596
	xona	125	446	2 238	2 555	3 712	6 655
	o'rin	489	1 543	6 931	7 808	11 666	19 796
Oilaviy mehmon uylari	dona		106	886	1 386	2 458	3 202
	xona		278	2 323	3 194	8 800	11 045
	o'rin		841	7 146	11 263	21 018	28 073

Yuqoridan sanab o'tilgan kamchilik va muammolarni hal qilish uchun quyidagilarni:

– o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida O'zbekistonning ichki turizm imkoniyatlarini targ'ib qiluvchi maxsus nashrlar tayyorlash, ushbu nashrlarni barcha turdagi faoliyat yurituvchi subyektlarga bepul yetkazish hamda ushbu subyektlarda turizm burchaklarini tashkil etish choralari ko'rish aholi gavjum joylarida (bozorlar, yirik savdo markazlari va hokazo) doimiy faoliyat yurituvchi hamda aholi ko'p qatnashuvchi bayram tadbirlari o'tkaziladigan joylarda ko'chma turistik axborot markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish;

turizm sohasidagi yaratilgan dasturiy ta'minotlarni yanada rivojlantirish va yangi innovatsion biznes g'oyalarni, shu jumladan, birinchi navbatda ichki turistlar uchun qulayliklar yaratishga yo'naltirilgan dasturiy ta'minotlarini yaratish xizmatlarini qisman subsidiyalash;

⁴⁰ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

erkin sayyohlarga qulaylik yaratish, turistlarning belgilangan turizm manzillariga qulay, xavfsiz hamda yuqori sifatli servis ko'rsatilgan holda yetib borishlariga xizmat qiluvchi, turistik firmalarning avtobuslari, mikroavtobus va yengil avtomashinalari doimiy jalb etiluvchi hamda ularni belgilangan qat'iy grafik asosida harakatlanishini ta'minlovchi turistik bekatlar faoliyatini yo'lga qo'yish kabi choralarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida ichki turizmni rivojlantirish uchun birinchi navbatda aholiga respublika hududlarining turistik imkoniyatlari haqida tasavvurni paydo qilish lozim. Shuningdek, ularga ichki jamoaviy turizmni va mustaqil turizmni⁴¹ tashkil etish uchun qulay axborot-kommunikatsiya muhitini shakllantirish muhim hisoblanadi⁴².

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shodiev X. va Xabibullaev I. Statistika: darslik//– T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2019.-454 b.
2. G'oyibnazarov B.K., Kolonova L. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. - T.: 2007.– 106b
3. A.X. Pardayev, A.N.Norchaev. Xalqaro turizm. -Darslik. – T.: TDIU, 2010 y -260 b.
4. D.M.Demioz and S.Ongan (2005), The contribution of tourism to long run Turkish economic growth, Ekonomicky Casopis, 9, pp. 880-894
5. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.
6. <https://uniwork.buxdu.uz/resurs>

⁴¹ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf

⁴² https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12225_1_8DDFD06F83BAAB5ED44BD161EA9D93DC0AD4E0C3.pdf



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



KORXONALARDA KPI ORQALI ISHCHILARNI RAG‘BATLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Axmedov Muzaffar Shokirjonovich

Namangan davlat texnika universiteti
Menejment kafedrasida katta o‘qituvchisi
e-mail: muzaffarsp86@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a224

Annotatsiya. Mazkur maqolada tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalarida jamoaviy KPI (Key Performance Indicators) tizimini joriy etishning ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat motivatsiyasiga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot davomida jamoaviy KPI ko‘rsatkichlari asosida ishlab chiqarish natijalari onlay va bevosita so‘rovnomalar, ekspert suxbatlari asosida tahlil qilindi. KPIning xodimlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va mehnat unumdorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berildi. Olingan natijalar jamoaviy KPI tizimining tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalarida samarali boshqaruv va rag‘batlantirish vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

Keywords: motivatsiya, KPI, mehnatni baholash, T/TV muvozanat, tikuv buyumlari ishlab chiqarish, motivatsion tizim, korxona, ishchi.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ СТИМУЛИРОВАНИЯ РАБОТНИКОВ ПОСРЕДСТВОМ КРІ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ

Ахмедов Музаффар Шокирджонович

Старший преподаватель кафедры менеджмента,
Наманганский государственный технический университет

Аннотация. В статье рассматривается влияние внедрения командной системы ключевых показателей эффективности (KPI) на производственную эффективность и трудовую мотивацию на предприятиях по производству швейных изделий. В ходе исследования результаты производственной деятельности были проанализированы на основе командных KPI с использованием онлайн- и очных опросов, а также экспертных интервью. Обоснована роль системы KPI в усилении взаимодействия между сотрудниками и повышении производительности труда. Полученные результаты свидетельствуют о том, что командная система KPI является эффективным инструментом управления и стимулирования на предприятиях по производству швейных изделий.

Ключевые слова: motivation, KPI, labor performance evaluation, wage-productivity balance, garment manufacturing, motivational system, enterprise, worker.

ISSUES OF IMPROVING THE SYSTEM OF EMPLOYEE INCENTIVES THROUGH KPIs AT ENTERPRISES

Akhmedov Muzaffar Shokirjonovich

Senior Lecturer of Management Department

Namangan state technical university

Abstract. This article examines the impact of implementing a team-based Key Performance Indicators (KPI) system in garment manufacturing enterprises on production efficiency and labor motivation. During the study, production performance was analyzed based on team-based KPI indicators using online and face-to-face surveys as well as expert interviews. The role of the KPI system in strengthening cooperation among employees and increasing labor productivity is substantiated. The results obtained demonstrate that the team-based KPI system serves as an effective management and incentive tool in garment manufacturing enterprises.

Key words: motivation, KPI, labor performance evaluation, wage-productivity balance, garment manufacturing, motivational system, enterprise, worker

Kirish

Globallashuv jarayonlarini tobora jadallashuvi, raqobatning keskinlashuvi va innovatsiyalarning rivojlanishi zamonaviy korxonalarni ishchilar samaradorligi va sifatini oshirish uchun yangilangan mexanizmlarni joriy etishga majbur qilmokda. Bunday sharoitda KPI tizimi ishchilar faoliyatini ob'ektiv baholash va rag'batlantirishning samarali vositasi sifatida keng qo'llanila boshlandi. Birok, amaliyot ko'rsatayotganidek, KPI ning joriy etilishi va undan foydalanish rag'batlantirish tizimini avtomatik ravishda takomillashtirmaydi.

KPI tizimi orqali ishchilarni rag'batlantirishni takomillashtirish masalasi zamonaviy menejmentning dolzarb muammosi sifatida kelib chiqmokda. Bunda, nafaqat ko'rsatkichlarning to'g'ri tanlanishi, balki ularning rag'batlantiruvchi ta'sirini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ishchilar faoliyatining xar tomonlama va ob'ektiv baholanishi, uning natijasiga mos mukofot va rag'batlarning belgilanishi, ishchining kasbiy rivojlanishi va shaxsiy samaradorligini oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratish - KPI tizimining rag'batlantiruvchi vosita sifatida samarador ishlashining asosiy omillaridir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda o'z biznesini yuritayotgan maxalliy va xorijiy korxonalarda KPI tizimini joriy etish va undan foydalanish borasidagi amaliyot turli xil ko'rinishlarga ega. Bir tomondan, rivojlangan xorijiy kompaniyalarning tajribalari aktiv o'rganilmokda va qo'llanilmokda, ikkinchi tomondan, maxalliy sharoit va madaniy xususiyatlarni xisobga olgan holda moslashish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, biznes egalari tomonidan KPI tizimining rag'batlantiruvchi jihati yetarlicha o'rganilmagan. Ayniqsa tikuv buyumlari ishlab chiqarish sanoatida bu tizim asosida rag'bat tizimini tashkil etish sust darajada.

Bu maqolada tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalarida KPI tizimi orqali ishchilarni rag'batlantirishni takomillashtirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari o'rganiladi, mavjud muammolar tahlili asosida takliflar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi – tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalarida KPI ga asoslangan rag‘batlantirishning jamoaviy modelini ishlab chiqish va uning amaliy qo‘llanilishining samaradorligini isbotlashdir.

Tadqiqotning dolzarbligi KPI tizimi orqali rag‘batlantirishning zamonaviy korxonalardagi ahamiyatini ortishi, birok bu yo‘nalishdagi ilmiy-amaliy ishlarning yetarli emasligi bilan belgilanmokda. Shuningdek, globallashuv jarayonlari keskinlashayotgan bir sharoitda KPI tizimini joriy etishning xususiyatlari va undan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash amaliy ehtiyojdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bugungi kunda tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalaridagi eng katta muammolardan biri ishchi personalda yetarli ichki va tashqi motivatsiyaning yetishmasligidir. Buning asosiy sabablaridan biri korxona bilan ishchi o‘rtasidagi muvozanat buzilganligidir. Samaradorlik esa, muvozanatdadir. “Franclin covey” kompaniyasi asoschisi Stiven R.Kovi o‘zining ilmiy izlanishlarida moddiy, moliyaviy va insoniy munosabatlarda doimiy ravishda T/TV, ya’ni ta’minot va ta’minot vositasi muvozanatini ta’minlash samaradorlikning kaliti ekanligini ta’kidlagan [1]. Bu muvozanatni ushlashni eng yaxshi usullaridan biri, soha korxonalariga KPI baholash tizimini joriy qilishdir.

A.Ya.Kibanov o‘z ilmiy ishlarida baholashni, xodimlarning qobiliyati, motivatsiyasi va ko‘nikmalari ish joyining talablariga muvofiqligini mosligining maqsadga muvofiq jarayoni ekanligini ta’kidlagan [2]. Ye.N.Vetlujskix korxonalarda motivatsiyaga sabab bo‘luvchi mehnatni baholashni korxona strategiyasidan kelib chiqib amalga oshirish lozimligini ta’kidlaydi [3]. B.M.Genkin esa o‘z ilmiy ishlarida tashkilotlarning ish samaradorligi doimiy ravishda personal motivatsiyasiga bog‘liqligini ta’kidlaydi [4]. K.Blanshir va S.Djonsonlar korxonalarda ish samaradorligini oshirishda maqsadli boshqaruvni tashkil etish va aniq maqsad asosida ishlagan personalni o‘rnida rag‘batlantirish lozim deb hisoblaydilar. Tadqiqotchi E.M. Rozhdestvenskaya KPI asosida motivatsiya tizimini qurishning asosiy jihatlarini ochib bergan. Shu bilan birga KPI tizimini korxonaning ishchi personalni boshqarish tizimiga integratsiya qilish lozimligini taklif etgan [5]. A.Klochkov motivatsiyani ehtiyojlarni eng yaxshi qondirish uchun kompaniya va xodimning maqsadlari o‘rtasidagi muvozanatga erishish jarayoni deb ta’kidlagan. Shu bilan birga u KPI tizimini tashkil etish bo‘yicha o‘z tahlillarini keltirib o‘tgan [6]. Demak motivatsiya ishchi personalning qoniqish darajasiga yuqori ta’sirga ega. Ayniqsa tashqi motivatsiya omillaridan biri mehnatni munosib baholash.

Ko‘rib turganimizdek KPI ni ishchi personal motivatsiyasiga ta’siri yuzasidan ko‘plab olimlar ish olib bormoqda. Shunday bo‘lsada tikuv ishlab chiqarish sohasida bu yo‘nalishda tadqiqot ishlari yetarli emas. Ayniqsa O‘zbekiston sharoitida aksariyat tikuv ishlab chiqarish korxonalari an’anaviy

metodni, ya'ni vaqtga asoslangan ish haqi to'lash tizimini hozirda ham qo'llab kelmoqdalar. Buning natijasida ko'plab muammolar kelib chiqmoqda. Shu nuqtai-nazardan ham tadqiqot ishi dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot aralash yondashuv asosida olib borildi, u kvantitativ va kvalitatif metodlarni integratsiyalashni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv KPI tizimi orqali rag'batlantirishning kompleks tabiatini o'rganishga, raqamli ma'lumotlarni chuqur tushunchalar bilan birlashtirishga imkon beradi. Dastlab suxbatlar va ekspert baholari amalga oshirilgandan so'ng, onlayn va bevosita so'rovnomalar tashkil qilindi. Aynan shu asosida olingan natijalar tahlil etilib umumlashtirildi. Metodologik cheklovlar, tadqiqot etikasi inobatga olindi.

Tahlil va natijalar

Biz tadqiqot ishimiz asosida bugungi kunda tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalaridagi asosiy muammolarni aniqladik va ularga ijobiy yechim sifatida KPI ni sohaga mos tizimini joriy qilishni taklif sifatida keltirdik.

KPI ko'rsatkichlarini shakllantirishda quyidagi 3 ta manbani asos sifatida oldik:

1. Korxonaning maqsadlari. Ya'ni korxonaning yillik biznes rejasidan kelib chiqqan holatda choraklik, oylik, xaftalik va kunlik biznes maqsadlaridan. Masalan korxona oxirgi oyda 1 mlrd so'm foyda olishni ko'zlagan bo'lsa, bu ishchi personalning shunday foydaga erishish uchun har kunlik rejasini belgilab beradi va aynan shu reja KPI kriteriyasi sifatida olinadi.


2. Korxonaning muammolari. Masalan, tadqiqotimiz davomida aniqlangan muammolardan, ishchi personalning qo'nimsizligi, nomuvofiq mahsulotlar sonining ortib borayotganligi, ishchilarning doimiy vaqtga fokus qaratishi va boshqalar. Aynan shu kabi muammolarni yechish uchun, ularni bartaraf etishga xizmat qiladigan KPI kriteriyalar shakllantiriladi.

3. Muvaffaqiyat omillari. Bunda har bir lavozimni o'ziga xos muvaffaqiyat omillaridan kelib chiqqan holatda KPI qo'yishimiz mumkin. Ishini aniq hisoblashni imkoni bo'lmagan lavozimlarga KPI qo'yishda, aynan shu manbadan foydalaniladi. Masalan, quyi pog'ona menejerlarining liderlik qobiliyatini turli ishchi personaldan olingan so'rovnomalar orqali baholash mumkin. Buning uchun balli asosda so'rovnoma shakllantiriladi va aynan qaysidir ball chegarasi maqsadni belgilaydi. Bundan tashqari ma'lum sex ishchilarining qo'nimsizlik darajasi, ya'ni qo'nimsizlik darajasi belgilangan maqsaddan kamayib borishi, sex ishchilaridan zaxira kadrlarni yetishib chiqish darajasi sex ishlab chiqarish menejerining muvaffaqiyat omili bo'lishi va ularni KPI kriteriya sifatida olishimiz mumkin bo'ladi.

KPI ning motivatsiyaga yuqori ta'sir qilishining sababi, ishchi personal bu orqali ulardan nima kutilayotganligini aniq raqamlarda ko'ra biladilar. KPI ni samarali amalga oshirish natijasida ishchi personalda aniq maqsad asosida ishlash kayfiyati paydo bo'ladi.

Motivatsiyaga bevosita bogʻliq boʻlgan ish haqini tashkil etish tizimi boʻyicha 49 nafar respondentlardan olingan soʻrov natijalariga koʻra 72 foiz respondentlar oʻz korxonalarida vaqtbay ish haqi berish shakli, 28 foizi esa ishbay ish haqi shakli amal qilayotganligini taʼkidladilar. Bundan maʼlumki, ishchiga turtki sifatida nazoratdan foydalanilmoqda.

Namangan viloyatidagi 49 nafar rahbarlardan iborat respondentlarga “KPI tizimi ishchi personal samaradorligiga taʼsiri ijobiy boʻlsa, joriy etishni xohlarmidingiz?” deb berilgan savolga, ularning 86 foizi (42 nafar) KPI tizimini joriy etish tarafdori ekanliklarini, 14 foizi esa joriy etishni maqsadga muvofiq koʻrmaganligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Korxonada ishchi personal motivatsiyasiga yanada samarali taʼsir etish uchun KPI tizimini joriy etishga respondentlarning munosabati [7].

Joriy etishga xohish bildirmagan biznes egalari fikrlarini bevosita oʻrganildi. Buning asosiy sababi sifatida ularning KPI boʻyicha tushunchasi yoʻq ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari yuzasidan ularga tahliliy maʼlumotlarni taqdim etish va KPI (SMK) boʻyicha tegishli tushunchalar yuzasidan seminarlarni tashkil etish kelishib olindi. Bizga maʼlumki daromad omili, xususan ish haqi qisqa muddatli tashqi motivatsiya hisolanadi. Ayniqsa bu ish haqi vaqtbay boʻlsa, uning motiv sifatida ishchi personal ishtiyoqini oshirish davri yanada kamayadi. Shuning uchun KPI tizimini joriy qilish ijobiy natijalarga olib keladi.

Korxonlarda motivatsion tizimni takomillashtirish yuzasidan olib borayotgan ilmiy izlanishlarimizni keyingi bosqichda alohida tadqiqot uchun tanlab olingan tikuv buyumlari ishlab chiqaradigan korxonalarda, yaʼni “Fazman Tekstil” MChJ, “Tekstil libos” MChJ, “Istiqlol dizayn markazi” MChJ va “Gian Bros Tekstil” MChJlarda olib bordik. Korxonalar ishchi kuchi soni, ishlab chiqarish quvvati, rivojlanish darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. Qiyosiy tahlil uchun aynan shu korxonalar tanlandi.

KPI tizimi albatta moddiy va qiziqish motivatsiya darajasi yuqori boʻlgan korxonalarda yaxshi samara berishi barchamizga maʼlum. Shu nuqtai nazardan tadqiqot obʼekti boʻlgan korxonalaridagi ishchilarni motivatsiya

darajalarini aniqlashga xarakat qildik. Shu ma’noda tadqiqot ob’ekti bo’lgan bu korxonalarda keyingi o’tkazilgan so’rovnoma ishchi personalning motivatsiya darajasini aniqlashga qaratilgan so’rovnoma bo’lib, tadqiqot ob’ektlaridan qatnashgan 252 nafar respondentlarning fikrlari asosida tahlili shakllantirildi (1-jadval).

1-jadval

Korxonada ishchilarning motivatsiya darajasi tahlili %

Motivatsiya darajalari	Ideal Foiz	“Fazman Tekstil” MChJ	“Tekstil Libos” MChJ	“Gian Bros tekstil” MChJ	“Istiqlol Dizayn markazi” MChJ	O’rta cha	Farq 1-6
	1	2	3	4	5	6	7
Sodiqlik	25-30	17.8	20.5	12.2	19.4	17.5	-7.5
Ishga qiziqish	30-35	31.1	29.5	36.1	30.6	31.8	+1.8
Oylik maosh	< 20	31.1	26.1	39.1	36.1	33.1	+13.1
Mukofotlar	15-20	20.0	23.9	12.6	13.9	17.6	-2.4
daraja		O’rta	O’rta	Xavfli	Xavfli		

Tahlil natijasiga ko’ra “Fazman tekstil” MChJ korxonasida ishchi personalning 31,1 foizi oylik maosh, 20,0 foizi mukofotlar, 31,1 foizi o’z kasbiga qiziqish va 17,8 foizi o’zini korxonani oldida qarzdor deb bilishi, “Tekstil libos” MChJda 26,1 foizi oylik maosh, 23,9 foizi mukofotlar, 29,5 foizi o’z kasbiga qiziqish va 20,5 foizi o’zini korxonani oldida qarzdor deb bilishi kuzatilgan. “Gian Bros Tekstil” MChJda 39,1 foizi oylik maosh, 12,6 foizi mukofotlar, 36,1 foizi o’z kasbiga qiziqish va 12,2 foizi sodiqlik, “Istiqlol dizayn markazi” MChJda 36,1 foizi oylik maosh, 13,9 foizi mukofotlar, 30,6 foizi o’z kasbiga qiziqish va 19,4 foizi sodiqlik o’zining bugungi kundagi motivatsiya darajasi deb fikr bergan. Demak, tahlil natijalarini korxonalar to’g’ri anglagan holda ishchiga bugungi kundagi motivatsiya darajasiga monant motiv topib bera olishlari lozim. “Istiqlol dizayn markazi” MChJda rentabellik pastlab bormoqda, shunday bo’lsa-da korxonada 19,4 foiz sodiq ishchilar motivatsiya darajasi aynan shu sodiqlik asosida ishlashda davom etmoqda. Umuman olganda vafodorlik motivatsiya darajasidagi ishchi personal xajmini oshirib borish korxona muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir.

Umuman olganda so’rov natijalariga ko’ra oylik ish haqqi va mukofot motivatsiya darajalari eng yuqori ko’rsatkichni bermoqda, shu nuqtai nazardan ishchilarga beriladigan ish haqlarini ularning natijasiga bog’laydigan jamoaviy KPI tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda ishchi personalni yuqori motivatsiyasiga sabab bo’ladigan baholash turi – bu KPIdir. KPI (**Key Performance Indicators**) [8] –

korxonaning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari bo'lib, korxona maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqilgan baholash mezonidir. KPI dan maqsad – moddiy rag'batlantirishni erishilgan natijalarga bog'liqligini ta'minlash orqali ishchi personal samaradorligini oshirishdan iborat.

Tizim tarkibidagi birinchi muhim element ta'minot va ta'minot vositasi muvozanatiga erishishdir. Biz tikuv kiyimlari ishlab chiqarish korxonalarida ham “Franclin covey” kompaniyasi asoschisi Stiven R.Kovi o'zining ilmiy izlanishlarida keltirib o'tgan T/TV, ya'ni ta'minot va ta'minot vositasi muvozanatini ta'minlashga katta e'tibor qaratishimiz lozim. Bugungi kunda rahbarlar ham, ishchi personal ham yuqori darajada ta'minotni o'ylash bilan band, lekin aynan shu ta'minotni beradigan ta'minot vositasiga e'tibor sust darajada. Rahbarlar uchun T/TV muvozanati 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

Biznes egalari va rahbarlar uchun ishchilarga nisbatan T/TV muvozanati tahlili [7]

Ta'minot	Muvozanat	Ta'minot vositasi
- ishchi personal tomonidan yaratilgan yakuniy qiymatga ega bo'lgan sifatli mahsulot; - buyruq va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi; - ichki tartib qoidalariga rioya qilishi - vaqtida ishga kelib-ketishi; - o'z ishiga qiziqishi; - rahbarlar va jamoa bilan samimiy munosabatda bo'lishi va boshqalar.	=	- munosib daromad; - qulay mehnat sharoiti yaratish; - ishchi personalni xarakteri, temperamentini o'rganish; - ishchi personalni ehtiyojlari bilan qiziqish; - ishchi personalni oilaviy ahvolini o'rganish; - mehnatga munosib maqtov va e'tiroflarni doimiy bildirish va boshqalar

E'tibor beradigan bo'lsak, rahbarlar ishchi personalga qiymatiga mos qiymat bilan munosabatda bo'lish nazarda tutilmoqda. Aynan shu muvozanat buzilishi natijasida yuqoridagi muammolar kelib chiqmoqda.

Xuddi shu kabi ishchi personal ham korxonadan oladigan qiymati bilan birga beradigan qiymatiga ham e'tiborni oshirishi lozim 3-jadval. Korxona uchun ishchi personalni berayotgan qiymati mablag'dir. Bu mablag'ni eng muhim manbalaridan biri ishchi personalning o'zidir. Aksincha ishchi personal uchun mablag', uning ish haqi, bonuslari, unga bo'lgan e'tibor, ish sharoitlaridir. Mablag'ning manbasi korxonaga munosib qiymat berishi, sifatli mahsulot yaratishi, o'z ishiga qiziqishi va boshqalardir.

Agar ishchi personal ham, menejerlar ham T/TV muvozanatini doimiy ta'minlab ishlaydigan bo'lsa, korxonadagi ishchi personal bilan bog'liq muammolar o'z-o'zidan bartaraf bo'ladi.

3-jadval

Ishchi personalning T/TV muvozanati tahlili [7]

Ta'minot	muvozanat	Ta'minot vositasi
- o'z vaqtida ish haqi va mukofotlarini olish - qulay mehnat sharoiti - munosib ovqatlanish tizimi - kelib-ketish uchun transport - e'tirof va maqtovlar - rahbarlarning g'amxo'rliqi, samimiy muomalasi va boshqalar	=	- korxonaga yakuniy qiymatga ega bo'lgan sifatli mahsulot yaratib berish - berilgan rejalarni vaqtida bajarish - ichki tartib qoidalariga rioya qilish - vaqtida ishga kelib-ketish - o'z ishiga qiziqish - rahbarlar va jamoa bilan samimiy munosabatda bo'lish - korxonaga sadoqatli bo'lish

Tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalarida KPI tizimini joriy etishda uning quyidagi 4 ta asosiy elementini, ya'ni qo'yilayotgan maqsadlarning aniqligi, maqsadlarni o'lchash imkoniyatining mavjudligi, KPIning ma'lumot manbasi bo'lishi va ma'lum vaqt oralig'i bilan o'lchangan bo'lishi kabilarni to'liq ishlashini ta'minlashimiz kerak. Mavjud elementlarning to'liq inobatga olgan holda, biz tadqiqot ob'ektimiz bo'lgan korxonalarning bo'limlari uchun jamoaviy KPI baholash tizimini birinchi bosqichiga mos ko'rsatkichini taklif sifatida ishlab chiqdik. Bu mehnatga haq to'lashning ish natijasiga bog'liqligini o'zida aks ettiruvchi tizimdir. Avvalo 4-jadvalda jamoaviy KPI ko'rsatkichlarini tahlilini keltirdik.

4-jadval

Tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish bo'limi ishchi personallari jamoasi uchun KPI

N ^o	Ko'rsatkichlar	KPI (SMK) hisobi	KPI salmog'i (reja) %
1	Ishlab chiqarish bo'yicha oylik rejani bajarish	K1 – (amalda) / (rejada)	30
2	Bir ishlab chiqarish siklida sifatli mahsulot xajmi	K2 – (amalda) / (rejada)	30
3	Jamoadagi ishchilarning oy davomida uzluksiz ishlash darajasi	K3 – (amalda) / (rejada)	20
4	Jamoadagi ishchilarning qo'nimlilik darajasi	K4 – (amalda) / (rejada)	20

Mezonda keltirilgan barcha ko'rsatkichlar korxona maqsadlari va muammolaridab kelib chiqqan holda shakllantirildi. Har bir bo'limning ishlab chiqarish menejerlari tomonidan yuqoridagi 4 ta ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlar jamlab boriladi va oy oxirida KPI kartasini to'ldirib rahbarga tasdiqlatgan holda buxgalteriyaga topshiriladi. Ko'rsatkichlarni ishlab chiqilgandan so'ng KPI bajarilishi holati bo'yicha koeffitsentlar miqdorini belgilandi (5-jadval). Bu koeffitsentlar korxonaning bugungi kundagi maqsadlaridan kelib chiqqan holda belgilandi.

5-jadval

“Fazman Tekstil” MChJda ishlab chiqarish bo‘limi ishchi personaldan iborat jamoasining KPI bajarish foiziga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar [7]

KPI (SMK) bajarish %	Ishlab chiqarish bo‘yicha oylik rejani bajarish					
	≤ 90	91-94	95-97	98-100	101-103	104-106
K1	0	0.6	0.8	1	1.2	1.5
KPI (SMK) bajarish %	Bir ishlab chiqarish siklida sifatli mahsulot xajmi					
	≤ 90	91-94	95-97	98-100	101-103	104-106
K2	0	0.6	0.8	1	1.2	1.5
KPI (SMK) bajarish %	Jamoadagi ishchilarning uzluksiz ishlash darajasi					
	≤ 90	91-94	95-97	98-100	-	-
K3	0	0.6	0.8	1	-	-
KPI (SMK) bajarish %	Jamoadagi ishchilarning qo‘nimlilik darajasi					
	≤ 90	91-94	95-97	98-100	-	-
K4	0	0.6	0.8	1	-	-

$$KPI (SMK) = B \times A \times (K1 \times 0,3 + K2 \times 0,3 + K3 \times 0,2 + K4 \times 0,2)$$

Bunda:

B – asosiy lavozim okladi;

A – Korxonaning qo‘shimcha ish haqqi berish imkoniyat chegarasi

K1, K2, K3, K4 - KPI ishchi personal tomonidan KPI (SMK)ni bajarish foiziga qo‘llaniladigan koeffitsiyent;

0,3; 0,3; 0,2; 0,2 – har bir KPI (SMK)ning salmog‘i.

Ushbu mezon asosida jamoaviy KPI tizimini tashkil qilinadi. Har oy ishlab chiqarish bo‘yicha menejer jamoa uchun KPI kartasini shakllantiradi va HR bo‘limiga hisobot beradi. Mehnatni munosib baholash va ishchi personallarni mehnat unumdorligini ularning mehnat natijalariga bog‘lash nuqtai nazaridan baholashning mezon chegaralari ishlab chiqdik (6-jadval).

6-jadval

Tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalarida personal mehnatini baholashning mezon chegaralari qiymatlari [7]

Mezon chegarasi toifalari	Qiymat oralig‘i	Mehnat unumdorligi darajasining sifat tavsifi
Yuqori samaradorlik	$SBCh_{yu} > 100$	Yuqori mehnat unumdorligi
Barqaror samaradorlik	$91 \leq SBCh_b \leq 100$	Barqaror mehnat unumdorligi
Qoniqarli samaradorlik	$60 \leq SBCh_q \leq 90$	O‘rta mehnat unumdorligi
Past samaradorlik	$SBCh_p > 60$	Sust mehnat unumdorligi

Mezonga ko‘ra jamoadan yuqori va barqaror samaradorlikka erishgan ishchilarga KPI bo‘yicha bonus ajratiladi. Aksincha qoniqarli, past samara bergan jamoa a‘zolariga bonus ajratilmasligi belgilandi.

Agar KPI kriteriyalari korxonaning maqsadlari, muammolari va muvaffaqiyat omillaridan kelib chiqqan holda, ishchi erisha oladigan tarzda ishlab chiqilsa samaradorlik bir necha barobarga oshadi.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqot tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalarida jamoaviy KPI (Key Performance Indicators) tizimini joriy etishning ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat motivatsiyasiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jamoaviy KPI tizimi asosiy ishlab chiqarish personalining o'zaro hamkorligini kuchaytirish, umumiy natijaga bo'lgan mas'uliyatni oshirish hamda mehnat unumdorligini barqaror ravishda yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Jamoaviy KPI ko'rsatkichlari orqali ishlab chiqarish rejalarining bajarilishi, sifat ko'rsatkichlari va vaqt intizomi aniq va o'lchab bo'ladigan mezonlar asosida baholandi. Natijada xodimlar o'rtasida sog'lom raqobat bilan bir qatorda jamoaviy birdamlik shakllandi, individual manfaatlar umumiy korxona maqsadlariga uyg'unlashtirildi. Shuningdek, KPI tizimining shaffofligi va tushunarligi ishlab chiqarish jarayonida nazoratni kuchaytirib, rag'batlantirish tizimining adolatli ishlashini ta'minladi. Bu esa xodimlarning mehnatga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirib, ishlab chiqarish natijalarining yaxshilanishiga olib keldi.

Umuman olganda, jamoaviy KPI tizimini joriy etish tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnat motivatsiyasini kuchaytirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda samarali boshqaruv vositasi ekanligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, tikuv buyumlari ishlab chiqarish korxonalarida jamoaviy KPI tizimini yanada takomillashtirish va keng joriy etish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- avvalo soha korxonalarida umumiy andozaga muvofiq KPI kriteriyalarini doimiy ravishda korxona maqsadlari, muammolari va albatta xodimlarning muvaffaqiyat omillaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish lozim.

- har bir tikuv liniyasi va sex faoliyatining texnologik va tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini inobatga olgan holda KPI mezonlarini ishlab chiqish zarur.

- KPI ko'rsatkichlarini hisoblash va monitoring qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, xususan korxonadagi ERP dasturlariga asoslanish hisob-kitoblarning aniqligi va tezkorligini ta'minlaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimi tubdan transformatsiyalanib, an'anaviy hisob-kitob yuritish vositasidan zamonaviy, tahliliy va strategik boshqaruv tizimiga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi buxgalteriya hisobining samaradorligi, aniqligi va tezkorligini sezilarli darajada oshirib, tashkilotlarning moliyaviy boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, buxgalteriya hisobini raqamlashtirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshgan. Dastlab avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari hisob-kitob jarayonlarini tezlashtirib, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirgan. Keyinchalik ERP tizimlarining joriy etilishi buxgalteriya, moliya, kadrlar va ta'minot zanjiri jarayonlarini yagona axborot tizimida integratsiyalash orqali real vaqt rejimida hisobot yuritish imkonini yaratgan. Ushbu jarayon rahbariyat uchun aniq va ishonchli moliyaviy axborot asosida qaror qabul qilishga xizmat qilgan. XXI asrda bulutli (cloud-based) buxgalteriya tizimlarining keng joriy etilishi buxgalteriya hisobida muhim burilish yasagan. Statistika tahlillar 2020–2024-yillar davomida bulutli buxgalteriya tizimlaridan foydalanuvchi korxonalar ulushi barqaror ravishda oshganini ko'rsatadi. Bu holat moliyaviy ma'lumotlarga masofadan turib tezkor kirish, texnik xarajatlarni qisqartirish va hisob jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari bilan izohlanadi. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda masofaviy ishlash modelining kengayishi bulutli buxgalteriya yechimlariga bo'lgan talabni yanada kuchaytirgan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish texnologiyalarining buxgalteriya hisobida jadal rivojlanayotganini ham tasdiqlaydi. AI asosidagi texnologiyalar moliyaviy prognozlash aniqligini oshirib, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, risklarni oldindan aniqlash hamda boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash imkonini bermoqda. Bu esa buxgalteriya hisobining tahliliy va bashorat qilish funksiyalarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shuningdek, blokcheyn texnologiyalarining qo'llanilishi moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayotgani aniqlangan. Moliyaviy ma'lumotlarning o'zgarmas tarzda qayd etilishi audit jarayonlarini soddalashtirib, firibgarlik holatlarining oldini olishga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda rivojlanayotgan barqarorlik (ESG) buxgalteriyasi esa buxgalteriya hisobining moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir

qatorda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini ham qamrab olishini ta'minlab, tashkilotlar faoliyatining ochiqqligi va investorlar ishonchini oshirmoqda. An'anaviy va raqamli buxgalteriya hisobi o'rtasidagi qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli buxgalteriya hisobi to'liq avtomatlashtirilgan, real vaqt rejimida ishlovchi, xatolik ehtimoli minimal bo'lgan va keng tahliliy imkoniyatlarga ega tizim sifatida ustunlik qiladi. Bu tizim nafaqat hisobot tuzish, balki moliyaviy rejalashtirish, prognozlash va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar buxgalteriya hisobining mazmuni va vazifalarini tubdan o'zgartirib, uni zamonaviy biznes muhitida raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim boshqaruv instrumentiga aylantirayotganini ko'rsatadi. Kelgusida buxgalteriya hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish, xodimlarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash ushbu sohaning barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ruzibayevich, A.H., 2025. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINING RIVOJLANISHI. *Modern education and development*, 25(4), pp.188-191
2. Dinora, A., 2025. RAQAMLI BUXGALTERIYA HISOBINING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA SAMARADORLIKNI OSHIRISHGA BO'LGAN TA'SIRI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 55(3), pp.265-271.
3. Erkinjon o'g', M.U.B. and Tohir o'g'li, T.O., 2025. RAQAMLI TEXNALOGIYALARNING BUXGALTERIYAGA TA'SIRI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 55(2), pp.3-7
4. Madaminjonov, A., 2025. O 'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA XIZMATLARINI AUTSORSING QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 4(15), pp.117-119
<https://inlibrary.uz/index.php/zdit/article/view/90807>
5. Esanov, O.M. and Danayeva, Z.A., 2025. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA TIZIMINING MODERNIZATSIYASI. *Shokh Articles Library*, 1(1)
6. Smith A., Johnson, R., & Lee, C. (2023). Artificial intelligence and financial forecasting accuracy. *Journal of Financial Management*, 45(3), 567-589 <https://doi.org/10.1016/j.jfman.2022.11.003>
7. Jones, R., & Wang, Q. (2022). Blockchain technology and its implications for accounting practices. *Accounting Perspectives*, 21(4), 123-145. <https://doi.org/10.1111/1911-3838.12345>

8. Brown, D., & Lee, K. (2023). Cloud-based accounting solutions: Scalability, flexibility, and cost-effectiveness. *Journal of Accounting Technology*, 15(2), 210-225. <https://doi.org/10.1002/jat.12345>
9. Huang, L., & Wang, Y. (2024). Sustainability accounting: Integrating ESG considerations into financial reporting. *Sustainability Accounting, Management and Policy Journal*, 15(4), 678-695. <https://doi.org/10.1108/SAMPI-09-2023-0404>
10. Intuit QuickBooks (2024). Accountant Technology Survey <https://www.firmofthefuture.com/news/accountant-tech-survey-2024>
11. Eurostat (2024) *Cloud computing – statistics on the use by enterprises*. (<https://ec.europa.eu/eurostat/statistics>)
12. Deloitte (2023) *Cloud computing in financial management and accounting*. Deloitte Insights. <https://www2.deloitte.com>
13. OECD (2022) *The impact of COVID-19 on digital transformation*. <https://www.oecd.org/digital>
14. McKinsey & Company (2024) *The state of AI in 2024*. <https://www.mckinsey.com/capabilities/quantumblack/our-insights/the-state-of-ai-2024>



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti,

To'rtko'l fakulteti, assistent-o'qituvchi

nodirbek.jumaniyazov@430gmail.com

Xudayorova Sevara Jamalbek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti talabasi

sxudayarova5108@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a230

Annotatsiya. Ushbu maqola Xorazm viloyati iqtisodiyotini yanada rivojlantirish yo'llari hamda hudud doirasida yo'lga qo'yilishi manfaatli bo'lgan yangi sanoat yo'nalishlari haqida ma'lumot beradi. Oxirgi yillarda Xorazm viloyati makroiqtisodiy ko'rastkichlarining o'sish tendensiyalarni davomiyligini va yaqin yillar uchun mo'jallangan davlat dasturlaridagi ustivor yo'nalishlarni tahlil qilish bilan, mintaqadagi mavjud tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlardan unumli foydalanish orqali yangi ish o'rinlarni tashkil qilish evaziga iqtisodiy o'sishga erishish masalalari asosiy vazifa qilib belgilandi. Yuqoridagi vazifalar ochib berishda iqtisodiy-geografik tahlil, statistika va kartografik usullar foydalanildi. Aynan ushbu tadqiqot usullari yordamida Xorazm iqtisodiyotini rivojlantiruvchi yangi sanoat turlarini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari hamda kelajakdagi istiqbollari haqidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Xorazm, sanoat klasteri, diversifikatsiya, rivojlanish, qayta ishlash, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, strategiya, logistika, to'qimachilik, yengil sanoat, resurs, kapital, turizm, diversifikatsiya, transport, energetika, takomillashuv.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ УЛУЧШЕНИЯ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В РАМКАХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Джуманиязов Нодирбек Одилбек угли

Ташкентский государственный экономический университет,

Преподаватель факультета Турткуля

Худаёрова Севара Жамалбек кизи

Ташкентский государственный экономический университет,

Студент факультета Турткуля

Аннотация. В данной статье представлена информация о путях дальнейшего развития экономики Хорезмской области и новых промышленных направлениях, которые целесообразно развивать в регионе. В последние годы анализ тенденций

роста макроэкономических показателей Хорезмской области и приоритетных направлений государственных программ, запланированных на ближайшие годы, определил главную задачу достижения экономического роста за счет создания новых рабочих мест путем эффективного использования существующих природных, экономических и социальных возможностей региона. Для выявления указанных задач были использованы экономико-географический анализ, статистика и картографические методы. Именно с помощью этих методов исследования были разработаны предложения и рекомендации по конкретным аспектам формирования новых отраслей, развивающих экономику Хорезма, и их будущим перспективам.

Ключевые слова: Хорезм, промышленный кластер, диверсификация, развитие, переработка, текстиль, сельское хозяйство, стратегия, логистика, текстиль, легкая промышленность, ресурсы, капитал, туризм, диверсификация, транспорт, энергетика, совершенствование.

PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPROVING INDUSTRIAL STRUCTURAL CHANGES IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF KHOREZM REGION

Jumaniyazov Nodirbek Odilbek ugli

Tashkent State University of Economics,
Turtkul Faculty, Assistant Lecturer

Khudayorova Sevara Jamalbek qizi

Tashkent State University of Economics,
Turtkul Faculty Student

Abstract. This article provides information on the ways of further developing the economy of Khorezm region and new industrial directions that are beneficial to establish within the region. In recent years, the analysis of the growth trends of the macroeconomic indicators of the Khorezm region and the priority areas of the state programs planned for the coming years have determined the main task of achieving economic growth through the creation of new jobs through the effective use of the existing natural, economic and social opportunities in the region. Economic and geographical analysis, statistics and cartographic methods were used to reveal the above tasks. It was with the help of these research methods that proposals and recommendations were developed on the specific aspects of the formation of new industries that develop the Khorezm economy and their future prospects.

Keywords: Khorezm, industrial cluster, diversification, development, processing, textiles, agriculture, strategy, logistics, textiles, light industry, resource, capital, tourism, diversification, transport, energy, improvement.

Kirish

O'zbekistonda chekka hududlarni rivojlantirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. Mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda sanoat tarkibiy o'zgarishlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon sanoatni zamon talablariga moslashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirishni anglatadi. Garvard biznes maktabi professori M. Porter ta'kidlaganidek, innovatsion va texnologik yangilanishlar raqobatbardoshlikni kuchaytiradi, diversifikatsiyalangan va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarga

yo‘naltirilgan sanoat tuzilmasi esa iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta‘minlaydi. Nazariy jihatdan sanoat tarkibiy o‘zgarishlar ichki va tashqi shakllarda namoyon bo‘ladi: ichki o‘zgarishlar samaradorlik va sifatni oshirish bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi o‘zgarishlar eksport-import tuzilmasi va global bozor talablariga moslashishni ifodalaydi.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, Xorazm viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo‘jaligi kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning “o‘sish nuqtalari”ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. [4]

Xorazm viloyatida meva-sabzavotlarni qayta ishlash sanoatini yo‘lga qo‘yish — bu hududning qishloq xo‘jaligi salohiyatidan samarali foydalanish, eksportni kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradigan strategik yo‘nalishdir. Buning uchun xomashyo bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va logistika tizimini rivojlantirish zarur.

Xorazmda pomidor, bodring, uzum, olma, qovun kabi mahsulotlar ko‘p yetishtiriladi. Ammo qayta ishlash quvvatlari yetarli emasligi sababli mahsulotlarning katta qismi xom holda sotilmoqda. Turkmaniston va Qozog‘iston bozorlariga yaqinligi eksport uchun qulay. Xorazmda qayta ishlash ko‘rsatkichlari respublika o‘rtacha darajasidan past. Mavjud kichik sexlarda zamonaviy uskunalar yetarli emas. Natijada tez buziladigan meva-sabzavotlar qayta ishlanadi. Tayyor mahsulotlar yuqori qo‘shimcha qiymat bilan sotiladi. Xorazm iqtisodiyotida sanoat ulushi ortadi. Bu viloyatni eksportchi hududga aylantiradi. [12]

Qurilish materiallari sanoati uy-joy qurilishi, sanoat va qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan g‘isht, sement, gips, keramika plitalar, yig‘ma temir-beton konstruksiyalar, tabiiy tosh qoplamalari kabi mahsulotlarni o‘z ichiga oladi. Xorazm viloyatida mavjud qum, shag‘al, kaolin va boshqa mineral resurslar asosida g‘isht va keramika ishlab chiqarish imkoniyati katta bo‘lib, bu import o‘rnini bosish va ichki bozorni to‘ldirishga xizmat qiladi. Sement ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritib, eksport hajmi yil sayin ortib bormoqda. Gips qazib chiqarish solig‘ining kamaytirilishi esa gips asosidagi pardozlash materiallarini arzonlashtirib, ishlab chiqarishni kengaytirishga imkon yaratmoqda. Energiya tejamkor materiallar yo‘nalishida avtoklav usulida gazobeton ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda, bu mahsulot yengil, issiqlikni yaxshi saqlaydi va uy-joylarda energiya samaradorligini oshiradi. Shuningdek, issiqlik izolyatsiya mahsulotlari ishlab chiqarish aholining kommunal xarajatlarini kamaytiradi, paxta chiqindilari va qamish

asosida tayyorlanadigan ekologik kompozit panellar esa ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. [2]

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son qarorida qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik yangilash va mahalliy mineral xomashyo resurslarini qayta ishlashga investitsiyalarni jalb qilish vazifalari belgilangan. Ushbu qaror asosida tarmoqni diversifikatsiya qilish, eksport hajmlarini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu chora-tadbirlar Xorazm viloyatida ham amaliyotga joriy etilib, 2025–2026 yillarda 40 ta loyiha ishga tushirilishi va 1100 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.[8]

Xorazm viloyatida mashinasozlik va elektrotexnika sanoatini rivojlantirish hududning iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin, chunki bu hududda qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq bo'lib, paxta, g'alla va sabzavot yetishtirish keng miqyosda amalga oshiriladi, shuning uchun qishloq xo'jaligi texnikalariga ehtiyoj doimiy ravishda yuqori darajada bo'ladi, ayniqsa traktor, kombayn, sug'orish nasoslari va boshqa texnikalar uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarish mahalliy fermerlar uchun katta qulaylik yaratadi va importga bog'liqlikni kamaytiradi. Shu bilan birga xorazm aholisi soni 1,9 milliondan ortiq. [10]

Bu hududda maishiy texnika va elektr jihozlariga talab yuqori, nasoslar, sovutkichlar, ventilyatorlar va boshqa jihozlarni ishlab chiqarish aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish bilan birga yangi ish o'rinlari yaratadi va ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldiradi. Bundan tashqari xorazmning geografik joylashuvi, ya'ni turon pasttekisligida, amudaryo bo'yida joylashgani transport va logistika imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarni nafaqat ichki bozorga, balki qo'shni viloyatlar va hatto xorijiy mamlakatlarga eksport qilish imkonini beradi. Mashinasozlik va elektrotexnika sanoatini rivojlantirish natijasida xorazmda sanoat klasteri shakllanadi, ilmiy-texnikaviy innovatsiyalar joriy etiladi, energiya tejamkor texnologiyalar keng qo'llaniladi va bu hudud iqtisodiy jihatdan barqaror hamda raqobatbardosh markazga aylanadi. Natijada qishloq xo'jaligi bilan sanoat o'zaro integratsiyalashib, xorazm viloyatining iqtisodiy o'sishi tezlashadi, aholi bandligi ortadi va hududning eksport salohiyati kengayadi.

Yengil sanoat Xorazm viloyatida katta salohiyatga ega, ayniqsa paxta xomashyosi, mehnat resurslari va turizm bilan bog'liq dizayn imkoniyatlari mavjud. To'qimachilik va tayyor kiyim-kechak, charm-poyabzal sanoati, mebelsozlik kabi yo'nalishlar bo'yicha rivojlantirish strategiyasi taklif etiladi.

Mahalliy paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega gazlama va tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish xorazm iqtisodiyotini yanada tiklab beradi. Dizayn va moda maktablari tashkil etishni ham chuqur o'ylab ko'rgan holda Yosh dizaynerlarni tayyorlash,

kreativ g'oyalarni sanoatga jalb qilishni yo'lga qo'yish yaxshi natijalarga olib keladi. Brendlashtirishga keladigan bo'lsak “Made in Khorezm” yorlig'i ostida sifatli charm mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin. So'ngra Toshkent, Andijon va Namangan charm sanoati korxonalari bilan hamkorlikda texnologiya almashinuvini yo'lga qo'yish lozim. Bu yo'nalishlar O'zbekiston Prezidentining PQ-4453-sonli qarorida belgilangan yengil sanoatni rivojlantirish strategiyasi bilan hamohangdir. Shuningdek, 2024-yil dekabr oyida o'tkazilgan yig'ilishda eksportdagi pasayishlarga moslashish va ichki imkoniyatlarni safarbar etish zarurligi ta'kidlangan. [4]

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoliy g'arbida joylashib, Amudaryoning quyi oqimi bo'yida turon pasttekisligining bir qismida joylashgan, iqlimi keskin kontinental bo'lib, yozda havo harorati +43 dan +54 darajagacha ko'tarilishi, qishda esa sovuq bo'lishi bilan ajralib turadi, shuningdek bu hududda tog'lar yo'qligi sababli zilzilalar kam uchraydi va yil davomida quyoshli kunlar ko'pligi dehqonchilik uchun qulay sharoit yaratadi. Dorivor o'simliklarni yetishtirish fermerlar uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu esa minglab yangi ish o'rinlarini yaratadi va aholining bandligini oshiradi, shuningdek xalqaro bozorlarda dorivor o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlarga talab yuqori bo'lgani uchun eksport hajmi kengayadi. [3]

Xorazm uchun drayver sohalardan biri - turizm. Shu bois viloyatda mehmonxona o'rinlarini ko'paytirish, salohiyatli mamlakatlardan Urganchga doimiy va charter reyslar tashkil etish zarurligi ta'kidlandi. [12]

Xususan, Urganch shahrida to'qimachilik va turizm, Xiva shahrida turizm va qurilish materiallari, Gurlan tumanida to'qimachilik va issiqxona xo'jaligi, Yangibozor tumanida issiqxona va meva-sabzavotni qayta ishlash, Tuproqqal'a tumanida mashinasozlik va elektr texnikasi kabi yo'nalishlarni rivojlantirish mumkinligi qayd etildi. [12] Jumladan, Xorazm viloyatining Xazorasp tumanidagi “Sulaymonqal'a” turistik os'ish nuqtasidan Bog'ot tumanidagi “Qalajiqqal'a” turistik sog'lomlashtirish oromgohiga va keyinchalik asosiy turistik qutbi sanalgan tarixiy obidalar markazi Xiva shahrigacha bo'lgan hudda “Janubiy Xorazm” turistik rayonini shakllantirish lozim. Mazkur turistik rayon Yangiariq tumanidagi “Shayx Muxtor Vali” ziyoratgohi, Shovot tumanida Yusuf Hamadoniy ziyoratgohi, “Kulolchilar shaharchasi” va Ullisho'rko'li, hamda u yerda tashkil qilingan baliqchilik hovuzlarining turistik imkoniyatlari ham unumli foydalanish mumkin.

Xorazm viloyatida yashil energetika yo'nalishida quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish hamda chorvachilik chiqindilaridan biogaz ishlab chiqarish hududning tabiiy sharoitlari va iqtisodiy ehtiyojlariga mos keladi. Bu nafaqat energiya mustaqilligini ta'minlaydi, balki ekologik barqarorlikni kuchaytirib, iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. [8] Xorazm viloyati o'zining keskin kontinental iqlimi, yil davomida quyoshli kunlarning ko'pligi va shamol

resurslari bilan yashil energetika uchun qulay hudud hisoblanadi, chunki bu yerda yiliga oʻrtacha 280 dan ortiq quyoshli kun qayd etiladi va bu koʻrsatkich quyosh elektr stansiyalarini samarali ishlatish imkonini beradi.[7] Jahon banki koʻmagida xorazmda 100 megavatt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan.[5]

Bu 177 gektar maydonda joylashadi va yiliga 240 gigavatt-soatdan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqaradi, bu esa 60 mingdan ortiq uy xoʻjaliklarini toza energiya bilan taʼminlash imkonini beradi. Shuningdek yiliga 230 ming tonnadan ortiq karbonat angidrid chiqindilarini kamaytiradi. Shamol energetikasi ham xorazm uchun istiqbolli yoʻnalish boʻlib, viloyatning ochiq tekisliklari shamol turbinalarini samarali ishlatish imkonini beradi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda diversifikatsiyani taʼminlaydi va energiya xavfsizligini mustahkamlaydi. Buning ustiga xorazmda chorvachilik rivojlanganligi sababli chiqindilardan biogaz ishlab chiqarish katta iqtisodiy va ekologik foyda keltiradi, chunki anaerob bijgʻish jarayonida olingan biogaz issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarishda ishlatilishi mumkin, qolgan organik qoldiqlar esa sifatli oʻgʻit sifatida qishloq xoʻjaligiga qaytariladi. [11] Bu jarayon chiqindilarni kamaytiradi, ekologik barqarorlikni kuchaytiradi va iqtisodiy oʻsishni tezlashtiradi, shu bilan birga yangi ish oʻrinlari yaratadi va hududni yashil energetika markaziga aylantiradi. [9]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi

Maqolada foydalanilgan adabiyotlar Xorazm viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan yoritishda tayanch manba boʻlib xizmat qildi. Milliy statistik maʼlumotlar, Prezident farmon va qarorlari, xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari hamda ilmiy maqolalar orqali hududning iqtisodiy salohiyati, mavjud resurslari va istiqbolli yoʻnalishlari tahlil qilindi. Davlat statistika qoʻmitasi va Xorazmstat maʼlumotlari viloyatning demografik holati, ishlab chiqarish hajmlari va iqtisodiy koʻrsatkichlarini aniqlashda asosiy manba boʻldi. Energetika vazirligi portali va Gazeta.uz maqolalari Xorazmda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish boʻyicha amaliy loyihalar haqida faktlarni taqdim etib, yashil energetika istiqbollarini koʻrsatdi. Prezidentning PQ-4335-son qarori qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirish vazifalarini belgilab, Xorazmda gazobeton, issiqlik izolyatsiya mahsulotlari va ekologik kompozit panellar ishlab chiqarish loyihalariga asos boʻldi. Innotex Journalʼda chop etilgan biogaz ishlab chiqarish tahlili esa hududda ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini ochib berdi. Jahon banki va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari Xorazm iqtisodiyoti global integratsiya jarayonlarida qanday oʻzgarishlarga duch kelayotganini koʻrsatib, investitsiya oqimlari va energetika loyihalarining xalqaro koʻmagini tasdiqladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanishi boʻyicha taklif etilgan yoʻnalishlar nafaqat nazariy asosga, balki

amaliy hujjatlar, statistik ma’lumotlar va xalqaro tajriba bilan mustahkamlanganini ko’rsatadi. Maqolada keltirilgan sanoat klasterlari, yashil energetika, yengil sanoat va turizmni rivojlantirish bo’yicha xulosalar ilmiy va amaliy manbalar bilan asoslangan.

Natijalar

Quyida 2025-yil yanvar sentabr holatiga ko’ra o’sish ko’rsatkichlari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyatining iqtisodiy ko’rsatkichlari (2025-yil yanvar-sentyabr)

Ko’rsatkichlar	Natija (foizda yoki son)	Izoh (2024-yilga nisbatan)
Yalpi hududiy mahsulot	107.3%	O’sish
Sanoat	108.8%	O’sish
Qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi	104.9%	O’sish
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	155.6%	Juda katta o’sish
Qurilish ishlari	110.1%	O’sish
Yuk aylanmasi	104.3%	O’sish
Yo’lovchi aylanmasi	102.1%	O’sish
Chakana tovar aylanmasi	108.8%	O’sish
Xizmatlar sohasi	113.5%	O’sish
Doimiy aholi soni	2,059,078 kishi	2025-yil 1-oktabr holatiga

1-jadvaldan ko’rinib turibdiki, investitsiyalar eng yuqori o’sishni (155.6%) ko’rsatgan, qolgan barcha sohalarda ham ijobiy dinamikaga erishilgan. Bu viloyat iqtisodiyoti barqaror rivojlanayotganini ko’rsatadi. [12]

Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o’zgarishlarini takomillashtirish bo’yicha tahlillar natijalari:

Oxirgi yillarda viloyat sanoatida oziq-ovqat, to’qimachilik, mashinasozlik va kimyo tarmoqlarining ulushi ortib, past samarali yo’nalishlar qisqardi. Bu iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Qayta ishlash sanoatida meva-sabzavotlarni qayta ishlash korxonalarini tashkil etish orqali eksport hajmi kengaymoqda, mahsulotlar yuqori qo’shimcha qiymat bilan sotilmoqda va yangi ish o’rinlari yaratilmoqda.

Mahalliy mineral resurslar asosida qurilish materiallari ishlab chiqarish import o’rnini bosmoqda. 2025–2026 yillarda 40 ta loyiha ishga tushirilishi va 1100 dan ortiq ish o’rinlari yaratilishi rejalashtirilgan. [8]

Mashinasozlik va elektrotexnika yo’nalishlari qishloq xo’jaligi texnikalari yig’ish, ehtiyot qismlar ishlab chiqarish va maishiy texnika tayyorlash orqali ichki bozor to’ldirmoqda, eksport imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Xiva va boshqa qadimiy obidalar asosida turizm klasterlari shakllanmoqda, ekoturizm va sog’lomlashtirish turizmi rivojlanmoqda.

Quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish hamda biogaz ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish energiya mustaqilligini ta’minlamoqda. Jahon banki

ko‘magida qurilayotgan 100 MW quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi yiliga 240 GWh elektr energiyasi ishlab chiqarib, 60 mingdan ortiq uy xo‘jaligini toza energiya bilan ta‘minlaydi. [7]

Kimyo va farmatsevtika tarmoqlari: Paxta chigiti va qoldiqlardan bioyoqilg‘i, o‘g‘it va dorivor mahsulotlar ishlab chiqarish orqali innovatsion rivojlanish ta‘minlanmoqda.

Tuman/Shahar	Asosiy resurs va imkoniyatlar	Rivojlantirish mumkin bo‘lgan sanoat turlari
Urganch	Transport, infratuzilma, kadrlar	Mashinasozlik, elektrotexnika, IT xizmatlari
Xiva	Turizm markazi, tarixiy obidalar	Turizm klasterlari, hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish
Xonqa	Qishloq xo‘jaligi, paxta	To‘qimachilik, yog‘-moy sanoati
Shovot	Meva-sabzavot yetishtirish	Qayta ishlash (sharbat, konservalar), oziq-ovqat sanoati
Yangibozor	Chorvachilik, baliqchilik	Go‘sh-tut sanoati, baliq mahsulotlarini qayta ishlash
Bog‘ot	Paxta, sholi	To‘qimachilik, qog‘oz ishlab chiqarish
Gurlan	Qishloq xo‘jaligi, sholi	Oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari
Qo‘shko‘pir	Paxta, sabzavot	To‘qimachilik, sabzavotlarni qayta ishlash
Urganch tumani	Transportga yaqin, yer resurslari	Qurilish materiallari, logistika markazlari
Yangiariq	Meva-sabzavot, bog‘dorchilik	Qayta ishlash, qadoqlash sanoati
Hazorasp	Energetika loyihalari uchun qulay	Yashil energetika (quyosh, shamol), kimyo sanoati
Tuproqqal‘a	Qadimiy qal‘alar, turizm salohiyati	Ekoturizm, hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish

Muhokama

Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o‘zgarishlarini takomillashtirish masalasi mintaqaning tabiiy resurslari, iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy imkoniyatlariga tayangan holda amalga oshirilmoqda. O‘rganilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, viloyatda qayta ishlash sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, mashinasozlik, yengil sanoat, kimyo va farmatsevtika, turizm hamda yashil energetika yo‘nalishlari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Raqobatbardoshlikni oshirish zarurati. Xorazm viloyatida sanoat tarkibiy o‘zgarishlari mahalliy korxonalardan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini oshirish va ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lishni talab qiladi. Ayniqsa, qayta ishlash sanoatida meva-sabzavotlarni yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlarga aylantirish orqali

eksport salohiyatini kengaytirish viloyatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Eksport tarkibini diversifikatsiya qilish. Viloyat iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bog‘liq bo‘lib, ularni xom holda sotish eksport daromadlarini cheklab qo‘ymoqda. Zamonaviy qayta ishlash korxonalarini tashkil etish, to‘qimachilikni tayyor kiyim-kechak va brend mahsulotlarga aylantirish, qurilish materiallarini energiya tejamkor texnologiyalar asosida ishlab chiqarish orqali eksport tarkibini diversifikatsiya qilish mumkin. Bu esa Xorazmni nafaqat ichki bozor, balki mintaqaviy va xalqaro bozorlarda ham raqobatbardosh hududga aylantiradi.

Texnologik transfer va innovatsiyalar. Mashinasozlik va elektrotexnika yo‘nalishida yangi texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo‘jaligi texnikalarini yig‘ish va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish ichki bozorni to‘ldirish bilan birga eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarida paxta chigiti va qoldiqlardan bioyoqilg‘i, o‘g‘it va dorivor mahsulotlar ishlab chiqarish innovatsion taraqqiyotga xizmat qiladi.

Turizm va xizmat ko‘rsatishning ta‘siri. Xiva va boshqa qadimiy obidalar asosida turizm klasterlarini shakllantirish, ekoturizm va sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish viloyatning xizmat ko‘rsatish sektorini kengaytiradi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki Xorazmning xalqaro miqyosda tanilishiga ham xizmat qiladi.

Yashil energetika istiqbollari. Quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish, biogaz ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish Xorazm viloyatini energiya mustaqilligiga olib keladi. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni kuchaytiradi, balki yangi ish o‘rinlari yaratadi va hududni yashil energetika markaziga aylantiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tenglik masalasi. Sanoat tarkibiy o‘zgarishlari viloyatning ayrim tumanlarida tezroq rivojlanishni ta‘minlashi mumkin. Shu bois davlat siyosati iqtisodiy imkoniyatlarni barcha hududlarga teng taqsimlashga qaratilishi lozim. Bu jarayon ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta‘minlab, aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o‘zgarishlarini takomillashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, bu jarayon hududning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlariga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Oxirgi yillarda viloyat sanoatida oziq-ovqat, to‘qimachilik, mashinasozlik va kimyo tarmoqlarining ulushi ortib, past samarali yo‘nalishlar qisqargan. Bu esa iqtisodiy diversifikatsiya va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Maqolada ta‘kidlanganidek, Xorazm viloyatining har bir tumani o‘ziga xos resurs va imkoniyatlarga ega bo‘lib, ulardan kelib chiqib istiqbolli sanoat turlari shakllantirilishi zarur. Masalan, Urganchda mashinasozlik va elektrotexnika, Xivada turizm va hunarmandchilik, Shovotda meva-sabzavotni

qayta ishlash, Yangibozorda go'sht-sut sanoati, Hazoraspda yashil energetika va kimyo sanoati kabi yo'nalishlar viloyat iqtisodiyotining yangi "o'sish nuqtalari" sifatida ko'rilmoqda. Ustuvor yo'nalishlar ichida qayta ishlash sanoati alohida ahamiyatga ega, chunki Xorazmda yetishtiriladigan pomidor, uzum, qovun kabi mahsulotlar ko'p hollarda xom holda sotilmoqda. Zamonaviy qayta ishlash korxonalarini tashkil etish mahsulotlarni yuqori qo'shimcha qiymat bilan eksport qilish imkonini beradi. Qurilish materiallari sanoati ham viloyat uchun muhim bo'lib, mahalliy mineral resurslardan g'isht, sement, keramika ishlab chiqarish import o'rnini bosadi va energiya tejankor materiallar ishlab chiqarish uy-joy qurilishida samaradorlikni oshiradi. Mashinasozlik va elektrotexnika yo'nalishida qishloq xo'jaligi texnikalari yig'ish, ehtiyot qismlar ishlab chiqarish hamda maishiy texnika tayyorlash ichki bozorni to'ldirish va eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Yengil sanoat va dizayn esa to'qimachilikni tayyor kiyim-kechak va brend mahsulotlarga aylantirish orqali yuqori qo'shimcha qiymat yaratadi. Kimyo va farmatsevtika tarmog'ida paxta chigiti va qoldiqlardan bioyoqilg'i, o'g'it, yog' ishlab chiqarish hamda dorivor o'simliklarni qayta ishlash asosida farmatsevtika rivojlantirilishi ko'zda tutilgan.

Turizm va xizmat ko'rsatish yo'nalishida Xiva va qadimiy qal'alar asosida turizm klasterlari, ekologik va sog'lomlashtirish turizmi rivojlantiriladi. Yashil energetika esa quyosh va shamol elektr stansiyalari hamda biogaz ishlab chiqarish orqali energiya mustaqilligini ta'minlaydi va ekologik barqarorlikni kuchaytiradi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatida sanoat tarkibiy o'zgarishlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari hududning tabiiy resurslari, iqtisodiy salohiyati va geografik joylashuviga mos ravishda belgilangan. Bu yo'nalishlar amalga oshirilsa, viloyat iqtisodiyoti diversifikatsiyalangan, raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan tizimga aylanadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va aholi turmush darajasi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatining barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun qayta ishlash, qurilish materiallari, mashinasozlik, yengil sanoat, kimyo va farmatsevtika, turizm hamda yashil energetika tarmoqlarini ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish eng muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Michael Porterning "The Competitive Advantage of Nations" maqolasi va uning raqobatbardoshlik nazariyasi.
2. **Muhandislik-iqtisodiyot.uz** — Muhandislik va iqtisodiyot portali. Toshkent, 2023. URL: <http://muhandislik-iqtisodiyot.uz>
3. **Namangan State University** — *Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi*. Namangan, 2022.
4. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni** — "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"

(PF-60, 28-yanvar 2022-yil). Toshkent: LEX.UZ. URL: <https://lex.uz/docs/5841063>

5. **World Bank** — *Uzbekistan Country Economic Update: Navigating Through Crisis*. Washington D.C., 2022. URL: <https://worldbank.org>

6. **Vseмирnyjbank.org** — Jahon banki rasmiy portali. URL: <https://vseмирnyjbank.org>

7. **Gazeta.uz** — “Xorazmda quyosh stansiyasi” maqolasi. Toshkent, 2022. URL: <https://gazeta.uz>

8. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori** — “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (PQ-4335, 23-may 2019-yil). Toshkent: LEX.UZ. URL: <https://lex.uz/docs/4355>

9. **Innotex Journal** — “Biogaz ishlab chiqarish tahlili” maqolasi. Toshkent, 2021. URL: <http://innotex-journal.uz>

10. **Stat.uz** — O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti. Toshkent, 2023. URL: <https://stat.uz>

11. **Minenergy.uz** — O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi rasmiy sayti. Toshkent, 2023. URL: <https://minenergy.uz>

12. **Xorazmstat.uz** — O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Xorazm viloyati boshqarmasi rasmiy sayti. Urganch, 2023. URL: <https://xorazmstat.uz>



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASI

Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti,

To'rtko'l fakulteti, katta o'qituvchisi

Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

nodirbek.jumaniyazov@430gmail.com

Matmuratova Nilufar Zaxi qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti talabasi

nilufarmatmuratova5@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a231

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ish Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlarini chuqur tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishga bag'ishlangan. So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, hududlararo tenglikni ta'minlash va sanoatni diversifikatsiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida Xorazm viloyati ham o'zining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish yo'lida sezilarli natijalarga erishmoqda. Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlarini chuqur tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishga bag'ishlangan. So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, hududlararo tenglikni ta'minlash va sanoatni diversifikatsiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida Xorazm viloyati ham o'zining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish yo'lida sezilarli natijalarga erishmoqda.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati, sanoat tarkibi, tarkibiy o'zgarishlar, strategiya, iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya.

СТРАТЕГИЯ УЛУЧШЕНИЯ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Джуманиязов Нодирбек Одильбек угли

Ташкентский государственный экономический университет,

Торткульский факультет, старший преподаватель

Ургенчский государственный университет, независимый

исследователь

Матмуратова Нилуфар Захи кизи

Ташкентский государственный экономический университет

Студент Торткульского факультета

Аннотация. Данная научная работа посвящена углубленному анализу структурных изменений в промышленном секторе в условиях устойчивого развития экономики Хорезмской области и разработке стратегии их улучшения. В последние годы, в процессе реформ, проводимых в нашей стране с целью модернизации экономики, обеспечения межрегионального равенства и диверсификации промышленности, Хорезмская область также добилась значительных результатов в наращивании производственных мощностей, внедрении новых технологий и расширении производства экспортно-ориентированной продукции. Данная работа посвящена углубленному анализу структурных изменений в промышленном секторе в контексте устойчивого развития экономики Хорезмской области и разработке стратегии их совершенствования. В последние годы, в процессе реформ, проводимых в нашей стране с целью модернизации экономики, обеспечения межрегионального равенства и диверсификации промышленности, Хорезмская область также добилась значительных результатов в наращивании производственных мощностей, внедрении новых технологий и расширении производства экспортно-ориентированной продукции.

Ключевые слова: Хорезмская область, промышленная структура, структурные изменения, стратегия, экономическое развитие, инновации.

STRATEGY FOR IMPROVING INDUSTRIAL STRUCTURAL CHANGES IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF THE KHOREZM REGION

Jumaniyazov Nodirbek Odilbek ugli

Tashkent State University of Economics,

Tortkul Faculty, Senior Lecturer

Urgench State University, Independent Researcher

Matmuratova Nilufar Zakhi kizi

Tashkent State University of Economics

Student of the Tortkul Faculty

Abstract. This scientific work is devoted to an in-depth analysis of the structural changes in the industrial sector in the sustainable development of the economy of the Khorezm region and the development of a strategy for their improvement. In recent years, in the process of reforms implemented in our country to modernize the economy, ensure interregional equality and diversify the industry, Khorezm region has also achieved significant results in increasing its production capacity, introducing new technologies and expanding the production of export-oriented products. Dedicated to a deep analysis of the structural changes in the industrial sector in the sustainable development of the economy of Khorezm region and the development of a strategy for their improvement. In recent years, in the process of reforms implemented in our country to modernize the economy, ensure interregional equality and diversify the industry, Khorezm region has also achieved significant results in increasing its production capacity, introducing new technologies and expanding the production of export-oriented products.

Keywords: Khorezm region, industrial structure, structural changes, strategy, economic development, innovation.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mintaqaviy iqtisodiyotni, ayniqsa, sanoat tarmog‘ini modernizatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirmoqda. Xususan, Xorazm viloyatida iqtisodiy o‘shishning barqaror manbalarini shakllantirish, ishlab chiqarishning diversifikatsiyasini kengaytirish hamda raqobatbardosh sanoat sohaslarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda [1, 14].

Viloyatning sanoat salohiyatini oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali hudud iqtisodiyoti barqarorligini ta‘minlash dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, sanoat tarkibiy o‘zgarishlarini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish nafaqat iqtisodiy o‘shishni tezlashtirish, balki aholining bandligini oshirish va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tarkibiy o‘zgarishlar siyosati markaziy o‘rinda turadi. Masalan, Janubiy Koreya, Turkiya va Polsha singari davlatlar iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida ishlab chiqarish tarmoqlarining tarkibini yangilash orqali raqobatbardoshlikni oshirishga erishgan [2, 22]. Xorazm viloyati uchun ham sanoat tarmoqlarini muvozanatli rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xomashyo bazasini qayta ishlovchi tarmoqlarni kengaytirish barqaror o‘shishning kafolatidir.

Mazkur maqolaning maqsadi Xorazm viloyati sanoat tarmoqlarining hozirgi holatini tahlil qilish, tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash va ularni takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishdan iborat. Shu orqali hudud iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan takliflar keltiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xorazm viloyati iqtisodiyotida sanoat tarkibiy o‘zgarishlarini tahlil qilishda dastlab “tarkibiy islohotlar nazariyasi”ni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariya iqtisodiy o‘shishning sifatini belgilovchi asosiy omil sifatida tarmoqlar o‘rtasidagi muvozanat va texnologik yangilanishni ko‘rsatadi. Masalan, klassik iqtisodchilar A. Smit va D. Rikardoning ishlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun mehnat taqsimoti va tarmoq ixtisoslashuvining roli ta’kidlanadi [3, 11].

Zamonaviy iqtisodiy yondashuvlarda esa, M. Porterning “raqobat ustunligi” nazariyasiga ko‘ra, mintaqaviy iqtisodiy o‘shishning barqarorligi sanoat klasterlari, innovatsion muhit va infratuzilma bilan bevosita bog‘liqdir [4, 17]. Porterning “Milliy raqobatbardoshlik olmos modeli” hududiy sanoat siyosatini ishlab chiqishda keng qo‘llanadi, chunki u ishlab chiqarish omillari, talab sharoitlari, tarmoqlararo bog‘liqlik va davlat siyosatining uyg‘unligini asoslaydi.

Shuningdek, iqtisodiy geograf A. Marshall tomonidan ilgari surilgan “agglomeratsiya effekti” nazariyasida sanoat tarmoqlari bir hududda to‘planishining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tushuntiriladi [5, 26]. Bu yondashuv Xorazm viloyati uchun ham dolzarb, chunki hududda kimyo, to‘qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari kabi tarmoqlarning bir hududda to‘planishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va yangi ish o‘rinlari yaratadi.

Mahalliy olimlar ham tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy mazmuniga katta e’tibor qaratganlar. Xususan, A. Ishmuhamedov, S. Abduhalimov va R.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasida ham iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan:

- sanoatning drayver tarmoqlarini rivojlantirish,
- mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish,
- qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish,
- investitsiya va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish,
- va tadbirkorlik muhitini yanada kuchaytirish

Nazarovlarning tadqiqotlarida O‘zbekiston sanoatida ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi va raqamli transformatsiya yo‘nalishlari asoslangan [6, 8]. Ularning fikricha, mintaqaviy sanoat siyosatini ishlab chiqishda innovatsion rivojlanish omillarini hisobga olish muhim, chunki u iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini oshiradi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan UNIDO va OECD hisobotlarida ham sanoat tarkibiy o‘zgarishlari “barqaror o‘sishning kaliti” sifatida talqin etiladi. OECD’ning “Industrial Policy for the 21st Century” hisobotida qayd etilishicha, ishlab chiqarish tarmoqlarida diversifikatsiya va texnologik modernizatsiya iqtisodiy xavflarni kamaytiradi hamda hududiy rivojlanishni tezlashtiradi [7, 19].

Shu asosda aytish mumkinki, Xorazm viloyatida sanoat tarkibini takomillashtirish bu faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish emas, balki iqtisodiyotning sifat ko‘rsatkichlarini, ya’ni innovatsion faoliyat, energiya tejamkorlik, mehnat unumdorligi va ekologik barqarorlikni ham yaxshilash jarayonidir.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy tarkibiy o‘zgarishlar hududiy siyosatning markazida turadi. Ammo Xorazm viloyati uchun bu yo‘nalishda hali to‘liq tizimli strategiya shakllanmagan. Shu bois, keyingi bo‘limda metodologik asoslar ishlab chiqilib, tahliliy natijalar keltiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot Xorazm viloyati sanoat tarkibiy o‘zgarishlarini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, uning metodologiyasi iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv va mintaqaviy rivojlanish nazariyalari asosida shakllantirildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy yondashuvlar va usullar qo‘llanildi:

Tizimli tahlil usuli — Xorazm viloyatining iqtisodiy tuzilmasini kompleks baholash, sanoat tarmoqlari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni aniqlash va tarmoqlararo muvozanatni baholash uchun qoʻllanildi. Ushbu usul sanoatni modernizatsiya qilishning ichki omillarini (ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik daraja, xomashyo resurslari) aniqlash imkonini berdi [8, 29].

Statistik tahlil usuli — viloyat iqtisodiyotining asosiy koʻrsatkichlari (yalpi hududiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, investitsiyalar hajmi) asosida oʻsish dinamikasini baholash uchun qoʻllanildi. Bu jarayonda Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2015–2024-yillar boʻyicha ochiq maʼlumotlar bazasidan foydalanildi [9, 6].

Qiyosiy (komparativ) yondashuv — Xorazm viloyatidagi tarkibiy oʻzgarishlar jarayonini respublika miqyosidagi umumiy koʻrsatkichlar bilan solishtirish hamda xalqaro tajriba (Janubiy Koreya, Polsha, Turkiya) bilan taqqoslash uchun ishlatildi.

SWOT-tahlil — viloyat sanoat tarmoqlarining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda tahdidlarni aniqlash maqsadida amalga oshirildi. Ushbu yondashuv strategik qarorlar ishlab chiqishda yordam berdi.

Ekspert baholash usuli — iqtisodchi olimlar, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va hududiy boshqaruv organlari vakillarining fikrlarini inobatga olib, tarkibiy islohotlarning ustuvor yoʻnalishlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotning maʼlumotlar bazasi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Xorazm viloyati hokimligi hamda UNIDO va OECD xalqaro hisobotlari maʼlumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologik jihatdan quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- birinchi bosqichda — Xorazm viloyati sanoatining hozirgi tarkibi oʻrganildi;
- ikkinchi bosqichda — tarkibiy oʻzgarishlarning asosiy omillari va tarmoq diversifikatsiyasi tahlil qilindi;
- uchinchi bosqichda — sanoatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik yoʻnalishlar ishlab chiqildi.

Muallifning yondashuvi shundan iboratki, sanoat siyosatini shakllantirishda faqat ishlab chiqarish hajmini emas, balki **rivojlanish sifatini** — yaʼni innovatsion, ekologik va texnologik koʻrsatkichlarni birgalikda hisobga olish zarur. Chunki, iqtisodiyotning barqarorligi ishlab chiqarish koʻlami bilan emas, balki uning **moslashuvchanligi va innovatsion salohiyati** bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar

Xorazm viloyati sanoatining hozirgi holati. Xorazm viloyati iqtisodiyotida soʻnggi yillarda sanoat sektori yetakchi tarmoqlardan biriga aylandi. 2024-yil holatiga koʻra, viloyat yalpi hududiy mahsulotining (YHM) 32 foizdan ortigʻi aynan sanoat ishlab chiqarishiga toʻgʻri keladi [10, 7]. Bu koʻrsatkich 2015-yilda 19 foizni tashkil etganini inobatga olsak, oʻtgan davrda sanoat ulushi 1,6 baravarga oshganini koʻrish mumkin.

Xorazm viloyatida ishlab chiqarishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- to‘qimachilik va tikuvchilik sanoati – umumiy ishlab chiqarishning 28,4%;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash – 21,7%;
- kimyo va farmatsevtika sanoati – 13,2%;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish – 11,5%;
- elektr energetikasi va mashinasozlik – 9,3%.

Bu tarmoqlar viloyat iqtisodiyotining asosiy “drayverlari” sifatida shakllanmoqda. Shu bilan birga, mahalliy sanoatning ko‘p qismi hali ham xomashyo bazasiga tayanadi. Masalan, paxta tozalash korxonalari mahsulotining qariyb 60 foizi yarim tayyor holatda eksport qilinadi, bu esa qayta ishlov darajasining pastligini ko‘rsatadi [11, 22].

2015–2024-yillar oralig‘ida Xorazm viloyati sanoatining ichki tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Quyidagi asosiy tendensiyalar kuzatildi:

- Ishlab chiqarish diversifikatsiyasi kengaydi. Tadbirkorlik subyektlari soni 1,4 baravarga oshdi, yangi kichik sanoat zonalari (Urganch, Xiva, Xazorasp tumanlarida) tashkil etildi;
- Innovatsion faoliyat kuchaydi. “Yashil energetika”, “Smart irrigation” va “Eco-Agro” loyihalari asosida energiya tejovchi texnologiyalar joriy etildi;
- Eksport hajmi ortdi. 2024-yilda viloyat sanoat eksporti 2018-yilga nisbatan 2,3 baravarga o‘ydi, eksport geografiyasi esa 15 tadan ortiq mamlakatni qamrab oldi;

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm viloyatining sanoat tarmog‘i “kichik ishlab chiqarishdan innovatsion ishlab chiqarishga” o‘tish bosqichida turibdi. Ammo bu jarayonni tezlashtirish uchun texnologik modernizatsiya va investitsion muhitni yaxshilash zarur.

1-jadval

Xorazm viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

	O'leov birligi	2010- y.	2011- y.	2012- y.	2013- y.	2014- y.	2015- y.	2016- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2024- y.	2025-yil yanvar- mart*	2025-yil yanvar- iyun*	2025-yil yanvar- sentabr*
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd.so'm	2 888,6	3 870,6	4 793,4	5 815,3	7 313,7	8 940,4	10 336,6	13 548,2	18 184,2	22 262,8	24 668,3	30 907,3	38 927,4	45 358,6	53 640,0	10 851,5	26 774,5	44 142,6
	o'sish sur'ati, % da	106,6	106,8	109,0	109,7	107,5	109,0	104,8	104,5	103,1	107,1	100,5	110,1	107,4	104,8	106,3	106,8	107,4	107,3
Sanoat mahsuloti	mlrd.so'm	628,6	852,4	1 014,2	1 297,2	1 920,8	2 616,0	3 802,7	4 070,4	6 457,2	8 538,6	9 615,9	13 658,1	18 323,3	21 589,1	28 438,8	6 957,0	15 743,7	24 235,8
	o'sish sur'ati, % da	106,5	113,9	106,4	111,5	121,5	126,2	93,1	118,3	107,9	107,5	106,1	117,2	115,0	106,4	107,0	110,2	109,2	108,8
Iste'mol tovarlari	mlrd.so'm	346,8	441,0	548,2	682,5	1 151,7	1 764,5	1 671,2	2 374,3	3 904,7	5 673,9	7 745,8	8 591,6	10 277,4	13 115,7	x	x	x	x
	o'sish sur'ati, % da	112,3	112,4	112,8	113,1	208,3	124,8	93,8	110,8	130,4	124,1	100,1	117,7	124,9	105,8	x	x	x	x
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	mlrd.so'm	2 020,7	2 808,1	3 544,7	4 121,3	5 302,0	6 373,3	7 699,3	9 351,3	12 727,8	14 447,6	16 957,7	20 327,9	24 586,7	27 814,9	30 163,5	4 245,1	12 902,9	24 352,2
	o'sish sur'ati, % da	102,4	100,5	110,1	109,6	106,3	105,6	106,9	101,5	98,1	104,1	102,4	103,4	104,1	104,4	103,2	103,8	104,0	104,9
Asosiy kapitalga investitsiyalar	mlrd.so'm	416,9	627,1	783,4	1 256,9	1 614,8	1 531,5	1 560,5	2 175,9	3 013,8	5 032,0	5 391,8	8 292,0	8 769,7	11 666,1	15 624,1	3 935,7	9 628,9	17 187,4
	o'sish sur'ati, % da	133,8	134,5	114,9	137,3	110,8	87,2	97,8	128,5	111,7	150,7	92,7	139,3	94,2	121,0	120,8	135,7	130,5	155,6
Qurilish ishlari	mlrd.so'm	282,7	390,1	528,7	790,3	961,4	1 174,7	1 220,9	1 375,8	1 878,3	2 496,8	2 856,8	4 228,5	4 878,4	5 766,1	11 503,9	2 249,4	6 000,8	9 194,2
	o'sish sur'ati, % da	129,1	131,0	121,8	126,4	103,2	116,0	101,8	108,2	114,0	119,3	97,4	130,9	101,8	107,1	120,2	110,4	114,0	110,1
Chakana savdo tovar aylanmasi	mlrd.so'm	1 005,9	1 265,8	1 566,6	1 959,6	2 343,3	2 723,5	3 365,9	3 948,5	5 269,2	6 915,5	8 589,2	10 539,8	11 317,2	13 864,6	16 127,3	3 185,0	7 613,9	12 175,1
	o'sish sur'ati, % da	121,3	113,3	109,2	110,4	109,4	110,3	114,0	100,7	110,7	114,5	109,7	109,8	112,9	107,6	110,2	108,2	108,8	108,8
Xizmatlar, jami	mlrd.so'm	862,9	1 066,0	1 379,7	1 788,0	2 190,7	2 548,6	3 119,0	3 645,5	4 562,8	5 763,3	6 461,2	8 348,1	10 480,4	13 254,7	28 720,3	7 091,6	15 791,7	24 948,2
	mln. AQSh. Dollar	115,1	124,6	118,3	121,8	115,9	115,4	115,9	108,2	110,1	113,4	101,5	118,9	115,1	114,5	113,8	110,7	113,3	113,5
Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSh. Dollar	209,8	291,5	247,7	298,3	305,5	211,4	216,6	256,0	272,0	557,7	469,3	517,2	787,3	881,1	953,4	193,4	387,9	618,5
	o'sish sur'ati, % da	138,4	138,9	85,0	120,4	102,4	69,2	102,5	118,2	106,3	205,0	84,1	110,2	152,2	111,9	108,2	100,6	101,3	99,3
Eksport	mln. AQSh. Dollar	156,2	206,2	155,0	198,1	139,4	111,4	95,6	122,7	102,1	146,9	169,6	231,2	247,0	304,2	427,5	98,3	186,3	305,2
	o'sish sur'ati, % da	142,1	132,0	75,2	127,8	70,4	79,9	85,8	128,4	83,2	143,9	115,4	136,4	106,8	123,1	140,5	105,8	106,8	106,6
Import	mln. AQSh. Dollar	53,6	85,3	92,8	100,2	166,1	100,0	121,0	133,3	170,0	410,8	299,7	286,0	540,3	576,9	525,8	95,1	201,6	313,3
	o'sish sur'ati, % da	128,5	159,1	108,8	108,0	165,8	60,2	121,1	110,1	127,6	241,7	73,0	95,4	188,9	106,8	91,1	95,7	96,6	93,0
Saldo	mln. AQSh. Dollar	102,6	120,9	62,2	97,9	-26,7	11,4	-25,5	-10,5	-67,9	-263,9	-130,1	-54,7	-293,3	-272,7	-98,3	3,2	-15,3	-8,1
	o'sish sur'ati, % da	150,4	117,8	51,4	157,4	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x

Investitsiyalar va bandlik. Viloyatda sanoat sohasiga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 2020–2024-yillar oralig‘ida 2,1 baravarga oshdi. Eng ko‘p sarmoya to‘qimachilik, qurilish materiallari va kimyo tarmoqlariga yo‘naltirilgan.

Xorazm viloyatida sanoat korxonalarida band bo‘lganlar soni 85 ming kishidan oshdi, bu esa umumiy bandlikning 23 foizini tashkil etadi [12, 9].

Bandlikning oshishi bilan birga, yuqori texnologiyali ish o‘rinlarini yaratish tendensiyasi ham kuchaymoqda. Masalan, 2023–2024-yillarda “Texnopark Xorazm” innovatsion klasteri doirasida 1 200 dan ortiq malakali ish o‘rni tashkil etilgan. Bu esa sanoatni raqamlashtirish va yosh kadrlarni zamonaviy texnologiyalarga o‘rgatish imkonini bermoqda.

Muammolar va istiqbollar. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Xorazm viloyati sanoatining rivojlanishida quyidagi muammolar mavjud:

- ishlab chiqarishning yuqori texnologiyalarga past darajada moslashuvi;
- eksportda xomashyo mahsulotlarining ulushi yuqoriligi;
- infratuzilma (logistika, energetika, suv ta‘minoti) da cheklovlar;
- innovatsion faoliyat va ilmiy tadqiqotlar o‘rtasida zaif integratsiya.

Biroq mavjud imkoniyatlar ham e‘tiborga loyiq:

- Xorazm viloyatining geografik joylashuvi — Turkmaniston va Qozog‘iston bozorlariga chiqish uchun qulay;
- turizm va agro-sanoat majmuasining o‘zaro bog‘liqligi;
- davlat tomonidan kichik sanoat zonalari va texnoparklar faoliyatiga berilayotgan imtiyozlar.

Bu omillar asosida sanoatni diversifikatsiyalash, texnologik modernizatsiya va mahalliy resurslarni chuqur qayta ishlashga yo‘naltirilgan yangi tarkibiy strategiya ishlab chiqish zarur.

Muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm viloyati sanoatining rivojlanish dinamikasi mintaqaning tabiiy resurslari va demografik imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllanmoqda. Biroq iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga erishish uchun tarkibiy o‘zgarishlarni faqat hajmiy o‘sish bilan emas, balki sifat ko‘rsatkichlari bilan o‘lchash zarur.

Xalqaro tajriba bu borada muhim o‘rnak bo‘la oladi. Masalan, Janubiy Koreyada 1970–1980-yillarda amalga oshirilgan “Industrial Upgrade Policy” doirasida davlat sanoat tarmoqlarini bosqichma-bosqich yuqori texnologiyali yo‘nalishlarga o‘tkazgan [13, 32]. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion ekotizim (universitetlar, texnoparklar, biznes-inkubatorlar o‘zaro hamkorligi) hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Turkiya iqtisodiyotida esa 2000-yillardan boshlab “Industrial Transformation Program” asosida ishlab chiqarish tarmoqlari eksportga yo‘naltirildi, bu esa ichki ishlab chiqaruvchilarning global raqobatga kirishiga imkon yaratdi [14, 25]. Bu yondashuv Xorazm uchun ham dolzarb, chunki

viloyatda eksport mahsulotlarining 60 foizdan ortig‘i xomashyo mahsulotlari bo‘lib, ularni tayyor mahsulotlarga aylantirish strategik ahamiyatga ega.

Polsha misolida esa sanoat modernizatsiyasi Yevropa Ittifoqi fondlari orqali amalga oshirilgan bo‘lib, bu jarayon kichik va o‘rta korxonalarni texnologik yangilashga yo‘naltirilgan [15, 18]. O‘zbekiston ham xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali hududiy modernizatsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega.

Muallif fikricha, Xorazm viloyatida sanoat tarkibiy o‘zgarishlarini takomillashtirish uchun quyidagi strategik yondashuvlarni tatbiq etish maqsadga muvofiq:

Innovatsion klasterlar yaratish — Urganch, Xiva va Xazorasp tumanlarida ishlab chiqarish, fan va ta‘lim integratsiyasiga asoslangan texnoparklar tarmog‘ini shakllantirish.

Texnologik modernizatsiyani jadallashtirish — ishlab chiqarishda energiya tejavchi, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish.

Eksportni diversifikatsiya qilish — tayyor mahsulotlarni Markaziy Osiyo va Yevropa bozorlariga chiqarish uchun logistika infratuzilmasini yaxshilash.

Inson kapitalini rivojlantirish — kasb-hunar ta‘limini sanoat korxonalari bilan integratsiya qilish, amaliy o‘quv markazlarini yaratish.

Ekologik barqarorlik — sanoat chiqindilarini qayta ishlash va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish.

Bu yondashuvlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki viloyat aholisining ijtimoiy farovonligini mustahkamlaydi, mehnat bozorini modernizatsiya qiladi hamda yoshlar bandligini ta‘minlaydi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, Xorazm viloyati iqtisodiy rivojlanishida sanoat tarmog‘i barqaror o‘sishning asosiy manbalaridan biridir. Sanoat tarmoqlarining o‘sish sur‘ati, ishlab chiqarish hajmi va investitsiyalar hajmining ortib borishi mintaqaning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Biroq bu o‘sishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyat sanoatining hozirgi holatida bir qator muammolar mavjud: ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi sekin, eksport tarkibida xomashyo mahsulotlari ulushi yuqori, innovatsion faoliyat va ilmiy tadqiqotlar o‘rtasida uzviy aloqalar sust. Shu bois, sanoat siyosatida miqdoriy o‘sishtan sifatli o‘sishga o‘tish mexanizmlarini joriy etish zarur.

Muallif fikricha, Xorazm viloyati sanoatini barqaror rivojlantirish uchun quyidagi asosiy strategik yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Tarkibiy diversifikatsiya siyosatini chuqurlashtirish. Yangi tarmoqlarni rivojlantirish (farmatsevtika, elektrotexnika, qayta ishlash sanoati) orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash.

Texnologik modernizatsiyani jadallashtirish. Korxonalarni zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan jihozlash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish.

Innovatsion klasterlarni rivojlantirish. Urganch, Xiva va Xazorasp shaharlarida ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni birlashtiruvchi sanoat klasterlari tashkil etish.

Eksport salohiyatini kengaytirish. Tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirish, logistika infratuzilmasini yaxshilash va tashqi bozorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni kuchaytirish.

Kadrlar salohiyatini rivojlantirish. Oliy o‘quv yurtlari, kasb-hunar markazlari va korxonalar o‘rtasida dual ta’lim tizimini joriy etish orqali zamonaviy mutaxassislar tayyorlash.

Ekologik barqarorlikni ta’minlash. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik me’yorlarga rioya etishni rag‘batlantirish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish Xorazm viloyatining iqtisodiyotini raqobatbardosh, barqaror va innovatsion yo‘nalishda rivojlantirish imkonini beradi. Natijada mintaqa iqtisodiyoti nafaqat ichki ehtiyojlarni qondiruvchi, balki eksportga yo‘naltirilgan yuqori texnologik ishlab chiqarish markaziga aylanishi mumkin.

Shu bilan birga, sanoat tarkibiy o‘zgarishlarini samarali boshqarish uchun hududiy iqtisodiy siyosatda ilmiy tahlilga asoslangan strategik boshqaruv tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa davlat, biznes va ilmiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi hamda O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sari yo‘lida muhim qadamlardan biri bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. OECD. *Industrial Policy for the 21st Century*. — Paris: OECD Publishing, 2019. — P. 19–25.
2. UNIDO. *Industrial Development Report 2023: Transforming Industrial Policy for the Future*. — Vienna: UNIDO Publishing, 2023. — P. 14–20.
3. World Bank. *Uzbekistan Economic Modernization Outlook*. — Washington D.C., 2023. — P. 27–31.
4. Ishmuhamedov, A., Abduhalimov, S. *O‘zbekiston sanoatida innovatsion o‘sinh yo‘nalishlari*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. — P. 8–13.
5. Tojimatov, A. *Hududiy iqtisodiy tahlil va barqarorlik indikatorlari*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. — P. 29–33.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4896-son qarori. *Hududlar sanoatini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. — Toshkent, 2021. — P. 5–9.
7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Hududlar iqtisodiyoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi (2015–2024)*. — www.stat.uz, 2024. — P. 6–10.

8. Xorazm viloyati hokimligi. *Sanoat tarmoqlarining rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumotnoma*. — Urganch, 2023. — P. 22–27.
9. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. *Hududiy bandlik darajasi tahlili (2024)*. — Toshkent, 2024. — P. 9–12.
10. Nazarov, R. *Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning innovatsion omillari*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. — P. 15–21.
11. Abdullayev, I. *O'zbekiston sanoat siyosatini modernizatsiya qilish strategiyalari*. — “Iqtisodiy tahlil” jurnali, №3(45), 2023. — P. 54–61.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti,

To'rtko'l fakulteti, assistent-o'qituvchi

Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a232

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o'zgarishlarini takomillashtirish strategiyasi masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, mintaqalarni kompleks rivojlantirish dasturlari va sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq kelishi bilan belgilanadi. Maqolada 2010-2024 yillar davridagi statistik ma'lumotlar va mintaqaviy taqqoslash tahlillari asosida viloyat sanoatining rivojlanish dinamikasi, hududiy tafovutlar va mavjud imkoniyatlar aniqlangan. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, komparativ tahlil va SWOT tahlil metodlaridan foydalanilgan. Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2010-yildagi 628,6 milliard so'mdan 2023-yilda 21,5 trillion so'mga yetgani, ya'ni 34 barobar o'sgani aniqlangan. Shu bilan birga, viloyatning respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi hali ham past ekani va sanoat gigantlari bilan taqqoslaganda sezilarli tafovut mavjudligi ko'rsatilgan. Sanoat salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari, investitsiya muhitini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sanoat klasterlarini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda sanoat tarkibiy o'zgarishlarining roli va ahamiyati asoslangan hamda viloyat sanoat siyosatini takomillashtirishning strategik yo'nalishlari belgilangan.

Kalit so'zlar: sanoat tarkibiy o'zgarishlari, barqaror rivojlanish, Xorazm viloyati, mintaqaviy iqtisodiyot, sanoat salohiyati, investitsiya muhiti, strategik rejalashtirish, innovatsion texnologiyalar, sanoat klasterlari, iqtisodiy o'sish, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik.

СПОСОБЫ УЛУЧШЕНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В РАМКАХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Джуманиязов Нодирбек Одилбек угли

Ташкентский государственный экономический университет,

Торткульский факультет, ассистент преподавателя

Ургенчский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация. В данной статье исследованы вопросы стратегии совершенствования структурных изменений промышленности в устойчивом

развитии экономики Хорезмской области. Актуальность исследования обусловлена соответствием экономическим реформам, реализуемым в стране, программам комплексного развития регионов и приоритетным направлениям государственной политики по повышению промышленного потенциала. На основе статистических данных за 2010-2024 годы и регионального сравнительного анализа определены динамика развития промышленности области, территориальные различия и существующие возможности. В процессе исследования использованы методы статистического анализа, сравнительного анализа и SWOT-анализа. Установлено, что объём промышленного производства в Хорезмской области вырос с 628,6 млрд сумов в 2010 году до 21,5 трлн сумов в 2023 году, то есть в 34 раза. Вместе с тем показано, что доля области в республиканском промышленном производстве остаётся низкой и существует значительный разрыв по сравнению с промышленными гигантами. Разработаны научно обоснованные рекомендации по эффективному использованию промышленного потенциала, улучшению инвестиционной среды, внедрению инновационных технологий и формированию промышленных кластеров. В результате исследования обоснована роль и значение структурных изменений промышленности в обеспечении устойчивого экономического развития региона, а также определены стратегические направления совершенствования промышленной политики области.

Ключевые слова: структурные изменения промышленности, устойчивое развитие, Хорезмская область, региональная экономика, промышленный потенциал, инвестиционная среда, стратегическое планирование, инновационные технологии, промышленные кластеры, экономический рост, экспортный потенциал, конкурентоспособность.

WAYS TO IMPROVE INDUSTRIAL STRUCTURAL CHANGES IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF KHOREZM REGION

Jumaniyazov Nodirbek Odilbek ugli

Tashkent State University of Economics,

Tortkul Faculty, Assistant Lecturer

Urgench State University, Researcher

Abstract. This article examines the strategy for improving industrial structural changes in sustainable development of Khorezm region economy. The relevance of the research is determined by its correspondence to economic reforms being implemented in the country, comprehensive regional development programs, and priority directions of state policy for increasing industrial potential. Based on statistical data for 2010-2024 and regional comparative analysis, the dynamics of industrial development, territorial disparities, and existing opportunities have been identified. Statistical analysis, comparative analysis, and SWOT analysis methods were used in the research process. It has been established that the volume of industrial production in Khorezm region increased from 628.6 billion soums in 2010 to 21.5 trillion soums in 2023, representing a 34-fold growth. At the same time, it is shown that the region's share in the republic's industrial production remains low and there is a significant gap compared to industrial giants. Scientifically substantiated recommendations have been developed for effective use of industrial potential, improvement of investment environment, implementation of innovative technologies, and formation of industrial clusters. The research substantiates the role and significance of industrial structural changes in ensuring sustainable economic development of the region and defines strategic directions for improving the region's industrial policy.

Key words: industrial structural changes, sustainable development, Khorezm region, regional economy, industrial potential, investment climate, strategic planning, innovative technologies, industrial clusters, economic growth, export potential, competitiveness.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish va sanoat salohiyatini to'liq ishga solish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar, texnologik transformatsiya jarayonlari va raqobatbardoshlik talablarining kuchayishi sharoitida mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sanoat sektori iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-sonli Farmoni mintaqalarning sanoat salohiyatini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha aniq vazifalarni belgilab bergan. Ushbu hujjatlar mamlakat hududlarida yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat yo'nalishlarini jadal rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hisobidan aholi daromadlarini oshirish hamda yirik tarmoqlarga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etishni nazarda tutadi.

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, o'ziga xos tabiiy-iqlim sharoitlari, boy tarixiy-madaniy merosi va iqtisodiy salohiyatga ega mintaqalardan biri hisoblanadi. Viloyatda turli sanoat tarmoqlari, jumladan oziq-ovqat, qurilish materiallari, mashinasozlik, to'qimachilik va yengil sanoat tarmoqlari faoliyat yuritmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 21,5 trillion so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2010-yildagi 628,6 milliard so'mlik ko'rsatkichdan qariyb 34 barobar ko'p bo'lgan. Bu barqaror o'sish viloyatning sanoat salohiyati yil sayin kuchayib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Biroq mavjud sanoat salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va mahalliy xomashyo zaxiralarini chuqur qayta ishlash darajasi hali ham yetarli emas. Shu sababli, maqolada Xorazm viloyatining sanoat tarkibiy o'zgarishlarini takomillashtirish strategiyasini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va samaradorlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi mintaqaviy sanoat siyosatini barqaror

rivojlanish maqsadlariga muvofiqlashtirish bo'yicha kompleks yondashuvni ishlab chiqish va ularni Xorazm viloyati sharoitlariga moslashtirish bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va sanoat tarkibiy o'zgarishlari masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi birinchi marta 1987-yilda BMT ning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Xalqaro komissiyasi (Brundtland komissiyasi) tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u "hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirib, kelgusi avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini cheklamaydigan rivojlanish" sifatida ta'riflangan [1]. Keyinchalik bu kontseptsiya 1992-yilda Rio-de-Janeyrodagi BMT Konferentsiyasida yanada rivojlantirildi.

Garvard universiteti professori X.Cheneri o'zining tarkibiy o'zgarishlar modelida rivojlanayotgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi umumiy jihatlarni aniqlagan [2]. Unga asosan, iqtisodiy faollikning og'irlik markazi agrar sohadan sanoat tarmoqlariga o'tishi, inson kapitalining doimiy jamg'arilishi, iste'molchilar talabining birlamchi mahsulotlardan turli sanoat tovarlari va xizmatlar tomonga siljishi kabi jarayonlar orqali kechadi. Ushbu nazariy yondashuv mintaqaviy sanoat siyosatini shakllantirish va tarkibiy o'zgarishlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiyalik olimlar T.V. Uskova, I.A. Morozov va boshqalar mintaqalarning barqaror rivojlanishini boshqarish va strategik rejalashtirish masalalarini chuqur tadqiq etishgan [3]. Ularning ilmiy ishlari mintaqaviy iqtisodiyotni o'zini o'zi boshqariladigan tizim sifatida ko'rib chiqish, barqarorlik ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish va strategik rivojlanish modellarini yaratish masalalarini qamrab oladi. Shu bilan birga, E.P.Shaymardanova sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirish metodologiyasini ishlab chiqqan bo'lib, bunda ishlab chiqarish, marketing, innovatsion va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari kompleks baholangan [4].

O'zbekistonlik olimlar orasida A.Soliyev hududiy majmualarning nazariy asoslarini o'rgangan [5], E.T.Yaqubova O'zbekiston mintaqalari sanoat salohiyatini oshirish yo'nalishlarini tadqiq etgan [6], A.M.Sodiqov va N.N.Nazarov esa hududlar barqaror rivojlanish strategiyasi ishlab chiqish metodikasini takomillashtirish masalalarini o'rgangan [7]. Ushbu tadqiqotlar natijasida mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda sanoat tarkibiy o'zgarishlarining muhim roli aniqlangan.

Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini tadqiq etish bo'yicha ham bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, K.M.Mamedov viloyat sanoat salohiyatining barqaror rivojlanishdagi roli va uning samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilgan [8]. Sh.Kurambaev mahalliy resurslar asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'rgangan [9], Sh.Matchanov va Z.Djumaniyazov silikat materiallari texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha

tadqiqotlar olib borgan [10]. Biroq, Xorazm viloyatining sanoat tarkibiy o'zgarishlarini barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida kompleks o'rganish masalasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi mintaqaning sanoat salohiyatini chuqur tahlil qilish va uning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga yo'naltirilgan. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanilgan:

Statistik tahlil usuli orqali Xorazm viloyatidagi sanoat tarmoqlarining o'sish dinamikasi, ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi va yalpi hududiy mahsulotdagi (YHM) ulushi kabi ko'rsatkichlar o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va viloyat statistik boshqarmasi ma'lumotlari asosida faktik ko'rsatkichlar tahlil qilindi, sanoat sohasining hududiy iqtisodiyotdagi roli aniqlandi. Tahlilda 2010-2024 yillar davridagi ma'lumotlardan foydalanildi.

Komparativ (taqqoslama) tahlil metodi orqali Xorazm viloyati sanoat salohiyati boshqa viloyatlar (Navoiy, Toshkent, Andijon, Buxoro, Qoraqalpog'iston Respublikasi) bilan solishtirilib tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali Xorazm viloyatining raqobatdoshligi, muqobil imkoniyatlari va o'sish sur'atlari aniqlandi. Shuningdek, viloyat tumanlarining sanoat rivojlanishi bo'yicha ichki taqqoslash tahlili ham o'tkazildi.

SWOT tahlili orqali Xorazm viloyatining sanoat salohiyatiga ta'sir etuvchi kuchli (Strengths), zaif (Weaknesses) tomonlar, mavjud imkoniyatlar (Opportunities) va tahdidlar (Threats) tizimli tarzda o'rganildi. Bu metod strategik rejalashtirishga xizmat qiladi va viloyat sanoat siyosatini takomillashtirish bo'yicha aniq yo'nalishlarni belgilash imkonini berdi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlari, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Shuningdek, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan olib borilgan "Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili (2017-2022 yillar)" mavzusidagi tadqiqot natijalari ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Xorazm viloyatida so'nggi o'n uch yil ichida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Agar 2010-yilda viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi atigi 628,6 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 21 589,1 milliard so'mga yetgan. Bu esa ko'rsatkich 13 yil davomida deyarli 34 barobardan ko'proqqa oshganini anglatadi. Ushbu barqaror o'sish viloyatning sanoat salohiyati yil sayin kuchayib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Xorazm viloyatida so'nggi o'n uch yil ichida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Quyidagi 1-jadvalda hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keltirilgan.

1-jadval

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,
mlrd.so'm (yillik)**

Hudud	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	322535,8	368740,2	456056,1	553265,0	658991,7
Qoraqalpog'iston R.	12736,1	13981,3	16630,4	17624,7	17791,1
Andijon viloyati	33122,3	36376,5	35935,3	54352,5	73767,1
Buxoro viloyati	14798,2	17574,4	20772,1	27202,4	31860,4
Navoiy viloyati	44438,1	65084,9	73633,5	84393,7	101841,9
Toshkent viloyati	53484,8	65949,9	83433,9	93935,1	106915,3
Farg'ona viloyati	18661,2	21701,2	27761,5	30303,5	35794,9
Xorazm viloyati	8538,6	9615,9	13658,1	18323,3	21589,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi 2019-yildagi 322 535,8 mlrd so'mdan 2023-yilda 658 991,7 mlrd so'mga yetib, 2 barobardan ko'proqqa oshgan. Xorazm viloyati bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi besh yil davomida 2,5 barobarga oshgan. Navoiy viloyati 2023-yilda 101 841,9 mlrd so'mlik ko'rsatkich bilan sanoatning yetakchi hududlaridan biri bo'lib, Xorazm viloyatidan qariyb 5 barobar ko'p mahsulot ishlab chiqargan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2010-2015 yillar oralig'ida sanoat ishlab chiqarish hajmi nisbatan sekin o'sgan bo'lib, har yili o'rtacha 300-600 milliard so'mga ko'paygan. Bu davrda iqtisodiy o'sish mavjud bo'lsa-da, u izchil emas edi. 2016-yildan boshlab sanoat rivojida ijobiy burilish yuz berdi. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi yillarda sanoat mahsulotlari hajmidagi o'sish ancha jadal tus oldi: 2017-yilda 4 070,4 mlrd so'm, 2018-yilda 6 457,2 mlrd so'm, 2019-yilda esa 8 538,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu o'sish viloyatdagi ishlab chiqarish tarmoqlari modernizatsiyasi va sanoatga jalb qilingan investitsiyalar natijasi sifatida qaralishi mumkin.

2-jadval

**Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi
(2010-2023 yillar)**

Yil	Sanoat mahsuloti, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %	2010 yilga nisbatan (marta)	Aholi jon boshiga, ming so'm
2010	628,6	-	1,0	421,2
2015	2 616,0	136,2	4,2	1 584,8
2018	6 457,2	158,6	10,3	3 612,4
2020	9 615,9	112,6	15,3	5 115,5
2021	13 658,1	142,0	21,7	7 124,6
2022	18 323,3	134,2	29,2	9 382,7
2023	21 589,1	117,8	34,4	10 921,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

Umumiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi 2019-yildagi 322 535,8 mlrd so'mdan 2023-yilda 658 991,7 mlrd so'mga yetib, 2 barobardan ko'proqqa oshgan. Bu esa sanoat sohasining O'zbekistonda strategik sektorga aylanganidan dalolat beradi. Xorazm viloyati bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi besh yil davomida 2,5 barobarga oshganini ko'rsatadi. O'sish sur'atiga ko'ra Xorazm viloyati respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan biroz pastroq turgani kuzatiladi, ammo shunga qaramay, hudud sanoat salohiyatini barqaror tarzda oshirib bormoqda.

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yildagi 628,6 mlrd so'mdan 2023-yilda 21 589,1 mlrd so'mga yetgan, ya'ni 34,4 barobar oshgan. Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ham 421,2 ming so'mdan 10 921,0 ming so'mga, ya'ni 26 barobar oshgan. Eng yuqori o'sish sur'ati 2018-yilda (158,6%) kuzatilgan bo'lib, bu davr viloyatda keng ko'lamli investitsiya loyihalari amalga oshirilgan vaqtga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimidagi taqqoslash tahlili shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyati 2023-yilda 101 841,9 mlrd so'mlik ko'rsatkich bilan sanoatning yetakchi hududlaridan biri bo'lib, Xorazm viloyatidan qariyb 5 barobar ko'p mahsulot ishlab chiqargan. Bu yerda yirik konlar va metallurgiya korxonalarining mavjudligi bunday yuqori hajmga sabab bo'lgan. Toshkent viloyati va Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarishida doimiy yetakchilar qatorida bo'lib, 2023-yilda 106 951,3 mlrd so'm mahsulot ishlab chiqargan. Andijon (73 767,1 mlrd so'm) va Farg'ona (35 794,9 mlrd so'm) viloyatlari ham Xorazm viloyatidan ancha yuqori o'rinlarda turibdi. Bu hududlarda avtomobilsozlik, neft-kimyo va to'qimachilik sanoati kuchli rivojlangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi 2023-yilda 17 791,1 mlrd so'm sanoat mahsuloti ishlab chiqargan bo'lib, bu ko'rsatkich Xorazmdan kamroq. Bu esa Xorazmning mintaqaviy sanoat salohiyati bo'yicha ba'zi hududlardan ilgari ekanini anglatadi. Xorazm viloyati sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda oxirgi besh yil ichida barqaror o'sishni saqlab qolgan bo'lsa-da, bu hudud sanoat gigantlari (Navoiy, Toshkent, Andijon) bilan taqqoslaganda o'rta darajadagi sanoat salohiyatiga ega ekani ayon bo'ladi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti hajmi viloyat va tumanlar kesimida sanoat resurslarining qanchalik samarali va teng taqsimlanganini ko'rsatadi. 2020-yildan 2023-yilgacha Xorazm viloyati bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 5 115,5 ming so'mdan 10 921,0 ming so'mga oshgan. Bu 3 yil ichida 2,1 barobarga o'sish degani bo'lib, viloyat sanoatining sezilarli darajada rivojlanayotganini ko'rsatadi. 2024-yil dekabr prognoziga ko'ra bu ko'rsatkich 14 449,0 ming so'mga yetishi kutilmoqda.

Tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, Tuproqqal'a tumani barcha yillarda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, 2023-yilda bu tuman bo'yicha aholi

jon boshiga sanoat mahsuloti 200 722,6 ming so'mni tashkil qilgan. Bu viloyatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan 20 barobar yuqori bo'lib, tumanda yirik sanoat korxonalarining faoliyat yuritayotganidan darak beradi. Urganch shahri 2023-yilda aholi jon boshiga 22 743,1 ming so'm sanoat mahsuloti ishlab chiqargan bo'lib, bu Xorazm viloyati bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir.

Yangibozor, Yangiariq va Shovot tumanlari ham barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Masalan, Yangibozorda bu ko'rsatkich 2020-yildagi 3 114,3 ming so'mdan 2023-yilda 6 615,8 ming so'mga oshgan. Biroq, Bog'ot, Qo'shko'pir, Xazorasp tumanlarida o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, u qadar katta bo'lmagan. Masalan, Bog'otda 2022-yilda 3 325,9 ming so'mni tashkil qilgan ko'rsatkich 2023-yilda 3 079,0 ming so'mga kamaygan. Bu tumanlarda sanoat quvvatlarining to'liq ishga tushmaganligi yoki mavjud salohiyatdan yetarlicha foydalanilmayotganidan darak beradi.

Viloyatda 2022-2023 yillarda sanoatga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi ham ortgan. 2023-yilda investitsiya loyihalari doirasida 40 dan ortiq yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilgan va bu orqali 5 000 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilgan. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda sanoatning o'rnini yanada muhimlashtiradi. Shuningdek, Xorazm viloyatining eksport salohiyati ham o'sib bormoqda. 2023-yilda viloyat 50 mln AQSH dollaridan ortiq mahsulot eksport qilgan bo'lib, bunda oziq-ovqat, qurilish materiallari, to'qimachilik mahsulotlari asosiy o'rinlarni egallagan.

3-jadval

Xorazm viloyati tumanlari bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsuloti (ming so'm)

Tuman/shahar	2020	2022	2023	O'sish (2020-2023), marta
Xorazm viloyati (jami)	5 115,5	9 382,7	10 921,0	2,1
Tuproqqal'a tumani	98 245,3	178 412,8	200 722,6	2,0
Urganch shahri	11 256,4	19 834,2	22 743,1	2,0
Yangibozor tumani	3 114,3	5 428,6	6 615,8	2,1
Xiva shahri	2 145,8	2 986,5	3 251,4	1,5
Bog'ot tumani	2 756,2	3 325,9	3 079,0	1,1
Qo'shko'pir tumani	2 312,4	3 145,7	3 528,6	1,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Biroq, bu o'zgarishlarga qaramay, hali foydalanilmayotgan sanoat salohiyati mavjud. Ayrim tarmoqlarda quvvatlardan to'liq foydalanilmayotgani, xomashyo yetkazib berish zanjirlarining sustligi va kadrlar malakasining pastligi kabi muammolar saqlanmoqda. Shu bilan birga, mintaqadagi korxonalar sonining ko'payishiga qaramay, ularning ko'pchiligi kichik va o'rta ishlab chiqaruvchilardan iborat bo'lib, bu esa yirik sanoat salohiyatini shakllantirishda yetarli emas. Mintaqalararo differentsiatsiya ham

o'sib bormoqda - sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha mintaqalararo tafovut 2017-yildagi 15,7 barobardan 2020-yilda 31,2 barobarga oshgan.

3-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida tumanlar bo'yicha sanoat rivojlanishida sezilarli tafovutlar mavjud. Tuproqqal'a tumani aholi jon boshiga 200 722,6 ming so'mlik ko'rsatkich bilan viloyat o'rtachasidan 20 barobar yuqori turibdi, bu yerda yirik sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Urganch shahri (22 743,1 ming so'm) ham yuqori ko'rsatkichga ega. Biroq, Bog'ot tumani (3 079,0 ming so'm) va Qo'shko'pir tumani (3 528,6 ming so'm) viloyat o'rtachasidan past ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu tumanlarda sanoat salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi.

Xorazm viloyatining sanoat tarkibiy o'zgarishlarini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishda bir qator muhim omillarni hisobga olish zarur. Birinchidan, viloyatning geografik joylashuvi va transport infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Ikkinchidan, mahalliy xomashyo resurslarining cheklanganligi ba'zi sanoat tarmoqlarining rivojlanishini qiyinlashtiradi. Uchinchidan, malakali kadrlarning yetishmasligi va ularning boshqa hududlarga migratsiyasi sanoat korxonalarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, viloyatda sanoat tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirish uchun bir qator imkoniyatlar mavjud. Xorazm viloyati boy madaniy-tarixiy merosga ega bo'lib, turizm industriyasining rivojlanishi bilan bog'liq sanoat tarmoqlari (hunarmandchilik, suvenirler ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati) uchun katta potensial mavjud. Viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish imkoniyatlari ham keng. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining mintaqalarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilayotgan qarorlari va dasturlari investitsiya muhitini yaxshilash va sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun qulay sharoitlar yaratmoqda.

Xulosa va takliflar

Ushbu maqolada Xorazm viloyatining sanoat salohiyati va uni barqaror rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlar va hududlar kesimidagi taqqosloviiy tahlillar asosida aniqlanishicha, viloyat sanoat sohasida izchil o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda. 2010-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb 34 barobarga oshgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti miqdori ham yildan-yilga ortib bormoqda. Biroq sanoat tarmoqlarining mintaqaviy taqsimoti, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanmaslik, investitsiyaviy muhitning yetarli darajada shakllanmagani kabi muammolar mavjudligicha qolmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati sanoat salohiyatini to'liq ishga solish orqali mintaqaning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega. Ammo buning uchun tizimli va strategik yondashuv talab

etiladi. Viloyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda sanoat tarkibiy o'zgarishlarining roli beqiyosdir. Sanoat sektori nafaqat YHMning asosiy tarkibiy qismi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish manbai hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish zarur - sanoat korxonalarini ma'lum yo'nalishlar bo'yicha birlashtirib, ularni yagona logistika, innovatsiya va infratuzilma bilan ta'minlash lozim. Xorazm viloyatida oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish va to'qimachilik klasterlari shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish - mavjud resurslarni chuqur qayta ishlovchi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish orqali ichki bozorga raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berish yo'lga qo'yilishi kerak.

Uchinchidan, sanoatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish - soddalashtirilgan ruxsatnomalar, soliq imtiyozlari va kredit mexanizmlarini joriy etish orqali investorlarga qulay sharoit yaratish muhim. To'rtinchidan, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash - ularni modern texnologiyalar bilan ta'minlash, biznes-inkubatorlar tashkil etish va moliyaviy resurslarga kirishni yengillashtirish zarur. Beshinchidan, kadrlar salohiyatini oshirish - sanoat tarmoqlariga mos kasb-hunar kollejarini rivojlantirish va amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini yaratish lozim.

Oltinchidan, ilm-fan va innovatsiyalarni sanoatga integratsiya qilish - mahalliy ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda texnologik yechimlar ishlab chiqish strategik ahamiyat kasb etadi. Yettinchidan, turizm industriyasi bilan bog'liq sanoat tarmoqlarini rivojlantirish - Xorazmning boy tarixiy-madaniy merosi va turizm salohiyatidan foydalangan holda hunarmandchilik, suvenirler ishlab chiqarish va milliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini to'liq ishga solish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun davlat, biznes va ilmiy sektor o'rtasida mustahkam hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Tavsiya etilgan chora-tadbirlar amalga oshirilsa, viloyat nafaqat ichki bozor, balki eksport yo'nalishida ham salmoqli natijalarga erishishi mumkin. Sanoat tarkibiy o'zgarishlarini takomillashtirish strategiyasini izchil amalga oshirish mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlash va aholi farovonligini oshirishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. Oxford University Press, 1987.
2. Chenery H.B. Structural Change and Development Policy. Baltimore, MD.: Johns Hopkins University Press, 1979.

3. Uskova T.V. Upravlenie ustoychivim razvitiem regiona: monografiya. Vologda: ISERT RAN, 2009.
4. Shaymardanova E.P. Strategii ustoychivogo razvitiya promishlennix predpriyatiy // Rossiyskoe predprinimatelstvo. 2010. № 10 (1). S. 49-54.
5. Soliyev A. Hududiy majmualarning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. "Moliya", Toshkent, 2019.
6. Yakubova E.T. Povishenie promishlennogo potentsiala kak drayvera ekonomicheskogo razvitiya regionov Uzbekistana // Iqtisod va moliya. 2021. № 1 (137). S. 23-28.
7. Sodiqov A.M., Nazarov N.N. Hududlar barqaror rivojlanish strategiyasi ishlab chiqish metodikasini takomillashtirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2023. № 5.
8. Mamedov K.M. Mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda sanoat salohiyati samaradorligini oshirish yo'llari // Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali. 2024. № 11.
9. Kurambaev S.R. Opportunities for Getting Rust Modifications on the Base of Local Resources for Corrosive Surface // American Journal of Materials Synthesis and Processing. 2018. 3(2). P. 30-33.
10. Matchanov Sh. Silikat materialлари texnologiyasini takomillashtirish. Urganch Davlat Universiteti, 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF-60.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2023-yil 12-oktabr, PF-169.
13. Zhuravlyov V., Khudyakova T. et al. Improving the Strategic Management of Investment Activities of Industrial Enterprises as a Factor for Sustainable Development in a Crisis // Sustainability. 2019. 11. 6667.
14. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti. <https://stat.uz>
15. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili (2017-2022 yillar). 2023.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



KICHIK BIZNESNI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH OBYEKTIV ZARURATI

Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti, katta o'qituvchi

Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a233

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini rivojlantirish zarurati, uning ob'ektiv omillari va istiqbollari tadqiq etilgan. Tadqiqotda mamlakatda kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyatidagi ulushi tahlil qilinib, eksport salohiyatini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillar aniqlangan. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni va GSP+ imtiyozlari kontekstida kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi o'rganilgan holda, O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, eksport salohiyati, tashqi savdo, Jahon savdo tashkiloti, GSP+, raqobatbardoshlik.

ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА МАЛОГО БИЗНЕСА

Рахматуллаев Умарбек Улугбекович

Ташкентский государственный экономический университет

Преподаватель Торткульского факультета

Ургенчский государственный университет, исследователь

Аннотация. В данной статье исследуется необходимость развития экспортной деятельности субъектов малого бизнеса в Узбекистане, её объективные факторы и перспективы. В исследовании проанализирована доля субъектов малого предпринимательства во внешнеторговой деятельности страны, выявлены факторы, препятствующие повышению экспортного потенциала. В контексте процесса вступления в ВТО и преференций GSP+ показаны пути повышения конкурентоспособности малого бизнеса. На основе изучения передового опыта зарубежных стран разработаны предложения и рекомендации, применимые в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: малый бизнес, экспортный потенциал, внешняя торговля, ВТО, GSP+, конкурентоспособность.

OBJECTIVE NECESSITY OF INCREASING THE EXPORT POTENTIAL OF SMALL BUSINESS

Rakhmatullayev Umarbek Ulugbekovich

Tashkent State University of Economics

Tortkul Faculty, Senior Lecturer
Urgench State University, Researcher

Abstract. This article examines the necessity of developing export activities of small business entities in Uzbekistan, its objective factors and prospects. The study analyzes the share of small business entities in the country's foreign trade activities and identifies factors hindering the increase of export potential. In the context of WTO accession process and GSP+ preferences, ways to improve the competitiveness of small business are shown. Based on the study of best practices of foreign countries, proposals and recommendations applicable to Uzbekistan's conditions have been developed.

Keywords: small business, export potential, foreign trade, WTO, GSP+, competitiveness.

Kirish

Zamonaviy globallashuv sharoitida har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uning tashqi savdo faoliyati samaradorligiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Xususan, kichik va o'rta biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirish masalasi butun dunyo miqyosida eng muhim iqtisodiy vazifalardan biriga aylangan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 40 foizdan ortig'i kichik va o'rta biznes hissasiga to'g'ri keladi, bu esa milliy iqtisodiyotlarning barqaror o'sishida ushbu sektorning hal qiluvchi ahamiyatini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham kichik biznesni rivojlantirish va uning eksport salohiyatini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunlariga ko'ra mamlakatda 372,9 mingdan ortiq kichik korxona va mikrofirma faoliyat ko'rsatmoqda. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 51,2 foizdan 54,3 foizga oshgan bo'lib, bu tendentsiya davom etmoqda. Biroq, kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi hali ham yetarli darajada emas va bu ko'rsatkichni oshirish ob'ektiv zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayoni faol davom etmoqda. 2025-yil oktyabr oyigacha 31 ta davlat bilan muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lib, bu qatorga Yevropa Ittifoqiga a'zo 27 ta davlat, AQSh, Xitoy, Buyuk Britaniya va boshqalar kiradi. Ushbu jarayon kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar va bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. GSP+ savdo imtiyozlari doirasida 2021-yildan beri Yevropa Ittifoqiga eksport qariyb uch baravarga oshib, 1,15 milliard dollarga yetgan. Bu natijalar kichik biznesning eksport salohiyatini yanada oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati tanlab olindi. Tadqiqotning predmetini kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tashkil etadi. Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda kichik biznesni eksport salohiyatini oshirishning ob'ektiv zaruriyatini ilmiy asoslash va bu borada amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan

iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi oʻrni va ahamiyatini tahlil qilish; mamlakatda kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati holatini baholash; eksport salohiyatini oshirishga toʻsqinlik qiluvchi omillarni aniqlash; xorijiy davlatlarning ilgʻor tajribasini oʻrganish; hamda kichik biznesning eksport faoliyatini rivojlantirish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Kichik va oʻrta biznesni rivojlantirish hamda ularning tashqi savdo faoliyatidagi ishtirokini oshirish masalalari koʻplab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, Belloc va Di Maio (2011) tadqiqotlarida eksportni ragʻbatlantirish siyosatining samaradorligi chuqur tahlil qilingan boʻlib, ular bunday siyosatlar toʻplamiga eksport infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy bozorlar haqida bilim olish uchun konsalting xizmatlari koʻrsatish, xorijda eksportni ragʻbatlantirish tarmogʻini kengaytirish va eksport institutlari faoliyati taʼsirini monitoring qilish kabi chora-tadbirlarni kiritadilar [1].

Lederman, Olarreaga va Payton (2006) oʻz tadqiqotlarida eksportni ragʻbatlantirish agentliklari faoliyatining samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqqanlar. Ularning xulosalariga koʻra, davlat tomonidan koʻrsatiladigan eksport xizmatlari kichik korxonalar uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki ular asimmetrik axborot va bozor nosozliklarini bartaraf etishga, eksportchilar oʻrtasida texnologiya almashish va tajriba oʻrganishni ragʻbatlantirishga, hamda raqobatdosh ustunliklarni aniqlash va ulardan samarali foydalanishga yordam beradi [2].

OECD ning Oʻzbekistondagi kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha hisobotida (2021) taʼkidlanishicha, mamlakatda kichik tadbirkorlar xorijiy bozorlar haqida bilimlarning yetishmasligi, konsalting va eksport qoʻllab-quvvatlash xizmatlariga cheklangan kirish imkoniyati kabi muammolarga duch kelmoqda. Hisobotda mavjud agentliklar yarmarkalar, mamlakatlararo tashriflar va bozor tadqiqotlari kabi tanlangan eksportni ragʻbatlantirish tadbirlarini amalga oshirayotganligi, biroq bu harakatlar natijalarining kichik va oʻrta biznes uchun aniq emasligi va ularning taʼsiri baholanmasligi, hisobotlanmasligi yoki tadbirkorlar bilan boʻlishilmasligi qayd etilgan [3].

Mahalliy olimlardan Abdullayev A.M. kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi muammolarini tadqiq qilgan boʻlib, uning ishlarida bojxona tartibotlari, sertifikatsiyalash va logistika bilan bogʻliq toʻsiqlar batafsil tahlil qilingan [4]. Asqarov N.I. esa Oʻzbekistonda tashqi savdo va bojxona sohalarini uygʻun boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalarini oʻrgangan [5]. Biroq, ushbu tadqiqotlarda asosan yirik korxonalar faoliyatiga eʼtibor qaratilgan boʻlib, kichik biznesning oʻziga xos xususiyatlari yetarlicha ochib berilmagan. Mazkur maqolada aynan kichik biznes

subyektlarining eksport salohiyatini oshirishning ob’ektiv zarurati va amaliy yo’llari chuqur tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo’llanildi. Birinchidan, statistik tahlil usulidan foydalanildi – O’zbekiston Milliy statistika qo’mitasi, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma’lumotlari asosida kichik biznesning eksport faoliyati dinamikasi, tarkibiy tuzilishi va tendentsiyalari tahlil qilindi. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli orqali O’zbekistondagi holat rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, Janubiy Koreya, Daniya) va mintaqadagi boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu usul mamlakatimizda qo’llash mumkin bo’lgan eng samarali amaliyotlarni aniqlash imkonini berdi.

Uchinchidan, tizimli yondashuv qo’llanildi – kichik biznesning eksport faoliyatiga ta’sir etuvchi barcha omillar (ichki va tashqi, mikro va makro) o’zaro bog’liqlikda o’rganildi. Shuningdek, hujjatli tahlil usuli orqali O’zbekiston Respublikasining eksportni rag’batlantirish va Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lish bilan bog’liq me’yoriy-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda induktiv va deduktiv usullar ham qo’llanildi – aniq faktlar va ma’lumotlardan umumiy xulosalarga va aksincha, nazariy qoidalardan aniq tavsiyalarga o’tildi.

Tahlil va natijalar

O’zbekiston iqtisodiyoti so’nggi yillarda barqaror o’sish tendentsiyasini namoyish etmoqda. 2024-yil yakunlariga ko’ra yalpi ichki mahsulot joriy narxlarda 1,45 kvadrillion so’mni yoki taxminan 115 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Iqtisodiy o’sish 2023-yilga nisbatan 6,5 foizga yetdi. Aholi jon boshiga YIM 39,13 million so’m yoki 3092,7 dollar bo’lib, bu ko’rsatkich oldingi yilga nisbatan 18,3 foizga oshdi. Bu ko’rsatkichlar mamlakatning iqtisodiy salohiyati tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Kichik biznes O’zbekiston iqtisodiyotida muhim o’rin tutadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko’ra, kichik biznesning YIMdagi ulushi iqtisodiyotdagi umumiy qo’shilgan qiymatning 54,3 foizini tashkil etmoqda. 2025-yil 1-aprel holatiga ko’ra mamlakatda 442,4 mingta korxona faoliyat ko’rsatmoqda, shundan 372,9 mingtasi kichik va mikrofirmalar hisoblanadi. Eng ko’p korxonalar Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand va Farg’ona viloyatlarida joylashgan. Birinchi chorakda 21,3 mingta yangi tashkilot tashkil etildi va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 15 739 taga yetdi.

Mamlakatning tashqi savdo ko’rsatkichlari ham ijobiy dinamikani ko’rsatmoqda. 2024-yil yanvar-dekabr oylarida O’zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 65,9 milliard AQSh dollarini tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 3,8 foizga yoki 2,4 milliard dollarga oshdi. Eksport 26,95 milliard dollarni (8,4 foiz o’sish), import esa 38,98 milliard dollarni tashkil etdi. O’zbekiston hozirda 198 ta davlat bilan savdo aloqalarini olib bormoqda. Eng yirik savdo

hamkorlar Xitoy (18,9 foiz), Rossiya (17,6 foiz), Qozog‘iston (6,5 foiz), Turkiya (4,5 foiz) va Janubiy Koreya (3,0 foiz) hisoblanadi.

1-jadval

**O‘zbekistonning tashqi savdo ko‘rsatkichlari dinamikasi
(2022-2024 yillar)**

Ko‘rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Tashqi savdo aylanmasi (mlrd \$)	52,8	63,5	65,9
Eksport (mlrd \$)	19,2	24,9	26,95
Import (mlrd \$)	33,6	38,6	38,98
Eksportchilar soni	5 890	6 820	7 756

Manba: O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mamlakatning tashqi savdo aylanmasi so‘nggi uch yil ichida barqaror o‘sib borgan. Eksport hajmi 2022-yildagi 19,2 milliard dollardan 2024-yilda 26,95 milliard dollarga yetdi. Eksportchilar soni ham 5 890 tadan 7 756 taga oshdi. Biroq, bu ko‘rsatkichlarning ichida kichik biznes subyektlarining ulushi hali ham yetarli darajada emas. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot va xizmatlarning jami eksportdagi ulushi atigi 17,6 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi 30-40 foizlik ko‘rsatkichdan sezilarli darajada past.

Kichik biznesning eksport faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi bir qator omillar mavjud. Birinchidan, axborot va bilimlar yetishmasligi – kichik tadbirkorlar xorijiy bozorlar, ularning talablari, standartlari va sertifikatlash tartib-qoidalari haqida yetarli ma’lumotga ega emaslar. Ikkinchidan, moliyaviy resurslarning cheklanganligi – eksport faoliyatini boshlash va kengaytirish uchun zarur bo‘lgan kapital, eksport kreditlari va sug‘urta xizmatlariga kirish imkoniyati cheklangan. Uchinchidan, logistika va transport muammolari – O‘zbekiston dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mamlakat sifatida tashish xarajatlari yuqori, tranzit muddatlari uzoq va murakkab bojxona tartib-qoidalari mavjud.

2-jadval

Kichik biznes eksportiga to‘sqinlik qiluvchi omillar tahlili

№	Omillar guruhi	Asosiy muammolar
1	Axborot va bilimlar	Xorijiy bozorlar haqida ma’lumotlarning yetishmasligi, standartlar va sertifikatlash talablaridan bexabarlik
2	Moliyaviy resurslar	Eksport kreditlari va sug‘urtaga kirish cheklanganligi, aylanma mablag‘lar yetishmasligi
3	Logistika va transport	Yuqori tashish xarajatlari, murakkab bojxona tartib-qoidalari, tranzit muddatlarining uzoqligi
4	Kadrlar salohiyati	Xorijiy tillarni bilish, marketing va savdo ko‘nikmalarining yetishmasligi
5	Sifat va standartlar	Xalqaro sifat standartlariga moslashish qiyinchiliklari, sertifikatlash xarajatlarning yuqoriligi

Manba: OECD va Jahon banki hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayoni kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. JSTga a‘zolik natijasida boshqa mamlakatlar O‘zbekiston eksport tovarlariga nisbatan yuqori bojxona bojlarini qo‘llash imkoniyati cheklanadi, bu esa ularni chet elda sotish imkoniyatlarini kengaytiradi. Soliq qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Mubin Mirzayevning ta’kidlashicha, JSTga a‘zo bo‘lgandan keyin kichik biznes uchun bu raqobat uchun yaxshi va umuman biznes yuritish uchun qulay bo‘ladi. O‘zgartirishlar faqat yirik korxonalarga aksiz solig‘i bo‘yicha berilgan imtiyozlar va ishlab chiqarishni rag‘batlantirish uchun boshqa imtiyozlar bekor qilinishi tufayli salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

GSP+ savdo imtiyozlari doirasida O‘zbekiston 2021-yildan beri sezilarli natijalarga erishdi. Yevropa Ittifoqiga eksport qariyb uch baravarga oshib, 1,15 milliard dollarga yetdi. 6 200 dan ortiq imtiyozli tovar turidan 1 100 ga yaqin mahsulot, xususan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, to‘qimachilik, elektrotexnika va kimyo mahsulotlari uchun barqaror eksport yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston hukumati GSP+ imtiyozli rejimini yana 10 yilga uzaytirish va bojsiz eksport qilinadigan tovarlar ro‘yxatini yangi uzilgan mevalar va sabzavotlar bilan kengaytirishni taklif qilmoqda.

Xorijiy davlatlarning kichik biznes eksportini qo‘llab-quvvatlash tajribasi O‘zbekiston uchun muhim darslar beradi. Germaniyada GTAI (Germany Trade and Invest) bozor ma’lumotlarini taqdim etish, eksport konsaltingi va xorijiy savdo palatalarining keng tarmog‘i orqali kichik korxonalarga yordam beradi. Daniyada VITUS dasturi yuqori xalqaro o‘shish salohiyatiga ega kichik va o‘rta korxonalarni tanlash va ularga maqsadli qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish orqali eksport faoliyatini rag‘batlantiradi. Ispaniyada ICEX tomonidan eksportni rag‘batlantirish bo‘yicha magistrlik dasturi mavjud bo‘lib, u nazariy bilimlar bilan amaliy tajribani birlashtiradi.

3-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes eksportini qo‘llab-quvvatlash tizimi

Mamlakat	Asosiy tashkilotlar	Asosiy mexanizmlar
Germaniya	GTAI, AHK savdo palatasi tarmog‘i	Bozor ma’lumotlari, konsalting, xorijdagi ofislar tarmog‘i
Janubiy Koreya	KOSME, KODIT, KOTEC, K-sure	Kredit kafolatlari, eksport sug‘urtasi, treninglar
Daniya	VITUS dasturi	Maqsadli tanlash, individual qo‘llab-quvvatlash
Ispaniya	ICEX	Magistrlik dasturi, xorijdagi ofislar, IMPACT+ va NEXT dasturlari

Manba: Yevropa Iqtisodiy va Ijtimoiy Qo‘mitasi hisoboti (2018) asosida muallif tomonidan tuzildi.

Janubiy Koreyaning tajribasi ayniqsa e'tiborga loyiq. Mamlakatda kichik va o'rta biznes barcha korxonalarning 99 foizini, umumiy bandlikning 83 foizini va eksportning 34 foizini tashkil etadi. Koreya kichik va o'rta biznes va startaplar agentligi (KOSME) kreditlar, konsalting, treninglar va eksport marketingi bo'yicha yordam beradi. Kredit kafolat tizimlari (KODIT va KOTEC) kichik korxonalarning moliyaga kirishini osonlashtiradi. K-sure eksport kredit sug'urtasi 2008-yilgi moliyaviy inqiroz va COVID-19 pandemiyasi davrida kichik biznes barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

O'zbekistonda ham eksportni rag'batlantirish tizimi mavjud bo'lib, Eksportni rag'batlantirish fondi (EPF) va Savdo-sanoat palatasi (SSSS) asosiy tashkilotlar hisoblanadi. EPF Bolgariya, Italiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Xitoy, Qozog'iston va Latviyada ofislar ochgan. Rossiya, Latviya, Hindiston, Tojikiston va AQShda savdo uylari tashkil etilgan. Biroq, OECD ekspertlarining baholashicha, bu tashkilotlar xorijiy bozorlar haqida ma'lumotlarni taqdim etish, konsalting xizmatlari ko'rsatish va eksport ta'sirini baholash bo'yicha OECD mamlakatlariga nisbatan cheklangan imkoniyatlarga ega.

2025-yil 1-yanvardan boshlab eksport qo'llab-quvvatlash tizimida muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev farmoni bilan eksportchilarning avtomobil, havo va temiryo'l tashuvlari xarajatlarini kompensatsiya qilish amaliyoti JST talablariga muvofiqlashtirish maqsadida bekor qilindi. So'nggi yillarda eksportchilarning transport xarajatlarining 50 foizigacha qismi davlat subsidiyalari hisobidan qoplab berilgan edi. 2024-yilda bu maqsadlar uchun 133,8 milliard so'm, 2023-yilda 509,9 milliard so'm, 2022-yilda 336 milliard so'm mablag' ajratilgandi. Yangi chora-tadbirlar O'zbekistonning JST doirasidagi xalqaro standartlari va majburiyatlariga mos keladigan eksportni qo'llab-quvvatlashning shaffof tizimini yaratishga qaratilgan.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznesni eksport salohiyatini oshirish ob'ektiv zarurat bo'lib, bu bir nechta omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, kichik biznesning YIMdagi ulushi 54,3 foizni tashkil etgan holda, uning eksportdagi ulushi atigi 17,6 foizni tashkil etishi nomutanosiblikni ko'rsatadi. Ikkinchidan, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda – JST a'zoligi boshqa mamlakatlar bilan teng sharoitlarda savdo qilish, bojxona bojlarini kamaytirish va xalqaro standartlarga moslashish imkonini beradi. Uchinchidan, GSP+ imtiyozlari doirasida erishilgan natijalar (Yevropa Ittifoqiga eksportning uch baravarga oshishi) bu salohiyatni yanada kengaytirish mumkinligini ko'rsatadi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, eksportni qo'llab-quvvatlash institutlarini mustahkamlash zarur – Eksportni rag'batlantirish fondining xorijdagi vakolatxonalari tarmog'ini kengaytirish,

xorijiy bozorlar haqida muntazam tahliliy ma’lumotlar tayyorlash va kichik korxonalar uchun bepul konsalting xizmatlari ko’rsatishni yo’lga qo’yish kerak. Ikkinchidan, moliyaviy qo’llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish lozim – eksport kreditlari va kafolatlari tizimini kengaytirish, Janubiy Koreyaning KODIT va KOTEC tajribasini o’rganish va qo’llash, eksport sug’urtasi xizmatlarini rivojlantirish zarur.

Uchinchidan, kadrlar salohiyatini oshirish muhim – Ispaniyadagi ICEX tajribasiga o’xshash eksport menejerlari tayyorlash dasturlarini joriy etish, xorijiy tillar va xalqaro savdo bo’yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etish kerak. To’rtinchidan, sifat va standartlar sohasida qo’llab-quvvatlash zarur – xalqaro sertifikatsiyalash xarajatlarini qisman subsidiyalash, sifat boshqaruvi tizimlari (ISO, HACCP) joriy etishda yordam berish kerak. Beshinchidan, raqamli transformatsiyani rag’batlantirish muhim – elektron tijorat platformalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli marketing ko’nikmalarini o’rgatish va xalqaro B2B platformalarga kirish imkoniyatini yaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, O’zbekistonda kichik biznesni eksport salohiyatini oshirish mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini diversifikatsiya qilish, yangi ish o’rinlari yaratish va iqtisodiy o’sishni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lish jarayoni va GSP+ imtiyozlaridan samarali foydalanish orqali kichik biznesning xalqaro bozorlardagi mavqeini mustahkamlash mumkin. Buning uchun davlat tomonidan kompleks yondashuv zarur bo’lib, u axborot-konsalting, moliyaviy, kadrlar va infratuzilma qo’llab-quvvatlashini o’z ichiga olishi lozim. Xorijiy davlatlarning ilg’or tajribasini mahalliy sharoitlarga moslagan holda qo’llash kichik biznesning eksport faoliyatini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Belloc, M., & Di Maio, M. (2011). Survey of the Literature on Successful Strategies and Practices for Export Promotion by Developing Countries. International Growth Centre Working Paper, 11/0248, 1-45.
2. Lederman, D., Olarreaga, M., & Payton, L. (2006). Export Promotion Agencies: What Works and What Doesn’t. The World Bank Policy Research Working Paper, No. 4044, 1-30.
3. OECD (2021). Uzbekistan: Enhancing SME Competitiveness. SME Policy Index: Eastern Partner Countries, OECD Publishing, Paris.
4. Абдуллаев А.М. Проблемы внешнеэкономической деятельности // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. № 3, 2012, 1-12.
5. Асқаров Н.И. Ўзбекистон Республикасида ташқи савдо ва божхона соҳаларини уйғун бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини

такимллаштириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди диссертацияси. Тошкент, 2018.

6. World Bank (2025). Uzbekistan Overview: Development news, research, data. Washington, DC: World Bank Group.

7. World Bank (2025). Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. Washington, DC: World Bank Group.

8. European Economic and Social Committee (2018). Study on best practices on national export promotion activities. Brussels: EESC.

9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2025). O'zbekiston tashqi savdosi statistik to'plami. Toshkent.

10. Global Council for the Promotion of International Trade (2025). The Korean Blueprint: Empowering SMEs for Inclusive Growth and Lessons for FfD4. GCPIT Report.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YASHIL IQTISODIYOTDA MILLIY SHAFFOFLIK TIZIMI

Urakov Tuxtamurat Muxiddinovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti v.b.

e-mail: tuxtamuraturakov@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a234

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida milliy shaffoflik tizimini joriy etishning ahamiyati, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni, hamda davlat boshqaruvida ochiqlik tamoyillarini mustahkamlash mexanizmlari yoritilgan. Maqolada milliy shaffoflik tizimini shakllantirishning asosiy bosqichlari, ularning amaliy ahamiyati hamda yashil iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, shaffoflik, barqaror rivojlanish, ochiqlik tizimi, ekologiya, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya.

НАЦИОНАЛЬНАЯ СИСТЕМА ПРОЗРАЧНОСТИ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Ураков Тухтамурат Мухиддинович

и.о. доцент Навоийского инновационного университета

Аннотация. В статье рассматривается важность внедрения национальной системы прозрачности в процессе перехода к «зелёной» экономике в Республике Узбекистан, её роль в обеспечении экономической и экологической стабильности, а также механизмы укрепления принципов открытости в государственном управлении. Анализируются основные этапы формирования национальной системы прозрачности, их практическое значение и приоритетные направления развития «зелёной» экономики.

Ключевые слова: «зелёная» экономика, прозрачность, устойчивое развитие, система прозрачности, экология, экономическая эффективность, инновации.

NATIONAL TRANSPARENCY SYSTEM IN THE GREEN ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Urakov Tukhtamurat Mukhiddinovich

Acting associate Professor, Navoi Innovation University

Abstract. This article discusses the importance of implementing a national transparency system in the process of transition to a green economy in the Republic of Uzbekistan, its role in ensuring economic and environmental stability, and mechanisms for strengthening the principles of openness in public administration. The article analyzes the main stages of forming a national transparency system, their practical significance, and the priority areas of the green economy.

Keywords: Green economy, transparency, sustainable development, transparency system, ecology, economic efficiency, innovation.

Kirish

So‘nggi yillarda global miqyosda ekologik barqarorlik masalasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida e‘tirof etilmoqda. Tabiiy muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatmagan holda iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash konsepsiyasi — “yashil iqtisodiyot” tamoyillarining asosiy g‘oyasini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu yo‘nalishda tizimli va kompleks islohotlarni amalga oshirmoqda. Yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni nafaqat ilg‘or texnologiyalarni joriy etishni, balki davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik, shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini mustahkamlashni ham talab etadi. Shu bois, milliy shaffoflik tizimini rivojlantirish mamlakatning strategik maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Hozirda O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish jarayonida xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur o‘rganish, ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, ekologik siyosatni iqtisodiy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirish zarurati ortib bormoqda. Ushbu ilmiy tadqiqotda aynan shu yo‘nalishdagi dolzarb muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirish jarayonida barqaror taraqqiyot tamoyillariga rioya etgan holda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirish muhim va murakkab vazifalardan biri hisoblanadi.⁷⁹ Ushbu omillar o‘rtasida muvozanatni saqlash, bir tomondan, ijtimoiy adolatni ta‘minlash hamda aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash imkonini bersa, boshqa tomondan, iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keluvchi ekologik oqibatlarni baholash va ularni boshqarish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ayniqsa, ekologik barqarorlikni iqtisodiy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilish bo‘yicha yangi ilmiy-nazariy yondashuvlar shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga doir muhim huquqiy hamda institutsional asoslar yaratilgan. Jumladan, 2019-yil 4-oktabrda tasdiqlangan “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” mamlakatning barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirishda asosiy dasturiy hujjat sifatida xizmat qilmoqda.⁸⁰

Mazkur strategiyada ustuvor yo‘nalishlar sifatida energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab

⁷⁹ “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta barqaror yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 sonli Farmoni.

⁸⁰ 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” Iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori

chiqarish jarayonlarini texnologik modernizatsiya qilish, shuningdek, moliyaviy mexanizmlar orqali ekologik xavfsizlikni mustahkamlash kabi vazifalar belgilab qo'yilgan. Strategiyada ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yilga nisbatan kamida 10 foizga kamaytirish, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va aholining ekologik toza, arzon va ishonchli energiya manbalari bilan to'liq ta'minlanishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, ekologik jihatdan samarali transport vositalarini ishlab chiqish va joriy etish, yoqilg'i sifati hamda avtomobilsozlik texnologiyalarini takomillashtirish orqali elektr transporti bozorini kengaytirish istiqbollari ham belgilab berilgan. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirishga, iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Bugungi globallashuv davrida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi hamda ekologik texnologiyalarni shakllantirish va ularni barqaror rivojlantirishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar nafaqat xalqaro miqyosda, balki milliy darajada ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xalqaro ilmiy doiralarda Tim Jackson tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy o'sish va barqarorlik muammolariga oid yondashuvlar, Jeffrey Sachsning barqaror rivojlanish strategiyasi bo'yicha takliflari, Nobel mukofoti sohibi Elinor Ostromning tabiiy resurslarni jamoaviy boshqarish modellari haqidagi nazariyalari, shuningdek, Robert Costanza hamda uning hamfikir olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ekologik iqtisodiyot tamoyillari bugungi kunda muhim nazariy asos sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyot va ekologik xavfsizlik yo'nalishlarida salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, uglerod neytralligi, bioiqtisodiyot hamda atrof-muhitga minimal zarar yetkazuvchi texnologiyalarni joriy etish masalalari bo'yicha professor Sh. Tursunov, iqtisod fanlari doktori Shuhrat Yuldashev, S. Ilyosov, A. Jo'rayev va M. Sodiqov singari yetuk mutaxassislarning ishlari e'tiborga loyiqdir. Ularning ilmiy qarashlari milliy ekologik siyosatni takomillashtirish, yashil moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda barqaror iqtisodiy modelni joriy etishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nazariy asoslar

Yashil iqtisodiyot tushunchasi zamonaviy global iqtisodiy tizimda barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida shakllanayotgan yangi model hisoblanadi. Bu model iqtisodiy o'sishni atrof-muhitni asrash bilan uyg'unlashtirgan holda olib borishni nazarda tutadi. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan 2011-yilda ishlab chiqilgan

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, uglerod emissiyasini pasaytirish hamda ijtimoiy farovonlikni oshirish ustuvor yoʻnalish sifatida belgilangan.

Nazariy jihatdan, yashil iqtisodiyot gʻoyasi bir necha yondashuvlarga asoslanadi: A. Pigou tomonidan ilgari surilgan “tashqi effektlar” nazariyasi, R. Costanza va D. Pearce tomonidan ishlab chiqilgan ekologik iqtisodiyot modeli, G. Brundtlandning barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda N. Georgescu-Roegenning bioiqtisodiy modeli. Ushbu nazariyalar umumiy jihatdan iqtisodiy oʻsishni cheklangan resurslardan oqilona foydalanish orqali ekologik meʼyorlarga muvofiq tashkil etish gʻoyasini ilgari suradi.

Yashil iqtisodiyot mohiyatan iqtisodiy rivojlanishni tabiiy boyliklarni tejash, ekologik muvozanatni saqlash va inson farovonligini oshirish bilan uygʻunlashtiruvchi tizimdir. Bunda ishlab chiqarish, transport, energetika va qishloq xoʻjaligi sohalarida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ustuvor yoʻnalishlardan hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot tizimini joriy etish 2019-yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi” orqali boshlangan. Mazkur hujjatda quyidagi ustuvor yoʻnalishlar belgilangan:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish;
- ekologik loyihalarga sarmoyalarni koʻpaytirish;
- axborot tizimlarida shaffoflikni taʼminlash;
- fuqarolik jamiyatining faol ishtirokini ragʻbatlantirish.

Natijada, ekologik loyihalarga ajratilayotgan mablagʻlar, davlat xarajatlari va energiya samaradorligiga oid maʼlumotlar ochiq shaklda jamoatchilikka taqdim etilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ilmiy ishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, keys-stadi, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv yordamida yashil iqtisodiyot bilan barqaror rivojlanish oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar aniqlanib, ularning kompleks bahosi amalga oshirildi. Qiyosiy tahlil orqali Oʻzbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan solishtirilib, ustunlik va kamchiliklar tahlil qilindi.

Keys-stadi usuli yordamida ayrim mamlakatlar (Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Daniya)da yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish tajribalari oʻrganildi. Ilmiy abstraksiya va sintez asosida mavjud nazariyalar umumlashtirilib, Oʻzbekiston sharoitiga mos modifikatsiyasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida Tim Jackson, Jeffrey Sachs, Elinor Ostrom, Robert Costanza kabi xalqaro ekspertlarning ishlari, shuningdek, Sh. Tursunov, S. Ilyosov, A. Joʻrayev va M. Sodiqovning ilmiy qarashlari nazariy asos sifatida foydalanildi. Natijada, Oʻzbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amalga

oshirishdagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari va istiqbolli yo‘nalishlar aniqlanib, ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Har bir mamlakat uchun “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni alohida strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-sonli “O‘zbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan Milliy shaffoflik tizimi konsepsiyasini tasdiqlash belgilab qo‘yilgan.

1-jadval

Milliy shaffoflik tizimini joriy etishning tajriba-sinov (ikkinchi) bosqichi

Asosiy yoʻnalishlar	2025-yil				2026-yil	
	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak	1-chorak	2-chorak
Tizim dizayni	Issiqxona gazlari milliy xatlovi yillik ish rejasini tayyorlash					
Huquqiy baza va institutsional tartibga solish	Institutsional va tashkiliy asoslarni joriy qilish					
Xatlov	Birinchi Ikki yillik shaffoflik hisobot (BTR1) uchun maʼlumotlarni yigʻish va qayta ishlash					
Yumshatish	Yumshatish va moslashish maqsadlariga erishish jarayonini baholash uchun maʼlumotlarni toʻplash va qayta ishlash					
Moslashish						
Hisobot				Ikki yillik shaffoflik hisobot (BTR1) loyihasi ishlab chiqish	Birinchi ikki yillik shaffoflik hisobot (BTR1)ni tasdiqlash va yuborish	
Malakani oshirish	Hisoblash, vositalar va metodologiyalar boʻyicha texnik treninglar va ishchi mashgʻulotlar, shu jumladan uslubiy koʻrsatmalar tayyorlash					
Dasturiy taʼminot	Milliy shaffoflik tizimining onlayn platformasini ishga tushirish		Milliy shaffoflik tizimining onlayn platformasini orqali maʼlumotlarni yigʻish va qayta ishlash			
Muvofiqlashtirish	Ishchi guruhning har ikki oylik yigʻilishlarini oʻtkazish					
				Sinov (pilot) bosqichini baholash va tavsiyalar ishlab chiqish. Yangilangan Ikki yillik shaffoflik hisoboti ish rejasini ishlab chiqish		

Mazkur hujjatda quyidagi asosiy yo‘nalishlar belgilangan:

- “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonida milliy shaffoflik tizimini shakllantirish tamoyillari va maqsadlari;
- Tizimni joriy etishda institutsional va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlari;
- Ochiq ma’lumotlar almashinuvi hamda resurslar bilan ta’minlash tartiblari;
- Issiqxona gazlari chiqindilari va iqlim o‘zgarishini boshqarish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy etish;
- Mustaqil tekshiruv tashkilotlarini (verifikatorlar) ilg‘or tajriba va xalqaro me’yorlar asosida akkreditatsiyadan o‘tkazish tartiblarini belgilash;
- Xorijiy akkreditatsiya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali akkreditatsiya tizimini yanada rivojlantirish;
- Akkreditatsiyadan o‘tgan mustaqil tekshiruv tashkilotlari ro‘yxatini doimiy yangilab borish va e’lon qilish tizimini joriy etish.

Ushbu bosqichda milliy shaffoflik tizimi amaliyotda sinovdan o‘tkaziladi. Shuningdek, tajriba jarayonida olingan natijalar tahlili asosida normativ-huquqiy asoslar, tizim vositalari va metodologiyalarni takomillashtirish maqsadida ishtirokchilar bilan muntazam muhokamalar tashkil etish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

O‘zbekiston oldida turgan eng muhim yo‘nalishlardan biri — “yashil iqtisodiyot”ga bosqichma-bosqich o‘tishdir. Bu jarayonda quyidagi vazifalar dolzarb hisoblanadi:

- Suv, yer, biologik resurslar kabi tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ularni boshqarish samaradorligini oshirish;
- Mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi inshootlar qurish;
- Ekologik bosimni kamaytirishning tejamkor usullarini joriy etish orqali aholining farovonligini va atrof-muhit sifatini yaxshilash;
- Milliy xavfsizlik, ayniqsa suv xavfsizligini ta’minlash tizimini mustahkamlash.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot tizimini rivojlantirish yo‘lida olib borilgan tahlillar xorijiy davlatlar tajribasi asosida bir qancha muhim natijalarni ko‘rsatdi. Xususan:

- Moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish,
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish,
- Ekologik siyosatni iqtisodiy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirish kabi yo‘nalishlar muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, milliy sharoitga moslashtirilgan yashil iqtisodiyot modellarini qo‘llash orqali O‘zbekistonning barqaror rivojlanishiga erishish

mumkinligi aniqlandi. Tadqiqot asosida mamlakatning yashil iqtisodiyotga oid faoliyatini yanada samarali qilish uchun istiqbolli yoʻnalishlar va amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Oʻzbekiston bugungi kunda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etib, muhim natijalarga erishmoqda. Biroq tizimni yanada takomillashtirish uchun quyidagi yoʻnalishlar muhim hisoblanadi:

1. Raqamli boshqaruvni rivojlantirish — ekologik jarayonlar va monitoring tizimlarini raqamlashtirish orqali maʼlumotlarni real vaqt rejimida kuzatish.
2. Ochiq maʼlumotlar bazasini kengaytirish — ekologik loyihalar va ularning moliyaviy manbalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni jamoatchilikka eʼlon qilib borish.
3. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish — nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari orqali ekologik faoliyatni mustaqil tahlil qilish.
4. Kadrlar salohiyatini oshirish — yashil iqtisodiyot sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini yoʻlga qoʻyish.

Umuman olganda, Oʻzbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga oʻtish nafaqat ekologik yoki iqtisodiy islohotlarni anglatadi, balki yangi boshqaruv madaniyatini shakllantirish jarayoni sifatida ham eʼtirof etiladi. Milliy shaffoflik tizimini samarali joriy etish orqali davlat va jamiyat oʻrtasida oʻzaro ishonchni mustahkamlash, ekologik xavfsizlikni taʼminlash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Shu tariqa, shaffoflik mexanizmlarining toʻliq ishlashi Oʻzbekistonning barqaror, ekologik toza va raqobatbardosh kelajagini yaratishda mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga oʻtishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-son qarori
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi toʻgʻrisida”gi qarori. – Toshkent, 2019.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari toʻplami. – 2021.
4. 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “Yashil” Iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori
5. 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-sonli “Oʻzbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot”ga oʻtishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-213-sonli qarori

6. Yashil iqtisodiyot loyihasi: Devid Pirs, Anil Markandya va Edvard B. Barbier. Earthscan, London, Buyuk Britaniya, 1989. 192 bet
7. Meyliev, O. R. (2017). Nalogovye faktory ekonomicheskogo razvitiya regionov. *Ekonomi va biznes: nazariya i amaliyot*, (5), 161-163.
8. United Nations Development Programme (UNDP) Report on Green Economy, 2022.
9. OECD Green Growth Indicators. – Paris, 2020.
10. Xudoyberdiyeva D., “O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari”, *Iqtisod va jamiyat jurnali*, 2022.
11. World Bank. *Transparency and Sustainable Development*. – Washington, 2021.
12. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent, 2021.
13. Abdullayeva R. A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanishi: INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “DIGITAL TECHNOLOGIES AND TOURISM MARKETING: INNOVATIVE APPROACHES AND GLOBAL OPPORTUNITIES”, MAY 16-17, 2025
14. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
15. www.un.org – BMT barqaror rivojlanish maqsadlari.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



IQTISODIYOTGA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI ORQALI PORTFEL INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI

Shomirov Azizbek Abdurashidovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

“Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrası dosenti, DSc

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a235

Annotatsiya. Ushbu maqolaning kirish qismida jahon hamjamiyatida kuzatilayotgan turli nizoli vaziyatlarning kapital egalari bo'lgan investorlar faoliyatiga salbiy ta'siri yuzasidan fikr-mulohazalar, jumladan, qimmatli qog'ozlar bozori (QQB) orqali riski past bo'lgan moliyaviy instrumentlarga yo'naltiriladigan portfel investitsiyalar zaruriyati bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Mamlakatimizda sohani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ hujjatlarda belgilangan vazifalar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Adabiyotlar sharhida turli iqtisodchilarning portfel investitsiyalar yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalari berilgan. Tahlil va natijalar qismida O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish amaliyoti tahlil qilingan. Maqola yakunida sohani rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qimmatli qog'ozlar bozori, fond bozori, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar.

ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПОРТФОЛИО- ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ ЧЕРЕЗ РЫНОК ЦЕННЫХ БУМАГ

Шомиров Азизбек Абдурашидович

Ташкентский государственный экономический университет,

Доцент кафедры «Оценка и инвестиции», DSc

Аннотация. Во вводной части статьи представлены мнения о негативном влиянии различных конфликтных ситуаций, наблюдаемых в мировом сообществе, на деятельность инвесторов, являющихся собственниками капитала, включая информацию о необходимости портфельных инвестиций, направленных на низкорисковые финансовые инструменты, через рынок ценных бумаг (РМБ). Кратко изложена информация о задачах, поставленных в принятых нормативных документах по развитию сектора в нашей стране. Обзор литературы представляет взгляды и мнения различных экономистов по портфельным инвестициям. В разделе «Анализ и результаты» анализируется практика привлечения инвестиций в экономику Узбекистана. Статья завершается предложениями и рекомендациями по развитию отрасли.

Ключевые слова: рынок ценных бумаг, фондовый рынок, прямые инвестиции, портфельные инвестиции, ценные бумаги в свободном обращении.

THE OBJECTIVE NECESSITY OF ATTRACTING PORTFOLIO INVESTMENTS TO THE ECONOMY THROUGH THE STOCK MARKET

Shomirov Azizbek Abdurashidovich

Tashkent state university of economics,
Associate Professor of the Department of
“Valuation and Investment”, DSc

Abstract. The introductory part of this article presents opinions on the negative impact of various conflict situations observed in the world community on the activities of investors who are owners of capital, including information on the need for portfolio investments directed to low-risk financial instruments through the securities market (SMM). Brief information is provided on the tasks set in the regulatory documents adopted for the development of the sector in our country. The literature review presents the opinions and comments of various economists on portfolio investments. The analysis and results section analyzes the practice of attracting investments to the economy of Uzbekistan. The article concludes with proposals and recommendations for the development of the sector.

Key words: stock market, stock market, direct investment, portfolio investments, free market securities.

Kirish

XXI asrning dastlabki choragida dunyo hamjamiyatida kuzatilayotgan nobarqaror geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy shart-sharoitlar yirik kapital egalari bo'lgan turli investorlarni o'ta sinchkovlik bilan harakat qilishga undamoqda. Xalqaro amaliyot ko'rsatmoqdaki, bunday vaziyatlarda qimmatli qog'ozlar bozori orqali ishonchli moliyaviy instrumentlarga investitsiyalarni yo'naltirish maqbul yechim sifatida namoyon bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar bozori orqali asosan portfel investitsiyalar oqimi kirib keladi va har qanday mamlakat iqtisodiyotida uning yetakchi o'rnini belgilab beradi. Aynan shunday sharoitlarda O'zbekistonda ham milliy qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini yanada rivojlantirish va fond bozori orqali portfel investitsiyalar jalb qilish amaliyotini takomillashtirish borasida ham amaliy ishlar bajarilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi ““O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni 49-maqsadida Pay va venchur jamg'armalar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali portfel investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish vazifasi[1] belgilab berilgan.

Yuqoridagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarning naqadar muhimligi mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bilan bir qatorda portfel investitsiyalarni ham jalb qilish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning natijasini ko'rish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Iqtisodiyotni investitsiyalar jalb qilish orqali rivojlantirish borasida, qolaversa, investitsiya muhitini yaxshilash yuzasidan ko'plab iqtisodchilar tadqiqotlar olib borishgan va ushbu ilmiy izlanishlar bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Xalqaro kapital (investitsiya) oqimlari shakllari,

jumladan portfel investitsiyalarning zaruriyati va ahamiyati borasida jahon hamda mahalliy yetakchi iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari tahlilini keltirib o'tishni maqsad qildik.

Portfel investitsiyalari nazariyasi zamonaviy moliya fanining asoslaridan biridir. Uning asosiy tamoyillariga ikki taniqli amerikalik iqtisodchi tomonidan asos solingan, ularning ishlari kapitalni boshqarish yuzasidan yondashuvlarni tubdan o'zgartirgan. 1950-yillarda Garri Markovis tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy portfel nazariyasi (Modern Portfolio Theory, MPT) optimal investitsiya portfellarini yaratish uchun matematik yondashuvdir. Bu nazariya tavakkalchilik va kutilayotgan daromad o'rtasidagi o'zaro kelishuvga asoslanadi, bunda investorlar odatda tavakkalchilikdan voz kechishadi va ma'lum darajadagi tavakkalchilik uchun daromadni maksimal darajada oshirishga yoki istalgan daromad olish uchun xavfni minimallashtirishga intiladilar[2]. 1960-yillarda Uilyam Sharp tomonidan ishlab chiqilgan Kapital aktivlarini baholash modeli (Capital Asset Pricing Model, CAPM) Markovis nazariyasining tabiiy davomi va soddalashtirilgani edi. U investitsiyaning talab qilinadigan daromadini uning xavfi bilan bog'lash uchun izchil asosni taqdim etdi[3].

Rossiyalik iqtisodchi G.M. Kostyuninaning tadqiqotlarida portfel investitsiyalari xorijiy investorga nazorat qilish huquqini bermaydigan kapital qo'yilmalar sifatida qaraladi. Ular, shuningdek, mamlakatlar o'rtasidagi foiz stavkalaridagi tafovut tufayli tez chiqib ketishining potensial xavfi tufayli “issiq pul” yoki spekulativ kapital deb ataladi[4].

L.I. Yuzvovich, S.A. Degtyareva, Ye.G. Knyazevoylarning fikricha “Portfel investitsiyalari kapital (asosan aktivlar, ba'zi hollarda majburiyatlar) portfelini diversifikatsiya qilish orqali foyda olish va riskni kamaytirish uchun amalga oshiriladi”[5]. Yana bir iqtisodchining fikricha “Portfel investitsiyalari - bu turli investorlar (davlat, korporasiyalar va xususiy kompaniyalar) tomonidan bozorga chiqarilgan aksiyalar, obligasiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga mablag'rni qo'yishdir”[6].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan F.A. Xamidova tadqiqot ishida O'zbekistonda xususiylashtirilgan korxonalarni modernizatsiya qilish va rivojlantirish uchun portfel investitsiyalarni, ayniqsa, xorijiy investorlarni jalb qilish muhimligi ta'kidlangan. Portfel investitsiyalarni jalb qilish uchun O'zbekiston QQBni rivojlantirish zarurligi ko'rsatilgan. Portfel investitsiyalari sohasidagi jahon tendensiyalarini tahlil qilish, xususiylashtirilgan korxonalarning investitsiya salohiyatini baholash va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga olgan tadqiqot maqsadlari aniqlangan[7]. Iqtisodchi S.Ye. Elmirzayev esa, portfel investitsiyalar jalb qilishning iqtisodiy makoni hisoblangan kapital qozori haqida to'htalar ekan, “Kapital bozorida “uzun pullar” muomalasi tashkil etilib, unda asosan aksiyalar va obligasiyalar amal qiladi. Muomala muddati esa bir yildan ortiq

bo'ladi. Kapital bozorining pul bozoridan asosiy farqli jihati uzoq muddatli investitsiyalardan foydalanilishi bilan izohlanadi” deb ta'kidlaydi[8].

Yuqoridagi iqtisodchilar hamda boshqa ilmiy izlanishlar natijasida xulosa qilish mumkinki, portfel investitsiyalar - bu kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga ular ustidan nazoratni qo'lga kiritish maqsadisiz qo'yilgan moliyaviy resurslardir. Turli risklarni kamaytirish maqsadida investorlar turli emitentlardan qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali o'z investitsiya portfellarini diversifikasiya qiladilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, statistik kuzatish, taqqoslash, guruhlash hamda induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida iqtisodiyotga portfel investitsiyalar jalb qilish tizimini takomillashtirish orqali mamlakat investision jozibadorligini yanada oshirishga oid ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Yuqorida xorijiy va mahalliy iqtisodchilarning portfel investitsiyalar bo'yicha yondashuvlari, uning iqtisodiyotdagi o'rni va zaruriyati bo'yicha fikr-mulohazalarini keltirib o'tdik. Quyidagi 1-rasmda to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalarning xususiyatlari, jumladan ushbu tushunchalarning farqlanishini keltirib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1-jadvaldan xulosa qilish mumkinki, investitsiyalarning yo'naltirilish shakliga ko'ra ushbu ikki turi ham iqtisodiyot uchun muhim sanaladi, lekin QQB orqali asosan portfel investitsiyalar oqimi kirib keladi.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugun dunyoda kuzatilayotgan vaziyatlar investorlarni kamroq risk qilishga majbur qilmoqda, shu munosabat bilan ular maksimal tarzda riski pastroq instrumentlarga qiziqmoqda. Bunday holatda ular o'zlarining investitsiya portfellarini ham doimiy ravishda diversifikasiyalab bormoqda.

Quyidagi 2-jadvalda aynan so'nggi yillarda jahonda investitsiyalar hajmi va dinamikasi bo'yicha ayrim raqamlarni keltirib o'tamiz. 2-jadvaldan kuzatish mumkinki, ayrim davlatlarda to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar hajmi bo'yicha oxirgi 9 yil ichida sezilarli o'sishga erishilgan. Misol uchun Germaniya, Yaponiya va Kanada kabi dunyoning eng rivojlangan 7 mamlakati qatoriga kiruvchi mamlakatlarda ham to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi, ham portfel investitsiyalar umumiy qiymati parallel ravishda o'sib borgan. AQSh va Fransiyada kabi dunyoning eng rivojlangan mamlakati kategoriyasiga kiruvchi mamlakatlarda esa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 2023 yilda 2015 yilga nisbatan kamaygan, lekin portfel investitsiyalar umumiy qiymati esa AQShda deyarli ikki barobarga oshib 23,6 trln. AQSh dollarini tashkil qilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Osiyo mamlakatlari bo'yicha raqamlarni tahlil qiladigan bo'lsak, e'tiborimiz albatta Xitoy Xalq Respublikasiga tushadi. Ushbu davlatda 2015 yilda jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar salkam 136 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, bu

ko'rsatkich 2023 yil yakuniga kelib 163 mlrd. AQSh dollaridan oshib ketgan. Portfel investitsiyalar bo'yicha ham Xitoyda tahlil etilayotgan muddatda 2 barobardan ortiq o'sish kuzatilgan.

1-jadval

**To'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalarning
xususiyatlari va farqlanishi⁸¹**

№	Tasnifi	To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
1.	Maqsadi	Muayyan korxonani boshqarish, uning faoliyati ustidan nazoratni qolga kiritish yoki sezilarli ta'sir ko'rsatish.	Korxonani boshqarishda ishtirok etmasdan, qimmatli qog'ozlarga egalik qilishdan passiv daromad (foizlar, dividendlar) olish. Maqsad - muntazam daromad va xavfni minimallashtirish.
2.	Investision obyekt	Ishlab chiqarish aktivlari yoki ustav kapitalidagi ulushlar. Moddiy aktivlarga investitsiyalar, turli biznes loyihalari, ishlab chiqarish.	Qimmatli qog'ozlar: aksiyalar, obligasiyalar, veksellar, fyucherslar, opsionlar, shuningdek, qimmatbaho metallar va boshqa aktivlar.
3.	Nazorat darajasi	Investorga kompaniya faoliyatini nazorat qilish va ta'sir qilish, shu jumladan, direktorlar kengashiga o'z vakillarini tayinlash imkoniyatini taqdim qiladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kamida 10% ovozga egalik qilishdir.	Investorga korxonani boshqarish yoki operativ boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydi.
4.	Kapital hajmi	Ko'pincha katta xarajatlarni talab qiladigan katta miqdordagi boshlang'ich kapital bilan tavsiflanadi.	Nisbatan past miqdordagi sarmoya.
5.	Likvidlilik	Kamroq likvidli, ya'ni aktivlarni minimal yo'qotishlar bilan tezda sotish qiyinroq.	Yuqori likvidlikka ega bo'lsa, investor istalgan vaqtda bozorda aktivlarini sotishi mumkin.
6.	Muddati	Ko'pincha uzoq muddatli investitsiyalar sifatida qabul qilinadi.	Ko'pincha investitsiyalar qisqa yoki o'rta muddatga amalga oshiriladi.
7.	Daromad va risk	Potensial yuqori foyda, lekin yuqori xavflar, shu jumladan mablag'larni to'liq yo'qotish ehtimoli.	Daromad odatda past bo'ladi, lekin investor risklarni diversifikatsiya qiladi va faqat investitsiya qilingan mablag'lar doirasida mablag'larini yo'qotishi mumkin. Kapitalni inflyatsiyadan himoya qilish mumkin.
8.	Investor ishtiroki	Investor kompaniya faoliyatida faol ishtirok etadi, uning o'ziga xos xususiyatlariga singib ketadi, ehtimol nafaqat pulni, balki tajribani ham sarmoya qiladi.	Investor savdo operatsiyalarida ishtirok etmaydi, kapital boshqaruvini mutaxassislarga ishonib topshiradi.
9.	Shakllanishi	To'g'ridan-to'g'ri investor tomonidan yoki to'g'ridan-to'g'ri investitsiya fondlari orqali amalga oshirilishi mumkin.	Broker yoki boshqa vositachilar orqali shakllanadi.

O'z vaqtida “Osiyo yo'lbarisi” sifatida nom qozongan Janubiy Koreyada to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 2023 yilda 2022 yilga nisbatan deyarli 10 mlrd. AQSh dollariga yaqin miqdorga kamaygan bo'lsada, 2015 yil bilan solishtirilganda ushbu ko'rsatkich 3,5 barobarga oshib, 15,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan.

⁸¹ Муаллиф ишланмаси

2-jadval

2015-2023 yillarda dunyo mamlakatlari kesimida investitsiyalar dinamikasi[9], 31-dekabr sanasi holatiga⁸²

№	Mamlakatlar	O'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, mlrd. AQSh dollari									Portfel xorijiy investitsiyalar umumiy qiymati, mlrd. AQSh dollari								
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1.	AQSh	467,6	459,4	308,9	203,2	229,9	93,2	389,4	332,3	310,9	12026,0	13018,2	14609,2	14489,1	16597,2	19685,5	22167,1	18939,0	23623,2
2.	Yaponiya	2,9	19,3	9,3	9,9	13,7	11,7	34,2	34,1	21,433	2024,5	2127,2	2616,3	2459,9	2772,1	3403,1	3217,1	2890,0	3057,5
3.	Germaniya	20,3	22,6	48,3	72,02	52,6	69,9	51,2	27,4	36,698	2887,0	2753,7	3120,4	2817,9	3023,1	3491,0	3340,9	2747,2	3122,2
4.	Kanada	43,8	36,05	22,7	37,6	50,5	25,5	60,3	46,1	50,3	1288,3	1529,0	1783,0	1781,7	1973,4	2199,9	2582,2	2294,3	2565,4
5.	Fransiya	45,8	23,9	29,3	34,6	20,4	13,1	34,1	75,9	42,03	3044,0	3069,9	3583,7	3401,4	3764,4	4316,5	4255,3	3666,1	4230,2
6.	Koreya Respublikasi	4,1	12,1	17,9	12,1	9,6	8,7	22,06	25,04	15,1	451,9	510,1	666,6	602,1	657,6	849,0	803,3	670,3	783,0
7.	Xitoy Xalq Respublikasi	135,5	133,7	136,3	138,3	141,2	149,3	180,9	189,1	163,2	822,2	838,7	1159,2	1192,4	1457,4	1917,4	2008,0	1627,1	1711,1
8.	Argentina	11,7	3,2	11,5	11,7	6,6	4,8	6,9	15,4	22,9	35,5	58,8	104,2	80,7	51,4	41,7	37,3	29,4	35,3
9.	Singapur	59,7	67,5	85,3	73,1	97,5	74,8	126,6	141,1	159,6	275,1	303,7	425,2	334,3	367,8	376,6	440,8	425,7	536,9
10.	Rossiya Federasiyasi	11,8	37,1	25,9	13,2	32,07	10,4	38,6	- 15,2	8,3	125,8	171,1	196,1	168,3	231,5	181,3	185,1	58,1	51,5
11.	Turkiya	18,9	13,6	11,1	12,5	9,4	7,6	11,4	13,4	10,4	129,6	113,5	135,2	100,5	107,1	97,7	74,1	65,2	74,6
12.	Saudiya Arabistoni	3,9	21,9	1,01	12,1	3,07	1,6	23,1	28,05	12,3	10,4	16,6	26,0	32,8	73,4	54,9	116,6	109,5	75,8
13.	Misr Arab Respublikasi	6,9	8,1	7,4	8,1	9,01	5,8	5,1	11,4	9,8	9,6	11,0	30,3	30,8	50,7	46,3	46,7	24,3	23,3
14.	Qozog'iston	4,057	8,514	4,714	3,898	3,284	3,670	3,353	6,541	3,223	13,9	13,8	17,6	14,1	16,1	18,5	22,0	14,2	14,8
15.	O'zbekiston	1,041	1,663	1,797	0,625	2,316	1,728	2,275	2,498	2,187	0,10	0,10	0,10	0,13	1,28	1,97	4,16	3,58	3,41

⁸² <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2024> Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Савдо ва Ривожланиш бўйича Конференцияси (UNCTAD) ҳисоботлари ва <https://data.imf.org/?sk=b981b4e3-4e58-467e-9b90-9de0c3367363> Халқаро валюта жамғармаси маълумотларини тизимлаштирган ҳолда муаллиф томонидан шакллантирилди

Portfel investitsiyalar hajmi Koreya Respublikasida 2015 yildagi 451,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilda 783 mlrd. AQSh dollariga yetgan. Ushbu jadvalda berilgan raqamlarni tahlil qilishda davom etar ekanmiz, e'tiborimizni MDH davlatlari bo'yicha raqamlarga ham qaratib o'tamiz. Rossiya Federasiyasida tahlil etilayotgan davrda ham to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, ham portfel investitsiyalar bo'yicha salbiy tendensiyaning kuzatishimiz mumkin. Bu qaysidir ma'noda kutilgan holat bo'lishi mumkin, chunki dunyoning ko'pgina davlatlari sanksiyalari ta'siri ostida qolgan ushbu davlatda birgina 2022 yilning o'zida 15 mlrd. AQSh dollaridan ortiq miqdordagi kapital chiqib ketgan. Portfel investitsiyalar ham 2015 yilga nisbatan 2023 yil yakunlariga ko'ra deyarli 2,5 martaga kamaygan. Yaqin qo'shnilarimiz Qozog'iston Respublikasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi so'nggi yillarda kamayganligini guvohi bo'lshimiz mumkin, o'z o'rnida ta'kidlashimiz kerakki, ushbu mamlakatda portfel investitsiyalar bo'yicha ham sezilarli o'zgarish kuzatilmagan. Shu o'rinda O'zbekiston bo'yicha raqamlarni tahlil qilsak, mamlakatimizda so'nggi 9 yil ichida jalb qilingan xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi deyarli 2 barobarga oshgan, portfel investitsiyalar esa 30 barobarga ko'payib 3,41 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilganligini e'tirof etib o'tishimiz lozim.

Xalqaro darajada portfel investitsiyalar bo'yicha mamlakatlar faolligini ifodalovchi ko'rsatkich bu mamlakatlarning portfel investitsiyalar aktivlaridir. Davlatning portfel investitsiya aktivlari ("Portfolio Investment Assets") - bu davlat investitsiya obyektlari ustidan nazoratni amalga oshirish uchun emas, balki investitsiya daromadlarini olish maqsadida egalik qiladigan moliyaviy aktivlardir. Bu turli xil moliyaviy vositalarga davlat investitsiyalari hajmini aks ettiruvchi ko'rsatkichdir, masalan: aksiyalar bo'yicha hukumat nazoratini bermaydigan kompaniyalardagi egalik ulushlari, obligasiyalar, ya'ni boshqa hukumatlar, kompaniyalar yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari va depozitlar, ya'ni boshqa mamlakatlardagi banklarga joylashtirilgan mablag'lar hamda boshqa moliyaviy vositalar, ya'ni masalan, investitsiya fondlarining paylari kabilar. Quyidagi 3-jadvalda biz portfel investitsiya aktivlari bo'yicha yetakchi davlatlar o'ntaligini ko'rib chiqamiz.

3-jadvaldan kuzatishimiz mumkinki, dunyo mamlakatlari bo'yicha 2023 yil dekabr oyi yakuniga ko'ra portfel investitsiyalar bo'yicha umumiy aktivlar 80 trln. AQSh dollarida oshadi. Shundan 15 trln. AQSh dollaridan oshiq qismi AQShga tegishli bo'lib, o'zidan keyingi o'rindagi Lyuksemburg va Kayman orollari kabi davlatlarning umumiy portfelidan oshiq hajmdagi aktivlarga ega. E'tiborlisi Lyuksemburg ham, Kayman orollari ham juda kichik hududga ega mamlakatlar bo'lib, ushbu davlatlarda investorlarga yaratilgan investision muhit yirik miqdordagi portfel investitsiya aktivlari egalik qilishga turtki bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

2023 yil 31 dekabr holatiga portfel investitsiya aktivlari bo'yicha yetakchi davlatlar o'ntaligi[10]

№	Davlat nomi	Umumiy portfel investitsiya aktivlari, mlrd. AQSh dollarida	Jumladan:			
			Ulushli qimmatli qog'ozlar va investitsiya fondlari aksiyalari	Umumiy qarz qimmatli qog'ozlari	Uzoq muddatli qarz qimmatli qog'ozlari	Qisqa muddatli qarz qimmatli qog'ozlari
1.	AQSh	15210,4	11359,4	3851,0	3397,1	453,8
2.	Lyuksemburg	5864,9	3043,6	2821,3	2384,9	436,3
3.	Kayman orollari	5689,8	3141,1	2548,6	2213,3	335,3
4.	Irlandiya	4921,1	2328,4	2592,7	1926,2	666,4
5.	Yaponiya	4350,2	2033,2	2316,9	2290,6	26,3
6.	Germaniya	4309,2	2084,5	2224,7	2168,2	56,4
7.	Birlashgan Qirollik	4202,6	2678,0	1524,6	1364,5	160,0
8.	Fransiya	3370,0	1148,7	2221,3	1937,9	283,3
9.	Kanada	2578,1	1925,5	652,5	640,9	11,6
10.	Niderlandiya	2249,0	1259,9	989,0	929,9	59,0
Boshqalar		27547,3	13514,0	14032,6	11832,0	2199,8
Dunyo bo'yicha jami		80293,0	44516,7	35775,6	31086,1	4688,8

“Portfolio Investment Liabilities”, ya’ni portfel investitsiya majburiyatlari ko’rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko’rsatkich investorga investitsiya obyekti ustidan nazoratni ta’minlamaydigan ma’lum bir mamlakatning moliyaviy aktivlariga norezidentlarning investitsiyalari hajmini aks ettiradi. Quyidagi 1-rasmda ayrim dunyo mamlakatlarining jahon portfel investitsiya majburiyatlari bo'yicha ulushlari keltirilgan.



1-rasm. 2023 yil yakunlariga ko'ra dunyo mamlakatlarining umumiy portfel investitsiya majburiyatlari bo'yicha ulushlari[11]

1-rasmdan kuzatishimiz mumkinki, dunyo mamlakatlarining umumiy portfel investitsiyalari bo'yicha aktivlari kabi majburiyatlarida ham eng yuqori ulushga AQSh ega bo'lib, deyarli 30 foizni tashkil qiladi. E'tiborlisi, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Kanada kabi dunyoning eng rivojlangan 7 ta mamlakatlari qatoriga kiruvchi davlatlar mos ravishda 5 foiz, 4 foiz, 4 foiz va 3 foizlik ulushga ega bo'lib, hududi jihatidan o'ta kichik Lyuksemburg va Kayman Orollaridan ortda qolganligini alohida ta'kidlash o'tish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, jahonda kuzatilayotgan nobarqaror siyosiy vaziyat ma'lum miqdorda sarmoyaga ega bo'lgan investorlar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aynan shunday vaziyatlarda investorlar imkoni boricha past riskli va o'z o'rnida likvid bo'lgan moliyaviy instrumentlarga kapitallarini yo'naltirmoqda. Shuning uchun bugungi kunda portfel investitsiyalar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga nisbatan ishonchliroq sarmoya yondashuvi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu o'rinda ta'kidlashimiz mumkinki, portfel investitsiyalar oqimini yanada ko'paytirish uchun albatta mamlakat milliy qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatni rivojlantirish, uni tartibga solish tizimini yanada optimallashtirish va jozibadorligini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bizningcha qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish orqali portfel investitsiyalar oqimini yanada ko'paytirish bilan bog'liq quyidagi tavsiyalarni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq:

- sohaning regulativ mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarni unifikasiya qilish lozim;

- islomiy obligasiyalar (Sukuk)ni mamlakatimiz moliya bozorida joriy qilish ishlarini jadallashtirish;

- xalqaro moliya institutlari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini yaratish. Dunyoning yetakchi moliya markazlari ekspertlari ishtirokida QQB mutaxassislari uchun seminarlar, treninglar va yozgi media-lagerlar tashkil etish;

- marketmeykerlarning rolini kuchaytirish. Market-meykerlar talab va taklifdan kelib chiqqan holda qimmatli qog'ozlarga joriy narxlarni belgilash orqali bozor likvidligini ta'minlaydi. Ularning faol ishtiroki investorlar uchun bozor barqarorligi va jozibadorligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O'zbekiston — 2030” Strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni.

2. Markowits Harry M. Portfolio Selection // Journal of Finance. 1952. 7. № 1 pp. 71-91.

3. French, Craig W. (2003). "The Treynor Capital Asset Pricing Model". Journal of Investment Management. 1 (2): 60-72. SSRN 447580.

4. Kostyunina G.M. Mejdunarodnoye dvijeniye kapitala // Mejdunarodnyye ekonomicheskiye otnosheniya : Uchebnik / Pod red. N.N.Livenseva. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M: TK Velbi, Prospekt, 2005. – S. 248-295.

5. Investisii : uchebnik dlya vuzov / pod red. L.I. Yuzvovich, S.A. Degtyareva, Ye.G. Knyazevoy. – Yekaterinburg : Izd-vo Ural. un-ta, 2016. – 543 s.

6. Skripnichenko M.V.Portfelnyye investisii: Uchebnoye posobiye. - SPb: Universitet ITMO, 2016 - 40s.

7. Xamidova F.A. Analiz i puti privlecheniya portfelnyx investitsiy v privatizirovannyye predpriyatiya: avtoreferat diss... k.e.n. - Tashkent, 2009.-19 s.

8. Elmirzayev S.E. va boshqalar. Moliya bozori. Darslik /– T.: “Iqtisod Moliya”, 2019. – 324 b.

9. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2024> Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Rivojlanish bo'yicha Konferensiyasi (UNCTAD) hisobotlari va <https://data.imf.org/?sk=b981b4e3-4e58-467e-9b90-9de0c3367363> Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlarini tizimlashtirgan holda muallif tomonidan shakllantirildi.

10. <https://data.imf.org/?sk=b981b4e3-4e58-467e-9b90-9de0c3367363> Twelfth Meeting of the IMF Committee on Balance of Payments Statistics ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

11. <https://data.imf.org/?sk=b981b4e3-4e58-467e-9b90-9de0c3367363> Twelfth Meeting of the IMF Committee on Balance of Payments Statistics ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA KICHIK SANOAT ZONALARINING O'RNI

Abduqahorov Azizbek Abdullo o'g'li

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a236

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik va o'rta biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda kichik sanoat zonalarining o'rni va ahamiyati tahliliy ma'lumotlar asosida yoritib berilgan. Unda asosiy e'tibor kichik sanoat zonalarini va maxsus sanoat zonalarini kabi xududiy tuzilmalarda faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlari uchun davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va rag'batlantirish vositalari hamda ularning iqtisodiy va bozor imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta biznes subyektlari, eksport faoliyati, kichik sanoat zonalarini, maxsus sanoat zonalarini, texnoparklar.

РОЛЬ МАЛЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ЗОН В ПОВЫШЕНИИ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА МАЛЫХ И СРЕДНИХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Абдукахоров Азизбек Абдулло угли

Исследователь ТГЭУ

Аннотация. В данной статье на основе аналитических данных освещается роль и значение малых промышленных зон в повышении экспортного потенциала малых и средних предприятий. Основное внимание уделяется льготам и стимулам, предоставляемым государством малым предприятиям, работающим в территориальных структурах, таких как малые промышленные зоны и специальные промышленные зоны, а также их экономическим и рыночным возможностям.

Ключевые слова: малые и средние предприятия, экспортная деятельность, малые промышленные зоны, специальные промышленные зоны, технопарки.

THE ROLE OF SMALL INDUSTRIAL ZONES IN INCREASING THE EXPORT POTENTIAL OF SMALL AND MEDIUM-SIZED BUSINESS ENTITIES

Abduqahorov Azizbek Abdullo ugli

Researcher of TSUE

Abstract. This article highlights the role and importance of small industrial zones in increasing the export potential of small and medium-sized business entities based on analytical data. In it, the main focus is on the support and incentives provided by the state for small business entities operating in territorial structures such as small industrial zones and special industrial zones, as well as their economic and market opportunities.

Keywords: small and medium business entities, export activity, small industrial zones,

special industrial zones, techno-parks.

Kirish

O'zbekistonda KO'B subyektlari yalpi ichki mahsulotning salmoqli qismini tashkil qilishi bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsiyalarni joriy etishda ham faol ishtirok etmoqda. Shu jihatdan, ularning eksport salohiyatini yuksaltirish – davlat iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda kichik sanoat zonalar (KSZ) mexanizm sifatida muhim o'rin tutadi.

KSZ - bu belgilangan hududda infratuzilmasi rivojlantirilgan, biznes subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan, soliq va bojxona imtiyozlari berilgan maxsus sanoat maydonlaridir. Ularning asosiy maqsadi mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, importni qisqartirish, eksportga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni oshirishdan iborat.

KSZda faoliyat yuritayotgan KO'B subyektlari zamonaviy infratuzilma va arzon ijara to'lovlari tufayli ishlab chiqarishni samarali tashkil etish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa mahsulot tannarxini kamaytiradi va tashqi bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi. KSZ ko'pincha transport yo'llariga yaqin joylashgan bo'lib, mahsulotni eksport qilish jarayonida logistika xarajatlarini qisqartiradi. Shuningdek, eksport sertifikatlarini olish, mahsulotlarni standartlarga moslashtirishda davlat tomonidan ko'maklashish eksport jarayonini yengillashtiradi.

KSZda joylashgan korxonalar ko'pincha tajribali mutaxassislar, klaster asosida tashkil etilgan ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ish yuritadi. Bu esa eksportbop, sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Masalan, Namangan, Navoiy, Andijon va Toshkent viloyatidagi KSZlar samarali faoliyat ko'rsatib, 2024 yilda umumiy 300 mln dollarlik eksport shartnomalari tuzgan. Buning ortidan yuzlab yangi ish o'rinlari yaratildi va mahalliy resurslar asosida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

World Bank (Jahon banki) ta'rifi "Kichik iqtisodiy zonalar - bu cheklangan geografik hududda joylashgan, maxsus iqtisodiy faoliyat uchun qulay sharoitlar va soliq yengilliklari taqdim etilgan hududlardir. Ular odatda eksportni rivojlantirish, investisiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida yaratiladi."⁸³

UNCTAD (BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi) ta'rifida "Kichik iqtisodiy zonalar - ma'lum sohalarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish uchun yaratilgan, cheklangan geografik hududlardagi maxsus iqtisodiy

⁸³ World Bank. (2008). Special Economic Zones: Performance, Lessons Learned, and Implications for Zone Development. Washington, DC.

tartibotlarga ega bo'lgan maydonlardir.”⁸⁴

N.Sh.Muradova tomonidan olib borilgan tadqiqotda kichik sanoat zonalarining tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribasi ko'rib chiqiladi. Unda turli mamlakatlardagi amaliy tadqiqotlar va ilg'or tajribalarni, shu jumladan rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotdagi muvaffaqiyatli misollarni tahlil qilish orqali kichik sanoat zonalarining biznesni rivojlantirishga ko'maklashishdagi muvaffaqiyatiga hissa qo'shadigan asosiy omillarni yoritib beradi.⁸⁵

Sohada tadqiqot olib borayotgan yana bir mahalliy olim B.Alimov o'z tadqiqotida kichik sanoat zonalarining ahamiyati, kichik sanoat zonalarining hududiy (geografik) turlari, kichik sanoat zonalarining iqtisoslashgan turlari, kichik sanoat zonalarining tashkil etish shakllari, kichik sanoat zonalarining faoliyat shakli hamda ularning eksport salohiyatini oshirishdagi roli va ahamiyati yoritib berilgan.⁸⁶

Kichik sanoat zonalariga oid bildirilgan fikr va mulohazalar asosida aytish mumkinki, mamlakat hududlarining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, bu borada investisiya faoliyatini yana-da faollashtirish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli loyihalardan biri -kichik sanoat zonolari hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda bir qator onlayn ma'lumotlar bazalaridagi ilmiy manbalarda o'z aksini topgan kichik va o'rta biznes subyektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashda KSZlarining o'rni va roli shuningdek, ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va innovasion taraqqiyotiga hamda tashqi iqtisodiy faoliyatini kengayishiga qo'shadigan xissasini baholash masalalariga oid tadqiqotlar o'rganildi va ulardagi ilmiy yondashuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonda ham bo'sh turgan va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari o'rnida tashkil etilgan va bugungi kunda investisiya loyihalari iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari, ushbu hududlar “kichiklashtirilgan sanoat zonolari” hisoblangani sababli, bozor iqtisodiyoti shartlariga tezda transformasiyalanishi bilan ahamiyatlidir. Ta'kidlash joiz bo'lgan yana bir jihat shuki, mamlakatimizda kichik sanoat zonalarining huquqiy asoslari ham shakllantirilgan bo'lib, O'zbekiston

⁸⁴ UNCTAD. (2019). World Investment Report 2019: Special Economic Zones. United Nations Conference on Trade and Development.

⁸⁵ Н.Ш.Мурадова. Кичик саноат зоналарини тadbirkorlik субъектларини ривожлантиришнинг хорижий тажрибаси. Academic Research in Modern Science. International scientific-online conference.

⁸⁶ Б.Б.Алимов. Кичик саноат зоналарини ташкил этишнинг моҳияти, аҳамияти ҳамда жараён кетма-кетлиги. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15645066>.

Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 iyundagi “Kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4363-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi “Kichik sanoat zonalari to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 134-sonli qarorlari muhim ahamiyatga ega.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 13 iyundagi “Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-153 son Farmoni maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari (keyingi o’rinlarda — sanoat zonalari) faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada soddalashtirish, investisiyalar jalb qilish uchun sharoitlarni yaxshilash, investisiya loyihalarini jadal amalga oshirishni ta’minlash, shu asosda yangi ish o’rinlarini tashkil etish va aholi daromadlarini oshirish maqsadlari belgilab olingan.

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi 134-son bilan tasdiqlangan “Kichik sanoat zonalari to’g’risidagi Nizom”ga ko’ra, “kichik sanoat zonasi - ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo’ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlariaro hududning qonun hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko’rsatuvchi infratuzilmaga ega bo’lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi” hisoblanadi.

Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, kichik sanoat zonalari - hududiy-iqtisodiy va innovasion rivojlantirish, xorijiy va mahalliy investorlarni jalb etish maqsadida kichik va o’rta tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan, aniq chegaralari belgilangan va soliq, bojxona va boshqa imtiyozli rejim amal qiluvchi hududdir.

Shahar va tumanlarda tashkil etilayotgan kichik sanoat zonalari ham tadbirkorlarning loyihalarini ro’yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Quyida kichik sanoat zonalarining turlari va shakllari jadval ko’rinishida keltirilgan. Bu zonalar hududiy joylashuvi, ixtisoslashuvi, tashkil etilish shakli va faoliyat yo’nalishlariga qarab farqlanadi (1-jadval).

Rivojlangan xorijiy davlatlarda kichik va o’rta tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash, sanoatni texnologik rivojlanishi bilan bog’liq muammolarni hal etishning muhim mexanizmlaridan biri industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalari hisoblanadi. Hozirgi kunda AQSh va Xitoyda 400 ta, Germaniyada 200 ta, Turkiyada 262 ta, Vetnamda 200 ga yaqin industrial park faoliyat yuritmoqda.

KSZning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha tasniflari⁸⁷

Kichik sanoat zonalarining hududiy (geografik) turlari		
Turi/Shakli	Tavsifi	Misollar va xususiyatlar
Mahalliy (shahar yoki tuman miqyosida)	Mahalliy ishlab chiqarish ehtiyojlariga xizmat qiladi	Tuman markazlaridagi kichik ishlab chiqarish hududlari
Mintaqaviy (viloyat yoki respublika miqyosida)	Keng hududni qamrab oluvchi, ko'p sohaga xizmat qiluvchi zonalar	Viloyatlardagi KSZlar – logistika va eksportga yo'naltirilgan
Kichik sanoat zonalarining iqtisoslashgan turlari		
Sanoatga ixtisoslashgan	Faqat sanoat ishlab chiqarishga yo'naltirilgan	Metallga ishlov berish, kimyo, mashinasozlik
Agrosanoat	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi	Konserva, go'sht-sut, paxtani qayta ishlash
Innovation	Ilmiy-texnik ishlanmalar asosidagi ishlab chiqarish	Startaplar, IT texnologiyalar, muhandislik xizmatlari
Aralash	Turli sohalar vakillari birlashgan zonalar	Texnoparklar, servis-sanoat majmualari
Kichik sanoat zonalarining tashkil etish shakllari		
Davlat tomonidan tashkil etilgan	Hukumat tomonidan moliyalashtirilgan, yer ajratilgan	Maxsus qaror asosida tashkil etiladi
Xususiy (yoki xususiy-davlat sherikchiligi asosida)	Tadbirkorlar tomonidan tashkil etilgan yoki sheriklik asosida	Investisiya jalb qilinadi, o'z infratuzilmasi mavjud
Kichik sanoat zonalarining faoliyat shakli		
Eksportga yo'naltirilgan	Mahsulotlar asosan xorijga eksport qilinadi	Soliq imtiyozlari, eksportni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar mavjud
Ichki bozorga xizmat qiluvchi	Mahalliy iste'molchilar uchun mahsulot ishlab chiqariladi	Mahalliy talabga asoslangan korxonalar
Xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi	Xizmatlar sektori vakillarini birlashtiradi	Avtoxizmatlar, tamirlash, IT xizmatlari

Mazkur zonalar ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik bazasini shakllantirish, ishlab chiqarish jarayonlariga innovasiyalarni joriy etish, yuqori sifatli mahsulotlar yaratish va xizmat ko'rsatishni ta'minlashda asos rolini o'ynamoqda. Jumladan, Xitoyda kichik sanoat zonalar iqtisodiy rivojlanishning

⁸⁷ Б.Б.Алимов. Кичик sanoat zonalarini tashkil etishning mohiyati, ahamiyati hamda jaraen ketma-ketligi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15645066>.

asosiy dvigateliga aylangan. Masalan, “Zhejiang” viloyatidagi KSZlar Xitoyning umumiy eksport hajmining 30% dan ortig’ini ta’minlab kelmoqda. Bu zonalarda kichik va o’rta biznesga soliq yengilliklari, arzon kreditlar va eksportni rag’batlantiruvchi dasturlar taqdim etilgan.

Kichik sanoat zonalar (KSZ) mamlakat iqtisodiyotida kichik va o’rta biznes subektlarini rivojlantirish, mahalliy aholini ish bilan ta’minlash va investisiyalarni jalb qilishda muhim rol o’ynaydi. Ushbu iqtisodiy hududlarning asosiy ko’rsatkichlari va ularning tahlili KSZning iqtisodiy o’sish va barqarorlikdagi ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Mamlakatda 317 ta kichik sanoat zonasi (KSZ) faoliyat olib boradi. Hududlar bo’yicha taqqoslanganda, eng ko’p KSZ Samarqand (22 ta) va Toshkent viloyatlarida (22 ta) joylashgan bo’lib, bu hududlarning iqtisodiy markaz sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Buxoro (21 ta) va Namangan (19 ta) viloyatlarida ham KSZlar iqtisodiy faollikni ta’minlashda muhim o’rin tutmoqda.

2-jadval

Hududlar kesimida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar soni⁸⁸

Xududlar	Jami	MIZ	KSZ	Texnopark	Klaster
O‘zbekiston Respublikasi	864	20	317	21	506
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	88	1	11	1	75
Viloyalar:					
Andijon	59	1	19	1	38
Buxoro	65	2	21	2	40
Jizzax	40	1	12	1	31
Qashqadaryo	49	3	16	2	28
Navoiy	65	2	14	2	47
Namangan	73	4	19	2	48
Samarqand	68	4	22	3	39
Surxondaryo	72	4	20	3	45
Sirdaryo	47	2	11	2	32
Toshkent	61	4	19	3	35
Farg‘ona	70	2	21	2	45
Xorazm	36	2	10	2	22
Toshkent sh.	16	0	3	0	13

Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa 11 ta KSZ faoliyat olib bormoqda. Ayrim viloyatlarda, masalan, Toshkent shahrida KSZlar soni nisbatan kam bo’lib,

⁸⁸ O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/35000-o-zbekiston-respublikasida-maxsus-iqtisodiy-zona-kichik-sanoat-zonasi-texnopark-va-klasterlar-faoliyati>

bu hududlarda kichik sanoat zonalarini kengaytirish imkoniyatlari mavjud. KSZlar sonining hududlar bo'yicha teng taqsimlanmaganligi iqtisodiy faollikni turli hududlarda bir tekis ta'minlash uchun qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

KSZga jalb qilingan investisiyalar hajmi 980,2 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich texnoparklar (169,0 mlrd. so'm) va klasterlar (840,0 mlrd. so'm) bilan taqqoslaganda yuqori bo'lsa-da, MIZda ushbu ko'rsatkich 11 292,3 mlrd. so'mni tashkil qilgani sababli, KSZga qo'shimcha investisiya jalb qilish zarurati mavjud. KSZ hududlaridagi korxonalarining asosiy vazifasi kichik biznes subektlarini rivojlantirish ekanligini hisobga olsak, investisiyalarning cheklanganligi ularda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni sekinlashtirishi mumkin.

KSZning iqtisodiy faoliyati mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida katta o'rin tutadi. Ushbu hududlar korxonalarining kengayishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va ichki bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, KSZ hududlarining diversifikasiyalangan faoliyati iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash uchun strategik ahamiyatga ega.

Shuningdek, ular hududiy iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va aholi bandligini oshirishda katta o'rin tutadi. Shuning uchun KSZni samarali boshqarish va innovasion rivojlantirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi uchun strategik vazifadir.

3-jadval

MIZ, KSZ, texnoparklar, klasterlar tarkibidagi korxonalar soni⁸⁹

Subyekt shakli	Tarkibidagi korxonalar soni	Asosiy kapitalga investisiyalar hajmi (mlrd. so'm)
MIZ	959	11292,3
KSZ	3069	980,2
Texnoparklar	2172	169
Klasterlar	408	840

Kichik sanoat zonolari (KSZ) iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik va o'rta biznes subektlarini qo'llab-quvvatlash, investisiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu iqtisodiy hududlarning moliyaviy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari mamlakat iqtisodiyotining diversifikasiyalangan rivojlanishida o'z o'rniga ega. KSZda amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 7 237,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich MIZ yoki Klasterlarga nisbatan pastroq bo'lsa-da, KSZ kichik va o'rta korxonalar uchun mo'ljallanganligini hisobga olganda, bu natija barqaror rivojlanishning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/35000-o-zbekiston-respublikasida-maxsus-iqtisodiy-zona-kichik-sanoat-zonasi-texnopark-va-klasterlar-faoliyati>

KSZ korxonalari sanoat mahsulotlarining diversifikatsiyasiga hissa qo'shib, mahalliy ishlab chiqarish hajmini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. KSZda asosiy kapitalga jalb qilingan investisiyalar hajmi 980,2 mlrd. so'mni tashkil etib, ushbu hududda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun investision muhit yaratilganligini ko'rsatadi. Investisiyalarning hajmi MIZ bilan taqqoslaganda ancha kam bo'lsa-da, KSZning asosiy vazifasi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'lgani uchun bu ko'rsatkich ularning iqtisodiyotdagi roliga mos keladi. KSZda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 163,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich hududda xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Xizmatlar eksporti hajmi 969,8 ming AQSh dollarini tashkil etib, xalqaro bozor bilan bog'lanish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi.

4-jadval

Mamlakatdagi MIZ, KZS, klaster va texnoparklarning iqtisodiy holati tahlili⁹⁰

O'lchov birligi	MIZ	KSZ	Texnopark	Klaster
Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulot hajmi (QQS va aksizsiz)	20 103,8	7 237,0	410,8	14 130,2
Asosiy kapitalga investisiyalar hajmi	11 292,3	980,2	16,0	840,0
O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi	23,3	5,9	2,76	22,15
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (QQS va aksizsiz)	866,8	163,1	78,4	1 167,7
Hisobot davrida yangi ochilgan ish o'rinlari soni	7 493	5 518	85,9	10 561
Xizmatlar eksporti hajmi	808,0	969,8	2,0	1 853,86
Xizmatlar importi hajmi	618,5	159,9	51 761,6	417,7
Foyda solig'i to'langan yoki zarar	222,6	659,5	204,7	-273,6
Hisobot davri oxirida debitor qarzdorlik	10 635,6	1 889,2	3 673,9	62 074
Hisobot davri oxirida kreditor qarzdorlik	15 887,8	2 211,4	4 055,5	7 680,3


Hisobot davrida KSZda 5 518 ta yangi ish o'rni yaratildi, bu esa kichik sanoat zonalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Mazkur hududlar yangi ish o'rinlari yaratish orqali mahalliy aholini ish bilan ta'minlashda faol rol o'ynaydi.

Biz tomonimizdan tadqiqot davrida KSZ larida faoliyat yuritayotgan KO'B subyektlari va bu xududda faoliyat yuritmayotgan KO'B subyektlarining

⁹⁰ O'zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/35000-o-zbekiston-respublikasida-maxsus-iqtisodiy-zona-kichik-sanoat-zonasi-texnopark-va-klasterlar-faoliyati>

eksportdagi ulushlari nisbiy solishtirib ko’rdik va olingan natijani quyidagi chizmada aks ettirdik (1-rasm).

2019–2024 yillar davomida kichik va o’rta biznes (KO’B) subyektlarining eksport faoliyatida kichik sanoat zonalarining ta’siri aniq namoyon bo’ldi. Jumladan, 2019 yili, KSZsiz va KSZ orqali amalga oshirilgan KO’B eksport hajmi deyarli bir xil — 100 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Bu davrda KSZning ta’siri yangi boshlanayotgan edi. 2020–2021 yillarda, KSZ orqali eksport ko’rsatkichlari sezilarli o’sishni boshladi. Masalan, 2021 yilda KSZ bilan bog’liq KO’B eksport hajmi 145 mln dollarga yetgan bo’lsa, KSZsiz KO’B faqat 130 mln dollar eksport qilgan. 2022–2024 yillarda, bu farq yanada keskinlashdi. 2024 yilga kelib, KSZsiz KO’B 145 mln dollarlik eksport amalga oshirgan bo’lsa, KSZ orqali KO’B 220 mln dollargacha eksport qilib, 75 mln dollarlik ustunlikka erishdi.



1-rasm. KSZ larining KO’B subyektlari eksport salohiyatiga ta’siri⁹¹

Xulosa

Yuqoridagi holatlar KSZlarning eksportga yo’naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi real va samarali ta’sirini yaqqol tasdiqlaydi. KSZlar orqali ishlab chiqarish quvvati oshadi, infratuzilma va logistika imkoniyatlari yaxshilanadi, tadbirkorlar eksportga mos mahsulot ishlab chiqaradi. Natijada, kichik va o’rta biznes subyektlari tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo’lib, umumiy iqtisodiy o’sishga hissa qo’shadi.

⁹¹ Kichik sanoat zonalarida amalga oshirilayotgan loyihalar, eksport salohiyati b’ycha ta’xliiy ma’lumotlari asosida tizimlashtirildi.: economy.gov.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. (2008). Special Economic Zones: Performance, Lessons Learned, and Implications for Zone Development. Washington, DC.
2. UNCTAD. (2019). World Investment Report 2019: Special Economic Zones. United Nations Conference on Trade and Development.
3. N.Sh.Muradova. Kichik sanoat zonalarini tadbirkorlik subektlarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi. Academic Research in Modern Science. International scientific-online conference.
4. B.B.Alimov. Kichik sanoat zonalarini tashkil etishning mohiyati, ahamiyati hamda jarayon ketma-ketligi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15645066>.
5. O'zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/35000-o-zbekiston-respublikasida-maxsus-iqtisodiy-zona-kichik-sanoat-zonasi-texnopark-va-klasterlar-faoliyati>
6. Kichik sanoat zonalarda amalga oshirilayotgan loyihalar, eksport salohiyati bo'yicha tahliliy ma'lumotlari asosida tizimlashtirildi.: economy.gov.uz



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



CHAKANA BANK XIZMATLARIDA SERVIS SIFATINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI TIZIMI

Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Kechki ta'lim” yo'nalishlari rahbari, PhD, dotsent

<https://orcid.org/0009-0003-0559-6552>

i.ibroximov@kiut.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a258

Annotatsiya. Mazkur maqolada chakana bank xizmatlarida servis sifatini baholashning nazariy-uslubiy asoslari hamda ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Bank sektorida raqobat kuchayishi, raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi va mijozlar xulq-atvorining o'zgarishi sharoitida servis sifatini kompleks baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqotda chakana bank xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda, servis sifatini baholashning integrallashgan ko'rsatkichlar tizimi taklif etiladi. Mazkur tizim funksional, texnologik, kommunikativ va sodiqlik (loyallik) komponentlarini qamrab oladi hamda an'anaviy SERVQUAL yondashuvining bank amaliyotiga moslashtirilgan talqinini o'z ichiga oladi. Shuningdek, servis sifatini baholashda mijoz qoniqishi indeksi, Net Promoter Score (NPS), operatsion tezkorlik ko'rsatkichlari, raqamli servis barqarorligi va shikoyatlar intensivligi kabi mezonlarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida chakana banklarda servis sifatini monitoring qilish va strategik boshqarish uchun ko'p omilli baholash modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: chakana bank xizmatlari, servis sifati, baholash ko'rsatkichlari tizimi, mijoz qoniqishi, NPS indeksi, SERVQUAL modeli, raqamli bank xizmatlari, xizmat ko'rsatish samaradorligi, integrallashgan baholash modeli.

СИСТЕМА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА СЕРВИСА В СФЕРЕ РОЗНИЧНЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ

Иброхимов Илхомжон Шавкатжон угли

Ташкентский международный университет Кимё

Руководитель направлений «Вечернее обучение», PhD, доцент

Аннотация. В статье исследуются теоретико-методологические основы оценки качества обслуживания в сфере розничных банковских услуг и формируется система соответствующих показателей. В условиях усиления конкуренции, цифровой трансформации банковского сектора и изменения поведенческих характеристик клиентов обоснована необходимость комплексного и адаптивного механизма оценки качества сервиса. С учетом специфики розничного банковского обслуживания

предложена интегрированная система показателей, включающая функциональный, технологический, коммуникативный и лояльный компоненты. Представленный подход базируется на адаптированной интерпретации модели SERVQUAL с учетом современных банковских реалий. В исследовании проанализирована взаимосвязь индекса удовлетворенности клиентов, показателя Net Promoter Score (NPS), параметров операционной эффективности, надежности цифровых сервисов и интенсивности клиентских обращений и жалоб. В результате разработана многофакторная модель оценки, направленная на совершенствование мониторинга и стратегического управления качеством обслуживания в розничных банках.

Ключевые слова: розничные банковские услуги, качество сервиса, система показателей оценки, удовлетворенность клиентов, индекс NPS, модель SERVQUAL, цифровой банкинг, эффективность обслуживания, интегрированная модель оценки.

SYSTEM OF INDICATORS FOR ASSESSING SERVICE QUALITY IN RETAIL BANKING SERVICES

Ibrokhimov Ilkhomjon Shavkatjon ugli

Kimyo International University in Tashkent

Head of "Evening Education" departments, PhD, Associate Professor

Abstract. This article explores the theoretical and methodological foundations for assessing service quality in retail banking and develops a comprehensive system of evaluation indicators. In the context of increasing competition, rapid digital transformation, and evolving customer behavior, the need for an integrated and adaptive mechanism for measuring service quality is substantiated. Taking into account the specific characteristics of retail banking services, the study proposes a multi-dimensional indicator system that incorporates functional, technological, communicative, and customer loyalty components. The framework represents an adapted interpretation of the SERVQUAL model tailored to contemporary banking practices. Particular attention is given to the interrelation between customer satisfaction index, Net Promoter Score (NPS), operational efficiency metrics, digital service reliability, and complaint intensity indicators. As a result, a multi-factor evaluation model is developed to enhance monitoring and strategic management of service quality in retail banking institutions.

Key words: retail banking services, service quality assessment, evaluation indicator system, customer satisfaction, Net Promoter Score, SERVQUAL model, digital banking, service efficiency, integrated assessment framework.

Kirish

So'nggi yillarda bank tizimida tarkibiy transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning keskin kuchayishi hamda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi chakana bank segmentida sifat omilini strategik ustuvorlik darajasiga olib chiqdi. Avvalgi bosqichlarda banklar foiz stavkalari, tarif siyosati, filial tarmog'ining kengligi kabi omillar orqali raqobatlashgan bo'lsa, hozirgi sharoitda mijoz tajribasi va servis sifati asosiy farqlovchi mezonga aylandi. Raqamli kanallar, xususan mobil ilovalar, internet banking tizimlari, masofaviy identifikatsiya hamda onlayn kreditlash

platformalari chakana bank xizmatlarining bosh interfeysiga aylangan bir paytda xizmat sifati ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni ilmiy asoslangan holda tizimlashtirish hamda strategik boshqaruv bilan integratsiya qilish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Chakana bank xizmatlari nomoddiylik, ajralmaslik, o'zgaruvchanlik hamda saqlanmaslik xususiyatlariga ega bo'lib, mazkur jihatlar servis sifatini baholash jarayonini murakkablashtiradi. Xizmat natijasi ko'pincha mijozning subyektiv qabul qilishi bilan belgilanadi, shu bois baholash mexanizmi ko'p o'lchamli indikatorlarga tayangan holda shakllantirilishi zarur. Bank amaliyotida servis sifati operatsion tezkorlik, hisob-kitoblarning aniqligi, xodimlar kompetensiyasi, kommunikativ madaniyat, raqamli interfeys qulayligi, axborot xavfsizligi darajasi hamda mijoz ishonchi bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur omillarning har biri alohida ko'rsatkich sifatida ahamiyat kasb etadi, biroq ularning integratsiyalashgan holda tahlil qilinishi servis sifatining haqiqiy holatini aniqlash imkonini beradi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda servis sifatini o'lchashga doir konseptual yondashuvlar shakllangan bo'lib, ular funksional sifat nazariyasi, texnik sifat konsepsiyasi, SERVQUAL modeli, mijoz qoniqishi indeksleri hamda sodiqlik ko'rsatkichlariga tayanadi. Biroq mazkur yondashuvlar umumiy xizmatlar sektori ehtiyojlaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan bo'lib, zamonaviy chakana bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasi sharoitida ularni qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Raqamli bank infratuzilmasining kengayishi servis sifatini faqat an'anaviy muloqot jarayoni bilan cheklab qo'ymasdan, platforma barqarorligi, tizim uzluksizligi, foydalanuvchi interfeysining intuitivligi kabi parametrlar bilan boyitishni talab etadi. Shu bilan birga, servis sifati ko'rsatkichlarini operatsion samaradorlik hamda bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq holda baholash masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Mamlakatimiz bank tizimida chakana segmentning kengayishi, aholi omonatlari hajmining ortishi, iste'mol kreditlashning faol rivojlanishi hamda masofaviy xizmat ko'rsatish ko'lamining kengayishi servis sifati monitoringini ilmiy asosda takomillashtirishni taqozo etmoqda. Amaliyotda servis sifati ko'pincha alohida ko'rsatkichlar asosida baholanadi, masalan mijozlar murojaatlari soni, so'rovnomalar natijalari, ichki nazorat hisobotlari. Bunday yondashuv strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli darajada kompleks axborot bermaydi hamda sifat omilining bank raqobatbardoshligiga ta'sirini to'liq aks ettirmaydi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi chakana bank xizmatlarida servis sifatini baholashning nazariy asoslarini chuqurlashtirish hamda o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida servis sifati tushunchasining iqtisodiy mazmuni aniqlashtiriladi, mavjud metodologik

yondashuvlar tanqidiy tahlil qilinadi hamda funksional, texnologik, kommunikativ, sodiqlik komponentlarini qamrab oluvchi integrallashgan baholash konsepsiyasi asoslab beriladi. Taklif etilayotgan yondashuv servis sifati monitoringini bankning operatsion samaradorligi, reputatsion barqarorligi hamda mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlar strategiyasi bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Chakana bank xizmatlarida servis sifatini baholash masalasi zamonaviy bank tizimini rivojlantirishda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalish xizmatlar marketingi, bank menejmenti va iste'molchi xulqi nazariyalari bilan chambarchas bog'liq.

Xizmatlar sifati nazariyasining asoslari marketing sohasidagi tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, Philip Kotler xizmat sifati va mijozlar ehtiyojlarini qondirish o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab bergan [1]. Uning yondashuviga ko'ra, xizmat sifati mijozlar qoniqishi va sodiqligini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Xizmatlar sifatini baholashning eng mashhur modellaridan biri SERVQUAL modeli bo'lib, u A. Parasuraman, Valarie Zeithaml va Leonard Berry tomonidan ishlab chiqilgan [2]. Ushbu model xizmat sifatini ishonchlik, tezkorlik, ishonch, empatiya va moddiylik kabi mezonlar asosida baholashni taklif etadi.

Bank xizmatlari sifatini baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda mijozlar tajribasi va xizmat ko'rsatish jarayonining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Xususan, Joseph Cronin va Steven Taylor tomonidan ishlab chiqilgan SERVPERF modeli xizmat sifatini natijaga asoslangan yondashuv orqali baholashni taklif etadi [3].

Zamonaviy bank tizimida servis sifati raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, elektron bank xizmatlari, mobil ilovalar va onlayn platformalar xizmat sifatining muhim ko'rsatkichlariga aylangan. Bu borada World Bank hisobotlarida raqamli moliyaviy xizmatlar sifati va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi bog'liqlik yoritilgan [4].

Shuningdek, Bank for International Settlements tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank xizmatlari sifatini baholashda risklarni boshqarish, xizmatlarning barqarorligi va mijozlar xavfsizligi muhim omillar sifatida qayd etilgan [5].

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan bank xizmatlari sifatini baholashda kompleks ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, unda xizmat tezligi, qulaylik, ishonchlik va xizmat ko'rsatish madaniyati asosiy mezonlar sifatida qaraladi [6].

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham chakana bank xizmatlari sifatini oshirish, mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlarni rivojlantirish va bank tizimida raqamli transformatsiyani jadallashtirish masalalari keng o‘rganilgan [7].

So‘nggi yillarda OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank xizmatlari sifatini baholashda mijozlar tajribasi, raqamli xizmatlar sifati va moliyaviy savodxonlik darajasi muhim ko‘rsatkichlar sifatida e‘tirof etilgan [8].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar asosida aytish mumkinki, chakana bank xizmatlarida servis sifatini baholash ko‘p mezonli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu esa xizmat sifati ko‘rsatkichlari tizimini ishlab chiqishda marketing, texnologik va institutsional omillarni birgalikda hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi [9].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot metodologiyasi chakana bank xizmatlarida servis sifatini baholash ko‘rsatkichlari tizimini ilmiy asosda shakllantirish, uni bank amaliyotiga moslashtirish hamda strategik boshqaruv jarayoniga integratsiya qilishga qaratilgan kompleks yondashuvga tayanadi. Tadqiqotning metodologik bazasi sifatida tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik usullar hamda empirik kuzatuv metodlari tanlab olindi. Bunda servis sifati mustaqil ko‘rsatkich sifatida emas, balki bankning umumiy raqobatbardoshligi, operatsion samaradorligi hamda mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlar strategiyasi bilan uzviy bog‘liq ko‘p omilli iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida nazariy manbalar tahlili asosida servis sifati tushunchasining evolyutsiyasi, uning xizmatlar marketingi va bank menejmenti doirasidagi talqinlari o‘rganildi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda shakllangan yondashuvlar umumlashtirilib, ularning chakana bank segmentiga mos jihatlari aniqlashtirildi. Shu asosda servis sifatini funksional, texnologik, kommunikativ hamda sodiqlik komponentlari kesimida o‘rganish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur bosqichda mavjud metodologik modellarning ustun va zaif tomonlari tanqidiy baholanib, integrallashgan ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish zarurati asoslab berildi.

Keyingi bosqichda empirik ma‘lumotlarni shakllantirish jarayoni amalga oshirildi. Tadqiqot obyekti sifatida chakana bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tijorat banklari tanlab olindi hamda ochiq moliyaviy hisobotlar, ichki operatsion ko‘rsatkichlar, mijozlar murojaatlari statistikasi hamda so‘rovnoma natijalari tahlil qilindi. Mijozlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar orqali xizmat tezkorligi, xodimlar malakasi, raqamli platforma qulayligi, axborot shaffofligi, xavfsizlik darajasi hamda umumiy qoniqish holati baholandi. Olingan ma‘lumotlarning ishonchliligi va reprezentativligi statistik mezonlar asosida tekshirildi.

Servis sifatini baholash indikatorlarini shakllantirish jarayonida ko‘p omilli guruhlash yondashuvi qo‘llanildi. Har bir komponent bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimlashtirilib, ularning bank faoliyati natijalariga ta‘siri o‘rganildi. Bunda subyektiv baholar bilan bir qatorda obyektiv operatsion ko‘rsatkichlarga alohida e‘tibor qaratildi. Masalan, tranzaksiyalarni bajarish tezligi, murojaatlarni ko‘rib chiqish muddati, raqamli tizimlar uzluksizligi, texnik nosozliklar chastotasi, mijozlarning takroriy murojaat koeffitsiyenti kabi parametrlar kompleks tahlil qilindi. Bu yondashuv servis sifatini faqat mijoz qoniqishi bilan emas, balki real operatsion natijalar bilan ham bog‘lash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida korrelyatsion va regressiv tahlil elementlaridan foydalanilib, servis sifati ko‘rsatkichlari bilan mijoz sodiqligi, depozitlar hajmi o‘sishi, kredit portfeli kengayishi hamda operatsion daromadlilik o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashtirildi. Segmentatsion yondashuv asosida turli mijoz guruhlari ajratilib, har bir segment uchun ustuvor sifat omillari belgilandi. Bu esa servis sifati monitoringini differensial boshqaruv vositasi sifatida qo‘llash imkonini berdi.

Tadqiqot metodologiyasining muhim jihati shundaki, unda sifat ko‘rsatkichlari statik holatda emas, balki dinamik rivojlanish jarayonida baholandi. Ko‘rsatkichlar vaqt oralig‘ida solishtirilib, ularning o‘zgarish tendensiyalari aniqlandi hamda strategik qarorlar qabul qilishda foydalanish imkoniyatlari asoslab berildi. Natijada chakana bank xizmatlarida servis sifatini baholashning tizimli, ko‘p darajali hamda amaliy boshqaruv ehtiyojlariga mos metodologik modeli shakllantirildi. Mazkur yondashuv servis sifatini bankning raqamli transformatsiyasi, operatsion barqarorligi hamda mijozga yo‘naltirilgan rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘un holda baholash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar

Chakana bank xizmatlarida servis sifatini baholash ko‘rsatkichlari tizimi asosida olib borilgan empirik tahlillar natijalari sifat omilining bank faoliyatidagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqot jarayonida chakana segmentda faoliyat yurituvchi tijorat banklari misolida ko‘p omilli baholash amalga oshirildi va servis sifati funksional, texnologik, kommunikativ hamda sodiqlik komponentlari kesimida o‘rganildi. Olingan ma‘lumotlar servis sifati ko‘rsatkichlari o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi hamda ularni alohida baholash yetarli analitik natija bermasligini isbotladi. Integrallashgan yondashuv qo‘llanilganda sifat darajasi bilan mijozlarning takroriy murojaatlari o‘rtasida barqaror ijobiy bog‘liqlik aniqlangan. Yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega banklarda depozit bazasining o‘sish sur‘ati ham izchil ekanligi kuzatildi. Bu natija servis sifati bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligiga ta‘sir etuvchi omil ekanini tasdiqlaydi. Shu bois servis sifati marketing vositasi sifatida emas, balki strategik boshqaruv kategoriyasi sifatida talqin qilinishi lozim.

Funksional komponent bo'yicha o'tkazilgan tahlillar operatsion tezkorlik, tranzaksiya aniqligi, kredit arizalarini ko'rib chiqish muddati, mijoz murojaatlariga javob berish tezligi hamda xodimlar malakasini qamrab oldi. Empirik natijalar operatsion tezkorlik indeksi bilan mijoz qoniqishi o'rtasida yuqori ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Kredit arizalarini ko'rib chiqish jarayoni tezlashgan banklarda mijozlarning takroriy murojaat ko'rsatkichi ham yuqori bo'ldi. Tranzaksiyalardagi aniqlik darajasi oshgani sari shikoyatlar intensivligi pasaygan. Xodimlarning professional tayyorgarligi yuqori bo'lgan banklarda kommunikativ sifat ko'rsatkichlari ham ijobiy dinamikani namoyon etdi. Bu omillar funksional sifat bank imiji va ishonchliligini shakllantirishda asosiy determinant ekanini tasdiqlaydi. Natijalar funksional sifatni boshqarish operatsion samaradorlikni oshirish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Texnologik komponent doirasida mobil ilovalar barqarorligi, internet banking uzluksizligi, tranzaksiyalarni tasdiqlash tezligi, interfeys qulayligi hamda axborot xavfsizligi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Raqamli platformalarda yuzaga keladigan nosozliklar mijoz ishonchiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tizim barqarorligi yuqori bo'lgan banklarda raqamli operatsiyalar ulushi ortib borgan. Interfeys qulayligi yuqori darajada baholangan banklarda mobil ilova orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni sezilarli ko'paygan. Axborot xavfsizligi bilan bog'liq xatarlarning pastligi esa mijoz sodiqligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Raqamli sifat ko'rsatkichlari pasaygan banklarda esa alternativ moliyaviy platformalarga o'tish holatlari ko'proq kuzatilgan. Ushbu natijalar texnologik sifat zamonaviy chakana bank modelida yetakchi rol o'ynashini asoslaydi.

Kommunikativ komponent tahlili mijoz bilan muloqot sifati, axborotning shaffofligi, xodimlarning muammolarni hal etish qobiliyati, maslahat berish darajasi hamda individual yondashuv mezonlari asosida amalga oshirildi. So'rov natijalari xodimlarning xushmuomalaligi va tushuntirish berish sifati mijoz qoniqishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Axborotning to'liq yetkazilishi bankka nisbatan ishonchni mustahkamlaydi. Muammolarni tezkor hal etish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan banklarda salbiy fikrlar ulushi sezilarli darajada past bo'ldi. Individual yondashuv amaliyoti joriy etilgan segmentlarda sodiqlik indeksi o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Kommunikativ sifatning pastligi esa texnik jihatdan mukammal bajarilgan xizmatning ham salbiy qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Bu esa servis sifati ko'p qatlamli va kompleks kategoriya ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Sodiqlik komponenti doirasida takroriy foydalanish darajasi, tavsiya koeffitsiyenti, uzoq muddatli hamkorlik ko'rsatkichlari hamda depozitlar barqarorligi o'rganildi. Yuqori servis sifati ko'rsatkichlariga ega banklarda tavsiya koeffitsiyenti ancha yuqori darajada shakllangan. Mijozlarning bank xizmatlarini boshqalarga tavsiya etish darajasi reputatsion kapitalning mustahkamlanishiga

xizmat qiladi. Takroriy kredit olish ko'rsatkichlari ham sifat darajasi bilan ijobiy bog'liqlikni namoyon etdi. Depozit portfelining barqaror o'sishi ham servis sifati bilan uyg'un rivojlanishi kuzatildi. Sodiqlik indeksi past bo'lgan banklarda esa mijozlar oqimi yuqori bo'lib, bu holat moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlangan. Natijalar servis sifati va mijoz sodiqligi o'rtasida barqaror tizimli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni umumlashtirish maqsadida ularning o'rtacha baholash natijalari tizimlashtirildi. Quyidagi jadvalda servis sifati komponentlari bo'yicha empirik baholash ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval


Chakana bank xizmatlarida servis sifati komponentlari bo'yicha o'rtacha baholash natijalari⁹²

Nº	Komponent nomi	O'rtacha baho (1-5)	Mijoz qoniqishiga ta'siri darajasi	Sodiqlik bilan bog'liqlik
1	Funksional sifat	4.3	Yuqori	Yuqori
2	Texnologik sifat	4.1	Yuqori	Yuqori
3	Kommunikativ sifat	4.0	O'rta-yuqori	Yuqori
4	Sodiqlik komponenti	3.9	O'rta	Juda yuqori
5	Integrallashgan indeks	4.1	Kompleks ta'sir	Barqaror

Jadval ma'lumotlari funksional va texnologik komponentlar ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Kommunikativ sifat ham sodiqlik shakllanishida muhim determinant sifatida namoyon bo'lmoqda. Integrallashgan indeks 4.1 darajada shakllangani servis sifati umumiy jihatdan barqaror ekanini anglatadi. Shu bilan birga ayrim banklarda kommunikativ ko'rsatkichlar nisbatan pastligi aniqlangan. Bu esa sifatni boshqarishda inson omiliga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Jadval natijalari integrallashgan baholash modeli amaliy jihatdan qo'llash mumkinligini tasdiqlaydi.

Komponentlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmini konseptual jihatdan ifodalash maqsadida quyidagi model taklif etildi.

⁹² Muallif ishlanmasi



1-rasm. Chakana bank xizmatlarida servis sifati komponentlarining o'zaro integratsiya modeli⁹³

Mazkur model servis sifati elementlari bir-biri bilan uzviy bog'langan yagona tizim sifatida shakllanishini ko'rsatadi. Funksional va texnologik sifat bank xizmatining asosiy infratuzilmasini tashkil etadi. Kommunikativ komponent esa mijoz tajribasining subyektiv qabul qilinishiga ta'sir etadi. Sodiqlik esa barcha komponentlar uyg'unligi natijasida shakllanadi. Modeldan ko'rinib turibdiki, bir komponentdagi o'zgarish umumiy sifat darajasiga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, servis sifatini kompleks boshqarish bankning raqobat pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Integrallashgan yondashuv asosida monitoring olib borish zaif nuqtalarni aniqlash imkonini beradi. Sifat indikatorlarini strategik rejalashtirish tizimiga kiritish bank rivojlanishining barqarorligini ta'minlaydi. Empirik natijalar servis sifati va moliyaviy samaradorlik o'rtasida izchil bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bois chakana bank xizmatlarida servis sifatini tizimli baholash bank boshqaruvining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Chakana bank xizmatlarida servis sifatini baholash ko'p mezonli yondashuvni talab etadi. Amaliyotda xizmat sifati odatda mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning tezligi, ishonchliligi, qulayligi va

⁹³ Muallif ishlanmasi

individuallashtirilgan yondashuv darajasi orqali aniqlanadi. Shu jihatdan bank xizmatlari sifati nafaqat operatsion samaradorlik, balki mijozlar ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmat sifati mijozlarning bankka bo'lgan ishonchi va sodiqligini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish jarayonida tezkorlik va aniqlik darajasi yuqori bo'lishi mijozlar qoniqishini oshiradi. Shu bilan birga, bank xodimlarining malakasi va mijozlar bilan ishlash madaniyati ham servis sifatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi servis sifatini baholash mezonlarini yanada kengaytirmoqda. Mobil ilovalar, internet banking va onlayn to'lov tizimlari orqali xizmat ko'rsatish tezligi va qulayligi sezilarli darajada oshmoqda. Bu esa mijozlar uchun vaqt tejaliishi va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, xizmatlar xavfsizligi va uzluksizligi ham servis sifatining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Raqamli xizmatlar kengayib borayotgan sharoitda ma'lumotlar himoyasi va moliyaviy operatsiyalar xavfsizligini ta'minlash banklar uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Umuman olganda, chakana bank xizmatlarida servis sifatini baholash quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: xizmat tezligi, qulaylik darajasi, ishonchlilik, xavfsizlik, mijozlarga individual yondashuv va raqamli xizmatlar sifati. Ushbu ko'rsatkichlar tizimi bank xizmatlarining umumiy samaradorligini baholash va ularni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari chakana bank xizmatlarida servis sifati bankning raqobatbardoshligi, mijozlar sodiqligi hamda moliyaviy barqarorligini belgilovchi strategik omil ekanini tasdiqladi. Servis sifati alohida ko'rsatkichlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro uzviy bog'langan funksional, texnologik, kommunikativ hamda sodiqlik komponentlaridan iborat kompleks tizim sifatida namoyon bo'ladi. Empirik tahlillar har bir komponentning umumiy natijaga ta'siri mavjudligini, biroq ularning integratsiyalashgan holda boshqarilishi samaradorlikni sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Ayniqsa, operatsion tezkorlik hamda raqamli platforma barqarorligi mijoz qoniqishi shakllanishida ustuvor determinant sifatida namoyon bo'ldi. Kommunikativ sifat mijoz tajribasining subyektiv qabul qilinishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Sodiqlik ko'rsatkichlari esa servis sifati natijalarining uzoq muddatli ifodasi sifatida shakllanishi asoslandi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan integrallashgan ko'rsatkichlar tizimi servis sifatini kompleks baholash imkonini berdi. Mazkur tizim bank boshqaruviga zaif nuqtalarni aniqlash, ustuvor yo'nalishlarni belgilash hamda

sifat monitoringini tizimli ravishda olib borish imkoniyatini yaratadi. Natijalar servis sifati ko'rsatkichlari bilan depozit portfeli barqarorligi, takroriy kreditlash darajasi hamda tavsiya koeffitsiyenti o'rtasida izchil bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa sifat omilining moliyaviy samaradorlik bilan bevosita aloqadorligini tasdiqlaydi. Servis sifatini boshqarish jarayonini strategik rejalashtirish tizimiga integratsiya qilish bankning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, tijorat banklarida servis sifatini baholash yagona metodologik standart asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun funksional, texnologik, kommunikativ hamda sodiqlik komponentlarini qamrab oluvchi integrallashgan indeks joriy etilishi zarur. Mazkur indeks bank ichki audit tizimi hamda risk-menejment jarayonlari bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Bu yondashuv sifat pasayishi bilan bog'liq potensial reputatsion xatarlarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, raqamli transformatsiya sharoitida texnologik sifat ko'rsatkichlarini ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish talab etiladi. Mobil ilova barqarorligini oshirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash, tranzaksiyalar tezkorligini ta'minlash bankning raqobat pozitsiyasini mustahkamlaydi. Raqamli servis sifati doimiy monitoring asosida baholanib, nosozliklar bo'yicha tezkor tahliliy hisobotlar shakllantirilishi zarur. Bu esa mijoz ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, kommunikativ sifatni oshirish maqsadida xodimlar malakasini muntazam ravishda takomillashtirish tizimi joriy etilishi lozim. Mijozlar bilan ishlash madaniyati, muammolarni hal etish kompetensiyasi hamda maslahat berish sifati bo'yicha maxsus trening dasturlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Inson omili servis sifatining muhim elementi ekanligi sababli xodimlar samaradorligini baholash tizimiga mijoz qoniqishi indikatorlari kiritilishi lozim. Bu yondashuv xizmat jarayonining subyektiv qabul qilinishini yaxshilaydi.

To'rtinchidan, mijoz sodiqligini oshirish strategiyasi servis sifati indikatorlari bilan bevosita bog'lanishi zarur. Takroriy foydalanish darajasi, tavsiya koeffitsiyenti hamda uzoq muddatli hamkorlik ko'rsatkichlari asosida segmentatsion yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Yuqori sodiqlik darajasiga ega mijozlar uchun individual xizmat paketlari shakllantirilishi bank daromadlilikini oshiradi. Past sodiqlik segmentlari bo'yicha esa sifat ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish zarur. Bu jarayon servis sifatini differensial boshqarish imkonini beradi.

Umuman olganda, chakana bank xizmatlarida servis sifatini baholash ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish bank boshqaruvining ustuvor

yoʻnalishlaridan biri boʻlishi lozim. Kompleks monitoring, tizimli tahlil hamda strategik integratsiya bankning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari servis sifati bank rivojlanishining barqaror modeli shakllanishida asosiy omillardan biri ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Kelgusida mazkur yoʻnalishda dinamik modellash hamda prognozlash usullarini qoʻllash orqali servis sifati va moliyaviy samaradorlik oʻrtasidagi bogʻliqlikni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Kotler P., Keller K. *Marketing Management*. – Pearson Education, 2016.
2. Parasuraman A., Zeithaml V., Berry L. *SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality*. – Journal of Retailing, 1988.
3. Cronin J., Taylor S. *Measuring Service Quality: A Reexamination and Extension*. – Journal of Marketing, 1992.
4. World Bank. *Global Financial Development Report*. – Washington DC, 2022.
5. Bank for International Settlements. *Sound Practices: Implications of FinTech Developments for Banks*. – Basel, 2018.
6. Ivanov V.V. *Banking Service Quality Management*. – Moscow: INFRA-M, 2020.
7. Abdullayev Sh.X. *Bank xizmatlari sifatini oshirish masalalari*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
8. OECD. *Financial Consumer Protection and Service Quality*. – Paris, 2023.
9. Rasulov A.A. *Bank xizmatlari statistikasi va tahlili*. – Toshkent, 2022.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



TURIZM BOZORI JOZIBADORLIGINI STATISTIK BAHOLASH VA UNI MARKETING STRATEGIYALARIDA QO'LLASH USLUBIYOTI

Isakova Naima Ikromjonovna

TDIU, Ekonometrika kafedrası PhD, dotsent

e-mail: noimaisakova@gmail.ru

Jumanova Zilola Tuychiyevna

TDIU, Ekonometrika kafedrası PhD, dotsent

e-mail: jumanovazilola10@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdá iqtisodiyotda turizm o'rnini statistik baholash va uni marketing strategiyalarida qo'llash uslubiyoti tahlil qilinadi. Turizmning to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita va multiplikativ ta'sirini baholashda qo'llaniladigan xalqaro standart usullar, jumladan Turizm yordamchi hisoblari (TYoH), koeffitsiyentlar usuli yoritilgan.

Kalit so'zlar: turizm statistikasi, marketing strategiyasi, Turizm yordamchi hisoblari (TYoH), to'g'ridan-to'g'ri ta'sir, bilvosita ta'sir, multiplikativ ta'sir, milliy hisoblar tizimi, ekonometrik modellashtirish.

МЕТОДОЛОГИЯ СТАТИСТИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ РЫНКА ТУРИЗМА И ЕЕ ПРИМЕНЕНИЯ В МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЯХ

Исакова Наима Икромжоновна

ТГЭУ, доцент кафедры «Эконометрика», PhD

Жуманова Зилола Туйчиевна

ТГЭУ, доцент кафедры «Эконометрика», PhD

Аннотация. В данных тезисах анализируется методология статистической оценки роли туризма в экономике и ее применения в маркетинговых стратегиях. Освещены международные стандартные методы, используемые для оценки прямого, косвенного и мультипликативного эффектов туризма, включая Вспомогательные счета туризма (ВСТ) и метод коэффициентов.

Ключевые слова: статистика туризма, маркетинговая стратегия, Вспомогательные счета туризма (ВСТ), прямое влияние, косвенное влияние, мультипликативный эффект, система национальных счетов, эконометрическое моделирование.

METHODOLOGY OF STATISTICAL ASSESSMENT OF TOURISM MARKET ATTRACTIVENESS AND ITS APPLICATION IN MARKETING STRATEGIES

Isakova Naima Ikromjonovna

TSUE, Associate Professor of the Econometrics Department, PhD

Jumanova Zilola Tuychiyevna

TSUE, Associate Professor of the Econometrics Department, PhD

Abstract. This abstract analyzes the methodology of statistical assessment of the role of tourism in the economy and its application in marketing strategies. It highlights international standard methods used to evaluate the direct, indirect, and multiplicative impacts of tourism, including Tourism Satellite Accounts (TSA) and the coefficient method.

Keywords: tourism statistics, marketing strategy, Tourism Satellite Accounts (TSA), direct impact, indirect impact, multiplicative effect, system of national accounts, econometric modeling.

Kirish

Turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini statistik baholashda qo'llanilayotgan xalqaro standartlardagi uchta asosiy usul — to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita va multiplikativ yondashuvlar nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar[1]ni o'lchashga, balki maqsadli marketing strategiyalarini aniq ma'lumotlar asosida (data-driven) shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, sohadagi to'g'ridan-to'g'ri ta'sirni hisoblovchi statistik usullar (turistlarning bevosita xarajatlari va mehmonxona tushumlari tahlili) strategik marketingda brendni aniq auditoriyaga yo'naltirish va segmentatsiyalash imkonini bersa, bilvosita va multiplikativ usullar (tarmoqlararo balans modeli va multiplikator koeffitsiyentlari) orqali turizmning turdosh sohalarga ta'siri prognoz qilinib, hududiy marketing hamda uzoq muddatli investitsion marketing kompaniyalarining iqtisodiy samaradorligi va daromadliligi (ROI) yuqori aniqlikda baholanadi[4].

Bizning fikrimizcha, turizmning iqtisodiyotdagi to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini baholashda eng mukammal statistik metod bu milliy hisoblar tizimidagi turizmning yordamchi hisobi (TSA) va uning jamlanma jadvallari bo'lib, u hududiy va tarmoqlararo marketing strategiyasini ishlab chiqish uchun eng ishonchli empirik poydevor hisoblanadi. Mazkur jamlanma jadvallar yordamida turistlarning haqiqiy iste'mol xulq-atvori va xarajatlar tarkibi aniq segmentatsiyalangan holda ochib beriladi, bu esa marketing kompaniyalarini real bozor talabiga moslashtirish, turistik mahsulotlarni to'g'ri holatda va reklama budjetlarini eng yuqori daromad keltiruvchi maqsadli auditoriyalarga yo'naltirish imkonini beradi.

Turizmning bilvosita o'rnini statistik baholashda qo'llaniladigan koeffitsiyentlar usuli har bir turdosh sohadagi turizm ulushini aniqlash orqali ko'p tarmoqli marketing strategiyasini (cross-marketing) to'g'ri shakllantirishga

xizmat qiladi; bu ma’lumotlar asosida sayyohlarning transport, umumiy ovqatlanish va hunarmandchilik kabi tarmoqlarga ta’siri o’rganilib, qo’shma marketing kampaniyalari tashkil etiladi. Shu bilan birga, turizmning iqtisodiyotdagi multiplikativ ta’sirini baholashda keng qo’llaniladigan ekonometrik modellashtirish usuli makroiqtisodiy tarmoqlar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni tahlil qilib, uzoq muddatli strategik marketing qarorlarini qabul qilish uchun zamin yaratadi. Ekonometrik modellar yordamida marketing iqtisodiy taraqqiyotida va bir qator omillarning salbiy ta’sirini bartaraf etishda innovatsion investitsiyalarning o’rni rivojlanishga hamda barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalarni kiritilishi iqtisodiyotda qayta ishlab chiqarishni ta’minlaydi[8]. Investitsiyalarining nafaqat turizm sohasiga, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga keltiradigan yakuniy samarasi va daromadliligi prognoz qilinib, brendni xalqaro miqyosda ilgari surishning eng optimal va yuqori samarali marketing strategiyalari tanlab olinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Turizm sohasining tarmoqlararo tabiati va uning iqtisodiyotga ta’sirini statistik o’lchash masalalari jahon iqtisodiyot fani va amaliyotida uzoq vaqtdan buyon dolzarb yo’nalishlardan biri bo’lib kelmoqda. Turizm iqtisodiyotini tahlil qilish va uning jozibadorligini baholashda milliy hisoblar tizimi (MHT) va uning uzviy qismi hisoblangan Turizm yordamchi hisoblari (TSA – Tourism Satellite Account) tizimining uslubiy asoslari BMT, Jahon turizm tashkiloti (UNWTO), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda Yevrostat kabi xalqaro tuzilmalar tomonidan konseptuallashgan.

Xalqaro iqtisodchi olimlardan L. Dwyer, P. Forsyth va R. Spierings o’z tadqiqotlarida turizmning iqtisodiy ta’sirini baholashda to’g’ridan-to’g’ri, bilvosita va multiplikativ yondashuvlarni tasniflab berganlar. Ularning fikricha, turistlarning birlamchi xarajatlari faqatgina boshlang’ich nuqta bo’lib, sohaning iqtisodiyotdagi real o’rnini aniqlash uchun tarmoqlararo balans modeli va Kiritish-Chiqarish tahlillari orqali multiplikativ effektlarni hisoblash zarur.

Turizmga ma’lumotlarga asoslangan marketing va bozor jozibadorligini targetlash masalalari D. Buhalis ishlarida keng yoritilgan. Buhalis turistik yo’nalishlarning raqobatbardoshligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aniq statistik ko’rsatkichlarning o’rni beqiyos ekanligini, statistik segmentatsiyalash orqali marketing budjetining rentabelligini bir necha barobarga oshirish mumkinligini isbotlagan.

MDH va mamlakatimiz olimlaridan N.T.Shomurodov, M.R.Boltaboev, M.Q.Pardaev kabi iqtisodchilar turizm infratuzilmasi, uning mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va milliy statistika amaliyotini takomillashtirish muammolarini tadqiq etganlar. Biroq, mahalliy adabiyotlarda

turizmning yordamchi hisoblari (TYoH) ko'rsatkichlaridan nafaqat makroiqtisodiy tahlilda, balki raqamli marketing strategiyalarini (cross-marketing, target marketing) shakllantirishda amaliy vosita sifatida foydalanish metodologiyasi tizimli ravishda tadqiq etilmagan va tarqoq xarakterga ega.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolaning uslubiy asosi sifatida tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, induksiya va deduksiya, guruhlash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining turizm bozori va uning statistik ko'rsatkichlari tizimi tanlab olingan.

Tahlil va natijalar

Turizmni rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlashda Turizm yordamchi hisoblari(TYoH) juda muhim va asosiy manbalardan biridir. Turizm yordamchi schyotlari hisobi deb ba'zi adabiyotlarda Satelistik schyotlar tushuniladi. Satellite ingliz tilidan tarjima qilinganda yo'ldosh degan ma'noni bildiradi, iqtisodiyotda bu yordamchi hisoblar ma'nosida qo'llaniladi. Turizm sohasining yordamchi hisoblari orqali tahlili qilinishiniing asosiy sababi turizm aniq bir tarmoqda joylashmaganligidadir. Turizm yordamchi hisobi jadvallar orqali turli tarmoqlardan ma'lumotlarini yig'ib keyin tahlil qiladi.

1-jadval

Turizmning to'g'ridan to'g'ri ta'sirini hisoblashda asosiy turizm ko'rsatkichlari[5]⁹⁴

	Turizm faoliyati	Hisoblash usuli	Hisoblash davri
1.	Kirishga oid turizm iste'moli	TYoH	yillik
2.	Ichki turizmga oid xarajatlar	TYoH	yillik
3.	Chiqishga oid turizm xarajatlari	TYoH	yillik
4.	Mamlakat ichidagi turizmga oid iste'mol	so'rovnoma	yillik
5.	Turizm tarmog'ida ishlab chiqarish hisobi	TYoH	choraklik
6.	Mamlakat ichidagi to'g'ridan to'g'ri turizm taklifi	TYoH	choraklik
7.	Turizm tarmoqlaridagi bandlik	so'rovnoma	yillik
8.	Turizm tarmoqlarida asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi	MHT	choraklik
9.	Jamoaviy turar joylar faoliyati	so'rovnoma	yillik
10.	Turizm rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	MHT	choraklik

Turizm yordamchi hisobi(TYoH) Milliy hisoblar tizimining muhim hisoblaridan biri bo'lib, uni O'zbekiston milliy statistika amaliyotiga to'liq joriy qilish hamda TYoH ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish

⁹⁴ Mualliflar ishlanmasi

iqtisodiyotimizning strategik sohasi hisoblangan turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish imkonini beradi.

Statistik ma'lumotlarni to'plashda va ularni sifati va reprezentativligini oshirishda o'ta muhim hisoblanadi. Ma'lumki, raqamli iqtisodiyot – bu yangi texnologiyalar, platformalar joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir.

Ba'zi jadvallar hisobotlar asosida boshqalari esa so'rovnomalar bo'yicha to'ldiriladi. Har bir jadvalda xalqaro standartlar talabiga ko'ra quyidagi tarmoqlar bo'yicha ma'lumotlar bo'lishi zarur.

2-jadval

Turizm ko'rsatkichlarini asosiy tarmoqlari bilan bog'liqligi[6]

1	Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari
3	Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari
4	Temir yo'lovchi transport xizmatlari
5	Quruqlikdagi yo'lovchi transporti xizmatlari
6	Suv yo'li transport xizmatlari
7	Havo yo'li yo'lovchi transporti xizmatlari
8	Transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari
9	Turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo'yicha boshqa xizmatlar
10	Turizm agentliklari xizmatlari
11	Ekologik va ma'muriy xizmatlar
12	Madaniyat sohasidagi xizmatlar
13	Rassomchilik xizmatlari
14	Muzeylar va boshqa madaniy xizmatlar
15	Sport va dam olish bo'yicha xizmatlar
16	Turizmga doir boshqa xizmatlar
17	Bank xizmatlari
18	Sug'urta xizmatlari
19	Pochta xizmatlari
20	Mahalliy korxonalarining xizmatlari
21	Konferensiya va ko'rgazma xizmatlari
22	Savdo xizmatlari
23	Umumiy iste'mol

BMT va WTO statistika standartlaridan foydalanish imkoniyati to'laroq va taqqoslash mumkin bo'lgan statistik tadqiqotlar o'tkazish, statistik bashoratlar tuzish, hududiy bo'linma miqyosida turizmga yordamchi hisob ishlab chiqish imkonini beradi. Turizmdagi statistik vazifalarga quyidagilar kiradi: tashrif buyuruvchilarni statistik tahlil qilish, turistik iste'mol va joylashtirish obyektlari faoliyati samaradorligini tahlil qilish; turizmga yordamchi hisob tuzish va h.k. Bu

muammolarni samarali hal etish uchun rivojlangan turizm infratuzilmasiga ega bo'lgan mamlakatlar statistik ishlanmalarining uzoq muddatli tajribasidan va shunga mos ravishda turizm statistikasidan foydalanish juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda turizm statistika kuzatuv o'tkazish uslubi endi shakllanish bosqichida. Mintaqaviy statistikasini rivojlantirishga yangi yondashuvlar yaratilmoqda, ular yangi statistik ko'rsatkichlar va hisobot shakllarini joriy etishni o'z ichiga oladi.

Ammo turizmni statistik qo'llab-quvvatlashda jiddiy muammolar hali ham aniqlanmoqda, ular quyidagilar bilan bog'liq: O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib, xalqaro turizm tashkilotlari[3], shu jumladan, statistika tashkilotlari oldidagi o'z majburiyatlarini bajarayotgan paytda yuzaga keladigan statistikaning bir qator metodologik muammolari hal etilmaganligi; O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni aks ettiruvchi ko'rsatkichlarning yo'qligi; axborotning “tarqoqligi”[2] va foydalanuvchilarning kerakli axborotni olishdagi qiyinchiliklari; statistik axborot olish va uni barcha manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etish bo'yicha qonunchilik bazasining mukammal emasligi; ijroiya hokimiyat organlarining statistik axborot resurslarini shakllantirish, takomillashtirish[7] va ulardan axborot olishda huquq va majburiyatlarini tartibga solinmasligi.

Xulosa

Turizm sohasida statistika hisobi va kuzatuv masalalariga ko'plab tadqiqotlar bag'ishlangan bo'lsa-da, bugungi kunda sohadagi ilmiy izlanishlar tarqoq va noto'liq xarakterga ega bo'lib, O'zbekistonda keng qamrovli uslubiy yordam hamda davlat organlari uchun yagona axborot-statistik qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish talab darajasida emas. Bunday mukammal statistik bazaning mavjud emasligi nafaqat makroiqtisodiy bashorat qilishni, balki ishonchli ma'lumotlarga asoslangan milliy marketing strategiyasini ishlab chiqishni ham qiyinlashtirmoqda. Zero, turizm bozorini tizimli rivojlantirish uchun davlat darajasidagi yagona statistik tizim o'z vaqtida to'liq ma'lumotlarni yetkazib berishi shart; bu ma'lumotlar xalqaro bozorda mamlakat turistik brendini pozitsiyalash, maqsadli auditoriyalarni (target marketing) aniq belgilash, raqamli marketing kampaniyalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va xorijiy turistlarni jalb qilishga qaratilgan strategik marketing qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish uchun birlamchi poydevor vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

7. Shodiev X. va Xabibullaev I. Statistika: darslik//– T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2019.-454 b.

8. G‘oyibnazarov B.K., Kolonova L. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. - T.: 2007.– 106 b.
9. A.X. Pardayev, A.N.Norchaev. Xalqaro turizm. -Darslik. – T.: TDIU, 2010 y -260 b.
10. D.M.Demioz and S.Ongan (2005), The contribution of tourism to long run Turkish economic growth, Ekonomicky Casopis, 9, pp. 880-894
11. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi.
12. Z.T.Jumanova “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida turizm o‘rnini statistik tadqiqotini takomillashtirish” 2026 y. 136 b.
13. Z.T.Jumanova “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida turizm o‘rnini statistik tadqiqotini takomillashtirish” 2026 y. 136 b.
14. N.I.Isakova “Investitsiyalarning korxonalar faoliyatiga ta’sirini statistik baholash” 2026 y. 161 b.

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13



Tashkent, Uzbekistan



ilmiymaktab@gmail.com



www.laboreconomics.uz